83.3g(50)
B-88

Zaynobidin Abdirashidov
Nodira Egamqulova



BORAR YO'LING TURKISTONDIR...

BORAR YO'LING TURKISTONDIR...
Zaynobidin Abdirashidov
Nodira Egamqulova

83.3Q(5O)
B-86

BORAR YO‘LING TURKISTONDIR...

Toshkent
Akademnashr
2023

UDK: 821.512.133.09(091)
BBK: 83.3g(5O')

B 86 **Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulova.**
Borar yo'ling Turkistondir... [Matn] / Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulova – Toshkent: «Akademnashr», 2023. - 352 b.

ISBN 978-9943-8348-9-7

UDK: 821.512.133.09(091)
BBK: 83.3g(5O')

So'zboshi muallifi, to'plab, izohlar va lug'at bilan nashrga tayyorlovchilar:
Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulova

XX asr o'zbek milliy uyg'onish harakati – jadidchilikning yorqin vakillarining hamon dolzarbligini yo'qotmay kelayotgan uyg'oq fikrlari aks etgan ushbu to'plamga milliy va tashqi davriy nashrlarda e'lon qilingan safar xotiralari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga doir maqolalar, adabiy materiallar kiritildi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiyning qator maqolalari va «Farg'ona xotiralari»ning davomi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ismoil Obidiy, Ahlulloh Haybullin, Mo'minjon Muhammadjonov, Ahmadjon Bektemirov maqolalari, Abdurauf Muzaffarzoda qalamiga mansub tanqidiy maqolalar hamda «Ong umidlari» hikoyasi ilk bor e'lon qilinmoqda.

Ushbu nashr XX asr ijtimoiy-siyosiy va adabiy tafakkurining shakllanishi, milliy uyg'onish davri bilan qiziquvchi mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-8348-9-7

© Zaynobidin Abdirashidov,
Nodira Egamqulova
«Borar yo'ling Turkistondir... »
© «Akademnashr», 2023

TURKISTONDA VAQTLI MATBUOT VA IJTIMOIY TAFAKKUR

XX asr Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan xalqlar uchun bir qadar muvaffaqiyatli boshlandi. Rossiya Yaponiya bilan bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj ola boshladi va imperator 1905-yil oxiriga kelib barcha siyosiy kuch va guruhlarga erkinlik beruvchi Manifest e'lon qilishga majbur bo'ldi. Manifestning asosiy nuqtalaridan biri so'z erkinligini ta'minladi. Bu imkoniyatdan foydalangan turli xalqlar va siyosiy qatlamlar o'z matbuotlariga asos soldilar. Xususan, Turkiston milliy matbuotining yuzaga kelishida ham yuqoridagi Manifest asosiy turtki bo'ldi. Mazkur Manifest 3 banddan iborat bo'lib, birinchi: fuqarolarga so'zda, dinda, yig'inda, jamiyatda erkinlik berilishini; ikkinchi: siyosiy partiya va davlat dumasi ta'sis etilishini; uchinchi: barcha qonunlar Davlat dumasida joriy qilinishini nazarda tutardi. Butun Rossiya aholisi Manifestni iliq qarshi oldi, unga umid bog'ladi. Imperiyaning turli nuqtalarida chop etiluvchi gazetalarda Manifest haqida maqolalar e'lon qilindi, matbuot ishlarida jonlanish kuzatila boshlandi. Avloniyning xabar berishicha, Manifestdan so'ng 1905 – 1917-yillar oralig'ida o'lkada o'zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal nashr etilgan.

TerDU ARM
№ 433330

Matbuot jadid adabiyotini g'arb hamda qardosh maslakdoshlari bilan bog'lab turuvchi ko'prik bo'ldi. 1905-yil voqealari, xususan, Turkistonda matbuot ishlarining yo'lga qo'yilishi bilan turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan bo'lgan aloqalar yanada mustahkamlandi. Ahamiyatli tarafi shundaki, ko'pchilik qardosh taraqqiyparvarlar turkistonliklar bilan aloqa o'rnatibgina qolmay, bevosita Turkistonga kelib matbuot, maorif, teatr, huquq va ko'plab sohalarda turkistonliklar bilan yelkama-yelka turib faoliyat olib borishdi, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishdi. Bir qancha sabablar bilan Turkistonga kelib, shu yerda yashab qolgan qardosh tatar-boshqird xalqlarining Turkistonda faoliyat olib borgan tatar muharrirlari sifatida Ismoil Obidiy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yovushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makayev, Kabir Bakir, Fotih Bakirlarni misol qilish mumkin. Xuddi shunday, Ozarbayjondan kelib ish olib borgan Muhammad Amin Afandizoda, Jalol Yusufzoda, Piriy Mursalzoda kabi fidoyilar o'zbek publitsistikasi rivojiga ulkan hissa qo'shishgan. Yuqorida nomlari keltirilgan zotlar birgina matbuot sohasida emas, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qizg'in faoliyat olib borishgan, Turkistondagi jadidchilik harakatining rivojiga o'z hissalarini qo'shishgan. Biroq haligacha bu kabi turk, tatar, boshqird ziyolilarining Turkistondagi faoliyati yetarlicha o'rganilgan emas. Ularning ko'pchiligi sarson-sargardonlikda, quvg'inda hayot kechirishgan. Misol uchun, Abdurauf Shahidiy, Husayn Makayevlar ham usuli jadid maktablari ochgani uchun Qozondan quvg'in qilingan, Namangan va Qo'qonda

yashab qolgan pedagog hamda noshirlardir. «Sadoyi Turkiston»ning eng faol muharriri Abdurauf Muzaffarzoda esa turli tazyiqlar sabab Toshkent, Buxoro, Turkmaniston va shunga o'xshash ko'p joylarda ko'chib yurishga majbur bo'lgan. Tatar farzandi Kabir Bakir (1880 – 1938) 1917-yil fevral o'zgarishlaridan so'ng Toshkentga kelgan va «Ulug' Turkiston» gazetasini chiqargan. Ahmadjon Bektemirov, Nuriddin Sayfulmulkov, Mahmud Budayli kabi publitsistlar «Vaqt» gazetasining muxbiri sifatida Turkistonga kelib ish olib borishdi. Turkistonda bo'layotgan yirik voqealarni, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi turkum maqolalar yaratishdi. Vaqtli matbuotimizda uchraydigan «Sayyoh», «Bir musofir», «Samarqandiy», «Buxoroli», «A.F.», «Qardosh», «Muxbir» kabi imzolar aynan Turkistonda faoliyat olib borgan tatar, turk muxbirlariga tegishli edi. Shu bilan birga, turkistonlik jadidlar M.Behbudiy, M.Shermuhammedov, Cho'lpon, Mo'minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoyevlar «Tarjimon», «Sho'ro», «Vaqt», «Ulfat» kabi tashqi davriy nashrlarda faol ishtirok etishdi. Turkistonda ham «Tarjimon», «Mulla Nasriddin», «Iqbol», «Turk yurdu», «Sho'ro» mushtariylari ko'paydi. Jumladan, Orenburgda nashr etilgan «Sho'ro» (1908 – 1918) jurnalining sahifalari ham turkistonlik va tatar ziyolilarining fikr almashish va aloqa maydoni bo'lgan edi. Behbudiy, Cho'lpon, So'fizoda, Hoji Muin, M.Shermuhammedov, Sadriddin Ayniy, Lutfullo Olimiy, Ajziy, M.Muhammadjonov, Rojiy Xolmuhammad Oxundiy kabi taraqqiyparvarlarning ushbu jurnaldagi muntazam ishtiroki ham bunga dalil bo'la oladi. Umuman olganda, ushbu gazeta-jurnallar Turkiston mat-

buoti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishdi, yo'l-yo'riq ko'rsatishdi. B.Qosimov so'zlari bilan aytganda, Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, dindosh turk olamiga chiqdi. Matbuot bilan bir qatorda adabiy aloqa va ta'sirlar ham shakllanib bordi. Vadud Mahmudning ta'biricha, «bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyoti taqlidi bilan boshlang'ondir. ...ruhda va shaklda Turkiston, Qafqozyo, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir».

20-asr boshlarida Turkistonda «Turkiston viloyatining gazeti»dan tashqari ziyolilar orasida Usmonli Turkiyasi, Eron, Hindiston, Misr va ayrim Yevropa mamlakatlarida nashr qilingan gazetalar keng tarqalganini kuzatish mumkin. Bu holatga, bir tarafdan, rus va mahalliy hukumatlar tarafidan joriy qilingan pochta tizimi imkon yaratgan bo'lsa, boshqa tarafdan, minglab hajdan qaytayotganlar, savdogarlar va boshqa toifalar turli mamlakatlardagi nashrlarni olib kelganlar. Rus byurokratik apparati uchun senzura o'zgarmas qonuniyat bo'lishiga qaramay, mintaqaga olib kirilayotgan barcha nashrlar uchun to'liq to'sqinlik qilishdan ojiz edi.

«Tarjimon» gazetasi va Turkiston: ilk rasmiy munosabat

Gasprinskiy 1883-yil fevral oyida «Tarjimon» gazetasini nashr qilish uchun ruxsat olgandan so'ng uni imkon qadar ko'proq joylarda tarqatish yo'llarini qidira boshladi. Ostroumov ustozi N.Ilminskiyga «Tarjimon»ning birinchi sonini ko'rib sochlarini ham yulishga tayyorligini yozganli-

giga qaramay, «Turkiston viloyatining gazeti»dagi faoliyatining dastlabki yillarda «Tarjimon» gazetasiga hech qanday e'tibor bermadi va u haqida o'z qarash va fikrlarini ochiqlamadi. Ostroumov Gasprinskiy bilan oldindan yozishma olib borganligi va uning asarlari bilan yaqindan tanish bo'lganligiga qaramay, ayrim hollarda u bilan tanish emasligiga ishora ham qilgan edi. «Tarjimon»ning dastlabki ikki yili davomida butun Turkistonda 200 ga yaqin obunachisi bor edi. O'sha yillari, Buxorodan kelgan xabarlarga ko'ra, «Tarjimon» qo'ldan qo'lga o'tib o'qilgan edi.

Ruslar xalqning madaniyatliligi bevosita uning amaldagi vaqtli matbuot nashrlari bilan belgilanadi deb aytishlariga qaramay, amalda g'ayriruslarga nisbatan bu holni inkor etdilar va e'tiborga olmadilar. Turkiston rus ma'muriyati faqat «rus intelligensiyasi» potensiali aqliy rivojini o'stirishga va bu borada aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor qaratdi. Ivan Geyer Sirdaryo viloyatidagi ruslar tarafidan olinadigan vaqtli matbuot nashrlari statistikasini tahlil qilar ekan, ushbu nashrlarni mutolaa qiladigan shaxslar guruhini mamlakatning ma'naviy rivoji karvonboshilari deya ta'riflaydi. Bu kabi tahlillarda mahalliy xalq manfaatlari umuman e'tiborga olinmadi.

Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri hisoblangan «Turkiston viloyatining gazeti» Rossiya imperiyasida turkiy tilda chop etilgan ilk gazetalardan biri edi. Turkistonda milliy matbuot chop etilgan ikki qisqa vaqtni (1906 – 1908 hamda 1912 – 1917-yillar) inobatga olmasa, rasmiy gazeta O'rta Osiyoda mahalliy tilda chiqadigan yagona nashr edi. Adib Xolidga ko'ra, «Turkiston viloya-

tining gazeti» o'lkaning global va imperiya kontekstidagi holati haqidagi o'z qarashlarini ifoda qilmoqchi bo'lgan turkistonlik ziyolilarning asosiy minbari bo'lib xizmat qildi. Lekin «Turkiston viloyatining gazeti» musulmonlar hayotida muhim rol o'ynaganiga qaramay, o'ta konservativ bo'lib, jadidchilikning har qanday ko'rinishiga dushmanlik ko'zi bilan qarar edi. Shu sababdan ham ruslar tarafidan tahrir qilingan «Turkiston viloyatining gazeti»ni haqiqiy «musulmoncha» gazeta deb hisoblash mumkin emas. Ushbu tadqiqotlarda Ostroumovning «Turkiston viloyatining gazeti» mazmunini tor sart adabiyoti va tiliga moslashtirishi masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Ayrim tadqiqotlarda esa Ostroumov gazetasining O'rta Osiyo madaniyati hayotidagi roli ancha baland ko'rsatiladi.

Adib Xolid fikricha, «Turkiston viloyatining gazeti» roli ikkiyuzlamachilik va qarama-qarshilikka asoslangan. Ushbu gazetani nashr qilishdan ko'zlangan dastlabki maqsad «mahalliy aholini general-gubernatorning barcha farmoyishlaridan xabardor qilish» va «tijorat hamda Toshkent va boshqa shaharlarda sodir bo'lgan turli voqealar haqida xabarlar» chop etishdan iborat edi. Yuqoridagi u qadar «qiziq» bo'lmagan xabarlar qatorida «Ming bir kecha»dan parchalar hamda rus vaqtli matbuotidan olingan turli xabarlar ham berilar edi.

1875-yildan boshlab gazeta o'z o'quvchilaridan kelgan maktublarni hamda zamon haqidagi «foydali ma'lumotlar»ni nashr qilishni joriy etdi. Ostroumovning yozishicha, «foydali ma'lumot»lar turli davlatlar geografiyasi va ular haqidagi ma'lumotlar, havo sharlarida issiq havodan foy-

dalanish, temir yo'l va telegraf, paxta hamda ipak qurti yetishtirish haqida ko'rsatma va hokazolarni qamrab olgan. «Mahalliy xabarlar» ruknida esa mahalliy xalqning faqat yomon jihatlarini ko'rsatishga qaratilgan jinoiy ishlar haqidagina xabarlar keltirilgan.

Mahalliy aholi rus tilini o'rganishga u qadar ishtiyoq ko'rsatmayotganidan tashvishga tushgan Kaufmanning vorislari marhum general-gubernator olib borgan siyosatdan biroz chetlashishga harakat qila boshladi va 1883-yili «Turkiston viloyatining gazeti»ga Ostroumovning muharrir etib tayinlanishi ushbu o'zgarishlarning ilk qadami bo'ldi. G'ayrirus mahalliy aholiga rus tilini chuqurroq singdirish ruslashtirish siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri edi. Yangi muharrir Ostroumov boshchiligida «Turkiston viloyatining gazeti» rus ma'muriyatining mahalliy xalqni «ehtiyotkorlik va uzoqni ko'zlab ma'rifatli qilish»ni nazarda tutgan yangi siyosatining qandaydir quroli sifatida maydonga chiqishi kerak edi. Va shu maqsadda gazeta bir vaqtning o'zida ham o'zbekcha va ruscha nashr qilina boshlandi. Turkiston rus ma'muriyati rasmiylari rus sharqshunosligi osiyoliklarni ma'rifatli qilishi mumkin va bu ishni shunday amalga oshirishi kerakki, g'ayriruslarning manfaatlari mustabid chor imperiyasi manfaatlari bilan mos kelsin degan fikrda edilar. Shu maqsadda «Turkiston viloyatining gazeti» «foydali ma'lumotlar» sonini ikki baravar ko'paytirdi. Lekin, Adib Xolidning ta'kidlashicha, bu ma'lumotlar siyosiy jihatdan xavfsiz edi.

Adib Xolidning yozishicha, «Ostroumov Gasprinskiy bilan, onda-sonda bo'lishiga qaramay, uzoq vaqt yozishma

olib borgan. Ushbu ikki muharrir nashrlari bilan almashib turish barobarida matbuotda ham, yozishmalarida ham yuqori darajada iltifotli bo'lishgan». Lekin, bizningcha, Ostroumov bilan Gasprinskiyning aloqalari Xolid tasavvur qilganidek «o'ta silliq» bo'lmagan.

Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi

Hukumatga qarashli bo'lmagan mahalliy tildagi birinchi gazeta 1906-yili Ivan Geyer tarafidan chiqarila boshladi. Bu gazetaning asosiy maqsadi mahalliy xalqni yangi siyosiy qarashlar va fikrlar bilan tanishtirish deb belgilangan edi. Ma'lumot tarzida yana shuni ham eslab o'tish kerakki, Turkistonda istiqomat qilgan ruslar jamiyatida xususiy va mustaqil matbuotga 1890-yilda Samarqandda asos solingan. Ivan Geyerning «Taraqqiy – O'rta Osiyoning umr guzarligi» gazetasi asosan rus gazetalaridan olingan xabarlarni tarjima qilib qayta nashr etdi. Shunga qaramay, bu gazeta rus ma'muriyati nuqtayi nazaricha nomaqbul bo'lgan shaxslar, ya'ni mahalliy ziyolilar uchun o'z fikrlarini izhor qilish imkoniyatini berdi. Bu bilan I.Geyerning gazetasi mahalliy ziyolilarning anchadan beri amalga oshirishga harakat qilib kelayotgan maqsadlari – siyosiy dialogga qo'shilishlariga yo'l ochib berdi. Bu gazetaning 17 soni chiqqandan so'ng moliyaviy muammolar tufayli yopildi. I.Geyerning gazetasi mahalliy ziyolilar faoliyatlarining keyingi bosqichini belgilash va aniqlash uchun katta turtki berdi. «Taraqqiy – O'rta Osiyoning umr guzarligi» gazetasi qisqa vaqt ichida butun Turkiston bo'ylab tarqalganiga qaramay, g'oyaviy jihatdan

general-gubernator chizib bergan chiziqdan chiqa olmadi. Shu sabab gazeta qisqa muvaffaqiyatdan so'ng o'quvchilarini yo'qota boshladi va tez orada faoliyatini tugatishga majbur bo'ldi. Ushbu gazeta so'z erkinligining birinchi nishonasi sifatida qaralsa ham, aslida, uning «jadidlarni laqillatish uchun» rus hukumati tomonidan nashr etilgan hukumat gazetasi ekanligini unutmaslik kerak. «Tarjimon»da ham Manifest xususida bir qancha qaydlar uchraydi, bu maqolalarda Manifestning asosan shaxs va so'z erkinligi bandiga urg'u berilib, u «pek bir ta'minot va saodatdur» deb ta'riflanadi. Bir qarashda Manifest o'lka xalqlariga erkinlik olib kelgan, Rusiyadagi inqilob va tartibsizliklarga barham bergandek tasavvur uyg'otadi. Lekin Manifestdan keyin chiqqan gazetalarning bir yilga ham bormay hukumat tomonidan to'xtatilishi, muharrirlarning turli xil so'roq va jarimalarga tortilishi ushbu «erkinlik»ning haqiqiy mohiyatini ochishga yordam beradi. Manifestning birinchi qurboni bo'lgan «Taraqqiy» o'zining ilk sonidayoq bu «hurriyat»ning «to'shak ustida og'zig'a suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekani»ni ochiq-oydin yozdi va bu bilan «hukumat va uning ma'muriyatiga qarshi o't ochdi». Ushbu Manifest bergan «zaif va lanj» hurriyatga andarmon bo'lib qolmay, dindoshlarini kurashishda davom etishga chaqirdi. Bu maqola Manifestning soxta yuzini ochib tashladi, shuning barobarida, rus hukumatining senzura siyosati, yerli xalqlarni barcha huquqlardan mosuvo etib kelayotganligi, matbuot va maorif ishlarida doimiy to'siq ekanligi kabi ko'plab «yopiq» masalalarni qo'zg'ab qo'ydi. «Taraqqiy» o'zining bu maslagi bilan uzoqqa borolmasligini ham yaxshi bilardi, Turkistondagi barcha

nashrlarning taqdiri qanday tugashini sezgani uchun ham u «o'z tomiriga bolta uruvchi» maqolalar berishdan cho'chimadi. «Taraqqiy» haq gaplarni aytdi, biroq turkistonlik musulmonlarning aksar qismi Manifestning mohiyatiga to'liq tushunib yetmadi, zarra uchqunni alangalatib yuborolmadi. Manifestda aytilgan Duma, saylov, deputat tushunchalarini to'liq anglab, (birinchi) Duma majlislarida ishtirok etishga huquqiy bilimlari yetadigan vakillar (6 nafar bo'lishi kerak edi) topilmadi. Ikkinchi Duma vakillari ham diplomatik munosabat o'rnata olmaganlari, «...so'zi fuqaro nafi va hukumat zararig'a bo'lgani uchun» Dumadan chiqarib yuborildi. Va turkistonliklar va sibirliklar uchinchi Dumaga vakil yuborish huquqidan mahrum qilindilar. Behbudiy bu holatni tahlil qila turib «ahli huquqdan va dorul funundan» chiqqan siyosat ilmidan xabardor vakil yuborilmaganligi turkistonliklarning eng katta xatosi deb bildi: «Haqiqata ayb o'zimizni nodonligimizdandur. Chunki beilmmiz, ya'ni ilmi siyosat, iqtisod va qonuni ijtimoiyadan butun bexabarmiz». 1905-yil oktyabr Manifestidan so'ng jadidchilik o'zining rivojlanish bosqichiga o'tdi. Manifestdan keyin usuli jadida maktablarini darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlash, gazeta va jurnallar chop etish ehtiyoji bilan matbaa ishlari ko'lami ham kengayib bordi. Tabiiyki, o'lkada mavjud eng mashhur bosmaxonalar rus amaldorlari va savdogarlariga tegishli bo'lgan. XX asr boshlarida birgina Samarqandning o'zida 16 ta bosmaxona bo'lgan bo'lsa, ularning barchasi rus ma'murlari tomonidan tashkil qilingan edi. Ular, odatda, o'z faoliyatini uzoqroq davom ettirish maqsadida bir-birlari bilan birlashib, sherikchilik qilishgan. 1907-yilda Sliyanov-

Gazarov bosmaxonasi aka-uka Ignatovlar matbaasi bilan birlashib, Sliyanov-Gazarov va K bosmaxonasini tashkil etadilar. «Oyina» jurnali ham aynan shu Sliyanov-Gazarov bosmaxonasida chop etilgan edi. Keyinchalik bu nashriyot Demurov tipo-litografiyasiga qo'shilib, yagona yirik poligraf bazasiga aylanadi. Jadidlarning ko'plab asarlari shu kabi bosmaxonalarda dunyo yuzini ko'rgan. Asta-sekin ularning o'zi ham kichik-kichik nashriyot shirkatlari tuza boshlagan. «Maktab», «Ravnaq», «Nashriyot», «G'ayrat» matbaalari shular jumlasidandir. Matbuotda ham «Nashriyot», «G'ayrat» jamiyatlariga yo'llangan bir nechta tabrik-maqolalar uchraydi. Bu litografiyalar texnik jihatdan mukammal bo'lmay, mahalliy aholi ham yetarli malakaga ega emas edi. Ularda asosan darsliklar va kam nusxada risolalar chiqarilgan. Jadidlar orasida Avloniy, Munavvarqori, Mahmudxo'ja Behbudiylar himmatli mulkdorlar ko'magi bilan matbaa ishlarini yurgizishgan.

Turkistonlik jadidlar gazetani birinchi navbatda taraqqiyot belgisi hamda ilm tarqatish manbasi sifatida qabul qildilar. Ular gazetaning asl mohiyati va maqsadini turlicha talqin qildilar. O'z vaqtida Gasprinskiy gazetaning asosiy maqsadi haqiqat va ma'rifatga xizmat qilish deb belgilagan edi. Turkistonlik ma'rifatparvarlar jurnalistik faoliyatlarining ibtidosida gazetani jamiyatning «kasali»ni davolovchi tabibga qiyosladilar. Oradan qisqa muddat o'tib esa matbuot jamiyatning kamchiliklarini muntazam tanqid qila boshladi va «jamiyatning haqiqiy» yo'lboshchisiga aylana bordi. Gazeta, Gasprinskiyning ta'kidlashicha, faoliyatining asosiy qirralarini ifoda etish, maqtash va tanqid qilishdan

iborat bo'lishi kerak. Gasprinskiy o'z izdoshlariga muayyan muammoni yoritishda yuqoridagi uch asosiy yo'nalishni bir maromda ushlash kerakligini maslahat berdi. Uning yozishicha, ular «tanqid – tarozu, davo va yog'du» kabidir. Behbudiy gazetaning mohiyatini aniqlashda Gasprinskiyning aynan yuqoridagi fikr va maslahatlariga amal qilganini kuzatish mumkin.

Turkiston jadidlarining oldilariga qo'ygan maqsadlariga yetishish uchun kurashga zo'r berishlari, ya'ni Ziyo Said yozganidek, konservativ fikrga qarshi «jihod» e'lon qilishlari I.Geyer gazetasidan so'ng Ismoil Obidiy tarafidan tashkil etilgan «Taraqqiy» gazetasida boshlandi. O'zbek mustaqil matbuotining tamal toshi sifatida e'tirof etiluvchi «Taraqqiy» gazetasi 1906-yil 14-iyunda Toshkentning O'ratepa ko'chasida Ismoil Obidov muharrirligida nashr ettirilgan. «Osiyoyi Vustaning maishatidan bahs» qiluvchi gazeta ilmiy, adabiy, siyosiy, fanniy, tijoriy mavzularda maqola va xabarlar e'lon qilgan. Gazeta shiori «Najot: maslakda sabot; to'g'riliqni ijobat» bo'lgan. Gazeta V.M.Ilin tipo-litografiyasida chop etilgan. «Taraqqiy» gazetasi faoliyati xususida shu kungacha bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, ularda keltirilgan fikrlarning ko'pchiligi bir-birini to'ldiradi, ta'kidlaydi. «Elning eng suyib o'qiydurg'on» (A.Avloniy) gazetasiga o'z davrining yetakchi yalovbardorlari I.Gasprinskiy hamda A.To'qayev ham xayrixoh bo'lishgan. Cho'lpon gazetani o'z nomi bilan taraqqiyparvar gazeta deb baholagan. Avloniyning keltirishicha, «gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo'lg'on Ismoil Obidiyga «Taraqqiy» ismi berildi». Gazeta

o‘z sahifalarida «yerlik yosh yozuvchilarg‘a» (Avloniy) keng o‘rin bergan. Ammo, hukumatga hamda ulamoga qattiq tegadigan uslubda, ehtiyotsizlik bilan faoliyat olib borgan, bu, o‘z navbatida, gazeta umriga zomin bo‘lgan. «Taraqqiy»ning bor-yo‘g‘i 19 soni chiqqandan so‘ng hukumat tomonidan musodara etilib, muharriri qamoqqa olingan o‘zining bo‘y ko‘rsatishi bilan Turkistondagi mustamlakachi ma’muriyatni tahlikaga solgan «Taraqqiy»ning umri uzoqqa bormadi. Avvalboshdanoq hukumatning nishonida turgan gazeta o‘zining tutgan maslagi bilan chor amaldorlari, ulamo va boylarning noroziligiga uchradi va «favqulodda saqlash qo‘li bilan o‘ldirildi». 1906-yil 6-sentyabrdan Toshkentning Zanjirli mahallasida Munavvarqori Abdurashidxonov noshirligida «Xurshid» nashr qilina boshladi. Ushbu gazetaning maslagi ham «Taraqqiy»niki singari edi. Munavvarqori gazetani «... turkcha jaridayi islomiya» deb tavsiflaydi. Obidiy gazetasini keyinchalik «Sharq» deb nomlash istagida ham bo‘lgan edi. «Taraqqiy» o‘zidan oldingi nashr bilan juda ko‘p jihatdan umumiylikka ega edi. Faqat uning siyosiy qarashlari biroz keskinroq va Adib Xolidning ta’kidlashicha, Ivan Geyer gazetasini o‘ta qiynab qo‘ygan «til kamchiliklari»dan yiroqroq bo‘ldi. Ismoil Obidiyning «Taraqqiy»si birinchi sonidan, Ziyo Said ta’kidiga ko‘ra, «Ostroumov tarafida bo‘lgan» konservativ ulamoga nisbatan o‘ta keskin tarzda «hujum» qila boshladi. Ehtimol, gazetaning aynan mana shu uslubi uning hukumat tarafidan yopib qo‘yilishiga asosiy sabab bo‘lgandi. Chunki Gasprinskiy «Taraqqiy» gazetasining yuqoridagi uslubi va yo‘nalishidan u qadar qoniqmagan edi va buni ochiq namoyon ham qilgan. U «Taraqqiy»

muharriri barcha sohalarda mukammallikka ega emasligini ochiq tarzda yozdi. Shunga qaramay, Gasprinskiy Ismoil Obidiyni «Turkiston viloyatining gazeti» tarafidan bo'lgan «hujumlar»dan himoya qildi. Obidiyning gazetasi 19 sondan so'ng nojoiz materiallarni chop etganlik aybi bilan sud tomonidan yopib qo'yildi.

«Taraqqiy» gazetasining yopilishidan bir necha hafta o'tib Munavvarqori «Xurshid» gazetasini tashkil qildi. Bu gazeta ham «Taraqqiy» yo'nalishining davomchisi bo'ldi. Lekin Munavvarqori Obidiydan farqli o'laroq, o'z maqolalarida Rossiya va qo'shni davlatlarda sodir bo'layotgan siyosiy voqealarni yoritishga ko'proq urg'u berdi. Aftidan, «Xurshid»ning bu yo'nalishi Gasprinskiyning siyosiy qarashlariga mos tushgan ko'rinadi. Gasprinskiy «Xurshid»ni «sof milliy» gazeta deb hisoblaydi va uning «Turkiston viloyatining gazeti»dan o'ta farq qiladigan «tili» bilan faxrlanadi. Zaki Validiyning yozishicha, Ostroumov o'z gazetasida «sart tili»ni tatar va qozoq tillaridan ajratishga moslashtirilgan til yaratishga harakat qilgan. O'z navbatida, Gasprinskiy ham yangi tatar gazetalarini adabiy til o'rniga ko'cha tilini tarqatayotganlikda ayblab, ularning «tili»ni juda qattiq tanqid qildi. Turkistonlik jadidlar esa, aksincha, Gasprinskiy targ'ib qilgan «o'rta til»ni qo'llashga harakat qildilar. Shu sababdan ham Gasprinskiy Turkiston gazetalarining «tili»ni boshqalarga o'rnak sifatida ko'rsatish uchun «Xurshid» gazetasining birinchi sonidagi asosiy maqolani «Tarjimon»da qayta nashr qildi. «Xurshid» gazetasi yopilguniga qadar «Tarjimon» undan tahririyat nuqtayi nazariga mos keladigan ko'plab xabar va maqolalarni qayta nashr qilib bordi. Munavvarqorining

gazetasi 1906-yil 13-noyabrga qadar «yashadi» va 10 sonidan so'ng hukumat uni «aksilhukumat yo'nalish»dagi nashr aybi bilan yopib qo'ydi. Keyinroq Abdulla Avloniy, tatar Ahmadjon Bektemirov va Munavvarqorilarning umumiy tashabbusi bilan tashkil etilgan «Shuhrat» va uning davomchisi «Osiyo» ham aynan yuqoridagi ayblov bilan yopildi. «Osiyo» gazetasi 1908-yil 21-may kuni taqiqlandi. 1907-yil 21-avgustdan Toshkentda Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li tomonidan «Tujjor» gazetasi nashr etila boshlandi. «Tujjor»ning yo'li boshqa gazetalarnikiga o'xshamasligi aytib o'tiladi: «... g'azetamizning ismi «Tujjor» o'lg'oni uchun tijorat xususida ham foydalik maqolalar yozib har xil mol va ajnoslarning har viloyatda bo'lg'on baholaridin ma'lumot bermak ila savdogar ahlilarina xizmat qilur». Ushbu maqolada Turkistondagi nashr ishlari xususida ham munosabat aks ettirilgan. Matbuotni «oyinayi jahonnamo» deb, o'z ona tilida nashr etilgan gazetasi bo'lmagan xalqni esa «vahshiy» va go'yo «eshiksiz qorong'u uy»da xurshidi madaniyatdan bebahra, tilsiz, quloqsiz yashamoqqa sabab bo'lishini aytadi. Millatdoshlarini shunday ahvoldan qutqarish uchun «g'azeta nashr etmak kabi og'ir va nozik vazifa»ni o'z zimmasiga olganligini ta'kidlab, bu yo'lda dindoshlarining moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlariga umid bog'laydi. «Tujjor»ni turkistonliklarning «ko'zlari, tillari, quloqlari, ... buyuk bir advokatlari» deb ta'riflaydi. Xuddi shu maqolada «Taraqqiy» va «Xurshid» gazetalarining «hukumati hozirag'a muxolif o'lg'onlari» ochiq-oydin yozilgan holda, «Tujjor» «... Russiya davlatining do'sti va tarafchisi» deb bong uriladi. Hamda bu do'stlik «din va diyonatga zarar

TerDU ARM
№ 433 330

etmaslik sharti ila» deb xaspo'shlab qo'yiladi. Yana muallif «... «Tujjor»ni ham hukumat to'xtatur» deb xavfsirash o'rinsiz ekanligini o'z mushtariylariga ishonch bilan ta'kidlab o'tadi. O'z o'rnida gazetaning muxlislari tomonidan ham xuddi shunday ruhdagi javob maktublari yo'llangan. Unda «Tujjor»ning nashr etilishi g'arb tarafdan ko'ringan nurga qiyoslangan. Maktub muallifi «... siyosat ilmiga biz usta» deb hukumatga qarshi chiqishda ayblangan «Taraqqiy» va «Xurshid»ga «tosh otish»ni ham yodidan chiqarmagan. Ushbu sobiq gazetalarning tutgan yo'lini hukumat bilan sichqon-mushuk o'ynashmoqlik deb baholaydi. Ularni «... butun Turkiston musulmonlarini begazeta...» qoldirganlikda ayblaydi. Siyosatga til tekkizmay, ulamoni tanqid etmay, faqat «ahvoli maishat»dan so'zlab, silliqlik bilan ish ko'rishni bosh maslak qilib olish kerakligi haqida uqtiradi. Maktub so'ngida «Tujjor»ning to'xtamay davom etishiga tilak bildiradi. «Tujjor» o'z dasturiga, tutgan yo'liga ko'ra boshqa gazetalardan farqlanib turardi. Biroq bu alohidalik uning mashhurligiga xizmat qilmadi, aksincha, uning sahifalari o'quvchilarni keng jalb qila olmadi. Ziyo Said bu holatni keskin ravishda gazetaning «bemazaligi»dan deb baholaydi. Tadqiqotchi B.Do'stqorayev Z.Saidning bu munosabatida biroz mubolag'a borligini, mutlaqo salbiy baho berilganini ta'kidlab, «Tujjor»ning keng ommalashmaganligiga sabab sifatida uning alohida qatlamga mo'ljallanganligi va mavzu doirasining cheklanganligini ko'rsatadi. Vaziyatga umumiy yondashadigan bo'lsak, nafaqat «Tujjor», balki o'sha vaqtlarda Turkistonda nashr bo'lgan barcha gazetalar taqdiri shunday yakun topgan. «Tujjor»ning 20-sonida uning vaq-

tincha to‘xtatilish sababi bayon qilingan «E’tidor» nomli kichik e’lon uchraydi. Unda muharrir o‘ziga tegishli zarur ishlari bilan «O‘rinburg‘ga borib kelmoqni iroda ayla»ganligi, gazetani ikki hafta muddatga to‘xtatib qo‘yilishi aytiladi. Ziyo Saidning so‘zlariga ko‘ra, toshkentlik Mullo Hoshim domlaning yelib-yugurishi bilan gazeta 36-sonigacha chiqadi. Keyinchalik 36-sonidan so‘ng gazeta obunachilari yo‘qligi sababli o‘z-o‘zidan «tabiiy o‘lim» topdi. «Tujjor»ning davr adabiy jarayonidagi rolini undagi felyeton ruknida keltirilgan sayohat xotiralaridagi tasvir kuchi, tanqidiy maqolalardagi keskinlik, she’riy parchalardagi badiiylik bilan belgilash mumkin. 1908-yil may oyida «Tujjor»ning yopilishi bilan Turkistonda milliy mustaqil matbuot faoliyati tugatildi. Bu ishda, ayniqsa, Chor oxrankasi o‘ta jonbozlik ko‘rsatdi.

Turkiston tuman oxrankasi «shiddat bilan kelayotgan tahlika»ni his etib, uning ildizi sifatida turkistonliklarning yosh milliy, taraqqiyotga moyil matbuotini ko‘rdi va uni tag-tomiri bilan yo‘q qilishga qaror qildi. «Tarjimon»ning turkistonlik o‘quvchilari milliy matbuotning yo‘q qilinishida birinchi navbatda «Turkiston viloyatining gazeti» va uning ortida turgan Ostroumovni aybdor deb bildilar. Ostroumov turli davlat tashkilotlariga yuborgan ma’lumotlarida ushbu ishga bosh qo‘shganligi hamda o‘lkada «Tarjimon» gazetasini taqiqlashga harakat qilganligini aytib o‘tadi. Bu masala yuzasidan u Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi bilan yozishma olib borgan va undan «Tarjimon»ning mintaqada rus manfaatlari uchun zararligi to‘g‘risida raport olishga qattiq harakat qilgan.

Turkistonda vaqtli matbuot va adabiyotning ijtimoiylashuvi

Matbuotning 1906 – 1908-yillarda kechgan birinchi davridan so'ng 1909 – 1912-yillar matbuot ishlarida jimlik hukm sura boshladi. Shu bois 1906 – 1912-yillarda kechgan adabiy jarayon shakllanishida hukumat gazetasining ulushi ko'proq seziladi. 1906-yildan Turkistonda milliy matbuotning birinchi davri boshlandi va bu davr 1908-yilgacha davom etdi. 1906 – 1908-yillarda chiqqan gazetalarda eng sermahsul ishtirok etgan mualliflar misolida Munavvarqori, Behbudiy, Avloniy, Mullo Zulfiqor, Shokir Muxtorov, Ahmadjon Bektemirov, Damashqiy, Sulaymon Tohiriy, «Qalamkash»ni keltirish mumkin. E'tiborlisi, bu vaqtdagi nashrlarda anonimlik kam bo'lgan. Bunga felyeton rukniga adabiy parchalarning keng kiritilmaganligi, maqolalarda kinoyaviylik, satirik bo'yoqdorlikning kuchli emasligi sabab bo'lishi mumkin. Biroq, boshqa felyetonlardan farqli o'laroq, Ruh tilidan hikoya qilinuvchi «Ruh va avomcha» felyetoni xayoliy-fantastik hikoyaga yaqin turadi. Hikoya avvalida Ruh o'zining bir vaqtlar «shaytonga ham dars beruvchi» bir imom badanida makon tutganini bayon qiladi. Hozirda esa bu badandan ozod bo'lib, imom bilan birga bo'lgan vaqtda bajargan amallarini, guvohi bo'lganlarini so'zlab bermoqchi bo'ladi. Hikoyada Ruh go'yoki imom nomidan o'zining barcha ayblarini tan oladi va «zarardan bo'lak hech yo'l ko'rsat»maganligini bildiradi. Bu hikoya gazetaning tanqidiga shaylanib turgan o'rinda «sodiq» raqiblariga chap berib o'tadigan uslubda yozilgan. Go'yoki o'quvchi tasavvu-

rida imom emas, ruh salbiy obraz sifatida gavdalantirmoqchi bo'lingan. Albatta, ushbu felyetonni nisbiy ravishda xayoliy hikoya deb qarashimiz to'g'ri bo'ladi. Aytib o'tganimizdek, milliy nashrlarimizning birinchi davrida she'riy parchalar ham u qadar ko'p uchramaydi, borlari ham gazetaga tabrik sifatida yozilgan bir xil yo'nalishdagi she'rlardir. Faqatgina «Shuhrat»da biroz boshqachalikni ko'rish mumkin. Ya'ni, boshqa nashrlardan farqli o'laroq, «Shuhrat» 9-sonidan 6 sahifali bo'lib chiqa boshlaydi va felyeton ruknidan tashqari «Qismi adabiy» rukni tashkil etiladi. Garchi bu rukn gazetaning faqatgina bir sonidan joy olgan bo'lsa-da, o'sha vaqtdagi milliy gazetalarimiz orasida ilk hodisa bo'lgan. Undan Tursunxo'ja Homidxo'ja o'g'lining «Shuhrat»ga bag'ishlab yozilgan muxammasi, Abdulla Avloniyning «Tafakkur ila ko'z ochsak ajib zamonadamiz» deb boshlanuvchi musaddasi, Mullo Qo'shoq o'g'li Miskinning «Shuhrat»ni madh etuvchi «Rijoyi ojizona» muxammasi o'rin olgan. Yuqorida aytganimizdek, boshqa gazetalarda ham xuddi shunday madh, bag'ishlov she'rlar ko'p uchraydi. Aynan shu yillarda felyeton ruknida sayohatlar ham berib borilgan. Behbudiyning «Xotiroti Farg'ona» hamda «Farg'ona xotiralari» sayohatnomalari 1907-yil 3 – 12-dekabr kunlari Farg'ona viloyatining bir qancha shaharlariga qilgan safar taassurotlaridan iborat. Bu shunchaki sayohat bo'lib qolmay, Farg'ona viloyatiga qarashli Xo'qand, Andijon, Marg'ilon, Yangi Marg'ilon, Skobelev hamda Samarqand viloyatidagi Xo'jand shaharlarida ochilgan usuli jadid maktablarining o'qitish tizimi, muallimlar malakasi, o'quvchilar bilimi, maktab binosi, sharoitlar, darsliklar va o'qitilayot-

gan fanlar sifatini o'rganish, tekshirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida uyushtirilgan jiddiy safar edi. Behbudiy safar davomidagi kuzatishlari, tahlillarini, tanqidiy fikrlarini bir necha nashrda qismlarga bo'lib e'lon qilgan. Uning bir qismi «Turkiston viloyatining gazeti»da e'lon qilingan. Unda Andijondagi usuli jadid maktablari xususida kuzatuvlari keltirilgan. Maktab muallimlarining hatto gazetani tanimasliklari, ta'lim tilining o'quvchilarga tug'dirayotgan murakkabliklari haqida to'xtalib o'tgan. Behbudiy samarqandlik hamrohi Abdulhamid mutavalli bilan birgalikda Eski Marg'ilon, Yangi Marg'ilon (Skobelev), Xo'jand shaharlaridagi usuli jadid maktablari bilan tanishadi. Xususan, Eski Marg'ilondagi jadid maktabidan ko'ngli to'lmaganligini, uning faqat nomigina jadid maktabi bo'lib, aslida, «buzulg'on qadim» darajasida ekanligini yozadi. Tahsil oluvchilar qiroat, hisob, jug'rofiya ilmidan bexabar, hatto muallim ham savollarga javob berolmaganligi Behbudiyni «jadiddan asar yo'q» degan xulosaga olib keladi. Behbudiy suhbat asnosida muallimga yo'l-yo'riq va maslahatlar berib, ikki kitob hadya qiladi. Bu yerdan Skobelevga o'tib, musulmonlar uchun qurilgan 5-6 masjid va maktablar haqida xabar beradi. Muruvvatpesha boylardan Hakimboy hoji tomonidan qurilgan maktab ishlari bilan yaqindan tanishadi. Mulla Muhammad ismli muallim ta'lim berayotgan jadid maktabi Behbudiyda yaxshi taassurot qoldiradi. Ushbu maktabning Andijon va Marg'ilonda ko'rgan maktablaridan «ma'nan behroq»ligini yozadi. Biroq 50 nafardan ortiq talabaga bir muallim kifoya qilmasligini, bir xalifa tayin etish lozimligini uqtirib, «jug'rofiya o'qutmoqig'a va xarita oldurmoqlarig'a»

maslahat berib, sayohatida davom etadi. Shundan so'ng Xo'jand shahrida Usta Tursun qurdirgan maktabda bo'ladi. Ushbu jadid maktabida alifbo, tajvid, hisobdan boshqa kitoblari usuli qadimga oidligini ko'radi. Muallim hoji Mirhusaynning Hijoz, Istanbul, Hindistonga borganligi, yaxshigina xat-savodli ekanligi, jug'rofiyadan yaxshi xabardor bo'lsa-da, bolalarga nega jug'rofiya o'qitmayotganligi bilan qiziqadi. Va ushbu muallimga ham bir qancha maslahatlar berib o'tadi. Behbudiy ushbu sayohati davomida yana Xo'jand hokimi Likoshin to'ra bilan ko'rishganini va Likoshin o'zi «tarjima qilgan asarlaridan bir-ikki nusxa» esdalik berib, o'z o'rnida Behbudiy ham unga kitoblar hadya qilganligini aytadi. Behbudiyning Xo'jandda shoir va adib Toshxo'ja eshon (Toshxo'ja Asiriy (1864 – 1915) bilan bo'lgan uchrashuvi ham ayni shu sayohatnomada keltirib o'tilgan. Xo'jandning e'tiborli kishilaridan qori Abdulg'affor, mulla Do'stmuhammad va mirzo Abdurahmon bilan ham suhbatda bo'ladi. Behbudiy mazkur sayohati to'g'risidagi ayrim tafsilotlarni «Tarjimon» gazetasida ham e'lon qilgan. Umuman, Behbudiyning ushbu qisqa muddatlik safar tafsilotlarini bir necha nashrda e'lon qilishdan ko'zlagan maqsadi, bizningcha, ko'proq o'quvchiga yetib borishi, «bayoni haqiqat va sababi ibrat va islohdan iborat» bu safar davomida kuzatilgan kamchilik va muammolarga birgalikda yechim topishga chaqiriq edi deb aytish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiy umri davomidagi barcha sayohatlari tafsilotlarida vatandoshlariga ularning ayanchli ahvolini, xatolarini ko'rsatishga harakat qilgan. Uning mashhur «Sayohat xotiralari» ham millatdoshlari uchun ochiq-oydin ko'rsatma

bo'lgan. «Farg'ona xotiralari»dan farqli o'laroq, unda yuksak badiiylik, «qiziqarli va yengil tilda yozilgan» ifodani ko'ramiz. Umuman olganda, jadidlarning sayohatnomalari, yo'l xotiralari ta'limiy-tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan, muhim dasturulamal vazifasini o'tagan. Xalqning ongini ochuvchi kalit vazifasini bajargan matbuot jadidlar uchun o'z g'oyalarini targ'ib etuvchi minbar bo'lgan. 1906 – 1908-yillarda chop qilingan gazetalarning har biri millatni uyg'otish, xalqni jipslashtirish, uning milliy e'tiqodini yuksaltirish maqsadida ish olib bordi. Ushbu gazetalar nashr etilishida jonkuyarlik qilgan M.Abdurashidxonov, M.Behbudiy, Fansurullo Xudoyorxonov, A.Avloniy, U.Xo'jayev, M.Poshshaxo'jayev, N.Husayinov, N.Xo'jayev, aka-uka Komil va Karim Norbekovlar, S.Tursunxo'jayev kabi taraqqiyparvarlarning xizmati katta bo'lgan. Ularning ba'zilari gazetaning tashkiliy masalalarida qo'llab-quvvatlab turgan bo'lsalar, aksariyati uni o'tli maqolalar, muhim yangiliklar, siyosiy-ijtimoiy fikrlari bilan jonlantirib turganlar. Bu barcha harakatlar faqat bir maqsadga – turkistonlik vatandoshlarini ilm-ma'rifatli qilishga, hurriyatga olib chiqishga qaratilgan edi. Xalqning siyosiy ongini o'stirishga qaratilgan maqolalar, jamiyat orasida ilmning ahamiyatini targ'ib qilishga chorlovchi felyetonlar jamiyatning barcha qatlamlarigacha ta'sir o'tkazdi. Bu ta'sirning natijasini matbuotning ikkinchi davridagi nashrlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek milliy matbuotining ilk davridagi gazetalar taqdiri ayanchli kechgan bo'lsa-da, ushbu nashrlar Turkiston xalqining fikriy uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Undagi har bir maqola zulmga qarshi kurashish yo'lida bir mayoq vazifasini

o'tadi. Ushbu nashrlarning hech bir yozgani beiz ketmadi. Uning ovozi o'zidan keyin chiqqan matbuot sahifalarida aks sado berib turdi. Milliy matbuot har doim hukumat nazoratida faoliyat yuritdi. Amalda so'z erkinligi, matbuot erkinligiga yo'l berilmadi. Aksincha, turli yo'llar bilan matbuot ishlariga xalal berib kelindi. Moddiy tanqislik va ma'naviy zarbalar, siyosiy tazyiqlar natijasida 1909-yillarga kelib matbuot ishlarida jimlik hukm sura boshladi.

1912-yildan matbuot o'zining ikkinchi davrini boshladi. «Buxoroyi sharif», «Samarqand», «Oyina», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «Hurriyat», «Al-isloh», «Al-izoh» kabi gazeta va jurnallar milliy matbuotning yangi davrini boshlab berdi. Albatta, ushbu muvaqqat nashrlarning adabiy jarayonda tutgan o'rni birinchi davr nashrlaridan jiddiy farq qiladi. Bu farqni, avvalo, adabiyotga doir ruknlar safi kengayganligida ko'rish mumkin. Agar ilk nashrlar felyeton rukni bilan cheklangan bo'lsa, endi bu davrga kelib «Felyeton», «Kichik felyeton», «Adabiyot», «Ash'or» kabi ruknlar paydo bo'la boshladi. Shu o'rinda bir jihatni e'tiborga olish kerakki, ushbu sanab o'tilgan ruknlar doimiy bo'lmay, ular gazetaning ayrim sonlarida, ba'zi bir gazeta yoki jurnallarda umuman uchramasligini kuzatish mumkin.

1906 – 1908-yillar orasida nashr qilingan to'rt gazeta qisqa muddat ichida Turkiston jadidlarini milliy va diniy o'z-o'zini anglash yo'lidan borayotgan kuch sifatida namoyon qilib ulgurdi. Bu urinishlar davomida ular bevosita «Tarjimon»ning til birligi, ta'lim muassasalarining islohi va boshqa shunga o'xshash tashabbuslaridan ozuqa olganligini ham aytib o'tish kerak. O'z navbatida, «Tarjimon»

gazetasi ham, uning yozishicha, taraqqiyotga xizmat qilgan Turkiston gazetalarini qo'llab turdi va yosh muharrirlarni turli tazyiqlardan, ayniqsa, ularni turkistonliklar so'zlashadigan «sart tili»ni buzishda ayblagan hamda ularni ta'qib qilishga bosh bo'lgan Nikolay Ostroumovdan himoya qildi. Gasprinskiy Ostroumovning Turkistonda olib borayotgan ishlaridan o'ta noroziligini hech qachon yashirmadi va uni boshqalarning ishiga sababsiz «burun suqish» va shaxsni hurmat qilmaslikda aybladi.

Matbuot: til va ta'lim siyosati

Buxoro amirligida, rus Turkistonidan farqli ravishda, birinchi matbuot nashri O'rta Osiyoda gazeta nashr qilina boshlagandan deyarli yarim asr vaqt o'tibgina paydo bo'ldi. Ostroumov «Turkiston viloyatining gazeti»da Gasprinskiyning 1893-yilgi Turkiston sayohati davomida Buxoro amiri Abdulahadxon bilan bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng amir Gasprinskiyning Buxoroda gazeta nashr etish taklifiga rozilik bildirgani haqida xabarni tarqatgan edi. Gasprinskiy bu xabar paydo bo'lishi bilan darhol uning noto'g'ri xabar ekanligini e'lon qildi. Albatta, bu kabi noto'g'ri xabarlar Gasprinskiyni Turkistondagi ayrim «tayanch nuqtalari»dan mahrum qilishga qaratilganini ko'rish qiyin emas. Buxoro jadidlari, keyinroq «Yosh buxorolilar» nomini olgan taraqqiyparvarlarning faoliyati 1910-yildan keyin ancha jonlangani kuzatiladi. Ular dastlab ayrim sohalarda, xususan, ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirishga targ'ib qildilar va amirlikning turli shaharlarida yangi

usul maktablarini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratdilar. Ma'lumki, Buxoro amiri Rossiya siyosiy agentligining ruxsatisiz hech qanday mustaqil siyosat yuritishga haqqi yo'q edi. Amirlikdagi barcha siyosiy masalalar albatta rus siyosiy agenti bilan maslahat qilinar edi. Bu vaziyatni juda yaxshi anglagan Mirzo Muhiddin va Mirzo Siroj Hakim kabi buxorolik taraqqiyparvarlar yahudiy savdogari Levi (Levin) yordamida Buxoroda gazeta chiqarish zarurligini rus siyosiy agentiga «uqtira» oldilar. Ular o'zlarining gazeta nashr etish istaklarini mamlakat aholisini Rossiya imperiyasi bilan yaqindan tanishtirish hamda Rossiya fabrikalari uchun paxta yetishtirishda yuqori ko'rsatkichlarga erishishga ko'maklashish kabi dalillar bilan isbotlashga harakat qildilar. Ular mana shu dastur asosida rus siyosiy agentidan gazeta nashr qilish uchun amirdan ruxsat olishga yordam berishni so'radilar. Shu tariqa Buxoro amirligida birinchi matbuot nashri paydo bo'ldi. Bu Kogon (Yangi Buxoro) da 1912-yil 11-mart kuni birinchi soni chiqqan fors tilidagi «Buxoroyi sharif» gazetasi edi. Ushbu gazeta 1912-yil 14-iyulga qadar haftada bir marta, keyin esa haftada to'rt marta nashr qilinadigan bo'ldi. «Tarjimon» bergan xabarga ko'ra, «Buxoroyi sharif»ning ta'sischisi 6 rus, 6 buxorolik va 3 eronlik ishtirokida tashkil etilgan qo'shma shirkat bo'lgan. A.Samoylovichning ta'kidlashicha, aynan mana shu shirkat gazeta nashrini moliyalab turgan va bu maqsadda 9 ming rublga yaqin mablag' to'plagan.

«Buxoroyi sharif» Mirjalol Yusufzoda muharrirligi ostida nashr qilindi. Bakudan bu lavozimga taklif qilingan M.Yusufzoda u yerdagi «Ittihod» maktabida diniy darslar

berish barobarida «Haqiqati afkor» gazetasining muharriri vazifasida faoliyat olib borgan M.Yusufzoda «Buxoroyi sharif»da «Haqiqati afkor»da targ'ib qilgan g'oyalarni yoyishga urindi. Lekin gazetaning asosiy muharriri vazifasini Rossiya siyosiy agentligi tarafidan tayinlangan, agentlik tarjimoni Haydarxo'ja Mirbadalov bajardi.

1912-yil iyul oyidan «Buxoroyi sharif»ga ilova tarzida o'zbek (turkiy) tilida «Turon» gazetasi nashr qilina boshlandi. Ushbu gazeta haftada 2 marta chiqib turdi va o'sha yilning sentyabr oyida mustaqil nashr sifatida faoliyat olib bordi. «Turon»ga muharrir qilib 1906 – 1911-yillarda Turkiyada tahsil olgan va Istanbuldagi buxoroliklar Jamiyatining faol a'zolaridan biri bo'lgan G'iyos Usmonov tayinlandi. Buxoro gazetalari xalq orasida qisqa vaqt ichida ancha shuhrat topdi. Ushbu ikki gazeta umumiy shaklda 2600 obunachiga («Buxoroyi sharif» – 800, «Turon» – 1800) ega edi.

1913-yil yanvar oyiga kelib «Buxoroyi sharif» va «Turon» gazetalari Rossiya siyosiy agentligi yordamida bevosita amir tarafidan yopib qo'yildi. Buxorodan «Tarjimon»ga kelgan xabarlarga ko'ra, gazetalarning yopilishiga asosiy sabab Rossiya haqida tanqidiy maqola nashr qilinganligi bo'ldi. Buxoroliklar gazetalarning yopilishida ruslarning ishtiroki bo'lmagan deb hisobladilar. Ular gazetalarning to'xtatilishiga bevosita o'zlarining nomaqbul ishlari oshkora bo'lishidan xavfsiragan Buxoro ma'murlarini aybladilar. O'rta tilda nashr qilingan ushbu gazetalarning yopilishiga munosabat bildirgan Gasprinskiy ularni amirlikdagi madaniyat va taraqqiyot namunasi deb qaradi va gazetalarning qayta faoliyatini boshlashiga doir amirdan oqilona qaror bo'lishi-

ga ishondi. Afsus, gazetalar qayta nashr qilinishiga ruxsat berilmadi.

1913-yil aprel oyida Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tarafidan, Ziyo Said ta'rifiga ko'ra, samarqandlik jadidlarning to'ng'ichi bo'lgan «Samarqand» gazetasi ta'sis qilindi. Behbudiy gazetani o'z mablag'i hisobiga chiqardi va 5 oydan so'ng moliyaviy qiyinchilik tufayli uni to'xtatishga majbur bo'ldi. Gazeta 45-sonidan so'ng qayta chiqmadi. Gasprinskiy «Samarqand» gazetasining yopilishi haqidagi xabarni berar ekan, undan juda afsusda ekanligini yozgan edi. «Behbudiy, – yozadi u, – gazeta nashrini juda kuchli g'ayrat bilan boshlagan edi, ammo turkistonliklar orasida o'z tillaridagi gazeta uchun 1000 obunachi topilmadi». To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo) «Samarqand» gazetasi yopilgan kunni «milliy motam kuni» deb e'lon qildi. Bu haqida «Tarjimon»ga yuborgan maqolasida shunday yozadi: «Turkistonda bizning birgina gazetamiz bor edi. Gazetaning yetarli obunachilari topilmay 1000 rubl zarar ko'rishi oqibatida to'xtashga majbur bo'ldi. Biz, 10 millionlik Turkiston aholisi, birgina gazetani qo'llab-quvvatlay olmadik. Bu bizni taraqqiyotning qaysi yo'lidan ketayotganimizni va bu ishni qanday tushunishimizni, anglashimizni ko'rsatadi. Vatandoshlarimiz luzumsiz tadbirlarga katta mablag'lar sarflagani holda bir gazeta sotib olishga qurblari yetmaydi».

Gasprinskiy turkistonliklarni tevarak atroflarida nimalar sodir bo'layotganidan bexabar qolgan «As'hobi kahf» (g'or ahli)ga o'xshatadi. Behbudiy gazeta faoliyatini to'xtatishi haqida bergan xabari ortidan qo'qonlik taraqqiyparvarlar gazeta tahririyatiga 500 rubl va 200

obunachi ro'yxatini yubordilar. Lekin bu kabi yagona tashabbuslar «Samarqand» gazetasini qaytadan tiriltira olmadi. Behbudiy Gasprinskiyga yo'llagan maktubida gazetaning faoliyatini davom ettirish uchun taraqqiyparvarlar shirkat tashkil qilishni taklif etganlari haqida yozadi. Uning yozishicha, «shirkatga a'zolik badali 25 rubl qilib belgilanadi. Shirkat o'z ishini boshlashi bilan gazeta nashri ham qayta yo'lga qo'yiladi». Behbudiy maktub ostiga sobiq «Samarqand» gazetasining muharriri sifatida imzo qo'ygan.

«Samarqand» gazetasi, – yozadi Gasprinskiy, – turkistonliklar ravnaqi uchun xizmat qilgan hamda ularni zamonaviy madaniyat va ilm bilan oshno qilishga tirishgan haqiqiy xizmatkor edi. Uning to'xtab qolishiga hech qachon yo'l bermaslik kerak edi». Gasprinskiy turkistonliklar «Samarqand» gazetasini qayta chiqarish yo'llarini qidirib topishlariga umid bilan qaradi. Lekin Turkistondagi vaziyat bunga imkon bermadi.

1913-yil davomida turkistonlik ziyolilar gazeta chiqarishga ruxsat so'rab hukumatga bir necha marta murojaat qildilar. 1913-yilning boshida qo'qonlik Obidjon Mahmudov Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga mahalliy tilda gazeta ta'sis qilish uchun ariza topshirdi. Tez orada u «Jomi' ul-axbor» (Xabarlar to'plami) nomida gazeta chiqarishga va «Madora» nomida qiroatxona ochishga tegishli ruxsatnoma oldi. Namanganda esa Is'hoqxon Ibrat ham viloyat gubernatoriga o'z bosmaxonasida «At-Tijorat an-Namangan» (Namangan tijorat xabarlari) nomida gazeta nashri uchun ruxsat so'rab ariza topshirdi. Lekin hukumat bu gazeta nashriga ruxsat bermadi.

1913-yil 20-avgustdan Samarqandda Behbudiy tahriri ostida chiqa boshlagan «Oyina» jurnali, Ziyo Said ta'kidicha, turkistonlik jadidlarning «eng sevimli nashri»ga aylandi. «Oyina» nafaqat Turkistonda, balki Kavkazda, Ichki Rossiyada, Eronda, Afg'onistonda, Hindistonda va Turkiyada ham tarqaldi. Ayni shu davrda bu jurnal turkistonlik taraqqiyparvarlarning o'ziga xos tashrif qog'oziga aylanib qoldi. Gasprinskiy jurnalning birinchi soniga ta'rif berar ekan, shunday yozadi: «Oyina» dasturi juda dolzarb; turkistonliklarning kundalik hayotlaridagi barcha muammolarni yoritishga qaratilgan». U maqolasining so'ngida turkistonliklarga o'z ona tillaridagi nashrni quvvatlashga va «Oyina»ga obuna bo'lishga chaqiradi.

«Oyina» dastlab moliyaviy qiyinchilik sabab muntazam ravishda nashr qilinmadi. Shu sabab muharrir obunachilardan jurnalning keyingi soni qachon chiqishi noma'lum bo'lganidan uzr so'rab, istaganlar obuna pullarini qaytarib olishlari mumkinligini xabar bergan edi. Biroq qisqa muddatdan so'ng jurnalning moliyaviy ahvoli birmuncha yaxshilandi va u oyda muntazam 4 marta nashr bo'lib turdi. Agar Behbudiy so'zlarini inobatga oladigan bo'lsak, «Oyina» jurnali «Samarqand» gazetasining o'rniga vaqtinchalik chiqib turgan. Lekin Behbudiy jurnalni davomiy nashr qilganidan yuqoridagi fikridan qaytgan ko'rinadi. Gasprinskiy «Oyina»dan olinib, «Tarjimon»da qayta bosilgan Hoji Muinning «E'tirof» nomli she'riga yozgan so'zboshisida «Oyina»ga hayotning barcha jihatlarini ko'rish mumkin bo'lgan Turkistonning haqiqiy oyinasi deb izoh beradi. «Tarjimon» o'z sahifalarida «Oyina»dan juda ko'plab

dolzarb xabarlarni o'zining izohlari bilan qayta chop qilib bordi.

Behbudiy, Ziyo Said so'zlariga ko'ra, «Oyina» jurnalini nashr etish bilan Gasprinskiyning «tilda birlik» nazariyasining haqiqiy tarafdori ekanligini amalda namoyon qildi. O'z navbatida, turkiy xalqlar uchun «umumturkiy til» yaratuvchisi va nazariyotchisi Gasprinskiy «Oyina» va «Samarqand» tilini oson tushuniladigan mahalliy sheva deb hisobladi. Lekin u «Oyina» jurnali muharririning «tili»ga umumadabiy til sifatida qaramaydi. Behbudiy «Oyina» jurnalining tilini «o'rta til» deb belgilaganiga qaramay, til birligi borasida oldin e'lon qilgan pozitsiyasidan biroz chekinganini kuzatish mumkin.

1915-yil 15-iyunda «Oyina»ning 68-soni chiqishi bilan jurnal o'z faoliyatini to'xtatdi. Fitratning yozishicha, «Oyina» o'ziga o'xshash boshqa jurnallar kabi o'quvchilarini «xursand qila olmadi»; uning maqolalari jurnal o'quvchilariga yoqmay qoldi. Lekin, Fitratning ta'kidlashicha, bu ishni to'g'rilash mumkin edi. Buning uchun barcha turkistonliklar jurnalning dasturini mukammallashtirishda ishtirok etishlari kerak edi. O'z navbatida, Behbudiy qo'yilgan «ayblov»larga javoban o'zini bir turli «oqlash» maqsadida «Oyina»da o'quvchilarning jurnal tili va dasturi haqidagi turli maktublarini e'lon qildi. Behbudiy mazmuni jihatidan bir-biriga umuman mos kelmaydigan xatlarni atayin tanlab chop qildi. Toshkentdan yuborilgan maktub muallifi umummilliy xarakterdagi muammolar (maktab, madrasa, shariat mahkamasi, yangi usul va hokazo)ni yoritishda «Oyina»ning mustahkam pozitsiyasi yo'q ekanligi bois uni

qattiq tanqid qiladi. Xat muallifiga ko'ra, aynan mana shu holat jurnal maqolalarining odamlarga «ta'sirsizligi»ga asosiy sabab bo'lgan. Qo'qondan yuborilgan ikkinchi maktub muallifi, aksincha, «Oyina»ning yuqoridagi masalalarni yoritishda o'ta qat'iy pozitsiyada bo'lgani xalqning undan «yuz o'girishi»ga olib kelganini aytgan. Bu maktub muallifining yozishicha, tanqiddan jazavaga tushgan ulamo odamlarni jurnalga obuna bo'lmaslikka va uni o'qimaslikka tashviq qila boshlagan. Bundan tashqari, muallif: «Jurnalning bir necha sonida bizning yangi usulchilarimiz, ziyolilarimiz tanqid ostida qoldilar. Agar ish bu tarzda ketadigan bo'lsa, yaqin orada jurnalni hech kim o'qimay qo'yadi va u o'z-o'zidan yopilib ketadi», – deb yozadi. Bu aytilgan so'zlar «Oyina»ning ayanchli taqdiri haqidagi «bashorat» edi. E'lon qilingan boshqa maktublarda «Oyina»ning «tili» haqida so'z boradi. Ba'zi mualliflar jurnalda fors-tojik tilidagi maqolalar sonini qisqartirishni talab qilsa, boshqalari, aksincha, fors tilidagi maqolalarni ko'paytirish tarafdori sifatida o'z fikrlarini bildiradi. Yuqorida jurnal o'quvchilarining keltirilgan fikrlari, darhaqiqat, «Oyina» jurnalining xalq qalbiga umumiy yo'l topa olmaganidan darak beradi. Bu esa Fitratning yuqorida keltirilgan fikrlarini tasdiqlaydi.

«Tarjimon» va Turkistonda umumturkiy til siyosati

Gasprinskiyni o'zining «tili» va uslubi bilan «maftun» qilgan turkistonlik yana ikki egizak gazeta 1914-yil aprel oyida ta'sis etildi. Bular «Sadoyi Turkiston» va «Sadoyi Farg'ona» gazetalaridir. Toshkentda chiqa boshlagan «Sadoyi Turkiston» toshkentlik taraqqiyparvarlarning tayanchiga ay-

landi. Gazeta o'zini «Ona Turkiston ovozining» tarjimoni deb e'lon qildi. Bu esa «Tarjimon»ning asosiy maqsadiga juda yaqin va munosib edi. «Sadoyi Turkiston» birinchi sonidayoq o'z o'quvchilariga «Vatan so'zlarini turk o'g'illariga turk tilida» yetkazishini bildirdi va bu yo'nalishi bilan Gasprinskiy yo'lidan borishini tasdiqladi. Ko'rinib turganidek, «Sadoyi Turkiston»ning dasturi va tili to'laligicha Gasprinskiy g'oyalariga muvofiq keldi. Lekin «Sho'ro» jurnali «Sadoyi Turkiston» maqolalarini o'z «tili» bilan odamlarni bezdiradigan so'fiylarning xutbasiga o'xshatadi.

Zaki Validiyning ta'kidlashicha, «Sadoyi Turkiston» va «Sadoyi Farg'ona»ning tashkil etilishida Turkiston sotsial-demokratlarining katta roli bor. U bergan ma'lumotlarga ko'ra, gazeta ta'sischilarining Farg'onada sotsial-demokrat Vadim Chaykin bilan bo'lib o'tgan uzoq so'zlashuvlar natijasida o'zbek va rus tillarida ayni nomda bir gazeta tashkil etish fikriga kelingan. Tashkil etiladigan gazetaning ruscha shakliga mas'ul etib Vadim Chaykin tayinlangan. Gazetaning o'zbekcha shakli borasida Zaki Validiy Toshkentda advokat Ubaydulla Xo'jayev hamda Munavvarqori bilan, Farg'onada Ashurali Zohiriy bilan muzokaralar olib borgan. Validiy yuqorida nomi tilga olingan shaxslarni Vadim Chaykin bilan tanishtiradi va ularning barchasi ishtirokida bo'lib o'tgan umumiy yig'ilishda bo'lajak gazetalarning umumiy dasturi ishlab chiqilgan: 1) Turkiston mahalliy aholisining haq-huquqda va soliq to'lashda ruslar bilan teng ekanligi muammosini yoritish; 2) Turkiston ko'chma xalqlari yerlariga ruslarni ko'chirib kelmaslik muammosiga hukumatning e'tiborini jalb qilish; 3) zamonaviy bilim targ'iboti va

uni yoyish. «Sadoyi Turkiston» muharririning gazetaning oldiga qo'ygan maqsadlari aks etgan birinchi sondagi maqolasida aynan yuqoridagi sotsial-demokratlar bilan ishlab chiqilgan dastur o'z ifodasini topgan.

Farg'onada Obidjon Mahmudov muharrirligida chiqa boshlagan «Sadoyi Farg'ona» gazetasi xalq orasida biroz ommalashib ulgurgandan so'ng muharrir gazetaning «Эхо Ферганы» nomida ruscha shaklini nashr etish uchun hukumatdan ruxsat oldi. «Tarjimon» bergan xabarga ko'ra, tahririyat gazeta chiqarish uchun ruxsat olishi bilan ruscha harflarga buyurtma bergan va harflar kelishi bilan gazeta o'z faoliyatini boshlagan. Lekin bizga noma'lum sabablarga ko'ra «Sadoyi Farg'ona»ning ruscha shakli nashr qilinmadi. «Sadoyi Farg'ona»ning o'zi esa 123-sonidan so'ng yana moliyaviy sabablarga ko'ra faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

Toshkent gazetasining taqdiri o'zidan oldingi gazetalar kabi ayanchli bo'ldi. «Sadoyi Turkiston» 66-sonidan so'ng nashrdan to'xtadi. Asosiy sabab mablag' yo'qligi edi. Toshkentlik taraqqiparvarlar gazetaning moliyaviy ahvolini turli yo'l va usullar bilan qo'llab-quvvatlashga harakat qilsalar ham, buning uddasidan chiqa olmadilar. 1914-yil sentyabr oyida Toshkentda «Sadoyi Turkiston» gazetasining foydasi uchun adabiy kecha tashkil etildi. O'sha yilning oktyabr oyida gazetani yangi tashkil etilgan «Nashriyot» shirkati tasarrufiga o'tkazish ham rejalashtirildi. «Sho'ro» jurnali muxbirlaridan biri: «Musulmon dunyosida, xususan, Turkistonda obunachilar yo'qligi, pulsizlik va xayriyaning kamligi juda ko'p milliy loyihalarning amalga oshishiga to'sqinlik qildi», – deb yozgan edi.

Har holda, Turkistonda bosma uskunasining paydo bo'lishi aholining ayrim qatlamlari hayot tarzi o'zgarishiga sabab bo'ldi. Garchi bu jarayon Rossiya imperiyasining boshqa mintaqalariga qaraganda ko'proq vaqt talab qilgan bo'lsada. 1905-yil Oktyabr Manifestiga qadar Gasprinskiyning «Tarjimon» gazetasi Rossiya musulmonlarining yagona minbari edi. Aynan u Kavkaz, Ichki Rossiya va Turkistonda musulmon matbuotining paydo bo'lishi va rivojlanishida juda katta va muhim rol o'ynadi. Bu yerda Eron, Hindiston va Misrdagi forsiy matbuotning Turkistonda, xususan, Buxoroda modernistik g'oyalarning shakllanishidagi rolini ham aytib o'tish joiz. Ayniy ta'kidlaganidek, Buxoroning taraqqiyparvarlari 20-asr birinchi o'n yilligi oxirlarida aynan ana shu vaqtli matbuot nashrlari orqali inqilob havosini simirar edilar.

Turkistonda mustaqil milliy matbuotning shakllanishiga ikki omil to'siq bo'lgan. Bular, birinchidan, iqtisodiy qoloqlik bo'lsa, ikkinchidan, rasmiy hukumat tarafidan bo'lgan bosim edi. Agar Turkiston ijtimoiy hayotida islohotlarni amalga oshirishga kirishgan mahalliy ziyolilar guruhi 19-asr oxirlarida shakllanganiga qaramay, 20-asrning birinchi o'n yilligidagina mustahkam oyoqqa turishga muvaffaq bo'lganlari inobatga olinsa, bu holat, balki, Turkistonda milliy matbuot paydo bo'lishidagi kechikishning eng asosiy omil bo'lishi mumkin. Turkiston aholisi o'z tafakkuri va fikrlash tarziga ko'ra Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon xalqlardan keskin farq qilar edi. Aholining o'ta konservativ fikrlashi hamda an'analarga «sodiqligi» sabab gazeta xalq orasida u qadar ommalasha olmadi. Aynan mana

shu sabablar tufayli 20-asrning 10-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan milliy matbuotning aksari o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi.

«Tarjimon» gazetasi Turkistonda o'ta ommalashganiga qaramay, turkistonlik mahalliy ziyolilarni to'g'ri ma'noda gazeta hayotida ishtirok etishga jalb qila olmadi. «Tarjimon» gazetasida 1883-yildan 1917-yilgacha bo'lgan oraliqda Turkistonga oid chop etilgan materiallarning tahlili «Tarjimon»ning Turkistondagi asosiy yozarlari tatarlardan iborat bo'lganini ko'rsatadi. Ayrim mahalliy turkistonliklarni hisobga olmaganda, albatta. Turkistonlik mahalliy taraqqiyparvarlarning aksariyati o'z fikrlarini Ostroumovning «Turkiston viloyatining gazeti»da nashr qilishni ma'qul ko'rganligini taxmin qilish mumkin. Hoji Muinning ushbu gaplari yuqoridagi taxminni tasdiqlaydi: «Biz, nima bo'lishidan qat'i nazar, o'zimizning matbuotimiz paydo bo'lgunga qadar shu gazetada fikrlarimizni bildirib boramiz».

Matbuot ta'lim tizimini zamonaviylashtirish bilan bir qatorda Rossiya musulmonlarida alohida ijtimoiy-siyosiy yo'nalish shakllanishida ham o'ta muhim rol o'ynadi. 1905-yil chor hukumati tarafidan e'lon qilingan Manifest Rossiya imperiyasidagi xalqlar uchun muayyan erkinliklar, xususan, so'z erkinligi berishi oqibatida o'nlab musulmon matbuot nashrlari paydo bo'ldi. Musulmonlar ushbu nashrlar yordamida bir-birlari bilan yanada yaqinroq tanishish hamda dunyoda kechayotgan turli jarayonlar haqida to'liqroq ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldi. Musulmon matbuoti ayrim tabaqalarning o'z bilimini mukammallashtirishga,

boshqalarining jamoat ishlari, adabiyot yoki pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga katta turtki berdi.

Rossiya musulmonlari matbuoti musulmonlarning o'zligini himoya qilish barobarida yangi va taraqqiyotga xizmat qiluvchi omillarni o'zlashtirishdek ishlarni hamda nomusulmon hukumatga nisbatan to'g'ri munosabatni saqlash pozitsiyasini o'zida mujassam qila oldi. Taraqqiyparvarlar musulmon muhitida o'sha muhitning ijtimoiy tasviri va ijtimoiy ko'rinishini tubdan o'zgartira olgan yangi insonlar vakili sifatida maydonga chiqdilar.

1905-yil noyabr oyida chor hukumati tarafidan qabul qilingan «Matbuot to'g'risida»gi yangi qonun erkinroq harakat qilish imkonini berganiga qaramay, amalda matbuotga nisbatan mavjud senzurani o'zgartirmadi. Vaqtli matbuot nashrlari muharrirlari va xodimlariga to'la erkin harakat qilish imkoni berildi. Lekin hukumat yoki rasmiy ma'mur haqida berilgan har qanday xabar aholi o'rtasida unga nisbatan dushmanlik hissini uyg'otsa, matbuot vakili jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'rsatib o'tilgan edi. Yangi qonunning aynan mana shu bandi haqida «Русский Туркестан» gazetasi shunday yozgan edi: «Mana endi qattiq jazo tahdidi bilan matbuotdan zamonaning dolzarb, muhim va kerakli muammolari yoritish huquqi olib qo'yildi».

Qonunning ayni shu jihatlari 1906 – 1908-yillarda paydo bo'lgan turkistonliklarning endigina oyoqqa turayotgan milliy matbuotini hukumat tarafidan «bo'g'izlab o'ldirilishi»ga imkoniyat yaratib berdi. Shu davrda nashr etilgan barcha gazetalar aynan qonunning yuqorida keltirilgan bandida ko'rsatilgan ayblov bilan hukumat tarafidan yopib

qo'yildi. Turkistonda milliy matbuotning keyingi gullab-yashnagan davri Birinchi jahon urushi davriga to'g'ri keldi. Lekin bu davr matbuoti, oldingisidan farqli o'laroq, «o'z o'limi bilan vafot etdi». U o'z tarafiga asosiy o'quvchi bo'lgan xalqni jalb qila olmadi. Faoliyatini to'xtatishiga asosiy sabab esa bankrotlik edi. Shunga qaramay, turkistonliklar nafaqat «Turkiston viloyatining gazeti», balki boshqa mustaqil nashrlar minbaridan foydalangan holda, A.Xolidning ta'kidlashicha, «dunyo haqida tushuncha olishga» erishdilar. Ular tarixiy o'zgarishlar hamda g'oyaviy o'sish va keyingi rivojlanishni anglatuvchi «taraqqiyot»ga ishondilar.

SAYOHATLAR

XOTIROTI FARG'ONA

4 inchi dekabrdan 13 inchisig'acha Farg'ona viloyatini Xo'qand – Andijon – Marg'ilon – Yangi Marg'ilon – Iskobuluf shaharlarini va Samarqand oblustini Xo'jand baladasini sayohat va ziyorat etdim. Maktab va madrasalari va umronoti va aholisini raftori to'g'risinda qilgan mushohadalarimdan Toshkandg'a chiqadurgan «Shuhrat», «Tujjor», «Turkiston» gazetalari ila yozmoqchidurman. Shoyad, ulamo va talaba maktabdorlar ag'niyomizg'a manim qilaturgan xolis arzlarimdan ibrat hosil bo'lsa. Hech kimni shaxsig'a ta'na va ta'arruz emas, balki umumiy beparvoligimizdan shikoyatdur. Bu maktubim ila mazkur shaharlarg'a «usuli jadid» ismi ila maktab tutub turganlarni ahvolidan yozarman va maktabg'a munosabati bor va himmatlik kishilar nazari diqqatini jalb qilarman. Maktab va madrasag'a aloqasi borligini bilganlarimni-da zikr qilarman.

5 inchi dekabrda Xo'qandg'a yetub, Farg'ona deputati janob Solihjonboy Muhammadjonufg'a mehmon bo'lduk. O'shal kun ba'zi ajnabiylarni ko'rub, bir navni maktabni ham izlab kirdim. Ismi usuli jadid va ammo «Muallimi avval»dan boshqa o'qutaturgan savodi forsiy va turkiy nazm kitoblari hamma tahriri va eski maktabdan farqi shulki, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Xo'ja Hofizni bu no'g'ay muallimini o'zi-da bilmaydur. Eski va sart maktabdorlar bu kitoblarni

yarim yumaloq bilar edilar va ammo Turkistong'a maktab tutadurgan no'g'ay qarindoshlarimiz bu kitoblarni o'qumoqqa besavod ekanlar. Azbaski, bu kitoblar eng adabiy til ila tanzim topilgan va zotan turk va fors she'rlarini nihoyat zubdalarini asari benaziriydur. Holbuki, bir necha miliyun tatar ichida bu adabiy kitoblarni ta'limg'a besh-o'ngina tatar zo'rg'a topilur. Bu kitoblarni fahm qilmoq nari tursun, hatto iborat va lafzini to'g'ri o'quyolmaydurgan bir necha yolg'on usuli jadidachi tatar muallimlarini bu sayohat asnosig'a ko'rub, Turkistonni usuli qadim maktabini-da ifsod qilganlarig'a botaassuf vuquf hosil etdim. Muning sababi o'z turkistonlilarimizni beparvoligidur. Cho'ponlikni bilmaydurgan kishig'a qo'y topshirgan boyni qo'ylari ozaygandek. Forsiy va chig'atoy shevasini usmonli adabiyotini bilmaydurgan nodon tatar maktabdorlari o'z Turkistoni shogirdlarini iste'dod nazariyasini yo'qotmoqdan boshqa foyda berolmaydurlar. Magarki tatar muallim qarindoshlarimizni o'zlari bu taraf shevasig'a va yoinki usmonli adabiyotig'a oshno bo'lsalar. Bizni Turkiston tili tatarcha atalaturgan biyoboniy va yarmi ruscha tildan ming martaba oliy va maydoni usmonli tilig'a yaqindur. Turkiston odami va maktab bolalari «qozoncha buzuq til»dan tarjimon va Istambul va ozarbayjoncha tilini ko'b chobuk[1] va tez qiroat va fahm etadurlar...

Oxshomi ba'zi g'arizlar ila islohi maktab va usuli tahsili madrasa to'g'risinda biroz suhbatlashtuk. Xo'qandlik janob Hoji Hasanki, adabiyoti turkiy va usmoniy va forsiydan xabarlik ekan, majlisimizg'a ziynat berar edi. Ahmad

[1] Tez

Midhat, Ahmad Javdat, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Sa'diydan dam urar edi. Vasoyiqi gasudarstvennuviy duma deputati Solihjonboy Muhammadjonuf ya'ni sohibxonani yangi tartib ila o'qulaturgan bir «maktabi rushdiya» bino va bunyod qilmoqidan manga xabar berardi.

Darvoqe, Muhammadjonufdek g'aniy va hamiyatlik va himmat egasig'a «maktabi rushdiya» tartib pro'g'romig'a imorat qilmoq og'ir ish emasdur. Bu kishi shul Muhammadjonufdirki, ikkinchi dumag'a musulmon fraksiyasini barcha xarajatini o'z kissasidan berib edi. Hoji Hasan Xo'qandiy kabi ko'zi ochuq kishini ilm va fikri ila Solihjon boyni aqcha va himmati bir bo'lg'on so'ng «maktabi rushdiya»dan oliy va atam[2] maktablarni Xo'qandg'a tayyor bo'lushi og'ir ish emasdur. Xudo bersun-da, bu maktab bino bo'lsun. So'ngra Xo'qanddagi tatar mulla Salohiddin muallim janoblarini bu maktabg'a bosh muallim etib, ustig'a Hoji Hasanni mudir qo'ymoq kerak. Va ala hozir idora qilib turgan maktabidek pro'g'romini o'zini naf'i va rohati va manfaati uchun buzar...

Ertasi 6nchi dekabrda erta birlan Xo'qandg'a maktabdorlik qilaturgan Zokirjon Olixonufg'a qilgan iltimosi bo'yincha kelib, xo'qandlik janob Hoji Umarni solgan maktabig'a mani olib bordi. Maktabg'a kirdim, moddatan muntazam maktabdan katta lavha va parta va pech va jomlik katta eshiklari bordur. Ichig'a yuzdan ziyoda bolalar bor. Ammo muallim faqat birgina nafar – janob mulla Salohiddin no'g'ay va ko'b yildan beri munda turib sortlashgan – sizdan bashqa muallim va muovin yo'qmi deb so'radim. Ana deb bir bola-

[2] Tugallovchi

ni ko'rsatdi. So'ngra oramizda muhovara joriy bo'ldi. Man dedim, shogirdingiz necha nafar? Ul dedi, bir yuz qadar (ammo maktabg'a taxminan yuzdan yigirma qadar ziyoda edi va alarni har biri bir so'mdan to'rt so'mg'acha rashya ijara kelturub o'qur ekanlar). Man – nalar o'qutarsiz? Ul muallim – avval Kalomi sharif, Navoiy, Bedil, Hofiz, Miftohul jinon, hisobdan a'moli arba', ilmi holdan ibodati islomiya. Man – jug'rofiya, insho va qiroati turkiya na uchun yo'q? Ul – jug'rofiya ne atalar, qiroati turkiya va Istambul kitoblarini hukumat qo'ymaydur. Man – qiroati turkiya va fununi mutanavvadan abu ala'lamiyn janob Ismoilbek G'asprinskiy kitoblarin o'qutungki, Russsiyag'a senzur ruxsati ila tab' va nashr bo'ldi. Jug'rofiyani shifohi ta'lim bering, so'ngralari xalq tushunub ketar parta va qora taxtalardek. Ul – biz bularg'a ona tillarindagi kitoblarni ta'lim beramiz, turkiycha og'urluq qiladur. Man – Bedil, Hofiz, muallimi avval va ibodati islomiya bu bolalarni na ona, na otasi lisonidur. Holbuki, Bedil, Hofiz ... larni[3] o'zingiz ham, albatta, bilmaysiz. Ammo turkiycha va jug'rofiya bilishingizni man o'zum bilarman. Turkiston xalqi biza ma'lumdur, na o'qutsangiz, tadrijiy bo'lub ketar. Bularni otasi sizg'a topshirganda «bolamni suyagi mandan et va terisi sizdan» deb taslim edar. Jug'rofiya ila turkiy o'qutmoqingiz farz darajasindadur. Ul – alarni ta'lim bermoqg'a biza vaqt yo'q, man bir o'zum. Man – oyinda ikki-uch yuz so'm xalq oqchasini olarsiz. Andin bir yuz so'mig'a ikki muallimi forsiy va ikki muallimi turkiy saxlamoq mumkindur. Ul suratg'a xalq oqchasi va bolalarni umri zoye' bo'lmaydur. Shogirdlaringiz dunyodan va adabiyoti

[3] Asl matnda shunday

turkiyadan xabardor bo'lub millatni taraqqiy yo'lig'a vuquf paydo qilar. Ul – (xeyli otashin bo'lub, g'azabg'a kirib, o'zini yo'qotib) biz avval qilduk, xalq yoqturmadi. Man – siz mani bu so'zlar ila aldayolmaysiz. Xo'qand xalqi bizg'a ma'lum va tahqiqlab bildukki, sizg'a kimsa mone bo'lgan yo'q. Faqat o'zingizni rohat va nafi shaxsiyangiz ila qiyin va diqqat nimarsani o'rgatmay va muovin saxlamay, durusi mutanavva va axloqiyadan bermay ekansiz. Bu ishlar yuzdan ziyoda bolani bir o'zingiz ta'lim berib turushingiz ila sobitdur. Ul – bizni maktab ibtidoiydur. Man – rushdiy ersangiz, aqcha va bir bor na uchun aytmaysiz va qayu usuli ta'lim kitobig'a ko'rdingizki, bir muallim yuzdan ziyoda bolag'a muncha o'zi bilmayturgan narsalardan saboq bersun. Ul – xeyli hiddatlandi. Yonimdagi Zokirjong'a qarab san bu odamni munda boshqarib olib kelding va mani yomonlab «Tujjor» gazetasig'a yozding dedi. Man – ey muallim, biz o'zimiz kelduk va sizg'a din va millat tarafidan amri ma'ruf aytarmiz va siz xodimi xalqsiz, banim sizg'a shaxsiy haqim yo'q va lekin shar'an so'ylamoqg'a haqim bor. Hiddatlanmang. Sizni tanqid etgan bo'lsa, tashakkur ayting, podshohlarni, sulton va vazirlarni jarida ila tanqid etarlar. Siz kim? Yana hiddatlandi... Behuda so'zlar dedi.

Man dedim – sizni qobili xitob deb sizg'a so'yladim. Agarda bu qadarligingizni bilsam, so'zlamas edim, afu qiling, sizg'a kulfat berduk deb chiqib, arobamizg'a o'lturub rij'at etduk. Yana bir-ikki no'g'ay maktabdorlarni borligini xabar oldimki, ismi usuli jadida va ammo pro'g'rom ta'limi mundan bir necha martaba past ekanligi sobit bo'lgan uchun borib ko'rmadim. Eshiting, birodarlar, Xo'qand usuli

jadida maktabingiz sanalik a'lo darajadagi ushbudan iboratdur. Shunday maktablar tutub turgan boy bo'lgan bir necha no'g'aylar magazinchilar Xo'qandg'a borligini va shogirdlarg'a samarayi husna jadid maktabidan kelmaganini bir necha majlisg'a eshitdim va durust kishilar so'yladi. Alloh bu muallimlar davlatini ziyoda etsun. Yangilarig'a sabot va himmat bersun. Janob mullo Salohiddin muallimi muqtadir va adabiyoti turkiyag'a, jug'rofiyag'a, handasa, hisob va durusi mutanavvadan saboq bermoqqa mohir kishiligi manga ma'lum. Faqat biroz havsala qilib va bir-ikki muovin saxlasa bo'ladur. Ammo hukumat va xalq ani ta'limig'a hech vaqt mone' bo'lmaydur. Va ala sakkiz sanadin beri mone' bo'lar edi. Xo'qand madrasalari va bashqa shaharlarg'a ko'rulgan ish va voqea va mushohadalar va ba'zi mulohazalarini bashqa maktub ila yoziladur. Xulosasi shulki, mullo Salohiddin maktabig'a bir-ikki forsiy va turkiyg'a mohir muallim qo'yub, so'ngra o'zi usuli turkiy va forsiy va bidoyat jug'rofiyadan ta'lim berib o'zig'a va kissasig'a biroz zarar keltursa, maktabni hujumi shogirdlarig'a qiroatda har yil yigirmadan ziyoda talabayi roshid chiqarmog'i mumkindur. Chunki muallimni o'zi muqtadir, maktabi vas'atlik va xalq vazifa va e'tiqod ila yuzlab bola berib turubdur. Ish yalg'uz janob mulla Salohiddin g'ayrat va himmatig'a qolgandur. Aksar holda mulla Salohiddin .....[4] zumrasidan hisoblanur.

Samarqandiy muftiy dorulqazo
Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li

[4] Matnda shunday berilgan

FARG'ONA XOTIRALARI

Xo'qand va Andijonni sayohatidan so'ngra 9 inchi ushbu dekabrda Marg'ilon shahrig'a vorid bo'lub, maktabi usuli jadidiyni so'rog'lab toptuk. Bir padari rahmat kishi havlisini berib ekan, kirib ko'rduk, «eski hammom va eski tos» maqoli har qayu yerg'aki maktabi jadid deb borar eduk. Jadiddan asar yo'q. Qayu jadida u jadidga jiddan jadiddur. U jadidga ilmi qiroat va tajvid va ilmi hol muntazam va hisob insho jug'rofiya va qiroati turkiy va forsiy tarix o'qulaturgan jadidi muntazam maktabni o'zi emas, soyasi timsolida yo'q edi. Bu maktabni muallimidan ba'zi nimarsalarni so'raduk, ammo, maataassuf, javob eshitolmaduk. Xulosa, Eski Marg'ilong'a ko'rgan maktabimizni faqat ismi jadid va o'zi ehtimoli buzulgan qadim bo'lsa. Chunki yalg'uz «Alifbo savti» ila jadid bo'lmas maktabdorig'a ba'zi mashvarat va ikki nusxa kitobcha berib, eski madrasalar sari borib tafahhus etib kechqurun chiqib Yangi Marg'ilon – Iskobiluf shahrig'a borduk.

Bu shahar o'rnini plani xeyli vase' va muntazam va ammo hanuz kam imorat sukanosi[5] oz ekan. Yoz mavsumig'a bu shaharni ob va latofati havo va nazofati yaxshi bo'lsa kerak. Farg'ona oblustini markaz hukumati bu shahar jadiddur. Muning bir tarafig'a sultonlarg'a maxsus bir necha mahalla va bog'lar va besh-olti katta masjidlar bor ekan. Shahar bozorini ichig'a bir katta jome' masjid va jevorig'a maktabi va bir necha hujralar bordur. Maktabig'a kirduk, 50 nafardan ziyoda shogirdlar bor edi. Muallimidan beradurgan darslarini so'raduk, ba'zi kutubi jadidni ot tutdi. Tariqi ta'lim va

[5] Uy-joy, insonlar istiqomat qiladigan uylar

tartibig'a qaradukki, Andijon va Marg'ilon maktablaridan ma'nan behroq edi. Jug'rofiya o'qutmoqig'a va xarita oldurmoqlarig'a va yana bir nafar xalifa saxlamoqig'a mashvarat berib chiqduk. Muallimi mullozoda Muhammadni sa'y va hushyorligig'a va jamlagan ba'zi kitoblarig'a qaraganda bora-bora biroz taraqqiy qilishi ma'muldur. Jevor masjidg'a bir yangi imorat ko'rundim so'radim. Ma'lum bo'ldikim, Hakimboy hoji Nazarmuhammad o'g'li degan bir kishi masjidg'a teyishli yerg'a o'z masorifi ilan bir katta maktabxona solibdur. Xarajoti ming so'mdan o'lsa kerak. Bir necha do'konlar ham solib vaqf qilmoq xabarini eshitdim. Yangi marg'ilonlik qarindoshlarim va janob muruvvatpesha Hakimboyg'a aytadurgan so'zim shulki, hozirg'i maktabdorlari hushyor kishi ekan. Ammo ellik-oltmish bolani ta'limig'a bir odam kifoya qilmaydur. Bolalarni vazifalarini orturub, yana bir muovin xalifa oldursalar yaxshi bo'lur edi. Va, illo, bir odam harchand alloma bo'lsa ham, ko'b bolag'a haqincha ta'lim berolmaydur. Usuli ta'lim kitoblarini farmoyishi va tajribani natijasi shudur.

Mundan chiqib, yana temur yo'li vositasi-la Xo'jand shahrig'a ozim bo'lduk. Oxshomi soat 10 Xo'jand hattasidan poytung'a o'lturub shaharg'a mutavajjih bo'lduk. Shahar ila vokzal orasi o'n bir chaqirim va muning to'quzi cho'l va uchi «bog'yot» ekan. Yo'lg'a izvoshchilikni uyqusi eltib, yo'lni biroz adashib bir necha chuqurlarg'a yiqilib-tiqilib shaharg'a yetkurdi. Ertasi ba'zi oshnolarni ko'rub va mazorlarg'a duo va fotihadan so'ngra yangi maktabg'a borduk. Usta Tursun degan bir kishi yaxshi bir katta imoratini muvaqqatan maktabg'a berib ekan, ellikdan ziyoda bolalar o'qumoqg'a mashg'ul edi.

Yangi nimarsalardan alifbo, tajvid, hisob va bashqasi qadima savod kitoblar ekan. Mazkur Usta Tursun marhum bo'lgan bo'lsa ham, varasalari ani rioyayi ruhini qilib maktabg'a joy beribdurlar. Alloh hammalarini rahmat qilsun.

Bu maktab muallimi o'rta yosh va Hijoz, Istambul, Hind taraflarig'a sayohat etgan va qiroati turkiyag'a mohir, jug'rofiya, tajvid va maktabg'a kerak ilmlarg'a oshno kishi ekan, ismi-sharifi Hoji Mirhusayndur. Na uchun jug'rofiya ta'lim bermaganlaridan so'radim. Xalq qabul qilmaydurlar dedi. Shogirdlarni kattaroqig'a otalarig'a ushbu ilmni nofe'ligini to'g'risig'a bayon qilmoqlari uchun muallimni musoidasi-la biroz bayoni noma berdim va alarni jug'rofiya va hisobg'a tashviq etdim va bir-ikki nusxa kitobchalar hadya berib chiqduk.

Hozirgi Xo'jand hokimi janob Likoshin to'ra ila biroz ma'rifatim borligi uchun borib ko'rishtuk. Tarjima qilgan asarlaridan bir-ikki nusxa yodnoma berib, bizni taqdim qilgan asarimizni ham qabul qildilar. Xo'jand shahri kanoridan oqaturgan Sirdaryo – Sayhun nahri va ko'frugini sayohat etib va ba'zi madrasalarini ko'rub, so'ngra jug'rofiya va hay'at ilmig'a oshno Mirzo Yusuf janoblarini ko'rmoq uchun tajassasa qildukki, vatanlarig'a yo'qliklarini botaassuf xabar olduk. Ba'dinda shoir va adibi mukarram Toshxo'ja eshonni muloqotlarig'a borib suhbatlashtuk. Xo'jand zurafolaridan qori Abdulg'affor va mullo Do'stmuhammad va mirzo Abdulrahmon va g'ayrilari oxshom soati yettilarinda vokzal tarafig'a bizlarni uzotdilar. Soat to'quzg'a xurujimizg'a mashvarat berdilar. Ammo rafiqim Samarqandiy mullo Abdulhomid mutavallini rohig'a qarab shitob ila chiqtuk. Poytung'a bir nafar Xo'jandiy ham

bor edi. Oxshom qorong'u va yo'lg'a bizlardan boshqa kishi yo'q va Xo'jand bog'yoti orasidan ketar eduk. Bir ochuq sahrog'a yetib, arobamiz tekis yerg'a sur'at ila yo'l olur edi. Xo'jandiy yo'l hamrohimiz vokzal ila shahar orasig'a har zamon o'g'rilar kaming'a va haftada bir-ikki martaba o'g'riliq va taroj ushbu sahrog'a voqe' bo'lub turushi va mundan bir-ikki kun muqaddam bir-ikki yo'lchi mollarini o'g'rilar olgani va shaharg'a tayin bir mahallag'a bir kishini o'ldurganlaridan hikoyat qilur edi. Bu so'zlarni eshitib man ham vaqtsiz bilotahqiq chiqganimizg'a afsus qilib o'zimizni hifzi Haqg'a havola qilib, «endi neki bo'lsa bo'lur, shahardan yarim farsax uzoqlashtuk. Bu yurush bizlarg'a dars bo'lsun, alxayri mo san'a Alloh» deb ketar eduk.

Bir zamon poytunchi dediki, yo'lni yo'qotibman. Xo'jandiy hamrohimiz u taraf-bu tarafg'a qarab oxiri bir jihatni ko'rsatdiki, shunga qarab hayda deb. Vokzal chirog'i ko'runmas edi. Oy qorong'u. Havo sovuq. Poytunda noshinos[6] Xo'jandiy rafiqimizni qiyofati durust va muxavvif[7] kishi emas edi. Poytunchi bo'lsa mazkur kishini ko'rsatgan tarafi yo'lsiz goh urgoh do'ng nohamvor yerlardan qit'a masofa etar edi. Yarim soatdan ziyoda muddat qorong'u va noma'lum jihatg'a mutavajjihan ot chopib yo'l olar eduk. Bir zamon vokzal fonuslari ko'rundi. Yana bir chorak soat qadar goh soy va goh qirg'a ketar eduk. Diqqat ila ma'lum bo'ldiki, fonuslar doim o'ng tarafimizg'a taboid[8] etadur. Man hamrohlarg'a dedim: kerakki fonuslarg'a mutavajjihan harakat etsaq, ammo bu ketib turganimiz bil'aks bizni istansadan

[6] Noma'lum, tanish bo'lmagan
[7] Xavfli
[8] Uzoqlik, uzoqlashish

uzoqlabdur. Hamrohlarimiz zam etdilarki, shul borishimiz durust. Yana biroz ketduk. Qaradimki, yana uzoqlashduk. Poytunchini nichlab dedim: aqlingni boshingg'a keltur. Qo'rqma, shunday ishlar bo'lur. Bilarsanmu qayu tarafg'a ketib turubsan? Ana, ko'rgil, doim istansa fonusidan uzoqlashib turubmiz. Ul ablah dedi: xotirjam bo'lung, man sizni istansag'a yetkurarman va ushbu borib turgan yo'lumni bilarman. Man dedim: xayr bilmaysan. O'ng qo'lg'a hayda va illo yana uzoqlashurmiz. Ikki hamrohim ila poytunchi zam qilib to'g'ri ketmoqg'a jabr etdilar. Yana bir chorak soat ketduk. Istansa chirog'laridan nihoyat uzoq tushtuk. Goh ko'runar edi, goho yo'q. Oqibat yana turub, poytunni nichlab hamrohlarg'a dedim: emdi yana orqamizg'a qaytarmiz va mundan boshqa iloj yo'q. Alar hech vajhsiz inod[9] etib qabul qilmadilar. Man dedim al-on muvaqqamiz g'animatdurki, fonuslar goh ko'runur. Agarda rij'atni qabul qilmasangizlar, man tushub, piyoda shul chirog'g'a qarab ketarman dedim. Alar qabul qilmadilar. Tushdum va alarg'a yana e'tidol ila fikrimni bildurdum. Oqibat ko'ndilar. Emdi o'ng qo'lg'a aroba ila yurmoq nomumkin. Azbaski, bir nohamvor edi, yana la iloj orqamizg'a qoytuk.

Ko'ngilg'a kelaturg'on tabiiy bir vahm shul ediki: sahrog'a o'g'ri bo'lsa, bizni adashganimizni poytun chirog'i ila mushohada etib, ehtimol, bizg'a tavajjuh qilsa va agarda poytun chirog'ini so'ndursang, qorong'u va ham gugurd yo'q edi. Bu fikrlar boshdan kechar edi, shahardan xurujimizg'a ikki soatdan o'tdi. Otlar ham charchadi. Rajaatimiz ham yana beroha va ba'zi loy va ko'llardan arobamiz zo'rg'a

[9] Tortishmoq, g'ashlik

chiqar edi. Yarim soat qadar goh botib, goh haydalgan shudgorlardan kesib, arig'larg'a qamalib, oxiri suv ko'llagan bir yerg'a aroba qoldi, tushub ashyolarni ham arobadin olduk. Aroba biroz jo'nalib, yana oti yiqildi. Hamrohimdan biri otqa yordam berdi va poytunchig'a arobani ochmoqig'a buyurub, hamrohlarg'a piyoda va mazkur chirog'ga qarab yuklarni ko'tarib yo'lsiz ketmoqg'a mashvarat berdim. Alar yana arobag'a o'lturub ketmoqni tarjih qilar edi. Man dedim: xayr fi amanulloh. Biz piyoda ketduk, sizlarni o'z ixtiyoringizg'a qo'ydum deb qo'ya berdim. Bir-ikki daqiqa so'ngra alar ham biza tobean qadam urar edi. Biz ikki nafarni yukimiz bir xurjin, ikki putdan ziyoda bir chamadon, uch putg'a yaqin maa adiyol. Havo sovuqlig'i uchun bir putdan ziyoda chakman va paxtalik to'nlarimiz ham bordur. Manim orqamg'a xurjin va rafiqim mullo Abdulhomid mutavalli teyishig'a mani yukimdin og'urroq chamadon tushub edi. Xo'jandiyni orqasig'a ham bir qit'a bog'langan yuk va qo'lig'a malirovanniy choyniki bor ediki, qopqog'i osilib choynikg'a urub bizni kichkina piyoda karbong'a charaslik[10] xizmatini bir sado manga foformlik[11] ila qilur edi. Va agarda o'g'ri bo'lsa, bizg'a jalb etar edi. Biz ketar eduk. Mazkur choynik sadoyi foformini yo'q qilmoqni Xo'jandiydan iltimos etdim. Iltifotg'a olmadi. Oxiri qattig' so'z ila iskotg'a[12] majbur qildim. Rafiqim mutavalli latifa qilib mustahziyona kular edi.

Samarqandiy muftiy Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li

[10] Tovush

[11] Go'zal, xush yoquvchi (qadimiy so'z, sifat)

[12] Jim qilmoq, sukut

YO‘LCHI MULLA

Sayohat savdosi boshimg‘a tushub, Toshkanddan Xo‘qandg‘a bormak uchun vogzalg‘a chiqdim. Tezlik ila bilit olub, vogung‘a tushmak harakatida bo‘lub turganimda uzun bo‘ylik, sersoqol, katta sallalik, taxminan 40 yoshlarga yetkan bir mullog‘a ko‘zum tushdi. Bechora mullo Toshkandg‘a avval martaba kelganidanmi yoxud yo‘l tartiblaridan xabarsizligidanmi, qo‘lig‘a 4-5 so‘m pulni qisimlagan holda bilit oladirgan joyni qay yerda ekanin bilmay, sargardon bo‘lub, o‘tkan-ketkan ruslardan zaboni hol ila iona talab qilurdi. Xalq nihoyatda ko‘b va izdihom bo‘lg‘onlig‘i uchun hech kimning hech kim ila ishi yo‘q. Mahshar kunidek har kim o‘z ishi ila sargardon edi. Odamlar orasini yorub borub ul bechorag‘a yo‘l ko‘rsatmak manga ham mumkin bo‘lmadi. Uzog‘dan turub aytay desam, odamlarning shovqinidan eshitdurub bo‘lmasligi tabiiy edi. Shul vaqtda bir nosilshik ila iymalashub kassaning qay yerda ekanligini filjumla bilub olganini sezdim. Xotirjam bo‘lub vagun tarafig‘a qarab ketdim. Ko‘b o‘tmadi, vagun plashchadkasig‘a chiqub qarasam, na ko‘zim ila ko‘rdi, haligi bechora mulloni kanduxturlar turtub-urub sallalarin chuvatub vagundan haydab tushurmakdalar. Ajabo! Bir mulla bechora o‘g‘rilik qildimi yoxud biror zakung‘a muxolif harakatda bo‘lindimi deb hayron bo‘ldim. Din qardoshlik va tolibi ilmlik hamiyatlarim qo‘zg‘alub, ul bechoraning ahvolini so‘ramak va xotiriga tasalli bermak va mumkin bo‘lsa, buning tarafidan kanduxturlar ila so‘ylashmak uchun yugurgancha oning oldig‘a bordim. «Taqsir, nima bo‘ldi?» – deb so‘raganimda «Bilmayman. Bu o‘ruslar

bilitimni olub ko'rub, allanarsa deb g'ujurladilar. Man tushunmasdan turub edim, shul tariqa itarub-urub mani vagundan tushurdilar», – dedi. Qo'lidan bilitini olub qarasam, Turkiston biliti. Holbuki, bu vagun Farg'onaga ketadirgan vagun edi. Bildimki, kanduxturlar shuning uchun buni vagundan tushurgan ekanlar. Buni mullaga aytdim. Mulla bechora oh tortub, xafa bo'lub, «Man Xo'jandg'a bormoqchi edim, kassa oldida uch-to'rt kishi 4 so'mdan berub bilit olub turg'on ekanlar. Man ham o'shal o'rus xotuniga 4 so'm berub edim. Shul pattani berdi», – dedi. Bechora mulla til bilmaganligidan Turkiston po'yizdining kassasig'a borub, shundan bilit olub turgan 4-5 ziyoratchilarg'a qarab, shularning bergan pullarini berub, qay yerga ekanini aytolmay, shularga bergan bilitingdan ber deb ishorat ila anglatqan ekan. Shular ila hamroh ekanman deb afandining ko'chkanidek Xo'jand biliti o'rniga Turkiston biliti olgan ekan. So'ngra o'zum borub qaytadan Xo'jand bilitini olub berdim. Birga vagunga tushub jo'naduk. Yo'lda asnoyi musohabada: «Taqsir! Qay yerdan bo'lasiz?» – deganimda «Man asli xo'jandlikman. 13 yoshimda Buxoroga borgan edim. 25 yil tahsil qilub, xatmi kutub qildim. Endi ikki yil bo'ldi, mudarrislik o'rnin kutub turubman, muyassar bo'lmay turubdur», – dedi.

Man Buxoroning tariqayi tahsili xususinda so'z ochub so'radim. Mulla janoblari og'izlarin to'ldurub ushbu tariqa so'zga kirishdi:

– Buxoroda o'quladirgan kitoblar ustida bo'ladirgan tahqiqot hech bir mamlakatda yo'q. Chunonchi, «Kofiya» o'quladirgan bo'lsa, «Sharhi Mullo»ning xutbasidagi «Al-

hamdulillah»ning alif-lomi ustida necha vaqt munozara va munozag'alar tadqiq va tahqiq qilinur. «Shamsiya» o'qulganda Moin Rahmatullohning «va amma al-maqalat fis-salasa... va salasu maqalat» degan iboratlaridagi salaslarning qaysi birin zoyidligi xususida ikki yilcha tahqiqot ijro qilinur. Aqoidun Nasafiy, hokazo to oxir xatmul kutub shunday munozara va tadqiqot o'lurki, hech bir mamlakatda bunday yaxshi tartib yo'qdir. Eshitamizki, boshqa taraflarda darslarning hammasi yuzaki bo'lub, matnlarning tarjimasidan iborat emish. Sharh va havoyishlarg'a hech bir qaramas emishlar.

Man: Taqsir, shuncha o'qugan ilmlaringiz vagzalda yegan mushtingizga va ortuqcha ketkan 4 so'm pulingizga nima uchun mone' bo'lmadi?

Mulla: Ey, siz qiziq odam ekansiz. Man qachon bilit olish ilmini o'qudim? Manim o'qug'an ilmlarimning hammasi din ilmi va oxirat ilmidir. 5 kunlik dunyog'a dunyo ilmini o'qub o'turmak ahmaqlikdir.

Man: Din ilmidan tafsir, usuli fiqh va hadis ilmlarini ham o'qudingizmi?

Mulla: Yo'q, man hozir shul ilmlarning asbobini o'qidim. Bu ilmlarni qo'lum tekkan vaqtda o'zum o'qub olurman.

Man: Taqsir! Hozir mudarrislikni kutub turubman dedingiz. Agarda, Xudo berub, mudarris bo'lub qolsangiz, dars aytmak ila ovora bo'lub, yana ul diniy ilmlarni bilalmay qolursiz. Agarda siz 25 yillik umringizni loaqal besh yilini shunday diniy ilmlarga hamda tarix, jug'rafiya kabi fanniy ilmlarg'a sarf qilg'an bo'lsangiz edi, vagzalda ko'rgan xo'rlik va balolarni ko'rmagan bo'lur edingiz. Hamda tafsir, hadis

kabi eng zaruriy bo'lg'an diniy ilmlarni «qo'lim tekkanda ko'rub olurman» degan bo'sh xayollar ila qolmasdan, allaqachanlar bilub qo'yg'an bo'lur edingiz.

Man bu so'zlarni so'ylab turgan vaqtimda mulla bechora rost-rost deb boshin qimirlatub turub edi. Shul vaqtda Hovos istansasiga yetkanligimiz ma'lum bo'ldi. Bu yerda vagunimiz olishing'an sababli suyukli hamrohim bo'lg'an ul mulladan ayrilub qoldim.

Mulla Shoh Mahmud Isroilboy o'g'li

TEMUR G'ILDIRAKLAR USTIDAGI TUSHLARDAN

I

Atrofimdan g'aflat bosar, nafsim lazzatli uyqu mevalarin yemak uchun manim ila tortushub kelur edi. Lekin keladirgan shahrimiz katta bir shahar bo'lgani sababli oni ham vagun derazalaridan ko'rub o'tmak adabsiz va ozg'un nafs uchun lazzatli bir g'izo[13] edi. Paravo'z ajib bir qahramonlik ila olg'a yurar, oning ortidan (o'zlaricha ulug' sanalgan bir kishining har so'ziga labbayka deb turgan zaif tabiatli insonlar kabi) shopildab va qirildab vagun g'ildiraklari dumalar edilar. Lekin ul shahar hali ko'zga ko'rinmay, uyqu esa nafsimning ko'krakig'a minub o'lturgan edi. Joyim o'nkayli vagunning havosi yaxshi bo'lgani uchun a'zolarim og'irlashub, ixtiyorlarin yo'qoltig'an edilar. Shul vaqtda kandukto'rlar «Varo'nij» deb qichqirdilar. Lekin ul minut-

[13] Ovqat, taom

larda manga uyqudan lazzatli bir narsa yo'q, dunyoning eng ulug' shahri bo'lg'an «Lo'ndo'n» ismin eshutsam ham, joyimdan qimildamak ehtimolim yo'q edi. Hamrohim bir gimnazist Varo'nejg'a kelmakda, oning rohat-rohat uxlashi go'yo shaharning uzaq bo'lishin bildirmakda edi. Mazkur xayollar ichida kelganda yumshoq joy va og'ir g'aflat ta'siri ila qo'limg'a manim ixtiyorimni ushlagan o'sal nafsimning nasihatin qabul etub ko'zlarim yumdim. Uyqug'a ketdim. Shul vaqtda (po'yizdimiz bir kichikroq istansada to'qtag'an bo'lsa kerak) g'ildiraklarning tovushlari kesuldi. Atrofimni juda mungli bir jimjitlik bosdi. Badanim og'irlashdi, nafsim nihoyatda qattig' va chuqur uyqug'a ketdi.

II

Badanim temur g'ildiraklarning harakatlari ila tebratilub vagun ichinda, muhitdan tamom munosabatin kesub bormakda edi. Lekin bu vaqtda man o'zim, bilasizmi, qayda edim? Go'yo po'yizdimiz to'qtagach, vagundan chiqdim va ul istansada yura boshladim. Bu vagzalning oldi butunlay salla va chopong'a g'arq bo'lgan inson to'lqunlari ila to'lmish edi. Bu musulmonlarning har birining qo'lida choyjo'shlari bo'lgan holda olarni ushlab hammasi suv oqganidek bo'lub bir yoqg'a qarab borar, shoshub biri birin bosar edilar. Vagzalning ikkinchi tarafig'a oylansam, bunda ham haligi abi xalq to'lgan, ul joycho'shlarda ba'zilari choy ichar, tahorat olur va ba'zilari poklanur va yana bilmam nimalar qilur edilar. Nariroq ko'zimni yurutsam, qizil vagunlarning eshuklari ochiq, olarning ham ichlarida ola choponlar va har xil rangda sallalar ko'rilub turadir. Demak, barakat-

li hujralar ham musulmon ila to'laydir. Bu qanday islom olami, subhanalloh, bu qanday ajib xalqlar deb yurganda shul keng maydonning eng uzog'idagi burchagidan sizg'irgan tovush kabi o'tkur ovozli, yolg'uz man umrimda ham eshutmagan bir xil musiqa sadosi va ko'b og'izlardan bir yo'la chiqgan inson ovozlari qulog'img'a kirdi. Taajjub qilub shul tarafqa qarab bordim. Ne ko'zim ila ko'rayim, katta bir samavarning oldig'a nihoyatda ko'b xalq davra olub yig'ilgan va hammasi salla va choponsiz ochiq ko'krakli va yalangoyog'li yangi uxlab joylaridan qalqgan (?)[14] musulmonlardan iborat edi. Xalqning o'rtasidan muziqa tovushi va ochiq ko'krakga qo'llar ila urmakdan hosil bo'lgan, yana boshqa turli mani hayratda qoldiradirgan allaqanday ajib tovushlar kelar edilar. Endi bu yangi olamlarni dunyo emasdir deb turli vahm xayollarg'a cho'ma boshlagan va po'yizdimni butunlay xotirdan chiqarub yuborgan ekanman. Bundan so'ng nima bo'lganin va qancha zamonlar o'tkanin man hech xotirlay olmayman.

III

Faqat esimda qolgani shulg'inagina: man bir tegirmon ichida tegirmon toshlarining va g'ildiraklarining harakatidan hosil bo'lgan zirildovlar ila terbanub bormakda ekanman. Butun devorlar titray, derazalar zirilday, toshlar va g'ildiraklar baqirg'andek bo'lub aylanur edilar. Shunday yot va munosabatsiz bir joyda go'yo man joyimg'a yotub borar ekanman. Go'yo tegirmon yurub borur, yaqinda bir o'ring'a yetkach turma kabi sovuq va ko'ngilsiz bir yerdan mani chiqarub yubormakchi bo'lganlari xotirimda

[14] Asl matnda shunday

qolg'andek bo'lar edi. Lekin mani uyqu bosqan, a'zolar og'irlashkan va asablar tamom uyqug'a tolub ketmakda edi. Mani uyqudan man' qiladirgan hech bir mone' falon yo'q. Faqat yotqan joyimg'a yaqin bir katta eshik yonida salla-choponlik ikki semiz kishining (man bo'larman mazkur tegirmonning xo'jalari deb olarg'a qarshi hech bir so'z aytolmas edim) allaqanday yomon ovozlar chiqarub keluvlarindangina juda qo'rqa edim. Nechuk bo'lsa ham uxlay olmagach, bunlarning so'zlariga quloq soldim. Alar shul tariqa so'ylashur edilar:

– Ichsang-chi, To'qtay okam, tezroq yetub qoliymiz.

– Ushla, Olim, ushla. Tushkanda qizilroq bo'lurmiz, ehtimol, Pashaxon qarshi chiqar.

– Qiztalog'ni ul kuni nima uchun jahli chiqgan ekan? Juda sozdi, quy, qarshi chiqmas, quy.

– Endi u kundan keyin man olardan xat oldim. Ul bizga no'mir olub qo'yg'andir. Xatinda: «Ul kun man kasal, betob edim. Shuning uchun sizning aytkan so'zlaringizg'a jahlim chiqdi, kayfim o'chdi. Afu qilasiz. Endi kelur kuningizni bildirub manga tilg'irom bersangiz, sizga juda tinchlik no'mir tayyorlab qo'yar edim», – debdir. Kechasi u ... [15] nariga borganda po'chtaxonaga kirub tilig'rom berdim-ku. Shul tilig'romni yig'lay-yig'lay kimg'a yubordim deysiz? Albatta jon ... g'ade.

– To'qtay okam. Rostdan gapurasanmi? Oh, vagzalga chiqsa ekan, oh!

– Ha, shoshma. Xudo xohlasa, albatta chiqadi. No'mir ham, shoyad, tayyordir. Sekin gapur.

[15] Asl matnda shunday

(Shul vaqtda ikkinchi tarafdan bir ovoz eshutuldi: Ox, sarti, izdes nilza balo'vatsa. Eto' iftaro'y qlas, uxadite otsyuda.)

– Net, net, gachpadin, chichas tushamiz. – Biroz tovushsiz turgach: – To'qtay okam. Qani yeyub-ichub bo'lung, yetub qolarmiz. Olimjonboy bundami ekan? Ul gajitachilardan ham o'tkazub yubordi-ku. Doyim gajit, jadid degan bo'lub boshlarni oylandurub bituradir. Nima degan gapdir u gajitlari?

– O batchag'arni gajiti qursun. O'rislar ko'chalarda sotadir-ku, shunday gajitni yaxshi yodg'a tushurding. Shul o'ris vaqzalda bo'lsa, qochub ketishning harakatinda bo'laylik. Yo'qsa, boshimizg'a balo bo'lur. Bulay ham boshlar oylanub turubdir. Endi tez kelurmiz, karzinkani oling, vago'n oldig'a chiqayluk, juda isub ketdi.

IV

Bundan so'ng qancha vaqt o'tkanidan xabarim yo'q. Turli shaqildag'an oyog' tovushlari, bir-birining ismi ila qichqirg'an xotun-qiz ovozlari ichida uyg'onub ko'zimni ochsam, ne ko'zim ila ko'rayin, joylarga yangi-yangi yo'lovchilar va har xil bag'ajlar to'lg'an edi. Man juda g'alati tushlar ko'rub, allaqanday olamlardan kelganim uchun butunlay shoshub vago'nimni tanimas bo'lg'anman. Shul vaqtda haligi hamrohim gimnazist kelub qo'limni ushladi va: «Dasvidaniya, mo'y drug'. Vo't vashi veshchi, tipir minya pridyutsa islizat, dasvidaniya», – deb samimiy suratda ko'rushub manim odashqan va yotsing'an ruhima tasalli berdi, ham vago'nim ila tanishdirdi. Manam turub o'lturgan o'rnima qarshi vago'nning ikkinchi tarafida ikki barishna qo'llarig'a bir o'zbek

to‘ffisi ila bir shishag‘a soling‘an yashil mayda narsa ushlab hayron bo‘lub: «Eto‘ ishto‘, eto‘ ishto‘?» – deb turar edilar. Vago‘n ustalida butilka ham bor edi. Bul to‘ffini ko‘rub (chunki manim o‘qug‘an madrasalarda bu to‘ffilarg‘a: «Buxoro tarafidan kelgan, tabarruk», – deb salla o‘rab turuchi mullabachalar bor edi), uyqudag‘i ko‘rgan olamlarim biri birin mutaoqib xayollarga kela boshladilar. Man shulay tushimning narsadan iborat bo‘lg‘anin juda yaxshi istixroj qilsam ham, yashil maydaning nima bo‘lishig‘a bundan bir necha yil muqaddam Buxoro madrasalarining birida dars ko‘rub o‘lturg‘andag‘ina ittifoqo tushunub qoldim. «Temur g‘ildiroqlar ustidagi tushlardan» shundog‘ voqe’g‘a mutobiq bo‘lg‘anlari ham bo‘lur ekan deb Turkistong‘a kelub, uyog‘ holda mazkur manzaralarni ko‘rgach, yanada ravshanroq ongladim. Ul islom olamlari bunda ekan.

A.Muzaffar

MATBUOT

FELYATUN

Muhtaram muharrir afandi! Ushbu maktubimizni g'azetayi marg'ubingizg'a darj etmagingizni rijo qilurman.

Faqir necha yillardan beri Ostroumof tarafidin nashr o'lunadurg'on «Turkiston viloyatining gazeti»ni o'qumoqdaman. Ammo bu g'azetani o'qumoqdin g'araz din yo dunyom uchun bir foyda hosil qilmoq emas. Balki faqat missiyo'nerlarni dini islomg'a qaysi tarzda chang urub, musulmonlarni qaysi hiyla ila yo'ldin ozdurmoqlarini bilmakdur. Bu g'azetada musulmonlar foydasig'a doir biror maqola ham yozilmag'ondin muddao musulmonlarin g'aflatg'a tushurub xor va zalil etadurg'on maqolalar nashr o'lunmakda edi. Mundin boshqa bir shey yozilsa, ul ham Ostroumofni musulmonlarg'a nihoyatda do'st va muharriri mullo Olimni nihoyatda dindor va taqvo kishilar ekanligi yozilub, musulmonlarni g'aflat va jaholat otashig'a otmakda edi. Bu g'azetani fikri makkoronasi musulmonlarni mas'ud va mutaraqqiy o'lmoqlarig'a aslo rozi emas edi. Va ham Turkiston mamlakatining musulmonlarini bu darajada g'aflatg'a tushub, ikki dunyo saodati o'lg'on ilm va maorifdan mahrum o'lmoqlarig'a birinchi sabab shu g'azeta o'ldi demak xato emasdur. Chunki bu g'azetada musulmonlarg'a ilm va ma'rifat uchun oson yo'llarni ko'satmag'a doir bir

band ko'rulmag'onidin muddao boshqa g'azetalarda ko'rsatilg'on oson yo'llarg'a bu g'azetani muharriri (mullo Olim afandi) sad chekmakdadur. Bu muharrir afandi g'azetasig'a bir yaxshi so'z yozsa, ul ham Ostroumof to'ra bir necha muhim afkorlar ila musulmonlarni ibodatxonalarig'a borub poymol qilg'oni va ba'zi mutaassib eshonlar bularni e'zoz va ikrom qilib ibodat uchun bino qiling'on masjidg'a olub kirib ziyofat qilg'onidur.

Qachonki Toshkandin musulmonlarg'a maxsus «Taraqqiy» nom bir g'azetayi islomiya chiqub, musulmonlarg'a to'g'ri yo'lni ko'rsata boshladi. Man umid etdimki, Ostroumuf va aning muharriri Mullo Olim emdi u qadar qabih va mug'affil[16] va muzir maqolalarni nashr etmakdin hayo qilurlar deb. Ammo «Taraqqiy»ni birinchi no'mrasida «Bizni jaholat jahli murakkab» sarlavhalik musulmonlarg'a to'g'ri yo'lni ko'rsatub g'aflatdin uyg'otmoq uchun yozilmish muhim bir felyetunni rad qilmoqg'a jasorat etkani umidimning aksini ko'rsatdi. Musulmonlarni g'aflatg'a tushurmak uchun yoki o'zini dindor ko'rsatub musulmonlarni hiyla qudug'ig'a solmak uchun necha yillardan beri turluk-turluk makromiz maqolalar nashr etgan, eng to'g'risi, musulmonlarni Ostroumuf kayfi barobarig'a sotgan mullo Olimni bu yolg'on va kizbi sirf radlarig'a aqllik kishilarni aslo quloq solmasliklari shubhasizdur. Bovujud milyunlarcha musulmonlardan o'zini qardoshi va maslakdoshi Ostroumufni «molodes» degan so'zini ortuq va muqaddas ko'rgan bir xoing'a muqobala qilmoq insoniyat iqtizosi o'lg'oni uchun bu zirdag'i so'zlarimni yozmoqg'a majbur o'ldum. Ey Mullo

[16] nodon

Olim! Yo shuncha yillardan beri Ostroumuf ila barobar musulmonlarg'a qurg'on makr va hiyla tuzog'laring kifoya qilmadimu? Holo ham musulmonlarni ozg'urub saodat dorin o'lg'on ilm va ma'rifatdin mahrum qilmoqg'a ijtihod qilasanmu? Xayr, musulmonlar ko'z ochmoqdadurlar. Har qancha hiylaomiz, yolg'on so'zlarni g'azetingg'a yozsang ham, sani hiylalaringg'a musulmonlar toyilmaslar. Va har qancha faryod qilsang ham, musulmonlar qaro yuzingni ko'rganda mufsid, muzir[17], kazzob deb yuzingg'a tuf qiladurg'on zamonlari yaqinlashmakdadur. «Taraqqiy»da yozilmish «aziz bolalarimizni jaholat otashig'a yondurg'uchi behamiyat va bediyonat otalar ham oz emasdur» degan jumlani rad qilmog'ingdin arzing nadur? Shar'an farzi ayn bo'lg'on olamni tahsil qilmakdin o'z avlodini man'. qilub shariatni poymol va o'z avlodini saodatdorindan mahrum qilg'uchilarni diyonatlik va hamiyatlik deganingmu? Agar shu ersa, bu arzing fosid va noma'quldur. Chunki hech bir diyonatlik va hamiyatlik kishi o'z farzandini dunyo saodati o'lg'on ilmdin bebahra va mahrum qilmoqg'a jasorat etmas. Va bu kori noloyiqg'a jasorat etgan kishi, albatta, behamiyat va bediyonatdur. Va bu tariqa kishilar jumlasidin o'lmog'ingni ob-ochiq ko'satmakdadur. Qonuni ta'lim va tarbiyatdin bebahra, hatto savod va xatni ham lozimincha bilmaydurg'on muallimlardan shikoyat qilmoq, maktablarni isloh qilmoqg'a bolalarg'a lozimincha ilmdin ta'lim bermoqg'a va bu ta'limlarg'a muqtadir muallimlar tayin qilmoqg'a taklif qilmoq jaholat sababidan paydo bo'lg'on fasod axloqdan musulmonlarni xalos o'lmoqlarini orzu

[17] Zarar

qilmoq emasmu? Shundog‘ o‘lsa, sani ul maqolag‘a qarshu javob yozmog‘ing musulmonlarni saodatig‘a qarshu hujum etmog‘ingni aloqa ko‘rsatmakdadur. Sani bu yozg‘on raddiyang shuncha yillardan beri qilg‘on hiyla va makrlaringni mustahkam qilmoq uchun avlodi musliminning andog‘ qavoidi ta’limdin bexabar muallimlarni qo‘lida tarbiyat topub jaholatda qolmog‘ig‘a harakat qilmog‘ingdin boshqa bir shey emasdur. Musulmonlarni o‘z qardoshing Ostroumuf tuzog‘ig‘a tushurmak qasdida yozg‘on javobing ila barobar o‘zingni xalqg‘a dindor ko‘rsatmak uchun Munavvarqori ustod mo taqaddum va salafi solihiynlarni shikoyat qildi deb turluk-turluk kizb va bo‘htonlarni Munavvarqorini haqig‘a yozmishsan. Ajabo! Munavvarqorini yozg‘on so‘zlari hanuz maydondadur. Qoriyn «Taraqqiy»g‘a ma’lumdurki, ul so‘z orasida mutaqaddimiyn ahli islomni shikoyatlarig‘a doir kalima ham ko‘rulmas. Har shikoyatiga bo‘lsa faqat zamoni hol muallimlarini haqindadur. Ham to‘g‘ridur. Chunki muqaddam zamonlarda ahli islomni maktab-madrasalari mundog‘ beusul va betartib emas edi. Shuning uchun musulmonlar orasida ul vaqtlarda ulamo va hukamo va sohibi kitoblar ko‘b erdilar. Ko‘rdingmu? Ul janoblarni ta’lif qilib ketgan asarlarini bu zamonda biladurg‘on, hatto iboratlarini ham durust o‘quydurg‘on olimlar yo‘q darajasida kam qolmishlar. Bunga sabab islom orasida fisq-fasod va jaholat hukm surub, xususan, san kabi ismig‘a ishonub ilmdan mahrum qolg‘on va o‘zini ilmdan mahrumligig‘a iqror qilmay jahli murakkabda qolg‘on mone’ ilmlar paydo bo‘lub, xalqni ko‘zig‘a g‘aflat pardasini chekkan mutaassiblar o‘lmish. Buni samarasi o‘lmoq uza necha asrlardan

beri maktab va madrasalarimiz o'yunxona va yotoqxonag'a mubaddal bo'lub, oramizdin ilm, sanoat butun mavh o'lmish darajasig'a yetmish. Bir kishi bolig' zamonida anga namoz o'qumoq, namoz o'qumoq uchun tahorat masalalarini bilmoq va namozni farz, vojiblarini ayirmoq va namozda qiroat qilmoq uchun tajvid ilmini bilmoq farz ekan, na uchun bu ilmlar tashlanub, maktablarimizda Xo'ja Hofiz, Bedil, Fuzuliylar kabi mustahib darajasida o'lmag'on kitoblar o'qulur? Bu tariqa farzi ayn bo'lg'on ilmlar madrasag'a mavquf qo'yilur. Vaholanki, madrasalarimizda ilmi tajviddin hech bir asar yo'q. Aksar madrasalarimiz masalayi fiqh o'qumoqchi bo'lg'on talabalarni man qilurlarki, san ilmi fiqh o'qub imom bo'lursanmu, ilmi fiqhg'a umringizni zoye qilg'uncha ilmi zaruriyalarni o'qusang bo'lmasmu deb. Ilmi zaruriya deganlari esa yolg'uz Sharhi mullo va Hoshiya kitoblarini debochasidin iboratdur. Bu ravishda besh-olti yilg'acha talabalarimizni qulog'larig'a ilmi fiqh, e'tiqodot, ilmi qiroat kabi farzi ayn bo'lg'on ilmlarni sadosi aslo bitmas. Madrasalarimiz bu sifatda bo'lg'onda avlodi musliming'a hamadin muqaddam farz bo'ladurg'on ilmlarni maktabda o'qub chiqmoq lozim emasmu? Yoki bu ilmlarni farzlig'ig'a inkor qilasizmu? Yoki musulmonlarg'a avvalo Bedil, Shayx Sa'diy, Rashahot kitoblarini bilmoqni farz deb e'tiqod qilasanmu? Yo'q, afandim! Bu e'tiqodi fosidingizdin tavba qiling! Munavvarqorini aytgan so'zlarida na usuli qadima va na usuli jadidag'a doir biror kalima so'z yo'q edi. Faqat ahli islomg'a avval farz bo'ladurg'on ilmlarni maktablarda o'qutmoqg'a taklif va ba'zi befoyda kitoblarni maktablardan mavh o'lmog'ini orzu qilmoq va musulmonlarg'a bir oson

yo'l ko'rsatmak edi. Xoh ul tartibni ismini usuli jadida deng, xoh usuli qadima deng. Mani fikrimcha, Munavvarqorini bu maqolasig'a rad yozmoqingiz qardoshingiz Ostroumuf to'ra (ispasiba) degan shirin so'zini eshitmoq orzusida musulmonlarg'a qilg'on hiyla va dasisalaringizni buzg'oni uchundur. Ey muharrir og'a! Insof qiling. Alloh taolo rizosini topmoq Ostraumufni (ispasiba)sini eshitmoqqa mavquf emas.

Mani Munavvarqorig'a hech bir aloqa va shinosim[18] yo'q. Faqat insoniyat yuzasidin bu javobni yozdim. Bundin moadosini[19] «Taraqqiy» g'azetasini o'qug'uchi zoti kiromg'a, alalxusus, Munavvarqorini o'zlarig'a havola qildim. Bunda kazzob va mutaassib kishig'a muqobala qilib yaxshilab javob yozmoqlarini in samimul qalb rijo qilurman.

Abdulhamidxon

«Taraqqiy»

Afandim! Garchi biz 6nchi numerimizda yozg'on felyetunimizni oxirida Ostroumuf g'azetasida yozilg'on chepuxalarg'a javob yozib g'azeta sahifasini qorayturmoqdin ijtinob etmakimizni va'da etkan eduk. Lekin janoblaringizni maktubingiz to'g'rilik va betaraflikda «Taraqqiy» maslakig'a nihoyatda muvofiq o'ldig'ichun darajayi munosib ko'ruldi. Va ham mazkur va'damizg'a binoan Munavvarqoridan etkan rijongiz ham faqat sizni maktubingizg'a iktifo qildi. Yanadin yaxshilab javob yozib bir kishini mundin ziyoda sharmanda qilmakni munosib ko'rmaduk.

[18] Tanishlik

[19] Boshqa

BOYLAR, BUYROQRATIYA VA G'AZETA

Nashr etdigim «Taraqqiy» g'azetasining qonfiskovayt[20] etulmish birinchi, uchunchi no'mralari uchun mahkamag'a da'vat etub, soat uchda da'vatnoma kelishi ila no'g'ay boylarig'a murojaat etub holimni bayon qildum – kafil bo'lub olmoqliklarini va'da qildilar. Qilg'on himmat va g'ayratlarig'a daruni dildan tashakkurda bo'lundum. Hibsg'a tushadurg'onini eshitub vidolashmoq uchun Morozufg'a bir majlis yasalub, da'vat qilinmish edi. Mani ham da'vat qilg'on erdi. Binoan alayh no'g'ay boylarindan va'da olg'onimdan so'ngra taklif edildukim majlisg'a bordum. Yuzlarcha amala (robuchiy) va bir necha do'xturlar va bir necha advokatlar va boshqa mo'tabar zotlar ul yerg'a hozir bo'lunmishlar edi. Ruhg'a inbisot, qalblarg'a shodliq beradurg'on darajada majlis muntazam erdi.

Amala o'lsun va boshqa o'lsun, hama aralash o'lturub, birisi birisig'a xush muomalalarda bo'linur erdilar. Faqirlarni odamg'a hisob qilmag'on musulmon boylari kabi amalag'a nafrat nazari ila boqadurgan va alarni aslo e'tibor qilmaydurg'on mutakabbir zotlar yo'q edi.

Vaqtning bo'lg'onlig'i sababidan majlisni tamomlashmasdan avval vidolashub ketdum. Sudebniy isledo'vatelg'a bordum. Mandan vopro's olindi (javob so'raldi). Hukmig'a berilmish istatiyalarning ruschag'a tarjimasini ko'rsatmaklarini talab qildum.

Avval manga ko'rsatmoqni xohlamasalar ham, o'zumg'a oid bir ishdin xabardor bo'lmoq va bu ish mandin mastur

[20] Konfiskatsiya

qolmoqi uchun norozilik ko'rsatib istifsorig'a[21] javob bermoqimni bayon qilib ko'rsatmoqqa majbur qildum. «Taraqqiy» tarjimasi deb qo'limg'a kog'azlar berdi. O'qub ko'rgan onda hayratda qolub, manga oid kog'azlar erkonig'a shubhag'a tushung'udek o'lub, balki, tushub yana bir martaba qarab o'qub chiqdum. Mani ismim va familiyam yozilg'on sababindan shubha mandan zoyil bo'ldi. Agarda ismlarum yozilg'on bo'lmasa erdi, boshqa bir odamg'a oid kog'azlarni xato manga beribdurlar deb da'vo ham qilur erdum. Zero, tarjima hech «Taraqqiy» tarjimasi bo'lmay, balki o'zlari tarafindan yozilmish satrlardur. Tarjimada bo'lg'on kalimalarni o'zum yozmoq ul taraf tursun, balki yozg'onlarg'a ham nihoyatda g'azabim keladurg'on ravishda edi. Insof va aql sharofatlarindan modomiki xoli va mahrum emas, balki xotirg'a ham keluradurg'on emas qoriyin kiromdan shuni o'tunub arz qilamanki, avvalg'i no'mir «Taraqqiy»din avvalg'i maqolani ikkinchi, uchinchi no'mridin alulamo varasatul anbiyo sarlavhalik maqolalarni yana bir martaba mutoalasig'a nazar diqqat buyursunlar. Yahudlarni o'qug'on boshqa millat odamlarni o'lduringiz, talangiz deb yozilmish bir satr yoxud onlarni zararliklarig'a yozilmish biror kalima ko'rdilarmu? Albatta, ko'rilmasa kerak. Holbuki, qo'lumg'a tarjima deb berilgan kog'azlar bu qabila so'zlar ila to'ldurulmishdur. Boshqa, ya'ni bul kog'azlarda har millatlarni talangiz va o'ldurungiz deb yozilmishdur. Bu kabi iftirolar, albatta, har kimni shoshurturmoqda bo'lur.

Bir odamg'a bu ila sarih berilg'on va iftiro isnod etmak kabi insoniyat va insof xorijinda bir ishni ortkab qilmoq-

[21] Savol

laridin arzlari nadur? Missiyo'nerlarning musulmonlarni yig'latadurg'on muomalayi vahshiyonalarini bayon qilin-g'on satrlarini hazm etolmaganliklarindan bizg'a og'u yut-turub shifo tobmoqchi bo'ldilarmu?

Xayr, birg'ina emas, ming martaba yutub, ming martaba uyla satrlarni hazm qilg'on missiyo'nerlar «Taraqqiy» satr-larini ham hazm qilsalar kerak edi. Ammo buyla iftirolari-na, albatta, bir boshqa sabab bo'lsa kerak. Maning fikrim-cha, iftirog'a kirishmoqqa majbur bo'lg'onlarini sabablari shudurki, musulmonlarni jaholat va g'aflatda qoldurmoq bularning jiddiy murodlari erkonligini har kim bilur, bayoni ham hojat emas.

«Taraqqiy» bo'lsa alarning maqsudlarig'a qarshu mu-sulmonlarning ko'zlarini ochmoqqa cholishqonlari uchun g'azablari harakatg'a kelg'onidin shul qabila iftirolar birla boshqa millatlar a'indinda[22] obro'yimizni to'kub, yomon va qabohatlik ko'rsatib intiqom olmoq istayurlar. Bola hisob qilib bizni hiyla va makr ostida ezmak istayurlar; xayr is-tasalar istasunlar. Maqsudg'a kelaluk. Tarjima deb ko'rsat-gan soxta kog'azlarni o'qug'onimdin so'ngra bu qabila soxta sheylarg'a javob bermay, faqat «Taraqqiy» maqolalarining tarjimasig'a javob bermoqni bayon qildum. So'ngra so'rovga qadar kafil bo'lub oladurg'on odam bormu? Onlar kimlar deb so'raganlarida va'da qilmish zotlarni ismlarini te'dod qildum.

Kafillardan so'z olmoq uchun sudebniy isledovatel telefo'nig'a murojaat qilib kafil bo'ladurg'on odamlarni mahkamag'a chaqirub so'z olmoq bo'ldilar. Ammo telefo'n buzilg'on uchun buning uchun mani ikki politseyskiy ila

[22] Oldida

kafil bo'ladurg'on odamlarni olib kelmoqqa yubordi. Va'da qilmish zotlarning havlilarig'a keldum, lekin havlilarida yo'q edilar. Bilmam qayu yerg'a qochmishlar – otxonag'amu yoki qo'rqg'on bolalar kabi krovat ostig'amu? Kirub nafas olmasdin qo'rqub yoturlar edi. Digar martaba borg'onimda ham qochqon joylaridin chiqmamishlar edi. Xona taftish qilmoq rasmi bo'lsa erdi, qochqonlarni tobmoq bir og'ir qiyin ish bo'lmas erdi. Bir necha havlilarg'a kirsam ham hol shul. Bu zotlardin umidimni uzub, so'ngra bir boyning havlisig'a bordum. Kirishim ila peshxonada sohib ila muqobil bo'lub ko'rushtum. Bu zo'r qursoqlik boyning yuzinda turluk-turluk rang ko'runmoqqa boshladi. Avval mani ko'rushi ila yuzida qoraliq asari, so'ngra orqamda bo'lg'on ikki g'o'rdovoy politsiyani ko'rishi ila yuzig'a yaxshilik va shodliq asari zohir o'ldi. Maning bu holg'a tushganim uning za'mincha[23] mahbus bo'ladurg'on kunim aning uchun go'yo bir shodliq kuni tug'mashi edi. Mahbus bo'lushim ila barobar «Taraqqiy»ning berkiladurg'onini umid etkani yuzida shodliq asarlarini isbot qilur erdi. Bizning mahbus bo'lushimizdan «Taraqqiy»ning berkilishidan bo'yla shod bo'lmoq bizg'a bir adovati tabiiyasi bo'lg'onidanmu? Yoki xalqni g'aflatdan uyg'otmoqqa aylanganimdan islomiyat dushmanlari missiyo'nerlar kabi achchig'i kelganidanmu?

Ozi[24] faqirlarni va xizmatchilarni talamoq uchun bor quvvatlarini sarf qilg'on bir vahshiy zot bo'lg'onligidan faqir va amala foydasini ko'rsatgan bir g'azeta nashr qilg'onimiz albatta bu boy tabiatig'a xush kelmagan bo'lsa kerak. Zero,

[23] Gumonicha
[24] Hirsi

bu shaxs kabi qursoq o'sturmoqni sharaf a'dd[25] qilg'on muomalayi zolimonalarni bu g'azetada nashr o'linub, do'kon va magazin va boshqa joylarda 18 soat xizmat etgan hollarinda ko'b oz haq olg'uchi, tun-kun haqorat etguchi xizmatchilarni haqlarun talab qilmoqqa da'vatnomalar yozilur. Bu g'azetaning ta'siri ila xizmatchi va fuqaro boylardan haqlarini olmoqqa ijtihod qilushlari vaqti tez kelmoqini qaviyan umid etmakdamiz.

G'azetamizda yozilmish maqolalarni fuqarog'a, xususan, amalag'a ta'sirindan muning kabi faqirlar dushmani bo'lg'on boylar albatta qo'rqurlar. Zakutni masrafig'a bermay, savdo tarafidin foyda kelturadurg'on o'runlarg'a sarf qilib va masrafindan do'ndurub ahkomi sha'riyaning oyoq ostig'a solub ezg'uchi yarim islomiyati qolg'on musulmon boylari fuqaroni zulm ostindan xalos qilmoq uchun chig'orilg'on g'azetaning va mudirining olamdan ko'tarulmoqig'a albatta shod bo'lsalar kerak. Agar mazkur katta qursoqlik boydan zakutning na uchun masrafig'a bermaysan deb savol qilinsa, ajibona javob bo'lur. Yo'qsa, a'yozi billah[26] Xudo bilmasdan ul masraflarni tayin etmish deyub javob berurmu? Ey qursoq, ey qursoq ul zot bu qursoq uchun na kabi zotlar ortkab etmadi.

Amin o'lsunki, man mahbus bo'lsam ham, bu g'azeta davom bo'lub tursa kerak. Muharriri, balki, 10 inchi mahbus o'lsa ham, bu g'azeta hamon davom etub, hozirg'i maslakning intishorig'a harakat qilmoqda bo'lur. Bu boy kabi jaholat xaltasidek kibr g'urur ila ko'tarilmish burnini kasr

[25] Hisoblamoq
[26] Xudodan panoh tilayman

qiladurg'ondur. O'qug'on odamning zararig'a harakat qilib qora yuzlik bir madaniyat dushmani ekanligi ila ulumg'a sad bog'lab ahli islomning o'zi kabi hayvonsifat qilib qoldurmoqni qasd qilg'on zotlar ismlari ila barobar «Taraqqiy» stunlarida bayon qilinsa kerak. Hozirg'i kabi zo'r qursoqlik no'g'ay boylari demay, balki, ismlari ila zikr qilinsa kerak.

Bu vahshiyning xotirig'a kelmasunki, man vakilg'a muhtojlig'im uchun oning havlisig'a bordum. Borg'onlig'im muhtojdan emas, balki aning xotirinda na borlig'ini imtihon uchun edi.

Munda muovanat kutmak shaytondin imon umid qilmoq kabi abas bir shey ediki, ko'b ochig' ma'lum edi. Rus millatindan ellik-oltmish insoniyatlik zotlardan bizg'a kafil bo'lmoqi uchun mahkamaga borishlari berkinmachoq o'ynashg'on soqollik sabiylarni kafilliklarig'a yoki insoniyat dushmani zo'r qursoqlik bu boylarning kafolatig'a muhtoj bo'lmag'onimni ko'rsatdi.

Bu boy maning xalos o'lg'onimni eshitub na rangg'a kirdi ekan? Tabiiy umidsiz shayton kabi bo'lub qolmishdur.

GAZET NADUR

Turkiston, Buxoro, Xivaga gazet nima ekanligini hanuz mingdan bir kishi bilmaydur. Agarda mingdan birgina bilsa edi, o'n uch milyun Turkiston va Buxoro va xivali qarindoshlarimizdan «Turkiston» va «Tujjor» gazetlarini bir ming uch yuz nafardan albatta mushtariysi bo'lur edi. Holbuki, bu uch mamlakat azima ahlidan iki gazetni mazkur adad-

ga barobar mushtariysi bo'lmasa kerak. (Turkiston gazetini hukumat amri-la olaturgan qozi va volosnoylar bu hisobdan xorijdurlar.) Oni uchun gazet nimadur va na foyda etar va qachon chiqdi va ilmlik mamlakatlarg'a gazet ahvoli va adadi na tariq ekanligi to'g'risinda biroz yozmoqni lozim bildim.

Hozirdan 195 sana muqaddam zamonlarga rum podshohlari keraklik amr va farmoyishlarni kog'azda yozib, umumiy xalqga bildurmoq uchun tarqatib va ko'runush joylarg'a osib xalq ma'lumotini ko'payturmoqiga sabab bo'lurlar edi. Hozirdan 1560 sana muqaddam yana farang hukumatlari orasig'a har bir yangi ish va keraklik xabarlarni yozib xalqg'a doimiy suratga tarqatmoq nafi zohir bo'lgan sababli ko'broq rasm bo'lub, mazkur yangi xabarlar yozilgan kog'azlarni gazet ismlik ikki tiyinlik oqcha badalig'a sotila ekanki, oning-chun «gazet» atalibdur. 1615 sanayi milodiyagacha gazetlar «dastnavis»[27] va g'ayri muntazam chiqar ekan. So'ngra bosma bo'lub chiqa boshlabdur. Borabora barcha ilm va xabarlik mamlakat va hukumatlar xalq orasig'a jaridayi mo'tabar bo'lub, ilmiy, diniy, fanniy, siyosiy, sanoiy, ijtimoiy, ixtiroiy va har guna bahslarni yozmoqga boshlab hozirgi darajasig'a kelturdilar. So'ngralari ahli islomni mutaraqqiy va mutamaddin mamlakat va hukumatlar xalqi orasig'a joriy bo'ldiki, bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Quddus mamlakatlariga har xil gazetlardan yuzdan ziyoda chiqar hind va ibronga ham ko'paya boshladi. Misr, Istanbul, Quddusi sharif mamlakatlarig'a turkiy, arabiy va forsiy gazetlar xeyli taraqqiy topib, ulamoyi amiro va udabo ko'b rivoj berib, din va millat naflikig'a iqror qilgandurlar-

[27] Qo'lyozma ma'nosida

ki, olami islomg'a gazetlarni yetkurgan nafini boshqa vaqt yozarmiz.

Har kun va yo haftada bir necha martaba chiqaturgan varaqa axboriyni gazet, g'azeta va olami islom orasida jarida ham ataladur. Haftada va oyinda bir necha martaba chiqaturgan va kitobcha shaklinda ibratnoma pand va xabarnoma va risolalarni jurnal va olami islom aro majalla ataladur. Jarida va majallalardan ba'zisi ajoyib va g'aroyib tasvirot va plonlik bo'ladur.

Russiya mamlakatida 1753 sanayi milodiyag'a bir necha martaba gazet chiqa boshlab va al-on har nav jarida va majallalarni adadi bir mingg'a yetib, balki, o'tadur. Russiya musulmonlaridan boshlab chiqqan jaridayi muhtaram «Tarjimon»durki, janob Ismoilbek afandini sa'y va g'ayrati ilan bu kun yigirma besh yoshidur. Russiyada hurriyati matbuot joriy bo'lgan uchun 1905 sanasidan boshlab Russiya musulmonlari g'ayrati ila 30 dan ziyoda jarida va majallalar Russiya olami islomiyag'a tulu' qilib, ammo o'qug'uchi va olg'uchinin ozligi uchun bugungi o'n qadaridan boshqasi chiqmadi. Ba'zisi doim fuqaro nafi va hukumat zarariga yozib turgani uchun hukumat tarafidan yotquruldi. Va hozirgi o'n qadar jarida va majallayi islomiyalar ham mushtariysizlikdin va xalqimizni o'qumoq va bilmoqg'a havas qilmaganidan, to'g'risi, xalqimizni nodon va bexabarligidan musulmoniy jaridalarimiz jon uzub turmoqda va anqarib yana ba'zisi chiqmay qolib dunyodagi ilm va xabarlik musulmon qarindoshlarimizdan va ajnabiy do'st dushmanlarimizdan bizlarga ayb va afsus yog'duradur...

Hafta yillik bir jarida va majallani chiqmoqiga yilinda to'rt-besh ming so'm kerakki, bu aqcha mushtariylardan jamlanur. Oni uchun gazet o'quchilarni ko'b va ozligi jaridalarni ko'b va ozligig'a sabab bo'lur. Va har toifa va din ahlini donishmandi va dinga zamona xizmat qilg'uchisi qancha ko'b bo'lsa, jaridasida shuncha ko'payadurki, bu da'vo ahli ilm va xabar qoshinda sobit va ma'lumdur. Russiya musulmonlari ichidan ba'zi donishmandlar ko'b va qattiqchilikni zimmalariga olib bir necha jarida va majallalarni zo'rg'a chiqarib turubdurlar. Va ba'zi saxovatlik boylarimiz, zarbga qaramasdan, jarida va majalla chiqarib tutubdurki, u jumladan bokulik janob hoji Zaynulobidin Taqiyuf, o'runburg'lik Mahmud Zokir va Mahmud Shokir Romiyuf va toshkandlik Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li janoblari va boshqalardur...

Jaridalarg'a dunyodagi barcha yangi va eski xabar va ishlar davlatlar orasidagi robitayi ixtilof va nizo va har bir davlatni quvvati moliya va harbiya va siyosiyasi va hukumatni har kungi yangi zakun va prikaz va tartibnomalari har bir xalqni va din ahlini taraqqiy yo tanazzuli va sababi va hukumat o'z fuqarosi to'g'risig'a qilib turgan yaxshi va yomon tadbir va hokimdoroligi va muddaosi har bir mamlakatni tijorat, sanoat, ziroat to'g'risindagi xabar va mulohazalar ulamo, hukamo va udabo tarafidan xalqqa teyishli nasihatlar hukmron va har xil ma'mur va mansabdorlarni adli yo yojivar va zulmi va fuqarolarni bul to'g'ridagi arz va dodi xulosayi dunyog'a neki kerakdur va tirikchilikg'a lozim bo'ladur jarida va majallalarg'a yozilib turar, xalqg'a dafi zarar va jalbi manfaat uchun yo'l ko'rsatib turar... Har firqani o'z din va

millatig'a qilaturgon xizmat va millatparastlik o'shal firqani gazeta ila ma'lum o'lur, har toifani jaridalari o'shal toifani miqyos va mezonidur. Voizi umumiysi va nosihi muassiriydur. Sho'ylaki jarida oyinayi jahonnomadur. Gazet o'quydurgan kishi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni va har toifaning taraqqiy va tanazzuli va oni sabab va illatini, o'z din va millatig'a qayu toifa do'st, qayu toifa dushmanligini bilur. Hayoti ijtimoiyasiga na lozimdur bilur. Jarida va majallalarni o'quy bersa, tirikchilikg'a va hozirgi zamonaga na kerakdur, barchasiga ilm va fikr hosil etar. Muvofiqi zamon sa'y va tadbirg'a kirar... Jarida va majallalar diniy, fanniy, siyosiy, adabiy, latoif mazhakayi, iqtisodiy, harbiy va oliy oxir qismlarig'a bo'lunur va ba'zilari musavvirga har xil odam va hayvonot va mamlakat va ashjor va ajoyibot dunyoni surat va plonlarini ko'rsatur. Har toifani ilm va sa'y va g'ayrati jarida va majallalarining adadi va alardin istifoda qilinaturgan pand va ilm va ma'nosi ila bilunur. Biz bu mahalda dunyodagi ahli ilm va xabar davlat va xalqni jaridalari adadidan namuna ko'rsatib ushbu maqolamizni tamom qilarmiz.

Va har kim o'zi biz musulmonlarni ilm va xabar to'g'risinda qancha keyin ekanligimizni o'zi fikr qilib bilsa kerak va ushbu tubandagi hisob va raqamlar daloyili muqanaadur[28]. «Tujjor»ni boshqa bir nusxasiga biz yer yuzidagi mutaraqqiy xalqlarni maktab va madrasa va ilmlaridin bayon qilarmiz. Tubanda yozilgan davlatlarni Amerika, Avstraliya va Afriqa qit'alaridagi tobelari zildagi hisobdan xorijdur.

Samarqandiy mufti Mahmudxo'ja Behbudxo'ja xatib o'g'li

[28] Qanoat, kifoya qiladigan isbot

Xalq va hukumatlarni ismi	Xalq adadi (milyun)	Jaridalari adadi
Qo'shma Amrika xalqi	80	20000
Germaniya	56	6400
Fransiya	40	3600
Anglis	41	4100
Avstriya-Vengriya	45	2600
yopunlar	49	2000
italiyanlar	33 ikkidan bir	1800
rusiyaliklar	130	1000
Belgiya	7	1050
Shvedsariya	3 ikkidan bir	700
Ispaniya	18	900
Gollandiya	5 2 danl	600
Turkiya maa Misr	40	200
Portugaliya	5	250
yunon	2 2 dan bir	200
Rumoniya	5	110
Siriya	2 2 dan 1	60
Eron	9	9
afg'on	5	Yo'q

Buxoro	2	Yo‘q
Xiva	1	Yo‘q
Turkiston	10	Birgina «Tujjor»
Jami Rusiya mamlakatlari	20	O‘tuzga chiqib, o‘nga tushdi

TURKISTONLI QARDOSHLARIMA OCHIQ XAT

Siz Turkiston atrofindagi zamona ahvolidin xabardor qardoshlarima «Oyina» vositasi ila bir-ikki so‘z yozmoqni ixtiyor etdim. Umid qilurmanki, sizlar ham ushbu fikrg‘a ishtirok edub, millat taraqqiysina marhamat ko‘zi ila qarab, hamiyat qulog‘i ila tinglab, himmat qo‘li ila kirusharsiz.

Ogoh o‘lingizki, har bir millat jurnal va gazet chiqarmoq o‘lsa, o‘shal millat bolalari jon-u dil birla suyunub, quvonib qarshi olurlar; moddiy va ma’naviy yordamda bo‘linurlar, oyo bizlar emasmu yangi adabiyotga tashna va urusna holda umr o‘tkarguvchilar? Ne uchun bizda boshqa millatlar kabi majalla va jarida yo‘q? Albatta, bul bizlarning ishsizlik va ilmsizligimizdandur. Agarda bizlar ham o‘z ona tilimizda bo‘lg‘on bir dona majalla va gazetimizni boshqa millat bolalari kabi tirishub o‘qusak edi, bizlarg‘a ham o‘nlab, yigirmalab gazit, jurnal vujudg‘a kelur edi. Boylarimiz ham majalla va gazeta nasihati va tanqidini tinglab, aziz bolalari uchun qayg‘urub, bid’at ishlara qiladurgon behuda sarfla-

rin qo'yub, millat taraqqiysig'a cholishurlar edi. Ulamolarimizda majalla va g'azeta sababi-la ahvol va ijobi zamondan xabardor bo'lib, millatg'a, zamonga xizmat qilur edilar, insof edingiz...

Qardoshlar! Bir yuz ellik mingdan ziyoda Toshkand aholisidin (universitetni qo'ya turaylik) gimnaziya bitirgan bir jo'ra kishi yo'q, zamoniy ishlarimizg'a odam yo'q. Har sana Toshkand atrofinda uloq chopib, necha kishi otdan yiqilub o'ldi desa, 100 dan ziyoda deb javob berilsa mubolag'a bo'lmas. Muharrir adib bormu deb savol qilinsa, albatta, javob topmassiz, tol chibiq ila jin quvadurgon sohib karomat, duoxon, rammol-folchi izlanilsa, har mahalladan ikkilab-uchlab topilur. Ey qardoshlar! Atrofa boqing-da, harakat eding, millatg'a yordamda bo'lmoqi o'zlaringizda vojibdur.

Endi millatning «Oyina»sini birlashub, eng bo'lmasa, moddiy jihati tuzulgancha olib bormoq kerak. «Tujjor», «Xurshid», «Taraqqiy», «Turon», «Buxoroyi sharif»dek mundin ham bebahra va benasib o'lub, butun dunyodagi millatlar oldinda sharmisor o'lub, xijolatda qolmayik. Mundan o'n yillar muqaddam bizlar kabi yashagan totor qardoshlarimiz hozirgi kunda bor quvvatlari ila g'ayrat qilub madaniyatda birinchi darajada turg'on rus vatandoshlarimiza yetub boralar. Bunlar barchasi ijtihod va ittifoq samarasidur. Ko'z oldimizda shundayin dindoshlarimiz turg'onda, na uchun bizlar shulardan ibrat olmaymiz, shunlar ila qo'l-baqo'l tutushub taraqqiyning ijtihodinda bo'lmaymiz? Ijtihod va ittifoq lozim, qardoshlar!

Toshkand To'lagan Xo'jamyorov

FELYATUN

Ushbu yil Hamal oyining avvalida Samarqand shahriga tijorat ishi uchun borib edim. Ba'zi ishlarimni biturub, qaytushda Samarqand istansasida uchunchi klasga bilat olub, yuklarimni bag'ajga berub, poyizdga chiqub o'ltirub edim. Bir semiz, qizil yuzlik, sersoqol, soqolining yarmi oqargan, baland bo'ylik, yaxshi libos kiygan, sallasi katta, silliq o'ralgan savlatlik kishi kelub yonimda o'lturdi. Uning orqasidan bir malla to'nlik, qora soqol, o'rta bo'ylik, kiftiga bir katta xurjun, ko'rpa va ko'rpacha ko'targan kishi ergashgan edi. Ul savlatlik kishining ishorati ila ul ham manim yonimda o'lturdi. So'ngra odamlar tiqilishib, itarilishib kirib poyizdni bo'lmalarig'a to'lub o'lturdilar. Shul asnoda uchunchi jom urulub, poyizd harakatlanib jo'naldi. Man shul bo'sh fursatdan foydalanub qo'ynimdagi Samarqandda chiqadirgan «Oyina» majallasini olub mutolaa qilmoqg'a boshladim.

Yonimda o'ltirgan savlatlik kishi bir nima so'zlagandek qulog'imga yetdi. Bu savlatlik kishi yuziga boqdim. Ul g'azabomiz ko'zi ila manga mutavajjih bo'lub:

– Bul g'azetamu, kitobchamu, nimadir?

Man: Bul «Oyina» majallasi, Samarqandda haftada bir bosilub chiqadir.

Savlatlik kishi bu javobni eshitub, bir oh tortub: Ajab, ajab zamonalar bo'ldi. G'azita va usuli jadida va Padarkush degan balolar chiqdi. Yana necha-necha alomat, qiyomatlar chiqarkin deb ro'baro'da o'lturgan sallalik odamlarga qarab bir nima javob kutkang'a o'xshadi. Ro'baro'sidagi odamlar bir so'z aytmay, sukut ila o'tkardilar.

Savlatlik kishi yana manga qarab: Siz g'azitachi, usuli jadidchilardanmu?

Man: Toshkandlik savdogar, Chimkantda do'kondorlik qilurman. G'azitachi, jadidchi emasman.

Savlatlik kishi: Mundoq bo'lsa, siz ishlik savdogar odam ekansiz, nima uchun bu tariqa afsona g'azit va kitobchalar o'quydirsiz? Bul hech ishi yo'q bekor odamlar uchun emasmu?

Man: Savdogar va do'kondorlar hamma soatlarda va vaqtlarda birdek savdo qilub turmaydurlar. Bo'sh vaqtlari ham bo'ladir. O'shandoq bo'sh fursatda uch, to'rt kishi yig'ilub behuda so'zlar, shikva-shikoyatlarg'a shug'l qilmasdan, aning o'rnig'a yangi xabarlar va foidalik ma'lumotlarni g'azir va majallalardan o'qub bilim va ibrat hosil etmak yaxshiroqdir.

Savlatlik kishi: Bul g'azitalar va majallalar shikva-shikoyat emasmu? Har odam o'z oqchasini sarf qilub to'y, tamosholar qilsa va duogo'y eshonlarg'a to'n va choponlar bersa yamon deb yozadirlar.

Man: Bul g'azita va majallalarda yozilgan mazmunlar shikva-shikoyat emas, balki pand va nasihatdir. G'azita va majallalar bir ibratnamo oyinadirki, har kishining atvor va axloqini, chehrasida sahv va nuqson, kudurat va g'ubori bo'lsa, ani o'zig'a ko'rsatadir. Toki ul kishilar o'z sahv va nuqsonlarini, kudurat va g'uborini ko'rub va bilub o'zlarini isloh va toza qilsunlar. Bizim Turkistondagi to'y va tamosholarda bo'ladirgan sarf va isroflarni shar'i sharif buyurgan emas. Eski johiliyat zamonindan qolgan bid'atlardir. Ushbu yamon odatlar uchun bo'lgan isroflarni badal va o'rnig'a

oqchalarini tartiblik maktablarda islom millatining bolalarini ulum va funun o'qutub, tarbiyat qilmaganlarig'a, yatimxona va ojizxonalar ochmoqg'a va shariatda ko'rsatilgan joylarg'a sarf va ixrojot qilsa yaxshi bo'lushini bayon qiladir.

Savlatlik kishi: Duogo'y va eshonlarga to'n va chopon bersalar yamon bo'ladirmu?

Man: Hozirda so'zimiz g'azita va majallalarni to'y-tamosho, yamon odat va bid'atlarinda bo'ladirgan isrof, behudalari xususinda edi. Emdi duogo'y va eshonlarga to'n va chopon berilsa yamon bo'ladirmu degan savolingizg'a shul tariqa javob qilamanki, duogo'y va eshonlar necha qism bo'ladirlar. Birinchi qism duogo'y va eshonlar borki, dunyo, mol va mulkidan, bisotlarida moddayi tavakkul uchun keladirgan daromadlari yo'q bo'lg'ay. Qarilik va yoki a'zolarini sihhat va salomat emaslikligi vajhidan kasb va harakat qilub, halol rizq topub ahli ayollari ila tirikchilik maoshlarini hosil qilmoqdan ojiz va uzrlikdirlar. Shuning uchun, nailoj, musulmonlarni iona, ehsonig'a muhtoj bo'ladirlar. Haqiqiy mustahiq shundoq kishilardir. Bu toifa mustahiq kishilarni ahli islom jamiyati xayriyalar ijod qilub, iona va ehson oqchalarini jam' aylab, ul tariqa mustahiqlarni vajhi maosh va quvvat ila yamutlarini tahsil va ta'min qilub, tama' va tilanchilik, mazallat va xorlikdan saqlamaklari vojibdir. Chunonchi, tarbiyatlik va madaniy xalqlar shundoq qilub o'z millatdoshlarini har turlik mazallat va mashaqqatlardan muhofazat qiladirlar. Ikkinchi qism: shundoq duogo'y va eshonlar bordirki, dunyo moli va mulkidan necha botmon sholikor va paxtakor yerlari bor va bog'-bo'ston, objuvoz, tegirmon, saroy va do'konlari bordir. Bu mulklar va ash-

yolaridan har yil necha ming so'mlar daromadlari bor. Firma va bonkalarg'a to'lovlari yo'q. Har yil yerlarig'a yer, mulklarig'a mulk sotub olub qo'shub, yildan yilg'a boy bo'lub va davlatlari ko'payub turadir. O'zlari sohibi nisobdan ortuq g'aniy va zakot bermoqlari vojib bo'lsa ham, yana xalqdan har tariqa yo'llar ila mustahiqlar qatorida to'n va chopon va muridlaridan nazr va ehson olub, dunyo jam' qilmakg'a ko'b harisdirlar. Bu qism eshon va duogo'ylar shar'da aslo mustahiq emasliklari to'g'risidan xayrot, iona va ehson berilmog'i savob va lozim bo'lmaydir. Mundoq g'aniy va boy duogo'y va eshonlarg'a bergandan maktabxona va yatimxona va ojizxonalar ochib, ko'r va shol va qari va ojizlar va munga o'xshash shariat buyurgan joylarga zakot va xayrot, sadaqa va ehson bersalar, savobi azim va amri shar'iyni bajo kelturgan bo'lurlar. Uchunchi qism: duogo'y va eshonlar borki, bu qismni qalandarlar deb ataydirlar. Kattalarini to'ra va bobo, turadirgan joylarini qalandarxona va langar va takya ataydirlar. Ko'cha va bozorlarda, shahar va qishloqlarda qidirib, kezib g'azallar o'qub, xonandalik ila gadoylik va tilanchilik qilub, oqcha va dunyo topishni kasb va hunar qilub, topgan oqchalarini qalandarxonadagi to'ra va bobolarig'a topshurub, so'ngra ul qalandarxonalarida jam bo'lub, maishat va istirohat aylab, nasha va ko'knor iste'mol qilub, devonalik va jazaba ko'rsatadirlar. Nodon avomlardan murid, muxlislari ham kam emas. Bu tariqa xilofi shar' kirdorlarini Bahouddin Naqshband valining suluklarini qilamiz deb nisbat beradirlar. A'zolari va badanlari sog' va salomat bo'lsa ham, halol kasb va hunarni qilmay, gadoychilik xorligi ila oqcha topub maishat va kun ko'rmakni osonroq fahm

va hunari ila topkan husul va foydalaridan qiladirlar. Bul savdogarlar va do'kondorlarning aksarlariga rasm bo'lganiga o'zlarini bosh dastmoyalari, masalan, yigirma ming so'm bo'lsa, yigirma va o'ttuz ming so'mini firma va bonkalardan olub qo'shub ishlatadirlar. Agar bir necha to'y va tamosho va orzu-havas va isroflari bo'lub qolsa va muning ustiga bozorlari kasodga uchrasa, nasyalari ko'payub, bosh dastmoyalari munday joylarga kirub ketub va band bo'lub, firma va bonkalarni oqchasi ilagina savdogarlik va do'kondorlik tegirmonini aylanturub qoladirlar. Aksar savdogar va do'kondorlar shundoq hodisaga uchrab, sinub ketkanlari ko'bdir.

Ikkinchi qism: to'y va tamosho qiluchilar dehqonlarki, aksarlari firma, zavodchi va paxtachi boylardan oqcha qarz olub, dehqonchilik qilub paxta ekadirlar. Agarda bir necha to'y va tamosho va orzu-havas isroflarini qilsalar, muni ustiga, kuz va yil yomon kelub, dehqonchiliklari bo'lmay, paxtalarini sovuq ursa, qarzdan xalos bo'lmay, oqibat rizqlariga sabab bo'lub turgan mulk va yerlari qo'ldan chiqub ketkanlari ko'bdir.

Uchunchi qism: to'y-tamosho qilg'uchilar duradgor va gulkor qo'l hunari ishlovchilik ila tiriklik qiluchilardir. Bul odamlar bir necha to'y-tamosho isroflarini qilsalar, qarzdor bo'lmasdan o'zga choralari bo'lmas. Qarzdor bo'lgan holda har kunlik topkan oqchalari ahli ayolining maosh va xarajotlaridan ortub qarzini uzishga kifoya qilmas. Lo iloj bog' va vatan sotub bermoq lozim bo'lub, mundoq baloga giriftor bo'lganlari ko'bdir.

Bayon bo'lmish bu uch qism to'y-tamosho, yomon odat va isroflarini qiluchilarg'a qilgan isroflarini ustiga nogoh o'lum

va ta'ziya kabi motamdorlik isroflar voqe' bo'lub qolsa, ko'b qattig' og'ir ishlar bo'lub qoladir. Ko'b musulmonlar bul tariqa mehnat va xafaliklarga mubtalodirlar. Shul isroflarni behuda, zarari om va yomonligini mundan ziyodaroq dalil ila ko'rsatub bayon va ayon qilmakg'a hojat emas. Aqldan bahrasi bor kishilarning o'zlarig'a ma'lum bo'lsa kerak.

Bizning Turkistonda bo'ladirgan ushbu bayon bo'lgan to'y-tamosho, isrof va yomon odatlarimiz shar'i sharifda buyurilmagan uchun Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara va Istanbul va Hinduston ahli islomlari orasida yo'qdir. Bul tariqa xalqg'a foydalik va'z va nasihat muqaddas xidmatini bajo kelturmak uchun g'azitachi va majallachilardan muqaddam xalqg'a peshvo va sadrnishin bo'lgan sodot va eshonlarning vazifalari bo'lsa-da, bul azizlar xalqga foydalik nasihat va amri ma'ruflardan sukut va tag'oful qilganlari to'g'risidan bul vazifayi muqaddasani g'azitachi va majallachilar iyfo[29] va iblog'[30] qilmoqda qusur qilmaslar.

Savlatlik kishi: G'azita va majallachilar o'z foyda-zararlarini bilmay, xalqning foydasini oxtarib to'y-tamosho isroflarini va yomon odatlarini barham bermak bo'lub jadid maktabxonalar ochib, xalqning bolalarini o'qutub, axloqlarini tuzatmak kabi avom xalq tushunmaydirgan qiyin ishlarg'a ovora bo'ladirlar. Koshki, xalq mundoq nasihat va yaxshilikning qadrini bilsa ekan. Shuning uchun sodot va eshonlar «O'zingni bil, o'zgani qo'y» degan qadimgilarni maqollarig'a amal qilub, o'zlarig'a foydasi yo'q nasihatlardan saqlanub bahuzur to'y, tamosholarg'a borib, to'yg'a chiqub, non va

[29] Birovning haqligini ado va ijro qilish
[30] Kimgadir xabar yetkazish

oshlarini yeb, to'n-choponlarini olub, «Hoy, borakallo», – deb chiqub ketadirlar. Gap shunda: «Taka bo'lsun, sut bersun», – derlar.

Man: Hamma odam birdek o'z nafsining bandasi va o'z foyda va g'arazi shaxsiyasiga insof va diyonatini qurbon qilmaydir. Har kishi o'z nafsiga itoat va iqtido qilsa, vahshiy saba'lardan[31] farqi bo'lmas. Ba'zi himmat va diyonatlik odamlar borki, din va millat foydasi va taraqqiysi uchun mol va jonini darig' tutmaydir. Loaqal din va millatning xayriyat va taraqqiysini o'z foydasidan ziyodaroq va ilgariroq fahmlaydirlar.

Savlatlik kishi: G'azitachilar usuli jadida maktabini ko'payturmakg'a harakat qilub yozadirlar. Qadimgi ota-bobodan qolgan maktablar yaxshi emasmu? Ikkisining farqi nimadur?

Man: Qadimgi maktablarda o'n yilda zo'rg'a qora xat-savodi chiqsa, usuli jadida maktablarida o'qugan bolalar besh yilda yaxshi o'qub, imlo ila yozishni va tajvid qoidasi ila Qur'on tilovat qilishni, faroiz hisobini va aqoidi dini islom, ilmi tarix, jug'rofiya, adabiyoti milliy va ulumi axloqlarni bilub va necha zarur munga o'xshash ilmlardan fahm hosil qiladir. Bu ikki turlik maktabning farqi shulki, qadimgi eski maktab o'zimizning Turkiston arobasig'a o'xshash, ichida o'lturgan odamni yo'l quruq va yaxshi bo'lsa, Samarqanddan Toshkandg'a ikki haftada ko'b mehnat va mashaqqat ila yetkarur edi. Bu usuli jadida maktabi mana o'zimiz o'lturgan poyizdga o'xshab bir kecha va necha soatda tinchlik va rohat ila manzil maqsudimizga, ya'ni Samarqanddan Toshkandga yetkuradir.

[31] Bu o'rinda shia mazhabiga ishora bo'lsa kerak

So‘zimiz va mukolamamiz shul yerg‘a yetkanda kanduktur va jandarmalar bilat ko‘rushga kelub suhbatg‘a anjom berdilar.

Savdogar

JARIDA VA MAJALLA

O‘tgan asrlardagi ulamo va shuarolarimiz tarafidan turli lisonlarda va turli shevalarda jild-jild kitoblar, risolalar va devonlar tasnif va tahrir buyurilgan bo‘lsa ham, asri hozir ulamolari orasida hanuz suyub lazzat va muhabbat ila o‘qugan kishi ko‘rilmagan edi. Durust, ba’zi birlari o‘qur va mutolaa ham qilurlar. Lekin o‘qub bo‘lar-bo‘lmas uyning toqchasiga tashlarlar. Andin mutaassir bo‘lmak va sohibi kitobning maslaklaridan voqif bo‘lub bahramand bo‘lmak va oning maromincha amal qilmakka u qadar ahamiyat bermas edilar. Ahodisi sharifa va kutubi mutabarrukaning har tarafini diqqat nazari ila boqub dini mubin islom muhofazasi va baqoyi millat maqsadi ila taammuq nazar qilmagan zotlar nihoyatda ozliqlari sababli Turkiston aholisi orasida hadisi sharif va udaboyi mo taqaddim kalomlaridagi ma’nilarni nazarda tutub ibratlanmak kabi maqsudlarga noil bo‘lmaganlar ko‘bdir.

O‘tgan azizlar va salafi solihiynlarning maqsadlari ila zamoni hoziradagi jarida va majallalarning muddao va maslaklari nazari umumiy tarafidan haqiqatan birdir. Bularning vazifalari Qur’oni karim va hadisi sharif mazmuniga muvofiq targ‘ibi ilm va ma’rifat, din va dunyo ma’muriyatini o‘z lison va shevasi ila ochuqdan ochuq umum anglar-

liq darajada bayon qilmakdir. Har yerda bo'lgan voqealarni kishiga ta'sir qiladirgan va tanbeh beradirgan xabarlarni zikr qiladir. Xulosa: har majalla va jarida o'z sheva va o'z maslagi ila olam murodiga savq qiluvchi bir xodimdir.

Masalan, Qozonda muntashir «Addin val adab» ila Orenburg'dagi «Sho'ro» majallasini olayluk. «Addin val adab» ulamoyi kirom qoshlarida shoyistayi marg'ub va matlub bo'lub, oyati Qur'oniya va ahodisi sharifani tafsir va tarjimasi ila yana bir necha zaruriyati diniyadan bohis bir majallayi mufidadir. «Sho'ro» esa ismiga muvofiq bir ruh g'azosidek ma'nolarni hoviydir. Afsuski, bizim Turkistonimiz aholisidan bir necha adaddan ziyodalari buningdek majallalardan istifoda qilmaydirlar. Ajabo! Aholimiz jarida va majallalarni o'qumoqdan muncha hazar qilur ekanlar, gunohdir deb shubhalari bormi? Bayt:

Majalla maxzani irfon, jarida maktabi fazl,
Bu ikki naqd gironmoyadan-da biz mahrum.

5 inchi numru «Sadoyi Turkiston»da ikki-uch asarli xabarlarni ko'zdan kechurdim. Namanganda janob Is'hoqjon afandining xatna bobida urf-odatdan chiqmoqg'a qilg'on jasoratlari ham masjid maktab binosiga qilgan iqdomlari, qozixona jome' sharifida janob To'raxon afandining jumaning farzidan ilgari qilgan va'zlari va Mirzo Hamdamboyning madrasa yonida maktab bino qilmoq xabarlari...

Ko'b muddatdan beri qo'llarimizdagi kutubi muqaddasaga amal qilub ulamoyi kiromning muhim va'zlarini eshitgan bo'lsak edi, ushbu kundag'i razolatlarga giriftor bo'lmag'on bo'lur eduk. Manim bu so'zlarni yozmakdan maqsudim: jaridadan xabardor kishilar ko'b mutaassir bo'linur ekanlar. Shul

sababli oni taklifi hidoyat uchun bir xodim ekanligiga e'tiqod qilub ko'broq rag'bat qilmog'larini munosib ko'rurman.

Samarqand Siddiqiy

MILLIY HAYOT VA TURKISTON MUSULMONLARI

Yer yuzida firqa-firqa bo'lub yashaydirgan inson yig'inlari irq va nasl jihatidan bir-birlaridan ne qadar ayrilsalar ham, bu farq faqat tabiiy va fanniy nuqtadangina bo'lub, milliy, madaniy va siyosiy jihatlardan emasdir.

Asl xilqatlaridan biri tabiiy tafriqag'a ma'ruz qolg'on odam bolalari eski zamonlarda o'zlarining nasl g'avg'olari ila o'grashub, bir-birlariga dushman ko'z ila qarab, shul sababdan oralarida bir nav sovuqlik hosil etar edilar. Insonlar bu holda ko'b davrlarni o'tkardilar. Har bir jins ifrodi qavmiyat taassublari ila mubtalo bo'lub, o'zining naslidan boshqalarg'a aslo e'tibor etmas, qanday qattig' mashaqqatlarga tushsa ham, o'zining bul taassubidan qaytishni ehtiyoj ichida o'lmakdan ming martaba achchig' deb bilur edi.

Muna bundog' ajib hollar va hayron bo'lurday odatlar avval zamonlarda bizim diniy aqidalarimiz kabi odamlarni o'zlariga asir qilub, hatto ixtiyor juz'iyalaridan ham mahrum etar edilar. Shuning ichun har kim o'zining odatidan ayrila olmas edi.

Zamonlar o'tdi, qorong'u va ko'ngilsiz bo'lgan davrlarning biri ortidan biri kelub yo'qolub ketar va odam bolalari ham burunlarig'a madaniyat isi kirmasdan g'oyib bo'lur edilar. Insonlarni shul qo'rqinchli hollaridan ozod qilmak uchun

dinlar nozil bo'ldi. Lekin, afsuski, buzuq qavmlarga muqaddas nur tushuvi ila o'zining qudsiyatini biturmakka boshladi. Axloqsizliq va yomon odatlar ichida o'z kayflari tilagancha yashaydirgan yarim insonlar eskida qolgan xurofotlariga berilgan qudsiyatnigina bo'lsa ham dinlarga bera olmadilar. Haqiqatlarga rag'mo[32] firqa-firqa bayroqlari ostig'a yig'ilub Alloh va rasullariga qarshi muhoraba ochar edilar. O'zlarining hollariga tushunmagan bu maxluqlar isyonning nihoyatiga yetdilar. Bu hollarning haqiqatidan xabardor zotlarga yer ustida o'rin qolmadi. Chunki alar ham o'zlariga qilunadirgan zulm va jabrlarni bilub butun jasoratlarini yo'qotur edilar. Faqat haqiqat albatta maydong'a chiqmasdan qolmadi. Dinlar o'zlarining asarlarini qoldirdilar. Kuch va quvvat ostida mastur qolgan haqiqatlar tabiiy bir kun maydong'a chiqadir.. Yolg'uz odam bolasida qancha insofsizlik va adabsizlik borlig'i shul vaqtlarda juda ochiq isbot qilinub qoldi. Endi har ishda va har xususda tarbiyasiz insonlardan bu kabi yomonliklarning sodir bo'lmog'i mumkin bir ishdir.

Bizim islom dunyosig'a kelsak, hozirgi zamonda ham hollar butunlay shunga o'xshab turadir. Chunki o'zimizning holimizga tushunmasdan vijdon va insof degan narsani bir tarafg'a qo'yub haqiqatg'a qarshi turmak xossasi bizda boshqalardan ham ko'broq ko'riladir. Bolalarig'a din o'rgatmak uchun ta'sis qiling'on faqat 2-3 ibtidoiy maktabga molik zavolli Buxoro xalqining din va millatlarig'a qilgan jinoyatlari bu da'voni isbotg'a, shoyad, quvvatli bir misol bo'la bilur, lekin bul misol bizdagi insoniyatsizlikka nazar dengizidan bir qatra qadarginadir. Agar islom dunyosida bo'lgan hamma

[32] Teskari

taassufli hollarni yozmoqchi bo'lsak, yer yuzi kog'az bo'lsa ham, sig'dirolmasmiz. Bizim Turkiston aholisining ham milliy va madaniy islohotg'a, xususan, matbuotg'a bo'lgan nazarlari va qo'llangan muomalalari zikr qiling'onlardan oshig' bir tarzda bo'lmasa, albatta, kam emas. O'n milyun qadar nufusli ulug' bir millatda jaholat o'qlarining bergan iztirob va alamlaridan ojiz qolub kerak so'zlarini ham ayta olmaydirg'on ikki «Sado» ila bir «Oyina»ning ajal to'shaklarida ingranub yotuvlari bu millatda qancha taassub va jaholat hukm surg'onini, shoyad, ko'rsatsa kerak. Bu roz yuz yillik sharmnok musulmon aholisi turadirgan ulug' shaharlarda nashr etilmakda bo'lgan bu matbuot qatrasining sahifalarini ko'ruvchilar bu xususda albatta bir fikr hosil eta bilurlar. Ko'rdigimiz shu madaniyat asrida ayanch bir holda qolgan bul millatning ustida hukmfarmo bo'lgan buncha taassub va g'aflatga kim hayratda qolmas? Bechoralarning yana to'g'rusi orsizlarning hech uyalmasdan har bir taraqqiy va islohotga qarshi turishlarin va o'zlarida bo'lg'on ayb va qusurlarig'a ko'z yumub inod va shaxsiyat ila umr o'tkarishlarin ko'rg'on odam bu hollarga hech bir turli ma'no bera olmay shoshub qoladir. Hozirda Turkiston yoshlari shul qadar fikrsiz va ruhsizdirlarki, bularning orzulari ham bobolarining orzulari ila barobardir. Milliy til, milliy adabiyot va matbuot havaskorlari yoshlardan biroz bo'lsa ham yo'q musobahasida ozdir. Bularni haqincha taqdir etuvchilar har yuz mingdan birgina kishi bo'lsa ham, Turkiston musulmonlarining hollari biroz umidli bo'lur edi.

Ey qarindoshlarim! Ehtiyojotimizni muzokara qilmak maqsadi ila matbuot sahifalari ochildi. Endi bu holni fahm-

lab bizda ham milliy matbuotga biroz havas ortur deb umid qilunadir edi. Lekin maataassuf bu umidlarni ko'ra olg'onimiz yo'q. Bil'aks, xalqimizda matbuotga hujumlar hanuz davom etadir. Manim fikrimcha, millat va dinini suyuvchi hamiyat ahllari milliy matbuotning vazifasini va ahamiyatini bilub xalqg'a tushundirmaklari lozim edi. Afsuski, bizim xalqda bunday yaxshi odatlar yo'qdir. Bil'aks, matbuotda muzokara qilunadirgan umumiy masalalarni ko'b odamlar (o'zlarida shul sifatni topub bo'lsa kerak) o'zlarig'a haml etadirlar. Holbuki, millatda bo'lgan qo'rqinchli kasallarni har vaqtda muoyana qilub alarg'a shifo izlamak milliy matbuot vazifasidir. Bunga qarshi turmak kasal bir odamning tabibga bormas uchun qarshi turmagi kabi ma'nosiz va natijasi qo'rqinchli bo'lgan bir ishdir.

Bizim o'ylag'onimiz kabi millatning taraqqiy va taoliysiga xidmat qiladurgan jarida va majallalar turli xabarlar yozmak uchungina nashr qilinmay, balki millatda bo'lg'on butun qusurlarni va dahshatli hollarni maydong'a qo'yub bularni biturmak va har xususda zamong'a muvofiq islohot choralarin ko'rmak uchun nashr qilunadirlar. Milliy matbuotning bu birinchi vazifasidir. Oning bu huquqig'a tajovuz qilmakg'a hech kimning haqi yo'qdir. Umumiy ifodalar ila yozilgan ibratli hollarni har kim o'ziga haml etsa, milliy matbuotga odamlar orasin buzuvchi bir narsa debgina qaramak lozim bo'ladir. Holbuki, matbuotning darajayi alaviyasi bunday mayda fikrlardan minglarcha farsah yuqoridir. Umumiy ifodalar ila xususiy ilmlarga doru solmak milliy matbuot vazifasi ekanligi boshida zarra qadargina aqli bor kishigacha ma'lum bir haqiqat bo'lsa ham, nima sabab-

dandir turkistonlilar matbuotga bundog‘ haqiqiy bo‘lg‘on nuqtadan qaramaydirlar.

Hamon o‘zlarining nodonliklarini matbuot va madaniyatga bo‘lgan nazarlari ila isbot etmakdadirlar.

Bu nuqtadan qaraganda Turkistondagi yangi matbuot va nashriyotdan millat uchun hech bir foyda ko‘rilmay. Ya’ni milliy matbuot o‘zining vazifasini iyfo qila olmagani sababli milliy va madaniy bo‘lgan islohotni fe’liyatga chiqara olmaydir. Demak, Turkistondagi bu matbuot qatrasining holi ham shodlanurliq emas. Bir zamon kelur, bu haqiqatlar, shoyad, maydong‘a chiqmasdan qolmas. Shul vaqtda bizim xalqimizda bo‘lgan yo‘lsiz da’volar ham o‘zliklaridan hal qilinub osmon, madaniyat yulduzlari ila to‘lar.

Bas bundan fahmlanadurki, hozirgi kunda Turkiston musulmonlarida ko‘rilgan bor qadri intiboh va taraqqiy bir necha hamiyat ahllarininggina bergan ta’siri bo‘lub umumiy va milliy bo‘lgan bir harakat emasdir. Binoan alayh turkistonlilarni 20 nchi asrda qanoatlanurday madaniyat yo‘lig‘a asosli va umidli suratda oyoq bosdilar deb aytub bo‘lmaydir. Bunday juz’iy intibohlar bu kun bor, ertaga yo‘q. Mashhur tatar shoiri marhum Abdulloh afandi To‘qayuf deganicha:

Bora millat zaif aynur aynimas,
So‘na boshlarda o‘t qaynur qaynamas.

Turkiston yoshlarida buncha himmatsizlik, ruhsizlik va fikrsizlik hukm surgan zamonda aholining taraqqiy va tamaddunini qaydan kutmak kerak? Hozir bizim eng taraqqiyparvar deganlarimiz ham ishga kelgan vaqtda tezrak

qocha boshlaydirlar. Bu hollarni atrofli o'laroq o'ylagandan so'ng Turkistonda haqiqat ahvolidan xabardor, hamiyatli, chin insonlar bor deyurga hech bir yo'l qolmaydir.

Ba'zi zotlarning ko'rsatgan fidokorliklari, albatta, bundan mustasno, faqat bunday hamiyat ahllari 10 milyun qadar nufusli ulug' bir millatga loshey[33] masobasinda ozdirlar.

Turkistonga Ovrupo madaniyati toshub kirganiga elli yil bo'ldi, bundan har yil boshig'a birgina namuna olinub kelinsa edi, holo bizda ham madaniyat turlari balqub turar edi. Lekin maataassuf bizda hamon shul eski hammom, eski tos. Hech bir turli o'zgarish yo'q.

Butun Turkiston musulmonlarining faqat bir dona «Jamiyati imdodiya»si bor. Buning ham xazinasiga ko'z solsak, boylarimizning qilgan himmatlariga hayron bo'lurmiz. Turkistonda umumiy ehtiyoj uchun musulmon boylari tarafidan ochilgan birgina dona bo'lsun mukammal matbaa yo'q. Agar biror narsa bosdirmoqchi bo'lsalar, ko'cha bo'yincha matbaa qidirub yuradirlar. Avom xalqig'a kelsak, qo'lig'a jarida tutgan kishi yo'q, hammasi bedana ushlab ko'cha bako'cha kezub choyxonalarda vaqt va mol isrof qiladirlar.

Kitob yozari ruhsiz, xalq foydalanurlik yangi asarlar yo'q. Hozirda bunday asarlarni yozuvchilar bo'lmag'on kabi nashr etuvchilar ham yo'qdir. Yangi maydong'a chiqqan maktablar, muallim afandilar ta'lim va tarbiya usullari, albatta, Turkiston musulmonlari uchun bu kunda ko'zga ko'rinurlik va foydali asardirlar. Lekin bu maktablardan 20 nchi asr mevasin kutmak uchun butun asoslari ila isloh qilmak lozimdir.

[33] Ochiq, yorqin; erta tongdagi quyosh nuri

Tiyotru masalasiga kelsak, yana ma'lum «Padarkush»dan oshiq bir narsa ko'rsatub bo'lmaydir. Bu ham qaysi bir shaharda o'ynalsa, o'ynovchilar eskilarning takfir va tal'inlaridan qutula olmaylar. Xalqda umuman axloqsizlik so'ng darajada quvvatlangan. Binoan alayh axloqni ta'dil etmak uchun diniy va madaniy bo'lg'on har bir turli choralarg'a kirishmak lozim edi. Bu hollarni o'ylag'on vaqtda Turkiston musulmonlarining taraqqiy va tamaddunlari to'g'rusida shodlanurlik bir fikrga kelub bo'lmaydir.

Chopon va sallag'a g'arq bo'lgan islom dunyosida milliy va madaniy hayotning nedan iborat ekanligin ko'rmakni xohlagan zotlar bo'lsa, to'g'ru Turkistong'a rahm etsunlar.

Ayn. Rauf Muzaffarzoda

BIZDA ZIYOLILAR VA MILLIY MATBUOT

Ulug' Turkiston millatidan bir hovuch ziyoli sinfi bir necha sanalardan beri milliy va ijtimoiy tashabbuslarda bo'linub keldilar. Xeyli o'rinlarda usuli jadida maktablari va kutubxonalar ochdilar va bir necha martaba milliy tiyotrular ham o'ynadilar.

Har yerda milliy ruh va ijtimoiy harakatlar ko'rila boshladi. Bu hollar, albatta, ozmi-ko'bmi biroz o'zgarishni va Turkiston musulmonlari orasida juziyg'ina bo'lsa ham intiboh boshlang'onini ko'rsatmakda edi. Chunonchi, Turkistonda ahvoli zamondan va madaniy maishatdan xabardor zotlar bo'lg'onig'a bir alomat bo'lub qabul qilinurday yangi-yangi, muhim tashabbuslar ham ko'rilub keldi. Bu

hol, shukrlar bo'lsun, hozir ham shul tariqa bormakda va sekin-sekin arbob himmat ortub muhim-muhim harakatlar ko'rilmakdadir.

Faqat yuqorida yozdig'imiz kabi ongli sinf, millatning ahvoli hozirasig'a qarab va tushunub o'zini millat va umum xidmatlarig'a topshiruvchi, maorif sevuchi ziyolilar Turkistonimizda ul darajada ozdirki, buni ko'rub doimo yuzlar qizarmakda va yuraklar achimakdadir. Ziyolilar bizning bu kung'acha ko'rsatgan milliy tashabbuslari, madaniy islohotlari madaniyat oldida qanday loshey masobasinda bo'lsa, alarning o'zlarining miqdorlari ham ulug' Turkiston millatig'a nisbatan shul darajada, balki bundan dahi oz va kamdir. Ijtimoiy hollarg'a va milliy hojatlarg'a chin ma'nosi ila tushunub o'zimizning nuqsonlarimizni qayg'uli ko'z ila ko'ruvchi va o'zining shaxsiy foydalarini bialkulliya millat yo'lig'a fido etuvchi haqiqiy millatchilar va umidli ziyolilar ko'payturmak, albatta, juda matlub edi. Bu kabi millat qahramonlarining ahamiyati va alarg'a bo'lgan ehtiyoj endi Turkistonda nihoyatda ochiq fahmlana boshladi. Lekin bo'lmagan narsani tuprog' ostidan qazub chiqarmak mumkin emas. Chunki bu o'zi milliy bo'lgan ulug' bir qusurdir. Bunga o'zig'a maxsus jiddiy tashabbus va baland himmat lozim. Bu o'zi butun aqllarda shiddatli bir intiboh vujudg'a kelturadirgan muhim masaladir. Millat ifrodini oqartirish maktab, ta'lim va tarbiya usullari ila boshlanur. Bu yo'llardan ketgan millatlar bu kunda madaniyat kasb etdilar, o'zlarining burung'i razolat va miskinotlaridan qutuldilar. Bu dalilg'a muhtoj bo'lmagan ravshan bir haqiqatdir. Endi millatda oz

vaqt ichida ziyolilar ko'payturmak, fikr va aql arbobi ortdirmak uchun tabiiy maktab bolasi ila mumkin emasdir. Bu kunda maktabda o'qumakda bo'lgan millat bolasining millatig'a foyda va xidmat berurday holg'a kelishi 15 – 20 yillar mavqufdir. Bu esa tez kunda taraqqiysi matlub bo'lgan millat uchun ko'b uzun muddatdir. Milliy bu farz maktablarimiz mukammal bo'lub, bolalarimiz tarbiyaning eng haqiqiy usullari ila asralgan taqdirdagina, har holda, bu yo'l millatimizning istiqboldagi tamaddun va taraqqiysig'a har na qadar umid bersa ham, bu kundagi mushkul holimizdan tez bir muddat ichida qutulmak uchun bundan yordam kutmak abasdir. Demak, biz bul maqsadimizg'a yetishmak uchun ikkinchi usullarg'a murojaat etub istiona qilmog'imiz zarur va lozimdir.

Millatda himmat ahllari va ziyolilar ko'payturmak uchun ikki yo'l bor: biri milliy matbuotni taraqqiy etmak, ikkinchisi yoshlarimizni muntazam ilm uylarig'a kirg'uzmakdir. O'zimizning diniy madrasalarimizda bir necha sanalar tahsil etgan yoshlarimizni ahvoli madaniya ila tanishdirsak va zamon ila ko'rishdirsak, albatta, o'zlarini isloh va takmil etmakg'a g'ayrat qila boshlarlar. Va oz muddat ichida kamolat kasb etub, har tarafdan millatlarning taraqqiy va tamaddunig'a g'ayrat etar edilar. Faqat ul yoshlarimizning to'qtagan qonlarin harakatlandirmak uchun yana turli choralarg'a tavassil etmak la bad minhudir. Manim fikrimcha, bunga matbuotdan boshqa hech bir quvvatli va ta'sirli iloj topilmas. Agar milliy matbuot bir qadar taraqqiy etsa va matlub bo'lgan izdan borsa, ortiq yoshlarimizning diqqatlarin mayl etdirmak qadar xizmatigina ustimizda qolgan

bo'lur. Buning uchun maxsus choralar va usullar qidirmak keyingi masaladir. Himmat va ma'rifat ahllari ko'payturmak uchun birinchi yo'l milliy matbuotni taraqqiy etdirmak demish edik. Izohg'a muhtoj bo'lmagan badihiy bir da'vodir. Chunki bu maqsadg'a xizmat etmak uchun milliy matbuot kabi muassir va qaviy bo'lg'on ma'noli usullarning topilmak ehtimoli yo'qdir. Bashartiki matbuotimiz ahvolimizg'a va orzularimizg'a muvofiq bir maslakni ta'qib etsun. Demak, bu tafsilotdan ochiq fahmlandiki, xalqimiz orasida oq fikrli va maorifparvar zotlar hozirlamak va bu sohada millatimizning moddiy va ma'naviy yordamiga yetishmak uchun eng muhim va umidli chora milliy matbuotdir.

Ona tilisiz va milliy matbuotsiz dunyoda hech bir millat taraqqiy va madaniyat yo'lig'a qadam qo'ymadi. Himmat arbobi va ziyolilardan boshqa milliy va ijtimoiy kishilar aslo vujudg'a chiqmadi. Millatning ruhlanmog'i va hayotini iroda qilmog'i yolg'iz ziyolilar va himmat arbobining g'ayrat va ijtihodlari soyasidagina bo'lmak mumkindir. Bu kabi millat va jamoat xodimlari ko'payturmak, aholini doimo millat yordamig'a haydab turmak va yoshlarimizg'a milliy ruh va madaniy tarbiya bermak yolg'iz milliy matbuot ta'siri ilagina hosil bo'la olur.

Milliy matbuotning bu xususiyatin fahmlagan zotlar Turkistonda yo'q emas, bordir. Faqat matbuot ila shug'ullanuvchi Turkiston millatchilari bu nuqtag'a yetgach, hol mushkullashadir. Hozirgi kunda Turkistondag'i matbuot holi nazari diqqatg'a olinsa, bu savolg'a nihoyatda qora va g'ayri matlub javoblar berishga majburiyat ko'riladir. Bundan 7-8 sana muqaddam Tataristonda milliy va ijtimoiy

harakatlar boshlanub, xalq ustida ming turli fikr nizolari va ilm g'avg'olari hukmfarmo bo'lmakda edi. Tatar millatining so'ngg'i nafas orzulari bo'lgan tanozu'i baqo, milliy hayot, ijtimoiy va ilmiy inqilob kabi ming turli masalalar tog'-tog' bo'lub o'yulub maydoni muzokarag'a qo'yulmasdan yotar edilar. Mana bul hisobsiz masalalarni anzori ommag'a qo'ymak va millatning orzularini o'zi xohlagancha hal qilmak uchun jarida va majallalar nashr etmakg'a boshladi. Boylar pul, muharrirlar qalam va aholi o'qumak ila yordam qilub milliy matbuot vujudg'a keturdilar. Shul tariqa bugundagi aqllar hayron bo'lurday tatar matbuoti maydong'a chiqdi. Onda o'qub-yozishni bilgan har kishi o'zining milliy matbuotiga yopishdi. Xalq ruhlandi, o'quvlar boshlandi va madaniyat ta'sis etuldi. Ishta bir tatar qarindoshlarimizgina emas, dunyoda har millat shundog'dir. Faqat bu misol bizim ko'zimizg'a eng yaqin va 20 nchi asrning eng ibtidoyida maydong'a chiqg'on bir misoldir. Binoan alayh bunda zikr etuldi. Yo'qsa, bizlarg'a misol va namuna o'lmak uchun Rusiya madaniyati kifoyadir. Bizim maqsadimiz shuni qabul etmakdir. Faqat bizim saviyayi fikriyamiz, quvvati idrokiyamiz eng oddiy misollarni ham yaxshilab ihota qila olmagong'a o'xshaydir. Shuning uchun eng kichik doiralar ichida tebranmakg'a majburmiz.

Ishta 7-8 yil muqaddam biz ham kishidan ko'rub o'zimizg'a milliy matbuot ta'sis etmakchi bo'lgan edik. Shul vaqtlarda «Taraqqiy»dan so'ng bir necha jaridalar nashr qiluna boshlab, seviliy boshlamasdan ilgari vafot bo'lub edilar. Agar bularning qabrlarini bir o'ring'a yig'sak, shubhasiz, katta bir mozorlik hosil bo'lur. Bechoralar bular nima

uchun bunday talaf bo'ldilar? Sababi juda ma'lum: moddiy va ma'naviy jihatlari ta'min qilunmadi. Boylarimiz himoya va yordam etmadilar, muharrirlar yozmadilar, xalq o'qumadi. Bas, to'qtadilar. Ul vaqtlarda milliy jaridalarimiz butun Turkiston shaharlariga bir ming miqdori tarqalur edi. Demak, butun Turkistonda jarida ila kirushadirgan ming kishimiz bor edi. Endi hozir orada 7-8 yil o'tdi. Hanuz milliy matbuot ta'sis etmakdamiz. Bu sana ikki «Sado», bir «Oyina» nashr qila boshladik. Noshir afandilar boshda millatg'a amniyat ko'zi ila qaradilar. Alarning fikrlarig'a qaraganda, 7-8 yil ichida xalqning ko'zi ochilgan, milliy matbuotning ahamiyati yaxshi sezilgan edi. Chunki har shaharg'a bizlarcha «Vaqt», «Yulduz» va boshqa har turli matbuotning Ichkari Rusiyada oqub turishi bu umidni qat'iyat holig'a aylandirmakda edi. Lekin maataassuf ish alar o'ylagancha chiqmadi. «Vaqt», «Yulduz» o'quchilarimiz eski «Taraqqiy» va «Xurshid»chilar bo'lub chiqdilar. Oliy umidlar yana mazkur ming kishig'a munhasir bo'lub qoldi.

Hozirda Turkistonda jaridalar hanuz shul ming o'quchig'a tarqaladirlar. Demak, ming dona mushtariylari bor. Yillik obunalari 4 so'mdan hisob qilinsa, to'rt ming so'm obuna oqchasi yig'iladir. Faqat bu husuli g'azeta ag'entlari vijdon va insof sohiblari va milliy matbuotning haqiqiy yordamchilari bo'lgan holda va obuna madanlari doimo kuzatilub turub, mushtariylar yoyilub turgan taqdirdag'inadir. Holbuki, bizim Turkistonda idora vakillari obuna pullarin o'z kissalarida saqlamoqg'a juda mohirdirlar. «Sadoyi Turkiston» to'rt oy miqdori obuna puli ila davom etdi. O'zi bir yarim ming bosiladir. Shul vaqtdan buyon vakillarimizdan hech yordam

yo‘q. Faqat atrofdan mushtariylarning kvitansalari yog‘ub turmakdadir. Demak, vakillar savdo qilmakda va jarida mudirlari o‘z cho‘nchaklaridan pul sarf qilmakdadirlar. Bu hol «Sadoyi Turkiston»gina emas, «Farg‘ona» va «Oyina»da ham shundog‘dir. Bu sobit bir masaladir. «Oyina» majallasi Turkistonimizda birdan bir ilmiy majalla edi. Olddag‘i kunda bu majallamizdan ko‘b xizmatlar umid qilmakda eduk. Shimdi so‘ngg‘i adadlarida holidan shikoyat qilub yozgan so‘zlari Turkistondagi matbuot haqida bo‘lgan ma’yusiyatimizni bir qot ortdirdi. Ishta azizlarim, Turkistondag‘i jarida va majallalar holi bo‘yladir. O‘zining matbaasi, bir necha ming sarmoyasi bo‘lmagan zotlar Turkistonda matbuot ishig‘a qotushsalar, yuqorida yozdig‘imiz mushkulotg‘a tasodif etmaklari ma’lum bir haqiqatdir.

Endi so‘ngg‘i kunlarda muhtaram «Vaqt» va «Iqbol» rafiqlarimizning «Turkistonda milliy matbuotg‘a havas ortuv» kabi sarlavhalar ila yozgan fikrlarini Turkistonning qaysi bir kishisig‘a qo‘ymak mumkin ekan? Ishta azizlarim, Turkistonda milliy matbuot holi siz o‘ylagandek emasdir. Bir yerda ish «milliy mushkulot»da to‘qtalub turmakdadir. Shunday bo‘lgach, Turkistonda daf’atan voqe bo‘lg‘an g‘ayritabiiy ba’zi odamlarni ahvolimiz ila ma’kusan[34] deb qabul etmak yaqiniy bir muddaomizdir.

Modomiki jarida va majallalar holi bo‘yladir. Bas. Kitob bozorini tilg‘a olub zikr etmak ortuqcha bir ishdir. Valhosil Turkistonda milliy matbuot taraqqiyda emas, balki tadanniydadir. 7-8 yil muqaddam chiqa boshlagan tatar jaridalari hozirda 15 mingg‘a yaqin mushtariyg‘a molikdir. 8

[34] Teskari, chap

yillik tatar matbuotig'a ko'zimizni ochub qarasak, haqiqat emas, xayol deb o'ylaymiz. Ammo bizda nima bor? Mazkur muddat ichida hech bir taraqqiy asari ko'rinmaydir. Bu badihiy bir haqiqatdir. Demak, turkistonlilar ona til, milliy matbuot, milliy adabiyot to'g'risida yozishga qalam uyalurday qizg'onch fikrdadirlar. Millat jonlanub, bul masalalar ahamiyat kasb etsalar edi, hol bo'yla bo'lur edimi? Bu savolg'a ziyolilarimiz javob bersunlar.

Ayn. Rauf Muzaffar

E'TIZOR

Endi har musulmon qarindoshlarimizni ma'lumlaridurki, bulturgina xudoning qudrati ila biz sho'ring qurgurlar uchun Samarqanddin bir gazet «Samarqand» nominda vujudga kelgan edi. Biz g'aflatzodalar anga ahamiyat bermaduk, o'qimaduk va qadrig'a yetmaduk. Bizlarning kasofatimizga uchrab, 44-nomerida bir ming so'm zarar qilib to'xtagan edi. Bir necha adabiyot muhiblari bu ishga xafa bo'lg'an bo'lub, tiligrom-xatlar yuborib, gazetani to'xtatmang, yurguzing, bizlar yordam etamiz, oqcha birlan ham mushtariy ko'paytiramiz deb iltimos qildilar. Xayr, bu ish mundoqcha bo'lib turmadi, janob Mahmudxo'ja muharrir g'ayrat etdilar. «Samarqand» ismidagi gazet o'rniga «Oyina» nomlik haftalik jurnal chiqordilar. «Samarqand» mushtariylarina «Oyina» yuborildi, keldi, ko'rdik. Aroda ko'p vaqt o'tmadi, bir numrasidin shoirlara xitob mazmunida maqola yozilib, ya'ni she'r yozib turmoqlarin Turkistonliq shoir-

lardin o'tunub qoldilar. Kamina ko'b usta shoir bo'lmasam ham, o'z lisonimizda o'zbekcha qilib bir-ikki she'r yozib yubordim. «Oyina»da darj o'lindi. Buning birla turmadim. Bir-ikki marotaba maqolalar ham yozdim, bosildi. Endi o'shal she'rlarim qaysi bir xil «Oyina» mushtariylarina ma'qul bo'lg'onidinmu yoki bo'lak muddaomu, bilmayman, har kun xat munda kelar, og'zaki iltimos qiladurlarki, nima uchun men «Oyina»g'a she'r yozmaydurg'on bo'ldum? Ushbu xat ila janob muhtaram gazeta o'qiydurg'onlarga ma'lum qilamanki, man «Oyina»g'a she'r yozmoqni kafilin olg'onim yo'q, ham she'r, ham maqola yozmasman. Charoki «Oyina» martda yozg'on maqolani olti oy o'tkazib, oktabrda bosib chiqaradur. Shuning uchun Toshkandda birinchi martabada «Jamiyati imdodiya» foydasig'a o'ynalg'on teatrni ham «Oyina»g'a yozmadim, «Tarjimon», «Haqiqat» gazetasin qaramog'ingizi o'tinaman. Endi mandin she'r, maqola talab qilsangizlar, ushbu «Turkiston viloyatining gazeti»ni olib o'qursizlar. Ot aylanib qozig'in topar degan man bo'ldim. Ne uchun men xafa bo'lmasmanki, O'runburg'da chiqadirgon «Vaqt» gazetasin o'qib turamiz, bir necha maqola yozib yubordim, bosmaydur. Bossa ham bik oz qilib yozadurlar. Bizlarning to'g'rimizdin matbuot sahifasida qalam tebratsa, darhol bosh maqolasiga «sart», «sartlar» deb bo'lmag'on bir majhul ism ila bizlarni kamsitib nafratlanarlar. Ul kishi hamon hamshiralarimizning erlar ila musohabasi, tunlarda ko'chalarda progulkalari deb mufassal suratda bayon qilib tutash, tutashmiz deb ovuzlarini suvlatib gazetag'a to'ldirurlar. Shul voqealarni ko'rub, bir xil gazetalarni o'qimoqdin vijdonim meni qaytardi. Bilmasmanki, endi qaysi

gazetani o'qimoqni va qaysi gazetaga hasbi-holimizni yetushmaganliklaridin yozub, millatga xizmat etmog'im deb boshim qotub, o'ylab, «Qaysi yerni o'tin o'tlasang, shul yerni suvini suvla» degan qozoq maqoli esimga tushib ketib, ushbu «Turkiston viloyatining gazeti»ni o'qimoqni ham o'z birodarlarimg'a tavsiya etmoqni vojib darajada bilib, ko'nglum shul fikrni muqarrar qilib, tatar qarindoshlarimizga ham Ollohdin insof tilab qoldum.

Tavallo

XO'JAMYOROVGA JAVOB
Ochuq maktub

Muhtaram muharrir afandi, maning bul yozmish maktubimga mo'tabar gazetangizni bir yeridin o'run berishingizni umid qilaman.

«Turkiston viloyati gazeti»ning 22 nchi nomerida To'lagan Xo'jamyorov afandining imzosi ila yozilmish maktubni o'qib ko'rib, ko'b taassuflikda qoldim, chunki ul janob ko'pdin beri «Oyina» jurnalining ba'zi no'mirlarida maqola va she'rlarin o'qub rohatlanur edik. Hozirda bul afandi «Oyina» muharriridan tamoman arazlab edi. «Oyina» jurnalida hech bir maqola va she'r yozmasga ham mundan keyin «Oyina» jurnalini hech o'qumasga deb o'zini bildirgan ekan, na uchun bul afandi bunday qilur deb xotiringizga kelur. Oning uchun na g'am? Qaysi gazet-jurnalga bul janobning imzosi ila maqola va she'rlar darj etilsa, ani olib o'qumoqdin boshqa chora yo'q. Lekin bul afandining bo'lmag'ur yerga aroz bo'lgani qiziq, mana bir ulkan vajhi: yuborgan maqola

va she'rlarini vaqtidin bir necha oylar o'tquzub darj qilgani emish. Shoir afandi, sizning «Oyina» jurnaliga yuborgan maqola va she'rlaringizni kechukturub darj qiluvining bir sababi bo'lsa kerak. Oning uchun bir gazetni butun ikki sahifasini man «Oyina» jurnalidan arozladim, manim yor-do'stlarim shul «Turkiston viloyatining gazeti»ni olib o'qusunlar deganingiz arozlaganingizdin ham qiziq va ajabo, sizning bul deganingizga na javob berurman, siz aytsangiz-aytmasangiz ham, bul «Turkiston» va «Oyina» jurnali oluvchilar avvaldan shul gazet, jurnallarga o'rgangan kishilar albatta o'qur va siz janob jurnalga yozmasangiz ham, yozuvchi kishi topilib qolur va To'lagan Xo'jamyorovning maqola va she'rlari yo'q deb «Oyina» jurnalidin arozlaganingiz uchun o'quvchilarga qaysi gazet-jurnallarni o'qurman deb maslahat qilasiz va oning uchun har xil matbuotni o'qumoq kerak. Xulosa, bizning hozirgi gazet-jurnallarimizga yozuvchilar ishq-u havas o'rniga, mana, endi arozlashga tushib ketubdurlar.

Toshkentli Fuzayl Jonboy

JONBOYEVGA JAVOB

Ushbu «Turkiston viloyatining gazeti»ni 32-nomerida Fuzayl Jonboy qalami ila yozilgan «Otvet Xo'jamyoruf»i o'qidim. Ajabo, muallim afandi menga nima uchun boylandilar ekan? Yoki bo'lmasa Tavallo ila yozishtim, nom olmoq qasdidamu, bilmadim. Xayr, yozganlarida bir durustlabgina ham yozmabdurlar. Maqolalarini boshidagilari ushbudur, chunonchi, xonalarida xayol daryosiga bolqub, bola o'qut-

moqdin bolqub[35] o'ltirgan ekanlar. Bir shogirdlari bir «Turkiston viloyatining gazeti»ni qo'lida ko'tarib kiribdurlar. Darhol muallim afandi chidab tura olmasdin mutolaa qilibdurlar, hokazo. Shunday yozib tamom qilinib, ichida meni to'g'rimga bo'lmagan iftirolar yozib itmomig'a yetkuzubdurlar. Kamina bu maqolalarini o'qig'on onda bildimki, bu janob alifni kaltak degandek meni shogirdim gazet olib keldi deb, o'zlarini bir kattokon domla qilib ko'rsatdilar. Ey muhtaram muallim Fuzayl afandi, emdi ma'lum bo'ldiki, Fuzayl ekansiz. Asli Fuzayl kichkina Fazl degan tasg'ir[36] so'z bo'lur, «jon» degan so'zni muallim bo'lsangiz, o'zingiz bilsangiz kerak, jon deb insonnimu yoki boshqa toifani aytar, lekin muni ochib aytmoqqa hojat ko'rmadim. Endi meni so'zimni qabul qilsangiz, har kim ilan javob raddiya yozishmasdin burun otingizni va otangiz ismini to'g'rilab olg'aningiz yaxshi bo'lur edi. Manimcha, Jonboy o'rnig'a Jonmuhammad qo'yingiz. Ul vaqtda Mullo Nasriddin Afandi laklakni tutib, oyog'in va tumshug'in qirqib, emdi qushga o'xshading degandek bo'lsa ajab emas. Ey muhtaram muallim afandi, har narsa yozganingizda o'ylabroq yozing, eslamay so'zlagan esnamay o'ladi maqolig'a o'xshab ketmasun. Har qancha mani to'g'rimga iftirolar yozganingizda ham, men sizdekdin ranjimasmen va ham martabadin tushub ham qolmasman. Charoki, Amir Navoiy debdurlarki, «Hud-Hud» qo'ydilar azali toj boshig'a, Tushgaymu jola yoqqan ila toj boshidin?» va yana mani xotiramni ko'tarib, tasalli berganingizda ham sizdek odam so'zi ila kifoyalanmasman, chunkim «Poklarni

[35] Charchab ma'nosida
[36] Kichik, kichraytirilgan

joni bil ozurda xotir bo'lmag'ay. Ko'zgu ruxsori nechukkim zang bo'lmas, nam bo'lar» va ham janobdek iborat oro beta'sirlardin umid ham qilmasmanki Navoiy fardig'a mubtalo bo'lg'onlig'imdin:

O'y ulkim, balki, olamdin baqo qilg'ay tama',
Ahmaq ulkim nodon ahlidin vafo qilg'ay tama'.
Ba'zi hayvonvashlar ilgidin agar istar ko'ngul,
O'yladurkim orzu qilg'ay bug'u shoxida gul.

Ey muhtaram Fozilmaob afandim, Tavalloning bir maslagi bordur. Bir xil... o'xshash kim qoliblari bo'lib, o'z millatin tonimag'on hech nimarsani bilmasdan o'zini o'zi «obrazavan»man deb yurganlardin hamon yiroqroq yurodur. Chunonchi, bu fardga amal qilib:

Ul chibindur, ko'zga oltun yanglig' istar xal'ati,
Ko'bragi, bilkim, najosat uzradur orom ango.

Emdi, ey muhtaram afandim, qoyil o'lmaysizmukim, muallim bo'lib turib, yozgan maqolangizda bir misqol ham tuz yo'qlig'ini, 8 og'iz maqolada 7 xil til ilan yozib, xonamda xayol daryosiga boqib o'ltirib edim deb, qozoqcha so'zlab, «rajo edaram» deb totorcha debsiz. Familiyamni bilmabsiz deb ruscha ham arolashtiribsiz yoki siz o'qimadingizmu «Gado shol kiyganda Kavus[37] ermas, zag'izg'on sayraganda tovus ermas» hikoyasin va ham ketida, sizg'a Tavallo she'ridan foyda yo'q degandek she'rimi tanqid etibsiz. Ajabo, sizda necha yuz va qanday vijdon bor, avvalgi xatingizda Tavallo she'rin o'qub rohatlanduk deb yozdingiz. Emdi mundoqcha dersiz: mani she'rim o'z ahboblarim uchun yoziladur, sizdek bahra ololmaslar – «toshga yomg'ur kor

[37] Kaykovus ko'zda tutiladi

qilurmu, muttasil yoqqan bilan» ham meni maqola va she'rlarim ila ahli nodon va dunyodin bexabarlar hech isloh topmaslar. Chunonchi, debdurlarki, «Tarbiat qilg'an bilan nojins bo'lmas odamiy. Ipni ming alvon ilan rang etsalar, bo'lmas ifak».

Xayr, afandim, sog'-salomat bo'ling, lekin diydor ko'rishmakni xudo nasib qilmasun deb birodar raqibing «Tavallo».

BIR GAZETA MUHARRIRI ILA MUSOHABA

Ushbu 9 nchi may bayram munosabati ila Rusiya davlatini «Gorodskoy sad», ya'ni «Ibrat bog'i»ga borgan edim. Nihoyat to'rt taraf bog'ni sayr-u tomosho aylab, bir eski iskameyka uzrinda azbaroyi istirohat etmak uchun o'tirgan edum, oradan ko'p vaqt o'tmadi, yonimga bir totor yigiti kelib o'tirdi. Ul kishi kelganda man turmoqg'a niyatlangan edum. Ul kishi bilib qolib, mango dedilarki, qardosh, o'ltiring, zinhor mani yonimdan qochmang, mumkin bo'lsa, ikkimiz munda biroz o'turayik dedilar. Kamina ham qabul edub, o'turub qoldum. Biroz o'turgach, boyagi yigit dedilarki: «Siz, afandim, mundagilardinmusiz yoki boshqa mamlakat kishisimu?». Javobida dedimki: «Agarda siz mani mundagilarga o'xshatmasangiz, bandangiz munda o'sib turg'on Toshkand yoshlaridinmen», – degan on yonima yaqinlashib kelib: «Xo'sh, afandi, siz musulmoncha o'quv-yozuv bilasizmu?». Dedimki: «Ko'p bo'lmasa ham, ozroq bilaman», – deganimda ruschaga qandaysiz dedilar. Ani ham ozroq bilaman dedim. Shul so'z orasida edik, yonidan bir

gazet («Sadoyi Turkiston») beshinchi numrasin chiqorub, dediki: «Siz bu gazetni o'qursizmu yoki yo'qmu?». Bunga sizning Toshkand musulmonlari qaysi ko'z ilan boqurlar, idoralari qaysi yerda, noshiri qari kishimu, yosh kishimu va mushtariylari ko'payganmukun deb savol qila boshladilar. Kamina o'z bilganimcha javob berub, bu «Sadoyi Turkiston»ning asli vujudga kelmoqin, millat vazifasini jarida orqali ado qilmoq niyatida ekanligin va shul fursatlarda bir numrasiga ikki yuz so'm ziyon qilib turg'onin va bizning taraqqiydin tariqcha foydalanmag'onlarimiz muning asl maqsadidin bexabar va maslakidan bebahra bo'lushub, yordam o'rnig'a ters qarab yurg'onlarin so'ylab berdum. Mandin bu xabarlarni eshitgach, dediki: «Ey yosh yigit, ogoh bo'lingiz, mundin qirq yillar muqaddam ushbu Toshkanddan chiqmish «Turkiston viloyatining gazeti» ham necha yillargacha o'zin maqsadin xalqg'a anglatguncha qanday mashaqqatlar bo'lindi. Vaholanki, shu damg'acha xalq bir xil adabiyotdan bebahralar, nafrat ko'zi ila boqurlar, ammo muning qadrin sizning millatga qanday foyda kelturg'onin gazeta muharrirlari biladur. Agarda sizlarda shul «Turkiston viloyatining gazeti» bo'lmaganda, siz, Toshkent aholisi, gazeta nima ekanligin bilmas ham edingizlar, endi qadrin keyin bilasizlar. Shunga o'xshash «Sadoyi Turkiston»ning ham qadrin keyin-keyin bilasizlar. Ham «Sadoyi Turkiston» va jam'iyati xayriyalaringiz va usuli jadida maktablaringiz deb gazetlarda o'qib turamiz. Albatta, bunday yangi ilmlar va ijtihodlar, vaholanki, bunday jaridalarga sizlarni musharraf bo'lmoqingiza bosh sabab, bizningcha, «Turkiston viloyatining gazeti» desa ham mubolag'a o'lmas, rostmi,

qardosh, deb javob kutub turdilar. Kamina ham so‘z maydonida o‘z bilganimcha so‘ylab qolsam deb dedimki: «Men boshqa odamlarni fikri qanday ekanin bilmayman, ammo maning o‘zumcha, «Turkiston viloyatining gazeti» bizing fikrimizning, turmushimizning nihoyat isloh etganlarning birinchisi desa bo‘lur, zeroki, 44 yildin beri davom etib keldi, hech birida biz musulmonlarni yomon demadi, axloqimizni va bid’atimizni va betarbiyatligimizni yozdi. Ul vaqtda o‘shal yomon kirdikorlarimizga bizlar munkir edik. Oylar, yillar o‘tdi, mana, endi oz-oz tushundik, bilduk, o‘rganduk, tartibli maktablar ochildi. Mana, qo‘lingizdagi «Sadoyi Turkiston»ning sarlavhasi. Turkiston viloyatidin azm qilib, yonig‘a sado qo‘shib, «Sadoyi Turkiston» nom gazetalarga ham molik o‘ldik. Endi ikki g‘azetamiz bo‘ldi. Hozirda ikki jaridamiz bir-biridan maqolalar ko‘tarishub, biri o‘ngdin, biri chapdin bizlarning dunyoda insonlardek yashatmoq qasdida qalamin darig‘ tutmasdin yozib turadurlar. Muddati 10-chi may Toshkand Shayxovandtohurda bolalar imtihonlari bo‘lib, 25-maygacha bu imtihonlarga ham hukumatimiz yordami va jaridalar sharafi ila vosil bo‘lmoqdamiz. Bo‘lmasa, bizlar imtihon deb 8-9 yillar o‘qib qora xatni tanib, mullo bo‘ldik deb maktabdin chiqqonimizni aytar edik. Faroyiz, zarbi imlo, jo‘g‘rofiya o‘qurmidik? Albatta, o‘qimasdik, vaholanki, O‘runburg‘din nari shahar yo‘q deb yuradurg‘onlardan edik. Mana, erta imtihonlarni ko‘rib, nima taassurotim bo‘lsa, yozurman deb, xayrbod qilib, bog‘din chiqib, ikkimiz bir-birimizdin ayrildik.

Tavallo Toshkandiy

MILLIY HAYOT

Toshkand. 14 nchi iyun
BIZ MUSULMONLARNI HURRIYATDA HAQLARI BORMU? YO'Q! QARINDOSHLAR, YUZ MARTABA YO'Q

Vatandosh va xalqlarimizning g'ayur bahodirlari maydonda ko'kirob arslondek olishub, tortishib, hama xalq uchun aziz vujudlaridin kechub, diniy, ilmiy, siyosiy ishlarimizni hurriyat yo'lig'a solub, nisf asrdin beri osilib, so'yilib, tuqg'on, o'skan yerlarindan ayrilib Sibirdek sovuq yerlarg'a yuborilib, tog'dek og'ir mashaqqatlar yuklatsalar ham, oxir shu ikki yil ichindagi chekkan mashaqqatlari bekorg'a ketmay, uchlik nayzalarg'a, o'tkur qilichlarg'a ko'kraklarini berib, mamlakatimizning soy joylarin qonlari bila to'ldurub, vatan uchun jonlarin qurbon qilg'on muborak zotlar uchun yurak bag'irlarimizni fido qilsoq ham, joyig'a yetkurmog'imiz yo'q!

Bu fidoyi jon qilg'on vatan o'g'ullarining to'kilgan qonlari butun Russiyani qoplab ko'rgan mashaqqatlari minglarcha qadoq toshlarni bosib oling'on hurriyat va huquq kam bo'lsa ham, biz tayyorg'a ayyor o'zbek, totorlarg'a nisbatan vatan o'g'ullarining u fidokorliqlari bekorg'a ketdi deb aytadurgan odam yo'q!

Hozirda ijtimo, kalom, matbuot uchun berilg'on hurriyatlar to'shak ustida og'zig'a suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekanini tilsiz va ko'r tabiblar ham tasdiq eturlar.

Bu kabi zaif va lanj hurriyatlarg'a xalqimiz hamonda rozi bo'lmay kurashib, tortishib, oxir vaqt kurashchilarimiz oyoq ostig'a bosib hurriyat, ya'ni ozodliq va shodliq bayramlarini umri boqiy odamlarg'a ko'rsaturlar. Chunonchi, bu hurriyat zaif hol ila beriluvi xalqning umidig'a muvofiq kifoyat qilmadi.

Mamlakat, barcha xalqlarning maishatin bo'lak qilmoq vatan xalqimizning birgalashib g'ayrat ko'rsatmoqlaridan vujudg'a chiqar binoan alayh ko'broq, balki hama xalqimizning ishda ijtihod qilmoqlari bilan ishimiz oldung'a bosar. Voqean bu ikki yil ichinda hama xalq tortishdi va kurashdi, musulmonlar uxlashdi. Demak, bo'linur: o'tkan yillarda Peterburg' Moskovdagi kurashlar; jang-jadallar va hama mamlakatlarda ish tashlamoqlig'lar; Dog'iston. Lahiston va Bahri Boltiq kanoralarinda bo'lg'on harakat va tortishishlar tarixlarning sahifalarinda hama millatlardan hurriyat uchun xizmat etguchilar bo'ldi, hamag'a barobar haq va huquq so'rab jonlarin fido qilg'uchilar chiqdi deb o'qilg'onda bizlarning hurriyatg'a qarshi turub vahshiyona vatandoshlarimizni talab, so'yub, qirub yurganlarimizni o'qub bolalarimiz ismimizni vahshiylar deb atarlar.

Bizlarg'a olamda naqadar baxtiyorsizlig'! Yo'q ersa, jabr va zulm bila ezilub, xorliqg'a tushgan bizning millat edi.

Chunonchi, musulmoncha bir kichkina risola bosdurmoqchi bo'lsak, senzuraning qizil qalami bila safhalar qizil bo'lub ortqali, turtqali buzulub qo'lumizg'a qaytur edi.

Shul tariqa bir-birda maktab ochub, bolalarimizni o'qutmoqchi bo'lsaq, «direktur» hozir etub, bu ish hukumatg'a xilof, muallimlar bu tariqa ekan deb muallimlarni o'churturub, madrasalarimizni .....[38] talatub 2-3 tiyin masjid, madrasa vaqflarindan ham ayrilur edik. O'zlari tilagancha qo'y orasida bo'ri yurg'ondek bizga dinimiz va Qur'oni sharifimizni haqorat etub, masjid-madrasalarimizning 3-4 tiyin vaqflaridin ayrilg'onliqlarimiz yetmasa, butun dunyog'a haqorat qildurub, misiyuneriskiy g'azetalarda sad urub nashr qilurlar erdi.

Musulmon ichlarina haqlig' tarqalmasun deb g'azeta va jurnallar nashr etmakg'a hech ruxsat berilmas erdi. Ammo missiyo'nerlarg'a musulmoniylar zararig'a qoralig' tarqatmoq uchun o'z fikrlarin kog'azg'a bosdurub tarqaturg'a ijozat edi. Bu kabi xo'rliq va zulmlarni chekurg'a rozi bo'lmasaq, gavdamizdin boshimiz, tanamizdan jonimizni ayirub, bolalarimizni yetim qilurlar erdi. Bug'ina yetmasa: hama xalq hurriyat uchun kurashib jabr va zulmlardan xaloq bo'ldiq deb turg'onida qozonlig'larning yahudiylarni talab, Boku, Tiflis musulmonlarining armanilarni o'lturub, Turkiston musulmonlari kaliso yoninda pristuf va hokimlarg'a qo'l qovushtirub, sajda o'z-o'zlarun hurriyatdan bezgan kabi ko'rsatub; abadan obro'ysiz bo'lub, yuzlarina qora surtilgandek bo'ldi. Miskin xalqimizni jabr ila oqg'on ko'zyoshlari, zulm ila to'kulgan qonlari, eski chirkin tanlari sasig'onidan chiday olmay kurashib mamlakatimizni bo'yag'on edi. Bul oxirg'i yillarda ko'z bilan ko'rduk, qulog' bilan eshitdik, bu byurokraticheskiy hukmlari xiyla bo'lak bo'lib, oz bo'lsa ham yaqinliqlar ko'runmog'a boshladi.

[38] O'qib bo'lmadi

Bu ko'rungan boqtiliqlar qorong'u uyda yoqilg'on gugurtning andak shu'lasidek ko'runsa ham, yangilanajak joylarini ko'b xalq bo'lub ham shuni fahmlagan xalqlar orasindan bahodirlar ham maydong'a o'zlarin kirguzub, haq va huquq so'ramoqg'a otlandilar. Ikkinchi o'ylamag'on yerdan yopunlar chiqub, eski hukumatni tamom oyoqdan qoldurub, ko'rsatganlig'i eskilikdin xalqning umidin butun-butun kesmoqg'a sabab bo'ldi.

SAMARQANDAN MAKTUB TA'MINI ISTIQBOL

«Jug'rofiya sahifalari» istaticheskiy jadvallarig'a qaralsa, bilinurki, Russiyag'a bir milyun qadar armani, 15 miliyundin ziyoda musulmon bordur. Ahli islomdin 4 milyun Ovrupoyi Rusiyg'a, 3 milyun Kafkazg'a, 6 miliyun bizning Turkistong'a, qolgani Sibiriya va sahroyi nishinlardur. Hozirg'i go'sudarskiy duma – millat majlisig'a Ovrupoyi Rusiyadag'i musulmonlardan 12 vakil, mazkur armanilardin o'ng'a yaqin vakil, 3 miliyunlik Kafkaz musulmonlaridan 7 vakil va biz 6 miliyun Turkiston musulmonlaridin 6 vakil tayinlanadur va bizning Turkistondag'i yarim miliyun quvvati hokimiya egasi Rusiyalardan yetti vakil tayinlanadur! Muncha tafovutning sababi va hikmati nadur? Jaholat, nodonlik emasmu? Armanini kalisa avqoflari Rusiya hukumati tarafidin avval martaba zabt etulub, podshohlik bo'lub edi. Yana mazkur kalisalarg'a va armani va ruhoniy umurotig'a hukumat tarafidin mazkur vaqflar qaytarildi. Sabab nadur? Va biz 6 miliyun turkistonliklarni zabt bo'lmish vaqfimiz na

uchun qaytarilmaydur? Manim fikrimcha, xeyli sabab va illatlar bor. Ammo mazkur sabab va illatlarni eng omodasi ilmdur. Ilmi bor toifa va jamoag'a, albatta, xayr va vusuli matlab va saodat qariyn va mulozimdur. «Avroqi jaroyid sahoyifi tarix» olami matbuot guvoh va shohiddurki, armanilar va boshqa Rusiyadagi mamlakatlarni hozirg'i taraqqiylarig'a ilm sababdur. Russiya ahli islomlarini yigirmadin biri ila barobar armanilar har vajh va har jihatdin bizlardin muqaddamdurlar. Russiya davlatini barcha markaz va mahkama va mahofillarig'a xoh tijorati moliyat xulosati kalom shulki, dunyoviy boblarig'a va inchunin xorijiyag'a doim musulmonlardan uhdat berardurlarki, ahli vuquf nazdig'a musallamdur. Russiyadagi uch-to'rt miliyun yahudiylar ham bizlarg'a g'olibdurlar. Dunyo ishlarig'a quvvatlik toifalar, albatta, din va mazhab taraqqiysig'a el va urug'larini kelar zamong'a mas'ud bo'lmoqig'a bois bo'ladurlar. Bizning ushrimizcha hisoblanadurgan armanilarni vakilini vaqflarini qaytgani bu da'vomizg'a shohiddur. Va biz Turkiston musulmonlaridin Kafkaz ahli islomlarini sahronishin qozoqlari (bizni jahlan zanimizcha) vahshiy qozoqlar edilar. Hatto Sibiriyadag'i majusiylarini ham bizdin va mahtozliklari havodisi holiya ila sobit o'ldi va sababi esa ilmdur. Jasorat ila isbot qilinurki, Sibir majuslari hatto Bahri muhit munjumad[39] shimoli atroflarindag'i «samvid» toifalari ilm zamonig'a bizlardin muqaddamdurlar. Rusiyaning ikki yillik ushbu davrayi buhron tazalzil inqilobig'a ta'sir vahshiylarig'acha ilm hosil qilib istifoda yo'lini axtardilar. Bir martaba-ikki martabadan vakillari va arizalari Peterburg'g'a yet-

[39] muzlagan

di. Bizdin boshqalar ilm soyasig‘a sa’y va g‘ayrat etdilar. Urundilar. El-u diyor yo‘l bilib yugurdilar. Bizdin o‘zdilar. Va illo Russiya nazdinda tatarlar battol, kafkazlik zolim. Turkiston mustaqim edi. Na uchun natija aksig‘a meva berib, battol va zolimlarni vakili biz mustaqimlardin ziyodadur? Alarni yamonligi bizlarni yaxshilig‘imizdin ziyoda natija va hosil berdi. (6) miliyun turkistonlik sodiq tabiat ahli islomni e’tibori diniya va dunyoviyasi miliyun armanicha bo‘lmadi. Zamonan istihqoqimizmu yo‘q? Yoinki zamong‘a insofmu yo‘q? Dunyo va zamoni holiyani odat va ijobig‘a diqqat qilinsa, zohir va lozim keladurki, ilmi diniy ila birga ilmi dunyoviyni tahsil qilmasaq, munqariz bo‘lurmiz, ya’ni ketib qolurmiz. Yahudiy, armani, ajnabiylarg‘a poymol xodim va muhtoj bo‘lushimiz yillarni o‘tushi ila lozim kelg‘uchi bir amri tabiiydur. Ya’ni demoq istaymanki, bugun zamon biza lozim qaytaribdur, dafi zarar va jalbi manfaatimiz qubbayi din va dunyaviyamizg‘a zamona keraklik ilm-fanlarni ham salafimizdek o‘qusaq. Zamon sheridin ani ila o‘zimizni hifz etsaq, holo millat majlisig‘a Rusiyadag‘i erkak va ayollarni barobar va musoviy etmoqg‘a chilonlar sa’y etib turubdurlar. Alarni aytgani bo‘lsa, dini islomg‘a nalar kelsa, yana ilm va xabar ahlig‘a ravshandur. Turkistong‘a sokin Rusiya viloyatlarimizni ba’zi partiyasi xohlaydurki, biz musulmonlarni o‘z vatanimiz bo‘lmish Rusiyag‘a qo‘ymasun va bizlarga balki xorijdin kelgan ajnabiylardek boqadurlar. Munga notiq dalil Samarqanddag‘i «Russkiy ograniya» g‘azeti iyunni ikkinchi nisfig‘a tab’ bo‘lgan nusxalaridur. Koshki, bizning obrazovonniylar, ya’ni ta’limlik zakiylarimiz ani tarjima qiliblar javob yozsalar edi. Kelduk yana ta’mini istiqbol masalasig‘a.

Har bir uyezd va shahrimizg'a o'zimizdan uch-to'rt duxtur, muhandisi da'do vakili pristuf gimnaziya muallimligig'a musulmon kishilar lozimdur. Armanilar va o'zga toifalar, hatto Istanbul turklari shul yo'l ila o'zlarini Ovrupo zulmidin, tadbiridin saqlaydurlar. O'shal fununi oliya tahsil etmish musulmonlarga faqat zamon ilmidan ogoh bo'lsunlar, balki ilmi din, qavoidi islomiya, adabiyoti milliyag'a mohir bo'lsalar kerak. Bir muslimni bu ilm fanlarni hamasidin bu qadar kifoya tahsilig'a 15 – 20 yil muddat yetub ortadur. Usuli jadid ila mazkur muddatg'a sharqiy va g'arbiy ilmlarni o'qugan kishi Aflotuni zamon, allomayi asr, notiqi dahr, mujohidi akbar vatan bo'ladur. Zamon oyandag'a taraqqiyi din va dunyomiz uchun shundog' kishilarg'a muhtojmiz. Ta'mini istiqbol va islohi holimiz ajnabiylarni tag'allib va tasarrufidin qutulmog'imiz shul yo'l ila bo'lur. Diniy ilmlarimiz isloh ila o'z madrasalarimizg'a va zamoniy ilmlarni o'zimiz xabarini tarqaturgan gimnaziya va dorulfununlarg'a o'quladur. Bolalarimiz o'qumasalar ham, xarajatini biz faqirlar to'larmiz. Mundin murod ul emaski, hama odam ulumi dunyaviy o'qusun yo'q. Har shahar va uyezdin besh-o'n kishi o'qisa, ayni tashakkurdur. Xatib, imom, so'fi, muallim, mudarris va xaddomi din, qazzoti muslimiyn uchun gimnaziyag'a o'qumoq kerak yo'q. Faqat ilmi din va kutubi arabiyani isloh va tanzim ila durust o'qub dunyodin xabar tobsalar kifoya va o'ruscha o'qub, yozuv bilsalar yana yaxshiroqdur. Bu so'zlar yigirma yil oniyani, ya'ni keladurgan yigirma yilni kerakligidur va hozirg'i ulamoyi kiromimizg'a taklif zan qilinmasun, bul suratda diniy ulamolarimiz ruhoniy va ma'naviy tarafimizni, dunyoviy ulamolarimiz moddiyat va siyosiy

tarafimizni hifz va sarishta qilib boshqa toifalarg'a xodim va poymol bo'lmasligimiz uchun va Russiya davlatig'a bahaq sherik va juzzi a'zam bo'lushimizg'a sa'y va ehtimom qilishlari tabiiydur. Taqriban nisf asrdan beri barcha musulmon, alalxusus, biz turkistonliklar Russiya davlatining hukmig'a asir erduk. Digar tarafdan diniy ishlarimizni zohir holg'a o'zimizg'a tafviz[40] qilingandek bo'ldiki, raissiz va boshchisizlikdin va hukumat tarafidin nohaq tadbir va mahdud va qattiq nizomlar qo'yulgonidin ruhoniy va diniy ishlarimiz va ham ilmiy ishlarimizg'a kulliyan maktab, madrasa, masjidlarimizni tariqi tahsil va idorasig'a fasod va xalal oid bo'ldi. Ulamolar ozayib, borginasi ham faqri zaruratg'a qolib, avomg'a tobe bo'lub, butun nufussiz va bee'tibor bo'ldilar. Digar tarafdin zamonimizg'a keraklik ilmlardan din boshchilarimiz mahrum qoldilar... Yigirmaming so'mlab vaqf olaturg'on madrasalarimiz xarobotxona va dorulojiziynlarg'a mubaddal bo'ldi. Besh-o'n nodon talaba ila bir xoin mutavallini mudarris saylaganig'a hukumat yo'l ochgani bizni ilmiy va diniy ishlarimizni tomurig'a bolta urganidur. Hukumatimizni murodi «isxo'lastik» uvham qadimiyadan bizni tozalamoq bo'lub, yana ulum va fununi hozira ila bizni ziynat bermoqdur deb vajh etadurgan odamdan so'raymizki, nisf asrdan buyon 6 miliyun turkistonlikdan na uchun 6 g'ina odamni hukumatimiz ulumi sharqiy va g'arbiy ila ziynat bermadi? Va imtihonsiz qozi, mufti, muallim, mudarris, ilmsiz xaddomi dinlar haqiqatda muxribi din va millatdurlar. Ilmi zamoniydin voqif emas boshchilarimiz ham munga zim bo'la-

[40] Topshirish

durlar. Muncha fasodg'a sabab raisi diniymiz yo'qlig'idindur. Holo bizni Samarqandda mudarrissiz va yo mudarrisi ilmsiz necha madrasalar borki, alarni taftish qilmoq va arz qilmoq hech bir qozi va hatto biror musulmonning ushbu to'g'ridin og'iz ochmoqg'a ixtiyori yo'qdur.

O'n nodon talaba ila bir xoin mudarris, johil mutavalli va mudarris na tariqa prigvor qilsa, janob mufattish ilmiyalarg'a maqbuldur... Yana kelduk murodg'a. Alhamdulillah, Rusiya ila barobar va oyandag'a Rusiya hukumatig'a asosan sherik bo'lmoqg'a mustaidmiz[41]. Dardimizni so'ylamakg'a podshohimiz ruxsat beribdur. Munga haddin ziyoda mutashakkurimiz. Yana takror qilarmanki, modomiki bizlarni ulum va zamoniyadan xabarimiz yo'qdur, bu shirkatimizdin foyda qilolmasmiz. Bizni har shahar va uyezddan besh-o'n ilm zamonig'a mohir kishi zuhur qilgon holda shirkatimizni natijayi hasanasi fe'lg'a kelar va illo oti bizg'a, hosili boshqalarg'adur. Ushbu turushimiz ila kundin kun dunyo maishatida ma'nan va moddatan keyin ketarmiz. Munga ma'onad[42] kishi ahvoli diniya va milliyamizni yigirma sanaligini bir marotaba fikr etib taaqqul qilsa kerak. Tarixg'a qaralsa, maishat va taraqqiyi islomiyag'a yolg'uz din ulamolari sabab bo'lgan yo'q, balki adadsiz hukamo, atibbo, sayohiyn mujohidin va donishmandoni islom ham omoda sabab bo'lubdurlar. Doxiliy maishat va tavsiat-u islomiyag'a ulamoyi diniy sabab bo'lganlardek xorijiy umuroti islomiyani ulum va fununi aqliyati islomiya arbobi tuzatmishlar.

[41] Tayyor
[42] Kurashuvchi

Oyandag'a ham shul tariqa o'lur. ...[43] tarix o'qug'uvchilar musallamdur. Biz Turkiston odamlari faqat foniy ila qolibmiz. Mana, millat majlisig'a va yoinki Yopuniyadag'i din majlisig'a O'rta Oziyodan bormoqg'a bir musulmoniyga aqli va naqli va zamoni ilmdan kerak xabardor bo'lsun, qadima yunoniy, suryoniy millatlari o'rnig'a rusiy yo fransuziy bilsun, yo'qdur!!! Afsus, zamon salafg'a, ulumi aqliyag'a ko'b ahamiyat berib ekanlarki, bu kungi tib, tashrih, handasa, nabototi kimiyo, ilm ul-arz, jug'rofiya, hay'at hikmat, tarix fanlari shohiddurki, bu fununni hama ajnabiy lisonlaridin salafi solihiynlarimiz tarjima etdilar. Asri avval islomg'a yolg'uz Qur'oni sharif ila hadisi sharif bor edi. Tadvini kutub yo'q ediki, ta'lim fani islomg'a avvaldan bor edi. Xulafoyi abbosiya va malluk attavoyif zamonida va asri mujtahiding'a ulumi aqliyati zamoniyani yunoniy va suryoniy kitoblaridin olib tarjima qildilar. Munga kutubi tarixiyalar shohiddur. So'ngra musulmonlar tavse'a[44] va tashre'[45] etub o'z tajriba va kashfiyotlarini qo'shub musulmonlar bugungi miliyunlar ila kitobni vujudig'a sabab bo'ldilar. Salafimizdan so'ngra nasorolarni kuni ochilib, arab, turkiy, forsiydin o'z tillarig'a tarjimag'a boshlab, musulmonlar ulumi aqliyani yunoniy va ajnabiylardan olganlaridek, nasoro va farangilar musulmonlardin oldilar. Va bu kungi darajasig'a yetkurdilar. Va o'zlari holo iqrordurlar. Aqliyot va moddiyat to'g'risinda bizlarni bilishimiz o'n besh asr muqaddamg'i havodisi asboblardur. 15 asr muqaddamg'i asbob ila biz o'zimizni saqlayolmaymiz. Bu kungi ahli zamonimizni sheri-

[43] O'qib bo'lmadi
[44] Keng yoymoq
[45] Ravnaq toptirmoq

din, dahriy bedinlarni javridin, muqobalasidin o'z din va millatimizni saqlamoq uchun ulamo va udabomizg'a aslahati mahv, falsafati ilmiya va fanniya ila musallah bo'lmoq lozimdur. Hamchunonki o'tmish ulamolarimiz va salaflarimiz o'z zamonlaridag'i mu'tazila dahriy mulhid[46] va badmazhablar murod va aqidasini bilib hozirg'i ilmi kalomni tadvin etibdurlar. Zamonimiz muhorabasig'a yangi qaviy asboblar ixtiro bo'lganidek, din va e'tiqodimizg'a hujum qilmoq uchun ahli zamonimizdagi mulhidlar alohida bahs va munozaralar ijod qilg'ondurlarki, ulamoyi kiromimizg'a alarni fikri va murodini bilmoq lozimdur. Hamchunonki salafimiz hikmati yunoniyani o'qub, oni raddig'a shar'iy dalillar bayon etdilar. Maishati doxiliya va e'tiqodi qalbiyamiz obdon qobil tajdid va tag'yir emas. Ammo maishat va muomalati zamoniya va xorijiyamiz har vaqt tajdid va tag'yir va zamoncha isloh pazirdur[47]. Bu kungi 300 miliyun ahli islomni hay'at va raftor va maishati lison hol ila notiqdurki, har mamlakat musulmonlarini libos, rasm va odatlari boshqa, ammo e'tiqod va usuli din jihatinda hama birdur. Bu zamon ham zohirimizg'a xeyli tajdid va tag'yir paydo qiladurg'on nuqtag'a keldi. Savqi tabiat ila mamlakatimizni tajdid qiladur. Emdi yarim asr muqaddam o'tgan zamonimizni kelishi maholdur. Zamonimizni ilm va fanidin ilmi dinimiz ila birga o'qub, o'zimiz dinimiz va millatimizni hifz etmoq kerak va illo Yovrupo ashyoyi nafsiyasi kasabalarimizni va Ovrupo siyosiylari vujudimizni yutub yuboradur. Yovrupo dahriy va misiyo'nerlari dinimiz va e'tiqodimizni

[46] Dinsiz
[47] Qabul qilmoq

xarob qiladur. Zamon selobasig'a g'arq bo'lmas uchun, o'z din va millatimizni saqlamoqg'a g'ayrat qilmoq uchun ilmi zamoniydin voqif bo'lmoq bizlar uchun shadidan lozimdur va illo rub'i asr digarg'acha hozirg'i holimizdin ham yuzlar ila tanazzul va tadanniyg'a giriftor bo'lurmiz. Faa'tabir-u ayyuhalixvon[48].

Duoyi alxayr muftiy dorulqazoyi Samarqandiy alhoj Mahmudxo'ja valad qori Behbudxo'ja xatib

TA'MINI ISTIQBOL

Diniy va dunyoviy kitoblardan va tajribayi bashardan ma'lum bo'lurki, saodati dunyo va uqbo ilm va amalg'a mavqufdur. Oni uchun vojib ul-vujud payg'ambarimiz alayhissalomg'a birinchi martaba «Iqro'» xitobi-la vahiy etibdur. Va hazrat faxri koinot ham biz ummatlarig'a ilmni farzligini tablig' etib va keraklik ilm Xitoyda bo'lsa ham, talab qiling deb marhamat qilibdurlar. Madaniyati Ahmadiya va ta'rixi Muhammadiyon va ulamoyi anom islom asar va natijalarig'a qaralganda ham ma'lum va sobit bo'lurki, islom ulamolari va salafi solihiynimiz qayu ilmga: islomiyat va insoniyatg'a keraklikdur; xoh Chin va Xitoy, yahud va nasoro, xoh yunon va hind, Afriqo va sind xulosa qayu toifa va mamlakatg'a bo'lsa ham, ilgari zamonlarda borib oldilar. Va ul toifalarning til va xatlarini o'qub nofe' va keraklik ilm-hunar va fanlarini arabiy va forsiy va turkiy tillarig'a tarjima qildilar. Jalbi manfaat va daf'i mazirat uchun ilman va amalan, ma'nan va moddatan neki kerak edi, zamonlarig'a muvofiq

[48] Ey birodarlar, inobatga olinglar

raftor va harakat va sa'y etib, bayzayi islomni hifzig'a va a'loyi kalimatullohg'a baqadri imkon jonfishonlik etdilar. Rivoji dini islom uchun yunoniy, suryoniy, pahlaviy, urdiy, hindiy, chiniy...[49] tillaridan mantiq, hikmat, hay'at, falsafa, tib va tashre' ilmlarini tarjima qilib mazkur yo'llardan foydalanmoq uchun bu kungi arabiy aqliy kitoblarni tarjima va tasnif etdilar. Mazkur aqliy va *bid'at* ilmlar o'qumog'ini farzi kifoya va ba'zisini farzi ayn deb oyat va hadis ila isbot etdilar. Abbosiylar zamonida nasoro va rum ulamosidin musulmon madrasalarig'a vazifalik mudarris saqlab aqliy ilmlarni o'qub ustod bo'ldilar...

Rivoji islom uchun temur libos va sarpo'shlar kiyib urushdilar. O'n ikki yarim asr muqaddamgi musulmonlardin islomni rivoj bermoq uchun jazirat ul-arabdan Xitoy va Hindg'acha azmi safar etib matlablarini hosil etdilar. O'tgan ulamo, mujohid, sayyoh va muttafinlarimiz o'z tajriba va ilmlari va dini islomni hidoyati sabila zarddan to'rt-besh asr muqaddam zamong'acha dunyoni sulsig'a molik va butun olamg'a madaniyat posh etganlari ahli basirat nazdida musallamdur. Muni sababi tarixiyasini axtarganlarni shahodatig'a qaraganda o'tgan musulmonlarni ilm va ittifoq sa'y va rahmatlari ekan...

Hozirgi Ovrupo odamlari, ya'ni farangilar ul zamong'a musulmonlarg'a nisbatan kam ilm va behunar ekanlar. Ammo bir necha asrdurki Ovrupo xalqi ilm va hunarg'a yopishib, aqliyot jihatidan ko'b taraqqiy qilib, qadim hukamo va atibbolarni tushig'a hatto kirmagan ilm va asboblarni, tajriba vositasi-la ijod etib, butun dunyog'a g'alaba qildi-

[49] Matnda shunday keltirilgan

lar. Qadima hukamo va atibbo va ahli fan bugun kelsa, hozirgilar qoshinda bir cho'pon va yo bola kabi bo'lub qolur edi. Hikmati qadimiya ila holiya orasi: bo'z bof ila harir bof nisbatindan ham uzoqdur. Madrasalarimizdagi hozirgi hikmatxonlarimiz ila hikmati holiya va aqliyoti zamoniya va siyosatlar masalasi ham shu nisbatdadur. Ko'zi ochuq musulmonlar hikmati qadimiya o'quydurgon talabamizni ahvolig'a va umrini zoye bo'lushig'a achiydurlar. Azbaski, Flotun, Batlimus, Suqrot, Buqrot ...[50]larg'aki hikmati qadimiya ulamosidur; bu kungi dorulfununlar talabasi alarg'a saboq berur darajadadur. Alar zamonidan ikki ming yillar o'tubdur. Va bizni mullolarimiz hanuz o'shal eski hikmat va ko'hna aqliyot ila sargardon va oni ham, albatta, fahmlamaydurlar. Hukamoyi mutaqaddimiynni anosir arba'asi bu kun arba'ing'a taqsim bo'lur. Alarni sab'at sayyorasi bu kun tis'ayi sayyora va balki alifayi sayyorag'a yetdi. Alar osmonidagi bir-ikki ming yulduzlari bugun miliyunlardan o'tdiki, xohlagan kishi kelsun, ko'rsatayin...

Xulosayi ulumi aqliya aqli beilmni mafavq qiyosi darajasinda taraqqiy va tabdil etdi. Biz kelayluk ta'mini istiqbol matlabig'a. «Turkiston» va «Tujjor» gazetalarini bir necha no'mrig'a biz islohi maktab va madrasa to'g'risida ochuq maqolalar yozib eduk. Va alar takrorini yana lozim ko'rmay qisqagina suratda bayon qilamizki, bizni ta'mini istiqbolimiz tahsili ulumi diniy va dunyoviy ila bo'lur. Hozirgi maktab va madrasalarimizda ulumi diniy bor, ammo tariqi ta'limni buzganlari uchun natija va samarani oz berur. Va ulumi dunyoviy esa bizni Turkiston va Buxoro madrasa va maktab-

[50] Matnda shunday

larig'a aslo qolmabdur. Bu da'vog'a taslim qilmaydurganlar «Tujjor»ni 10, 11, 13, 8 inchi no'mralari va «Turkiston» gazetini 82 nchi no'mrig'a ko'z solsunki, anda biroz tafsili ila yozganman. Bas, na iloj qilmoq kerak? Qisqagina qilib al'on bir necha satr yozib oyandag'a «Shuhrat», «Turkiston» jaridalari sahifalarig'a tafsili ila yozarman. Iloj shulki, hozirgi madrasalarda sarf va nahvi arabiy o'qugan rashid talabalardan Turkiston va Buxoroni har bir shahridan aqal martaba to'rt nafardan Misr al-Qohirag'a tahsili ilm diniy va falsafayi zamoniy va adabiyoti arabiy uchun yubormoq kerak. Va bular Misrda uch yil muddat tahsili ilmg'a mashg'ul bo'lub, so'ngra vatanimizg'a kelib ilmi kalom, tafsir, hadis, adabiyoti arabiya va aqliyoti zamoniya ta'limig'a ko'shish qilsunlar. Lekin shaharlardan boradurgan to'rt talabani Misrda har bir yil uchun xarajati bir ming so'm, ya'ni har bir odamg'a aqal martaba ikki yuz so'm kerak bo'lur. Bu ishni kim qilur va bu aqchani kim berur?

Ikkinchi keraklik ish shulki: kichik va yetti yoshlik bolalarni o'n ikki yoshig'acha turkiy va forsiy va zaruriyati diniya va biroz hurufi arabiy va xat-savodi rusiy o'qutub, so'ngra gimnaziya va tijorat maktablarig'a bermoq kerak. Gimnaziyada o'quydurgan bolalarimizni adadi kerakki, har bir shaharg'a o'n nafar va aqal marotaba besh-oltiginag'a yetkurmoq lozim. Bular gimnaziyani tamom qilganlaridan so'ng aqal martaba har shahardagi shunday o'quganlarimizdan ikki va yo birgina nafarni Peterburg' dorulfunun va akademiyalarig'a yuborub, to'rt yil o'qutmoq kerak.

So'ngra bularni Misrdan kelgani olimi diniyi zamoniy, Peterburg'dan kelgani olimi dunyoviyi zamoniy bo'lub, din

va millatimizni dunyo va oxirati obod bo'lishig'a va Russiya davlatig'a bahaq sherik va juz'an asliy bo'lushimizg'a sabab bo'ladurlar. Peterburg'dagi tibbiya, huquqiya, hakimiya, ta'limiya va adliya maktablarida o'quganlarimiz tabib, muallim, ahli huquq va hakim bo'lub, davlat ishlarig'a va hukumat mansablarig'a aralashib bizg'a naf' yetkurar. O'zimizdan duxtur, tabib, gimnaziya muallimi va advokat, ko'zimiz ochilmay va fikrimiz uyg'onmay, ilmsiz va hunarsiz, injiner va chlen sud va hokim va uyazdniy nachalnik bo'lsa yomon bo'lurmi? Albatta, yaxshi bo'lur. Bu ilmlardan o'qub, yuqorida bayon bo'lgan podshohlik mansablarg'a kirib, din va millat, vatan va davlatg'a xizmat qilmoqni shariat aslo man' qilmaydur. Rusiya zakunlari ham qabul qilur. Va minba'd yana zakunlar yengil va nasorodan boshqa xalqlarg'a ham biroz oson bo'lur. Va mazkur mansablarg'a kirmoq uchun murtad bo'lmoq shart emas. Balki qayu dindin bo'lsa bo'lsun, ilm va ahliyat shartdur.

Maqolaning bu yeri g'azeta maslagina muxolif o'ldig'indan bosilmadi...

Ammo bizlarg'a lozimki, Rusiya maktab va dorulfununlarida o'qutaturgan bolalarimizg'a turkiy va forsiy va hurufi arabiy va zaruriyati diniy va adabiyoti islomiyani avvalan durust va muntazam suratda o'qutayluk. Toki mutadayyin va axloq va odobi islomiya ila muzayyan bo'lsunlar. Hozirgi ruscha o'qub chinovnik bo'lganlarimiz ulum va adabiyoti islomiyadan bilkulli bexabar kishilardur. Va rus maktab va matbuotidan hosil qilgan ilm va fikrini hatto musulmon majlislarida bayon qilolmaydurlar va bizlarg'a butun begona ko'runadurlar.

Agarda biz shunday kishilar tayyor qilmasaq, tijoratimizni olganlaridek, milliy mansablarni ham minba'd po'lniy prava bo'lub, hama barobar va ilmlik har jins kishilar har bir mansab va ishg'a kirurlar.

Ushbu zamondan shul ishlarni va gimnaziyag'a bola bermoqni boshlasaq, o'n- o'n besh yildan so'ngra natija va naf'i diniy va dunyoviy berur. Yahudiy, armani va ajnabiylarni o'n besh yildan beri shaharlarimizda qilgan taraqqiyi tijoriya va sano'iya va nufuzi siyosiya va tamalluk arziyalarig'a diqqat ila boqilsa ma'lum o'lurki, agarda bizlar shu holda o'qumay tursaq, yana o'n besh yilg'acha ko'b zabun va ajnabiylarg'a xor va xodim bo'lub qolurmiz. Ajnabiylar, yahudiy va armanlar bizni tijorat, ziroat, sanoat va mamlakatimizning mansab va naflarini bizdan urub olmaydurlar, balki sa'y, ilm va mehnat ila oladurlar. Biz o'qumagan uchun ayb o'zimizda qolur...

Diniy va dunyoviy ilmlarni hosil qilmoq uchun bu bola va talabalarni kimlar Misr va Peterburg' yo'lig'a solur va alarni ul shaharlarg'a borgudek darajag'a yetushmaklari uchun ibtidoiy maktablarda muntazam suratda o'qumoqlarig'a kimlar sa'y qilur, gimnaziya, Peterburg', Misr xarajatini kimlar berdimi degan savollar bor. Alarg'a javob berarmizki, Kafkaz va Tatariston musulmonlaridek har shaharg'a «Taraqqiyuni islom» va «Nashri maorif» jamiyatlari barpo qilib, aqcha jamlab, ushbu ishlarni boshlamoq kerakdur. Bunga hukumat ham, albatta, mone' bo'lmas. Bu tariqa jamiyati xayriyalarni to'g'rusinda kelar no'mer jaridalarni birig'a yozib xaloyiqg'a arz qilurmiz.

Samarqandiy muftiy Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja xatib

TOSHKAND 28 INCHI SENTABRDA ISLOH NA DEMAKDADUR

Necha yillardan beri g'azetalarda islohi makotib, islohi madoris, islohi idorayi ruhoniya, islohi axloq, islohi hukumat va soira va soira...[51] islohlarni zarurati yozilur. O'qilur. Bu islohlarni qabuli aql, naql, shuru' va zamon muqtazosi o'ldig'i-chun zaruratini hech bir aql sohibi inkor etmas. Iqror qilur. E'tirof etur. Lekin yolg'uz iqror va e'tirof ila isloh vujudg'a kelmay, himmat, g'ayrat, harakat lozim o'ldig'i-chun har tarafdan millatparast zotlar zuhur etub islohi lavozimotig'a sa'y va harakat qilmakdalar. Bu zotlarni g'ayratlari soyasida ko'b viloyatlarda boshqa islohlar o'lmasa ham, maktab va madrasa va usuli ta'lim va tadris islohig'a muvaffaq o'lub zamonag'a muvofiq ulum va funun tahsilig'a bilfe'l shuru' qilg'onlari ham eshitilmakda va ko'rulmakdadur.

Kelaluk biz Turkiston viloyatig'a biz turkistonliklar ham ul dindoshlarimizdan ibrat olub o'z islohimiz uchun biror ish ishladimizmu? Va o'z holimizni har vajhdan muhtoji isloh ekanlig'ig'a qanoat hosil qildimizmu? Xayr, afandilarim! Man bu bobda bir javob vermakka jasorat eta olmam. Chunki bizni oramizda ahvoli olamdan xabardor har bir holimiz, alalxusus, makotib va madoris va usuli ta'lim va tadrisimizni muhtoji isloh bir holg'a yetushdugini mu'tarif va iqror zotlar mavjud o'lg'oni kabi, qorong'u uyda umr o'tkarub o'zlaridan boshqa bir insonni ko'rmagan va eshitmaganlari vajhidan hamon islohni ifsod gumon qilib isloh tarafdorlarini xalq ko'zig'a mufsid ko'rsatib, zamona ulum va fununlarini

[51] Asl matnda shunday

zaruratig'a butun qarshu turguvchi zotlar ham oz emasdur. Bularni va'z va nasihatlarini su'yi ta'siridan[52] mutaassir o'lmish musulmonlar hamon saodati dunyoviyani qarzdor va abgor bo'lub, to'y va ma'raka qilib boylarg'a, eshonlarg'a, qozilarg'a osh bermak badalig'a saodati uxroviyani ham shul kabi bir necha bid'atlar badalig'a sotib olib, so'ngidan qarzlarini boshig'a emas, ijarasig'a ham aqcha yetkurolmay sargardon o'lmakdadurlar. Hay-hay, mana saodati dunyoviya, mana saodati uxroviya... Bu hol muhtoji isloh emasmu? Vaholanki, biz turkistonliklarning rusumoti xayriyalarimizning eng a'losi ushbu to'y va ma'rakalarimizdur. Faxrimiz ham shungadur. Insoniyatimiz ham shunga vobastadur.

Dunyog'a kelib, kecha va kunduz tinmay harakat qilib mol topmakdan maqsad va matlubimiz ham bu to'y va ma'rakalarimizni obod qilmak va buni vositasi ila xalq ichida mukarram va musharraf o'lmakdadur. Shuning uchun yildan yilg'a bu to'y va ma'rakalarimizni taklifot va masorifoti ziyodalashmakdadur. Bu bid'atlar xalq orasida odat bo'lg'onidan bir necha faqir va bechoralarimiz qilmasalar, xalq ta'nasig'a qolib, qilsalar, aqcha topolmay, nochor o'g'ullari o'n to'rt-o'n besh yoshg'a yetgunicha xatnalarini taaxxir etmakg'a majbur o'lurlar. Bunday zarur va muqaddas bo'lgan to'y va ma'rakalarimizg'a insof ko'zi ila boqilg'onda dunyo va oxiratg'a foydasi o'lmag'on isrofdan boshqa bir shey ko'rulmasligi shubhasizdur. Garchi rasm o'lub qolg'oni uchun ba'zi ayblari o'zimizg'a ma'lum o'lmasa ham, boshqa mamlakat kishilarig'a ob-ochiq zohir o'lur. Ammo ba'zi odatlarimiz bordurki, o'z ko'zimizg'a ham makruh ko'runur.

[52] Nojo'ya ta'sir

Bovujud ota-bobomizni odatlari tark o'lmasun deb qilurmiz. Vaholanki, ota-bobomizni odatlarig'a o'zimizdan qancha sharh va hoshiyalar bog'lanmakdadur. Bir-ikki yil o'tgach bu sharh va hoshiyalar ham «matn» qatorig'a kirib, ota-bobog'a nisbat verilmakdadur. Inchunin, jami' fe'limiz, harakatimiz, yurushimiz, turushimiz, so'zlag'on so'zimiz, maktab va madrasalarimiz va usuli ta'lim va tadrisimiz va axloqimiz buzuqluqda bir martabag'a yetmishki, besh-o'n yil bu tadanniyimizda davom etsak, boshqa mutaraqqiy millatlarni oyog'in ostida ezilib mahv va parishon o'lmak xavfi vordur. Ammo g'aflat pardasi ko'zumizni chunon yopmishki, hanuz boshimizdan na kechganin, ahvolimizni na darajag'a yetganin bilmasmiz, bilganlar so'zig'a kirmasmiz. Balki holimizni isloh qilmak niyatida ba'zi qusurotimizni bayon etgan zotlarg'a qahr va g'azabdan boshqa bir javob bermasmiz. Hamon o'z ahvolimizni bir-birimizg'a qiyos etmak ila iktifo etub, «falonig'a nazaran man xeyli boyman yo aqllikman yo mulloman» deb faxr etmakda va buni sababi ila kun-kundan inqiroz yo'lina ketmakdamiz. Ey dindoshlar, vey vatandoshlar! Kelaluk, insof etaluk, o'z holimizni boshqa mutaraqqiy millatlar holig'a muvozana qilaluk; to o'z qusurotimiz va badaviyatimiz o'zumizg'a bilmushohada ma'lum o'lub, islohig'a sa'y va harakat etaluk. O'zimizdan so'ng keladurg'on avlodlarimiz uchun ham foydalik yo'llar ochib, alarni boshqa millatlarg'a qul va xodim o'lmakdin xalos etayluk. Bizni bu g'aflat va jaholatimizdan yovrupolilar istifoda etub qo'limizdan hukumatimizni olg'onlari kabi, kasb va tijoratimizni ham ohista-ohista olmakdadurlar. O'zimiz va millatimiz va avlodimizni muhofazati uchun

tezdan ahvolimizni islohig'a sa'y va g'ayrat qilmasak, istiqbolimiz nihoyatda mushkuldur. Ahvolimizni islohi esa zamonag'a muvofiq ulum va fununni tahsilig'a tezdan shuru' qilmak ila vujudg'a kelur. Zamona ulum va fununlaridan xabardor o'lmak esa maktab va madrasalarimizni va usuli ta'lim va tadrislarimizni islohig'a mavqufdur. Chunki hozirgi maktablarimizda to'rt-besh yilg'acha yolg'uz xat va savod o'qumak, madrasalarimizda o'n besh-yigirma yillik umrimizni debocha va chahor qiroatlarg'a sarf etmak ila zamona ulum va fununlaridan bahra umid etmak choh ichidan turub osmonda uchub yurg'on qushqa qo'l uzatmak kabidur. Maktab va madrasalarni islohi uchun Nijniyda ijtimo'yi musliminda qaror verilmish tartib va qonunlar va ko'rsatilmish yo'llar jumla musulmonlarg'a eng zarur va eng foydali yo'ldur. Va ul tartib va qonunlarni jumla islom viloyatlarig'a bilfe'l ijro qilmak uchun sa'y va g'ayrat qilmak va buning uchun har shaharlarda jamiyatlar barpo qilib mashvarat qilmak hama ulamo va kabiro va ag'niyolarni eng muqaddas vazifalaridur. G'aflat etilsa, vaqt o'tar.

Munavvarqori Abdurashidxonov

ISMOILBEK XUTBASI
(«Tarjumon»dan muqtabis)

Misr al-Qohirada Qo'ntinoniyal musofirxonasida 25 inchi ramazonda Misrning olti yuz qadar mo'tabaron va ashroflari huzurinda umumiy musulmon ijtimo'yi yasamak haqida «Tarjumon» muharriri Ismoilbek G'asprinskiy janoblarining turk tilida so'zlamish xutbasi:

«Hazarot! Islom olamining hozirgi holina diqqat ila qarasak, har tarafda ozmi-ko'bmi fikr qo'zg'atguchi g'azetalarning chiqg'oni va ba'zi muzokara majlislarining yasalg'oni eshitilur. Bular yaxshi alomatlardur. Lekin bu yaxshi alomatlarg'a oldanub g'aflat etmak joiz emas, balki xatodur. Chunki g'oyat keyinda va pastda qolg'onimiz sababli istiqbolimizni ta'mini uchun nihoyatda ko'b g'ayratlar va nihoyatda zo'r harakatlar lozim bo'lur.

Hazarot! Shimoldagi Qozondan janubda Misrg'a va mag'ribdagi Forsdan sharqdag'i Javag'a qadar nazari taftish ila boqilsa, musulmonlarda tamaddun va taraqqiydan ziyoda tadanniy asarlar ko'rilur... Maktablar va madrasalar xarob va foydasiz holda kasb, hunar va san'atlar tamom bitmish; yoki bitmak yo'linda va savdolar so'nmakda o'lub, dunyoning tijoratida biz tegishligimiz nihoyatda oz qolmishdur.

Finansuviy (moliya) ishlarida hech daxlimiz qolmag'oni kabi, dengiz va suv ishlarida bahramiz yo'qdur. Uch yuz milyunlik bir millatni o'ttuz paraxo'dlik bir dengiz shirkati, besh milyun sarmoyalik bir bonkasi yo'qdur.

Hazarot! Diqqat etingiz, hamamizni ham kun ko'rub yashab turmog'imiz ota-bobolarimizdan qolg'on tufrog'larning o'sdurgan narsalari orqasidag'inadur. Hunar va ma'rifat ila hosil qilg'on narsamiz nihoyatda ozdur. Barakatlik tufrog'lar ko'b narsalar o'sdurur. Lekin bu narsalarni dunyoning zo'r bozorlarina chiqorub sotmak ham qo'limizdan kelmaydur... Shuning uchun tufrog'dan o'skan narsalarimizning ham birozini shularni bozorlarig'a toshiguchi chet paraxo'd sohiblarina bermakg'a majburmiz. Tijorat

maydoni bo'lg'on Yovrupo va Amriqo qit'alaridan izlanub qaralsa, hech bir shaharda musulmon savdogari topilmas, topilg'on holda ham, mustasno qabilindan ozdur. Sharqlik bir savdogarg'a to'g'ri kelinsa yo armanidur, yo rumiydur, yo yahudiy, yo hindudur, lekin musulmon emasdur. Ushbu Misrda yigirma qadar hind mag'ozinlari vor, yaxshi savdo qilurlar, ammo hech birisi musulmon tijoratxonasi emasdur. Bizning Qozonda va Bokuda har millatdan savdogar va musofirlar topilur, ammo hindlik yo misrlik bir musulmon savdogari ko'rinmas. Chet mamlakatlarda ish qila olmaslik bir tarafda tursun, o'z mamlakatimizda ham ojiz qolurmiz. Turon, Eron, Turkiya, Misr, mag'riba va hindning tijorati mahalliyasi, olish va berishi ajnabiylar qo'lidadurlar.

Hazarot! «Yomg'ur yog'ib, suv bo'lsa, icharmiz, yerdan o'ssa, osharmiz» ila dunyoda umr etmak bu kun mumkin esa ham, ertaga bunday hayvon kabi kun ko'rmak va rizq kasb etmak mumkin o'lmas. Bu miskinlik, bu ishsizlik va hunarsizlik bizlarni halok qilur.

Musulmon hukumatlari ham chet xalqsiz yolg'uz musulmonlar ilag'ina ish yuruta olmaylar: temuryo'l, dengiz rextasi, qonol va fabriqa yasalmoqchi bo'lsa, chet millat ustalarina va ajnabiy muhandislarina muhtoj qolurlar. Xulosayi kalom: mag'ribda shahri Rabot, mashriqda Shohobod hama bir daraja barbod; ish yurutguvchi kerak bo'lsa, yaramaydur alimardon va xudodod hojat bo'ladur mutlaq yuragi yoki fardi binoid.

Hazarot! Agar bir qavm yoki millat o'zining iqtidori siyosiyasini va istiqbolini yo'qotsa, ul millat zo'r bir yiqinti[53],

[53] Katta yo'qotish

buyuk ziyondur. Lekin ishsizlik va hunarsizlik sababli savdo va hunar bobida o'zining o'rnini yo'qotsa, bir emas, o'n martaba ziyondur. Va inqirozning boshidur. Umum ahli islomning taassuflik bu holina sabab nadur? Maorifsizlik va jaholat deb javob berilsa, ajabo, bularning sabablari nadur degan savol kelur.

Yovrupo millatlari bir tarafda tursun, bundan ellik-oltmish yil muqaddam musulmonlar ila birlikda yashag'on va musulmonlarning urf-odatlarina tobe' bo'lg'on armanilar, g'ruzinlar, rumlar, bulg'orlar, yahudiylar, porslar va buddiylar bizlar ila bir darajada bo'lindiqlari holda bu kun tamaddun va taraqqiyda bizlardan ilgarig'a nima ila nechuk ketdilar?

Hazarot! U hollarni o'ylamakimiz kerak, holimiz nihoyatda achig' va ayanch bir holdur. Lekin bunga qarshu ko'z yummak, bu holni yoshurmak joiz emasdur. Balki xatodur, qazodur, gunohdur. Bu holimizni, bu dardimizni yoshirmak emas, balki ko'chalarda, maydonlarda oqarub, qichqirub so'zlamak lozimdur. Yo'qlikni yoshirg'on bor bo'lmas, kasalni yoshirg'on shifo topmas derlar. Dardimizg'a choramizg'a boqmakimiz lozim, yo'qsa, ich tarafdan chirub-chirub, bir kun kelur holdan yiqilurmiz.

Hazarot! Masalaning halini, dardning davosini mandan so'ramang. Manda ul qadar ilm va quvvat yo'qdur. Yolg'uz ko'b yillardan beri shu masala ila mashg'ulman, lekin chorasini topa olmayman. Arab qavmi najibiyning madaniyatg'a iste'dodi va faoliyati iqtisodiyasi o'zlarining tarixlari ila musbatdur. Qahramon turklarning yetushdurg'on ulamo va udabolarining asari Samarqand raṣadxonasining xaro-

balari, butun Oziyog'a qonun va tartib berg'onlari bularning yana iste'dod tabiiyalarina dalildur.

Finlandiyaliklar ham vengerlarning faoliyati iqtisodiya va madaniyalari jumla turklarning iste'dodi madaniyalarina boshqa bir burhondur. Forslarning, eronliklarning tarix va adabiyotlari, inchunin, iste'dodlarina kafildur.

Demak, istarmanki: arab, turk, fors va hind musulmon qavmlarining bugungi keyinida qolmaklari xilqat va tabiatlari sababidan kelgan bir hol emasdur. Buyla esa bizdan taraqqiy va tamaddun yo'llarini kesgan narsa nadur? Dini mubin islommi? Yo'q, yo'q! Musharraf bo'lindig'imizdin islom taraqqiy va tamaddunning manbaidur. Avvallarda ko'rilmish taraqqiylarimizning bosh sababi va muharrikidur. Dinimiz bir qonuni muqaddasdurki, «jumlangiz o'qung», «jumlangiz harakat qiling», «jumlangiz tadbir va sanoat ila yashangiz» degan qoidalarni buyurur. Bizlar esa hozirda bu sharif amrlarning tamom aksini qilamiz. Ishsizlik, hunarsizlik, nodonlik hamasi ham bizda! Hikmat holimizning bu yeridadur.

Iqtisodiy tarafdan bo'lg'on xarobligimiz ustina fikr va aqlimizning harakatsizlig'i, ya'ni sharq olamindan bir fikr, bir asar va bir adib chiqmog'ig'a muqobil g'arb olamidan yuz fikr, yuz asar va yuz adib bosh ko'rsatmog'i qo'shulsa, holimizning neqadar mushkul o'lg'oni yanada yaxshi bilingan o'lur. Islom olamining xaroblig'ina Amriqo qit'asining kashfi bir daraja sabab o'lmishdur deb gumon qilurman: sharq va g'arbning eski yo'l ila tijoratida islom mamlakatlari umumiy karvonsaroy hukmida o'lub, zo'r foydalar etmakda edi. Amriqoning topilmog'i dengiz tijoratina va dengiz

yo'llarina maydon ochib, islom mamlakatlarina sakta va turg'unlik keturdi.

Buning ila barobar Yovrupoda moshinachilik taraqqiy qilub, bizni eski usul qo'l-hunarlarimiz ila yasalg'on mollar ohista-ohista bozorlardan chiqub, fobriqa mollari maydon oldi. Va avvaligilarini yengdi. Bu hollarni inkor etmak mumkin emasdur. Lekin yiqitqon va tushurg'on narsa yolg'uz bir o'lmasa kerak; balki haddan ziyoda fano odatlarimiz, uvham va turlik buzuqliklarimiz sabab o'lmishdur. Bu mani bir gumonimdur. Haqiqat holni kashf etarg'a kuchim yetmaganini yuqorida demish edim. Bunday bir masalaning hali, asbobi tadanniyimizning kashfi va davosining tartibi bir yo ikki odamni qo'lidan keladurg'on narsa emasdur. Shul sababli aqli qosironamg'a ko'ra asrimizning ulamosidan, fuzalosidan arbobi umur va udabosidan murakkab va mutashakkil bir jamiyatning bunga harakat qilmog'ig'a muhtojdur deb gumon qilurman.

Ya'ni buyla bir masalag'a va buyla dardlarg'a choralar topila olsa umumiy musulmon qo'ng'resi (ijtimo'i) vositasi ila vujudg'a chiqa olur. Hamon shuni ham tezdan bayon qilalukki: islom qo'ng'resi deganimdan «panislomizm» yoki siyosiy bir ijtimo' xotirg'a ketirilmasun. Xutbamning boshidin beri so'zlab kelganim tadanniy va xaroblikg'a bir nihoyat vermak, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiylarimizg'a yo'l ochmak ila taraqqiyoti asriyadan hissamand o'lmak orzusidan boshqa bir shey o'lmadig'i anglashilmak kerakdur. Shul sababli siyosiy ishlardan bahs etilmaslik sharti ila umumiy musulmon qo'ng'resi yasalmog'ini lozim va zarur topaman.

Hazarot! Ushbu umumiy musulmon qo'ng'resining, masalan, bir yildan so'ngra Istambulda yoki Misr al-Qohira shahrida yig'ilmog'ina hozirlanmak lozimdur... Ilmiy va madaniy ishlardan bahs etguvchi bu ijtimo'ning vujudina mone bo'ladurg'on bir sabab yoki ani mundan ko'chirub Yovrupoda Asvichrada (Jeneva) shahrida yasarg'a bir majburiyat ko'rmayman... Agar buyla esa va agar arz etgan fikrim munosib esa, hozirdan bu ishga shuru' etmak lozimdur. Gumoni ojizonamga ko'ra, eng avval Misr al-Qohirada ulamoyi kiromdan fuzalo va udabodan «Hozirlanuv komissiyasi» saylamak kerak, bu komissiya ijmolan ijtimo'ning pro'g'rami va har tarafdan vakillar chiqarmak va boshqa komissiyalar ila xabarlashmak ishlarini ishlamakg'a boshlab, lozim bo'lg'on yerlarg'a rasman murojaatlar qilur va buylachi umumiy ijtimo'ning da'vatina mubosharat o'linur. Komissiyaning yozmak, xabarlashmak va e'lonlar tarqatmak kabi ishlarig'a bir miqdor masorif lozim o'lur. Faqat aminamki, oqcha jihati ishga mone o'lmas. Men ham va har kim qo'lidan kelganicha berur... Mani bilgonim bu qadar. Qolg'onini olami islomiyat bilur; uzun uzadi. Boshingizni tutganim uchun afuyingizni umid etaman», – demak ila xutbani tamom etdi. Butun majlis besh-o'n minutlar qo'l cholib xutbani duo qildilar.

Ismoilbekdan so'ng xitobat kursisig'a Shayx Ali Yusuf afandi chiqub, balig' bir nutq so'zlab, Ismoilbekni taklifi maqbul ekanini arz etdi. Va ham umumiy musulmon ijtimo'yi da'vatina xizmat etmak uchun Misrning ulamo, fuzalo va udabolaridin o'tuz qadar zotdan murakkab bir «Hozirlanuv komissiyasi» saylang'onini bayon ayladi.

BIZNING HOLIMIZA BIR NAZAR

Mansub bo'lindig'imiz turk-tatar millatining adadi elli miliyun qadar o'lub, eng eski, shijoatlik va quvvatlik badanlarning biri o'lmoq ila barobar: buyuk davlatlar tashkil etmish va ko'b shaharlarning nizom va hukmdor vermish, mashhur ulamo, mashoyix, hukamo va shuaro yetishdirmish buyuk bir millat ediki, har kimning ma'lumidur. Lekin holimizning taassuf edarlik yeri shuldirki: uch-to'rt yuz sanalardan beru buyla bir buyuk nufuzli millatning munqariz o'lmagina va bu kunda boshqa millatlardan har jihatdan tanazzulda, taraqqiyda, tadanniyda qoluvimizning «sabablari nimadur?...» va bunlarning «munkirlari kimlardur?!». Savollari biri ortindan biri kelub turmoqdadur. O'shal savollar va bunga qarshu yozdiqi javoblarimiz millatimizning dard-u marazlari o'lub millatimizning qalbindan chiqg'on otashli ohlaridur. Asbobi taraqqiy va tanazzulimizga doir bahslar g'azeta sahifalarida takror-takror yozilsa ham, haqiqat hanuz ma'lum o'linmadigi kabi, dardimiz ilojini natijasi-da ko'rildigi yo'qdur zan etaman... Ishta hamd o'lsun, g'aflat ila uyquda o'tgan asrlarimiz o'tdi ketdi. Hozir biza oldimizg'a yang'gi madaniyat asri, ilm va ma'rifat davri keldi. G'azeta va majmualarimizni vositasi-la dard va marazlarimiz maydon mutolaasiya qo'yuldi. Mubtalo o'ldiqi shiddatli marazlarimizning chorasi va tadbirlari muzokara qilindi. Insof va vijdon sohiblari, millat homiylarimiz ulum jihatincha jumla qardoshlar va dindoshlarimizning tuban va keyunda qoldiklarimizni e'tirof etmakdadirlar.

Millatimizning ohista-ohista tanazzulimizni sababini va bundan qutulmak ilojini aramoqda ediklari ko'rulmakdadur. Tabiiy, har dardning bir iloji va har kasalning davosi bordur. Lekin har qayusi bir sababga tobe' o'ldig'indan marazlarning o'rnin bilub davolarin beruvchi tabiblar ham kerakdur. Bu bizim dardimizning-da tabiblari ahli qalam o'lub, davosi-da matbuot desak xato o'lmasa kerak...

Zotan: bizning mahv o'lg'on va inqiroza yuz tutgan bir millatning do'rt-besh asrlardagi qabohatlari ko'rundi esada, oramizda ittihod, ittifoq yo'qligidan hanuzda durust ishga kirishub, isloh choralari ko'runmadi. Hayot va mamotimizga, mas'udona yashamagimizg'a sabab bo'lg'on maktab va madrasalarimiz hanuz eski hammom, eski tos qabilinda davom etmakda. Qadimlik, jadidlik nizolari; hasad va nifoq kabi shaxsiy dushmanliqlar kundan kun nihoyasiz ko'paymakdadur. Bunday adovatlik nizolari, albatta, taraqqiyimizga mone' sabablardur.

Shul jihatdandurki, vujudimizga yaqin kasalni his etmayub, hayot-mamotimizg'a bois o'lg'on sheylarni anglab amal etmaymiz. Ba'zilarimiz his etsalar-da, marazimizdan o'tonubmi maydoni haqiqatg'a qo'yolmasdan hayo edamiz. Va ba'zilarimiz faqat omoli nafsoniyatimiz va shaxsiy g'arazimizni himoya qilur uchun marazimizni yoshirub dardimiz ilojini iste'mola sa'y-da va g'ayrat-da etmaymiz. Hatto sa'y va g'ayrat edanlarni-da yo'lina dushub qorshuliq qilamiz. Va ba'zilarimizning marazimiz da'fini iloji dardlari o'lsa-da, ham nechuk yordam qilishning yo'lini bilmaymiz. Ishta shul ixtilol va ixtilofli qorong'u kecha kabi kunlardamiz. Xususan: Osiyoyi vusta – Turkiston viloyati Rusiya

mamlakatidagi ahli islom o'lan soir gubernalara nisbatan ahli islomning ko'bligi e'tibori-la; va soniyan tijoratining ko'bligi maishatining vas'ati jihatincha birinchi viloyat ad o'linsa ham sezadur. Chunki maktab va madrasalar hozirligi va muallimlarga yetarlik maosh verarlik boyliq Turkiston viloyati-da hozirdir. Demakki, bu viloyatda taraqqiyning asboblari mukammal, faqat taraqqiyni mujib[54] o'lg'on maktab, madrasalarni isloh qilmak kerak...

Maktab, madrasalarni nechuk va na ravishda isloh qiluv arbobina teyush va ulum o'ldig'indan bu to'g'ridagi bahslarimizni ulamolarimizning insof va vujudonalarina tobshirub, asl maqsadimiz bahsina kelalim... Ishta bu zamon taraqqiyda xitoylar, hatto Afriqo va Amriqo yomyomlarining vahshiylari g'aflat uyqusidan uyondiqlari zamonda biz faqat o'shal musulmonchiliq ismina qanoatlanub tursaq, butun olamda masxara o'lachaq dagilmayiz. Holbuki, haqiqiy muslim va insoni komil bo'lmoq omilik o'quv yoza bilmamak ila mumkin dagildir. Chunki dinimizda ilm hosil etuv majburiy va islomiyat ulum va maorifni ayn malzumi ekan. Biz kandi ixtiyor va rizomiz ila dinimizni va islomiyat asosini butun-butuna tashlab, har ikki jahonda xor yuzimizni qora aylayan nodonliqimiza rozi o'lsaq; maorif adduniya va fununi jadidaning dushmani o'lg'on mone'larni va sadlarni ketarmag'a va mahv o'lmasining choralarina jiddiy tashabbus etmasak, dunyoda, xususan, hozirgi zamonda bu holdan ortiq qabohat va fano bir hol bo'lurmi? Favqulodda tarbiyasiz va johil qolmish bir qavmning jumla buzuq sifat, va axloqlara duchor o'lajag'i tabiiydur. Zotan, jaholat va

[54] Sabab

nodonliqdan ortiq bir yomon sifat bo'lunurmi? Maqsadim bir qavmning faqat ayub va nuqsonlarini fosh edar niyatinda dagilim. Lekin o'zimizda o'lmag'on qaysi mahalni qaysi shoyon diqqat edarlik surur o'lan axloqi oliyani zikr edalim... Yo'qsa, avvalgi kabi mukammal va muntazam ulumi diniya va fununi madaniya makotib madorisindan mahrum faqat qiroat madrasalarimizning vorlig'inimi? Yoki ma'lumotsiz va ahvoli jahondan g'ofil madrasalarimiz va xaroba yuz dutmish madrasalarimizimi zikr edalim? Yoxud nuri maorifi so'ndirmak xayolinda bo'lg'on ahli nifoqning ishlarindanmi mamnun o'lalim? Ishta ko'zlarimizdan oqg'on qonli yoshlar millat dardlari, millat so'zlaridur. Millatimizning mahv va munqariz o'lmoqina sabablar jaholat, hasad, nifoqliqdan kelgan ittifoqsizliqdir.

Ahmadjon Bektemiruf

TULLOBI KIROMA

Har millat va din ahlining muhtaram sinfi ulamolardir. Ulamo hazaroti, albatta, tullob ichindan yetishiyurlar. Ulamo hazaroti millat ichin diniy va dunyoviy ishlarda yo'l ko'starichi va tarbiya edichidirlar. Binobarin, unlara hurmat aholiya lozimdir. Unlar varasayi anbiyodirlar. Unlarning zimmalarina shori' tarafindan aholiyi ilman, dinan va axloqan tarbiya etmak-da yuklanmishdir.

Xalqning jismoniy va ruhoniy tarbiyati ichin murabbiylarning, ya'ni ulamoning diniy va zamoniy ulum va fununni darajayi kamolda bilmalari, albatta, lozimdir. Kandi asrdoshlarining ahvoli, afkori, atvorini bilmak kerakdir. Naslki,

salafi solihin o'z zamonlarindagi har durlu xalqning aqida, odat va kashfiyotlarini bilir va onlar tarafindan dini isloma oid o'lan bahs va irodlara muqobil yuz binglar ila kitoblar tasnif edib, aholining e'tiqod va axloq jihatining baqosina xidmat edirlardi.

Masalan, mantiq, kalom, hikmat ilmlarinda kitoblar shuning ichin tadvin va tadris o'linmishdirki, bu ilmlar din va millat ichin odatan suvar va muhofaza hukmindadir. Ulamoyi salaf hazaroti o'z zamonalarindagi dahriy, la adri, hakim va faylasuf nasoro va yahud firqalari afkorina avvalan oshno o'lub, so'ngra unlarning islomiyata zarar edichi aqidalarining raddina adadsiz kitoblar tasnif etmishlardir. Aqliyot va laqalqiyot tarafindan dini isloma taalluq edan bahslara g'oyat go'zal javoblar yozub, kitoblar tadvin edub, bunlari madrasalarda ta'lim va tadris edarlardi. Bu na ichin edi, ajabo. Musulmonlari ajoyib fikrina mahkum o'lmaqdan muhofaza ichin edi.

Shimdi zamonamizda yana kalom, hikmat kitoblari tadris o'linur. Ammo hangi hikmat, kalom? Besh yuz sana, ming sana muqaddam kechan hakim va mutaarrizlara muqobil tadvin o'linan raddiyalar ...

Holbuki, besh asrdan beri hikmat, hay'at, kimyo, soir tabi'iyot va aqliyotda adadsiz kashfiyotlar voqe' o'ldi. Besh asri oxir ichinda bu kashfiyotlar sababi ila hikmat va falsafa ahlining aqidasi boshqalandi. Ahli zamonimizning falosifa va hukamo yoxud modiyun va nihilistlarina, ishtirokiyun va dinsizlarina besh-o'n asr muqaddam tasnif o'linan kalom kitoblarindagi dalillar ila muqobala aylasak, to'b va tufang kabi oloti harbiyaya bizim ajdod yodgori o'lan polo, xan-

jar, qilinch kabi shaylar ila qarshi kelsak, natija naya yarar? Ya'ni biz bilkuliya ilmi zamondan, kashfiyot asridan, afkori muosirini dindan bexabariz. Holbuki, besh asr muqaddam o'ldig'i kabi shimdida muosirning 300 milyoni biz musulmonlara tobedir.

Ishta, buning ichin ulamo va tullobi kiroma lozimki, muosirning, Ovruponing, faranglarning fikrina, falsafasina, hikmatina, aqliyotina avvalan oshno o'lub, so'ngra salafi solihiyn sunnati uzara onlarning afkori muzirrasindan musulmonlari muhofaza ichin unlar muqobilinda va zamonaning dinsiz – dahriy va modiyun va ishtirokiyunlari qarshisinda dini islomning ta'limotini mudofaa qilsunlar, kitoblar yozsunlar.

Bu ishlar mutlaqo zamonaning funun va ulumi jadidasini o'qumoq ila, zamona ahlining afkorini bilmak ila, alsinayi g'arbiyaya voqif o'lmaq-la, xulosa tom ma'nosi ila (zamoniy olim) o'lmag'-la husula kelir.

Muhtaram tullobi kirom bilsinlarki, ilmi kalom maydoninda tosh otan (furuqi zolla) denilan xusmlarning aksari cho'qdan yo'q o'lub ketmishdir. Shimdi unlarning yerinda boshqa xusmlar paydo o'lub, bizim kalomiy ko'zimiza ko'rinmayajak pek uzoq masofadan hikmati jadida vositasi-la ixtiro' qilinan ma'naviy olatlar ila aqida va qalblarimiza yangi falsafiy asboblar ila hujum etmakdadirlar. Ammo biz hanuz yangi hukamo va falosifadan bexabarona va uchdo'rt asr muqaddam kechan va holo mavjud o'lmayan shu va yo bu firqa ko'r-ko'rina tosh otib umrimizi zoye' qiliyur va bu kun biza tamos edan hukamo va falosifadan tamomila bexabariz.

Qo'rqaram, Ka'baya vusul muyassar o'lmaz, ey a'robiy!
Chunki ketdiging yo'l Turkistondir.

(Samarqand – Mahmudxo'ja Behbudiy)

TIL HAM DIN

Insonlar asl yaratilishlaridan aql va takallum quvvalariga molik bo'lg'onlari uchun doimo xayollarida bo'lg'on marom va maqsadlarini bir-birlariga ifhom etmak orzusida bo'linmishdirlar. Bu g'oyaga yetushmak uchun tabiiy ko'b choralar izlamak va oz bo'lsa ham aqlni ishlatmak lozim bo'lub kelmishdir. Har na esa insonlar tadrijan o'zlarining bu g'oyayi xayollariga yetushdilar. Surat va rasmlari ila bildurilub kelgan fikrlar shakl va harflarga solindi. Ma'nosiz inson sadolari ma'nidor hijolarg'a va hijolar yig'ini lug'at va kalimalarga aylanub, aqllar va qalblar orasig'a simsiz tilig'rof kabi mavhum vositalar ijod qilindi. Insonlar o'zlarining ong va fikrlari sa'y va sabotlari soyasida yolg'iz bu maqsadgagina emas, avvallari xayollariga ham kelmagan zamonimizdagi yangi maishat va yangi madaniyatga yetushdilar. Butun dunyo yuzini aqllar yetushmaslik darajada sirli bir manzaraga aylandirgan bu madaniyat va bu natijalar hamasi ma'nosiz inson sadolarining qadrli va qiymatli bo'lg'on muhim samaralaridir. Zamonlar o'tdi, tillar ochildi, maishiy ehtiyojot ham bir qadar ta'min etilmakda edi. Lekin inson o'zining saodati abadiyasini ta'min etgudek bir yo'l topmakdan, albatta, ojiz edi. Ishta Janobi Haq tarafidan nozil bo'lgan muqaddas dinlar har asrda bu nuqsonni ham takmil qilub keldilar. Fitriy tillarining taraqqiy va

takomili nisbatinda insonlar orasida muqaddas dinlar intishor etub saodati abadiyaga savq qiladirgan muqaddas va to'g'ri yo'llar maydonga qo'yuldi. Har qavmning o'z lisoni ila qalblariga imon va din ruknlarini singduradirgan rasullar chiqdilar. Dinlar qavmlarning o'z lisonlarida nozil bo'lgani uchun ahkomi diniyada xalqg'a xufya va mushkul bo'lgan nuqtalar yo'q, bo'lsa ham hal qilinurliq bir tarzda edilar. Zero, matnlar ne qadar fasih va balig' bo'lsa ham, ona tilida bo'lub, rasullar og'zidin talqin va naqrir qilinurlar edi. Binoan alayh o'z dinining ruhiga har kim muttali'[55] bo'lur. Har kim muqaddas dinlarga o'zida bir mayl his etar edi. Lekin bu mayl va muhabbat ahkomi ilohiyni loyiqincha anglag'ondan so'ngg'ina hosil bo'lur edi. Dinlarni idrok qila olmagan va yoxud qilmagan ba'zi ashxos va muonidlar tarafidan rasullarga ko'b hujumlar bo'lgani ham ma'lumdir.

Ishta ninday holda bo'lsa ham, dinlarning intishoriga eng birinchi sabab xalqning anglovi, bunga sabab esa o'zlarining ona tillari edi. Ajnabiy tilda bo'lgan dinni yaxshi bilmoq va oning ruhini tarjimonlar vositasi-la anglamak ne qadar mushkul esa, oning ajnabiylar orasida intishori ham shul nisbatda og'irdir. Binobarin, asl o'zining ona tilida bo'lgan har narsani odam bolasi yengil va tez fahmlaydir, ammo ajnabiy tilda bo'lgan narsalarni fahmlay olmagani uchun ondin aslo lazzat topolmaydir. Val hosil har xususda eng muhim mavqeni ishg'ol etgan ona tili din umurida ham o'zining ahamiyatin yo'qotmaydir. Demakki, har narsa kabi din ham insonning ruhig'a o'z tili, o'z adabiyoti ila ko'broq

[55] Xabardor bo'lish

ta'sir qiladir. Bu hol inkor qilinmaydirgan badihiy bir masala hukmini olgani uchun aqliy va fanniy dalillarga, shoyad, muhtoj bo'lmasa kerak. Ilohiy hukmlarning har qavm, har millatga o'zlarining asl ona tillarida nozil bo'lmagi ul masalani isboti uchun sirli va hikmatli bo'lgan ulug' burhondir. Islom dini arab qavmi najibiyga arab lisonida nozil bo'lub, himmatli tarjimon va ulug' olimlar g'ayrati soyasida turk va boshqa qavmlar orasida ham intishor etdi. Lekin islomning ruhini, hikmat va sirlarini bilmak uchun bu holda ham arabning til va adabiyotini yaxshi va mukammal bilmakka majburiyat ko'rildi. Islom dinini yaxshi anglamak bizim uchun osong'ina bo'lmadi. Bu to'g'ruda salaflarimizning qilgan g'ayrat va ijtihodlarini so'ylamakdan tillar, yozmakdan qalamlar ojizdir. Har holda, ul oliy siymolarimiz bu umrda qusurlik ko'rsatmadilar. Turk qavmlari umuman arabcha bilmasalar ham, ul oliy janoblarimiz soyasida dinni o'rgandilar.

Endi hozirgi madaniyat asrida ishlarina boshqa rangga kira boshladi. Salaflarimizdan bizga meros bo'lub qolg'on qimmatli kitoblardan iymon, e'tiqod va ibodat masalalari kabi doimo zarur bo'lgan ahkomi shar'iyani olub, o'z shevamizga tarjima va atfoli muslimiga ta'lim usuli maydong'a chiqub, taraqqiy eta boshladi. O'zimizning ona tilimiz ila maktablarimizda din o'qutmak nihoyatda foydali va shoyon istihson bo'lgan bir tadbirdir. Musulmon bolalarini ayyomi sibovatdan din ruhi ila tarbiya qilmak va qalblariga iymon va arkoni islomiyani singdirmak uchun bundan foydali tadbir yo'qdir. Tilimizning eng kerak yeri ham shul masaladadir.

Binoan alayh bu kundan e'tiboran til masalasiga ahamiyat bera boshlamak va bu xususda muhim maqola va risolalar nashr etmak ahli qalam vazifasidir. Umid qilurmanki, muallimlarimiz bu nuqtag'a ahamiyat berub tez kunda maktablarimizda til darslari o'qutmak uchun dars kitoblari yoza boshladilar. Va til masalasi maydoni muzokaraga qo'yilguncha bunga doir materiyollar hozirlamakni o'zlarining vazifalari bilub xotirlaridan chiqarmaslar.

Ayn. Rauf Muzaffarzoda

SAFOHAT BALOSI

Safohat deb buzuq va g'ayri mashru' yerlarga umr va mol sarf qilmakni aytilur. Safohat eng yomon xulqlardan sanalgan bir sifati zamimadirki, kishini duchori ya's va nadomat etmakdan boshqa shuhrat va e'tiborini yer ila yakson qilur. O'rinsiz yerga sarf qilingan narsaning qiymatini qaytarub olmaq mumkin o'lmadig'i kabi, safohat dunyosiga isroq qilingan aziz umr va hayotningda iodasining imkoni yo'qdir. Inson, har holda, o'z nafsining idorasini ta'min qilub, baxtiyorona bir maishatka qodir bo'lsa, haqiqatan mas'udiyati insoniyasini yo'lga solgan bo'ladir.

Safohat yolg'uz bir oilaning emas, butun bir qavmning mol va sarvatini mahv etmakg'a qodirdir. Hatto nomus va fazilatiga maxsus bo'lgan hurmat va raoyatini ham barbod qilur. Shuning uchun inson ko'rpasiga qarab oyog' uzatmasa, daromadiga qarab xarajat qilmasa, iqtisod yo'lini rioyat qilmasa, nafsining yaqosini safohat alidan qutqarolmas. Mol va hayot qadrini bilmagan va ko'rnamaklik qilgan bo'ladir.

Safohat balosiga mubtalo bo'lgan kishilarning boshlariga shunday bir qaro kunlar keladirki, «Oh, safohat! Ofati jon, baloyi mol ekansan», – deb faryod va fig'on qilmak foida bermaydir. Afsuski, manbayi vujudimiz o'lan yoxud haqiqiy onamiz o'lan vatanimiz, ya'ni tuprog'imizni ozgina bahog'a sotub, po'chak pullar oldig'imiz kabi, osori atiqalarimizni avzina soxta ashyolara molik o'ldig'imiz kabi, bisotimizda bor ilm va ma'rifatimiz, mol va sarvatimizning havoyi nafsoniyamiz uchun «gardkam» urub, boy berub, ko'zimizga ziynatlik liboska o'ralmish fohisha xotun kabi jilvagar o'lub ko'rungan safohat bozoridan buzuq va fasod ishlarni sotub olurmiz. Hosili kalom, inson umrindan bir daqiqasini, molindan bir chaqasini o'rinsiz va g'ayri mashru' yerlardan biriga sarf qilsa, bu dunyoda xor va oxiratda alamlik azobga giriftor bo'lishida shubha yo'qdir.

Safohat ofati jondir jahonda,
Safohat bizdadir ushbu zamonda.
Yuqumlik bir marazdandir safohat,
Yuqub ondan tug'ulur har falokat.
Safohat mahv edar umring, hayoting,
Umid etma safohatdin najoting.
Safohat aylagay molingni taroj,
Bo'lursan oxiri nomard, muhtoj.
Berubdir Haq sanga juz'i ixtiyoriy,
Rizo ermas buzuq koringa Boriy.
Aziz umringni g'aflatda kechurma,
Safohat jomini nafsa ichurma.
Shariat yo'lida qil istiqomat,
Safohat oxiri hasrat, nadomat.

Dushun, joni azizing ehtiyot et,
Musaffo bo'l, payg'ambar ortidan ket.
Safohat o'ylama, oromi jondir,
Butun vijdon ila jonga ziyondir.
Faqirlikni pula sotub olursan,
Dushungil, dushmana muhtoj qolursan.
Safohat dushmani nomusi sha'ning,
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.
Qabohatdir, safolatdir safohat,
Na «Hijron»lig' falokatdir safohat.

Abdulla Avloniy

FAQIRLIK NIMADAN HOSIL O'LUR?

Jigarning qon tomchilarin kundan kun ziyoda taraqqiy etdirmoqda bo'lgan illatlarning eng birinchi moddasi nimadir deb so'rasangiz, «vahshat, g'aflat va jaholat» deb javob olursiz. Bu uch qish oylari ila tan, aql va ko'zlari muzlab, sovuq urgan daraxtlar kabi mevasiz qolgan ota va bobolarimizning mukofotlaridan iborat bo'lub chiqdi.

Demak, yigirma yil avval bosturma tagida, poxol ustida chaksa juxorini ikki oy go'ja oshi qilub, ahli ayollari ila ichub, bo'zdan yaktak va lozim, olachadan to'n kiyub, haftada uch kun sayr, to'rt kun «na'l»chilik qilub, shul tariqa bir hunar ila bo'lsa ham ta'mini maishat mukammallanub, o'zlarining doxiliy va xorijiy fisq-u fasod, sharr-u shururlarig'a yetushub, yana besh pul, o'n pul yonlarida qolur ekan, ajabo! Nima bo'lmishdirki, ul ustolarning ko'blari gado va

ba'zilari ...[56] bo'lub ketkandirlar. Ammo ba'zilari otalaridan qolmish biroz mulklarini bir tarafidan o'purub, qo'shub amallab kelmakda va ba'zilari yetushdura olmay butun bir hunarlaridan kechub, boshqa bir yo'l va ko'yga kirub ketmakdadirlar. Demak, yolg'uz bu kasb ahli emas, har bir kasb ahli shundog'dir.

Xususan, 12 nchi yildan boshlab aksar kosiblar zararlanub, mardikorlikka kira boshlaganlari uchun kuchsiz mardikorlarni bozor olmay bu yillardan alar gadoylarga qo'shilub, 14 inchi yil ramazonda gadoylar boshqalarga qaraganda yuzga qirq prosent bo'lub ketkan desak ham lof bo'lmaydir.

Mana! Bu razolat, xayrchilik va xo'rlik na yerdan keldi? Na'lsiz kafshlarning ko'payganidanmi? Turmish xarajotlarining ortkanlig'idanmi? Yoxud oyog'imiz tagidagi kafsh na'lining oqchasig'acha fobrikalar qo'lig'a o'tub ketkanlig'idanmi? Oh, hunarlarimiz! Qaysi tarafg'a va kimlar qo'lig'a asir bo'ldi?

Pul va mollarimiz qaysi tarafga hijrat etmakdadir? Kecha bir kafshg'a 20 tiyin olub na'l qoqub bergan usta, bu kun darvozalar tagida: «Rabbi man, yo Rabbi man, yo ramazon!» – deb qichqirmaktadir ...

Bu xorliklarning ilmsizlikdan kelganin, shoyad, o'ylagan va aqlga solib qaragan kishi bilur.

Mana, siz ila insonlikda barobar bo'lub ilm o'qugan odamlarni ko'rasizmi? Sizdan davlatli, taraqqiy etmagan bo'lsa ham, siz kabi xor-zor bo'lmasdan bir falon ila maishat o'tkarub kelmakdadir.

[56] Asl matnda shunday

Maqsudga kelayluk: hayotning eng birinchi dushmani va ofati bo'lgan faqir va tama'ga giriftor bo'lmish mazlum va bechoralarga avvalgi ahvollarin so'zlab o'tkan eduk. Ko'chko'chalarda to'p-to'p erkak va xotun, mayda-chuyda, yatim va yasirlar to'polon, shovqin-u suron qilub yuradirlar. Zakot beruchining eshigi tagida och bo'rilardek bir-birlariga intilishub janjal, mushtlash, birining boshi va birining chakkasi yorilgan. Yosh bolalari oyog' tagida qolub, dod-u faryod qiladirlar. Buning ustiga, qorinlari och, ranglari sarg'aygan, ustilaridagi butun to'nlari yirtilg'on. Bu g'urbat, bu zillat, bu xo'rlik, bu asorat va bu razolat ila ertadan kechgacha og'izlari qurishub, ko'zlari mo'ltirab va mo'ldur-mo'ldur yoshlar oquzub Xoliq va Roziqi haqiqiylari bo'lg'on janobi Boriy taoloning buyurgan besh vaqt sajdasidan bo'yun tortkan mard yigitlar chorak gaz chit uchun o'zlarig'a o'xshag'on bir Xudo bandasining eshikig'a borib, buncha ta'zimlar qilub, tashakkurlar aytublar va mehnatlar chekub darbadar yurushlari. Oh! Voh!..

Qaysi bir inson naslining tahayyur zulmatig'a chomdurmas? Qaysi bir haqiqiy musulmonning badanig'a o'tlar tushurmas? Va olamni zindon qilmas? Oh! Qani islomiyat ahkomi?..

Koshki, ul zakot beruchi zotlar beradirgan bir necha vershuk chitlarini minnatsiz va ozorsiz bersalar edi!

Oh! Olarning ertadan kechg'acha intizor qilub va xizmatchilarini buyurub, shovqin solganlarini boshi demay, ko'zi demay yo'g'on kaltaklar ila urub, og'izlari, ko'zlari, xotun va qizlari demay haqoratlar qilub, necha xil dashnom va ta'nalar ila turtub-turtub yuborub qilgan muomalalarini

ko'rub har bir joni bor inson sinfidagi zot, kofir bo'lsun, musulmon bo'lsun, islomning yolg'uz ismigina qolg'onlig'ig'a hukm qila oladir. Demak, bu qay yerdan keldi? Nedan bo'ldi? Shoyad, bilursiz! Ey, koshki, boylarimiz bu tariqa azob, kulfat va ozor ila beradirgan zakotlarini bermasdan o'zlari yeb qo'ya qolsalar edi! Faqr va zarurat sitami ila alamzada bo'lg'on ul bechoralarning dilidagi dog' ustig'a qora yog' quymasalar edi! Mabodo oning kasofatig'a mundan ham badtar kunlarga qolmasak edi!

H.H.N.

ISTIQBOL QAYG'USI

Zamonlar o'tub boradir. Borg'an sari ahvol, maishat va tirikchiliklar o'zgarub boradir. Ushbu turmush ila birga fikrlar ochilub, bilimlar va fahmlar ham o'zgarub boradir. Ko'b vaqt o'tkan emas, fikrlarimiz boshqa yo'lda edi, hozir ul fikrlarning o'rnig'a qarindoshlik va tug'ushganlik fikrlari urflasha boshladi. Bir necha yillar ilgari o'qishning nima va nimag'a foydasi bor ekanin bilmas ham eduk. Emdi oning nimaligin onglay boshladuk.

Odam bolasi uchun o'qish kerak ekan degan so'z bizning ko'z oldimizda tura boshladi. Xat va savodi yo'q kishi Finlandiya viloyatida guvohlikka o'ta olmas. Ushbu so'zni Muso afandi Begiyev janoblari sayohatida nashr qildi. Bir vaqt kelurki, bizning millat ham fahmlab, hollarini shunga aylandirirlar.

Bizlar o'qumay qolganimiz uchun ochinamiz. Ahvoldan va zamondan shikoyat qilamiz. Ba'zilarimiz bobolari-

mizdan ham shikoyat qiladilar. Lekin, birodarlar, yaxshi fahmlangiz! Bizlar bolalarimizni o'qutmasak va shul yo'lda ijtihod qilmasak ham, o'qumay qolgan bolalarimiz eski fikrli bo'lmaslar. Onglarlar, zamondan ham, makondan ham shikoyat qilmaslar. Balki bizlar fahmi kishilar va sinflardan bo'la turub o'qutmay qoldirsak, bizdan shikoyat qilurlar, bizdan ranjirlar, bizg'a yig'larlar.

Ellik yil ilgari buncha harakat bizg'a lozim ham bo'lmag'an. Ul vaqtda yo'ldoshimiz ruslarning o'zlari ham bizning ila birga nodon bo'lganlar, ammo hozir unday emas. Ruslar ekstrenniy po'yizd ila yuridurlar. Bizning yo'ldoshlarimiz po'yizd ila yurishkanda va biz uchun ham o'run ochiq bo'lganda bizning aroba ila yurushimiz durust emas. Po'yizd ila yurmak kerakdir. Chunki zamon shuni xohlaydir. Ya'ni bizni ham ruslar ila qo'l tutushub birga o'qushimizni xohlaydilar. Zamon shunday zamondirki, o'qumag'an va harakat qilmag'an millatlarni ezub tashlar va yutub yuboradir. Kaldoniylar, osuriylar, misriylar va boblilar kabi ulug' millatlarni yutkan zamon bizni ham yutar.

Xulosa, bu jaholatdan qutulmoq uchun ruslar ila birga o'qushmak kerak! Bizning ham bolalarimiz bor. O'z bolalarimiz uchun o'zimiz g'am yemasak, bizning uchun O'runburg' va Qozon totorlari kelub qilub bermaslar. O'zimiz salomat bo'la turub boshqalardan kutub turish juda katta ayb bo'ladir. Bu kunlarda, alhamdulillah, maishatlarimiz ibtidoiy emas, gimnaziya asrarlik kuchumiz bor. Bunga faqat o'qushning nimaligin fahmlab, chin ixlos ila himmat qilish kerak.

Ruslar, yahudiylar, armani va boshqa millatlar bolalarin o'qutmoq uchun jonlarin ham oyamaydirlar.

Bunlar o'zlari oyig'a 20 – 30 so'm jalvaniya olub tursalar ham, bolalarin o'qushdan qoldirmilar. Onlarda maktab bor, chunki onlar o'qumasdan dunyoda turmoq qiyin bo'lganligin yaxshi fahmlagan uchun o'qish yo'lida oqchalarin qizg'anmaydirlar.

Bizlar agar o'n so'mli materuya olub tikdirmoqchi bo'lsak, «o'zimizning musulmon tikuchilar buzub qo'yadir» deb o'n so'mlik materiya buzulmasligi uchun bir yahudiy tikuchisig'a eltub, 20 so'm berub tikduramiz. Birodarlar! Yaxshi fahmlangiz, bizning bolalarimiz o'n so'mlik materiya emasku. Onlarning keladirg'on zamonda Turkiston millatining hurmatlu otalari bo'ladirlar.

Bizlarda shunday odatlar borki, bolalarimizni maktabg'a bermak bo'lsak, maktabi qanday, muallimi va muallima (domla, otun oyi)lar kimlar, qay yerda o'qug'anlar, bolalarimizni tarbiya qilishka yaraydirlarmi, yaramaydirlarmi, oning ila ishimiz yo'q. Biz xarajotdan qo'rqamiz. Muallimlarimiz bola boshidan bir yarim so'm – ikki so'm olsunlar-da, onlar xohlasalar nima o'qutsunlar, ishimiz bo'lmasun.

Qarindoshlar! Rasul (alayhissalom) «Kullukum ro'in va kullukum mas'ul 'an ra'iyyatihi» degan hadislari yo'qmi? (ya'ni har biringiz haydovchisiz, har biringiz o'z haydagan narsalaringiz, ya'ni o'zingizga qaragan kishilar to'g'risida so'ralg'uchisiz.)

U hadisi sharifka qaraganda, o'zimizning himmatsizlig'imiz sababli bolalarimizni o'qutmay qoldirsak, qiyo-

mat kunida Alloh taolo huzurida so'ralur ekanmiz. Ushbu ishlarni fahmlaydirganlarimiz odamlarg'a tushundursun, himmatlularimiz himmatlarini qizg'onmasdan yordam qilishsunlar!

Ixlos ila himmat qilub, g'ayrat qilsak, maktab ham bo'lur, muallim ham bo'lur va bolalarimiz ham o'qurlar. Bizlarning yaxshi ismlarimizni tarixlarda yozub, doimo yaxshiliklar ila yod va ruhimizni shod qilsunlar!

Xo'qand, Ahlulloh Haybullin

TURKISTONNING SAYOHATI

Osmonni qop-qora bulutlar qoplagan, shiddatli ra'd «sado»lari butun jahonga eshitilub, yashinning yaltiragan yorug'lari qorong'u yer yuzini «oyina»dek ochiq va ravshan ko'rsatmakda edi. Yer kurrasi g'arbdan sharqg'a qarab aylanur, 365 va to'rtdan bir qadamdan iborat koinotdagi sayohatni xoliqi buyurgan vaqtda tamom qilmakni orzu qilur edi. Yer dumalanur, aning yonida parvonadek oy aylanur, ko'k ko'karar va yashin yashnar edi. Shul vaqtda qattig' uyqug'a ketgan Turkiston millati, albatta, safarda yurur edi. Yer borur, yashin yaltirar, qorong'ulik yo'qolur, butun koinot birodarlarning yuzini tomosha qilur. Fazo nihoyatda keng, oni tabiiy bir jimjitlik bosgan, Turkistonbobo sayr paxtaligini kiyub, qalin ko'rpalariga o'ralub, hech narsani his etmaslik va umrida uyg'onmaslik darajada qattig' «As'hobi kahf» uyqusiga ketgan edi.

Shul hissizlikda ul ko'b yerlarni sayohat qildi va ko'b har turli hollar boshidan kechurdi. Ul qalin ko'rpasi ostida ux-

lab umrining eng keyingi daqiqalarig'a yetushmakka muvaffaq bo'lgan edi. Daryo va nahrlarning oqg'ondagi mungli dovushlari, atrofini qoplagan har xil gullarning xush islari oning rohatiga xidmat etar, ul tabiat xo'jasi bo'lganidek rohat-rohat uxlar edi. Shul ravishda ko'b zamon o'tdi. Tabiat beshigida ohista-ohista tebratilub, lazzatli uyqular totub yotgan Turkiston hanuz uxlar va hanuz xushig'a kelgan koinot buroqining ustida qalin ko'rpalarga o'ralub rohat-rohat ketar edi. Lekin ko'k ko'karar, ra'd «sado»lari butun olamni qo'rqinchli dovushlar ila to'ldurar, yashin yashnar, o't chiqar, butun yer yuzi «oyina» kabi yaltirar, osmon yorilur, tosh yog'ur, o't va olovlar sochilur edi, ammo nima zarari bor? Ko'rpa qalin, ichi qorong'u, beshik harakatlanur va yo'lning nihoyasi yo'q. Shuning uchun Turkistonbobo uxlagani-uxlagan edi. Shunday qilub, ul halig'acha uxlab borur, ul endi qartayub badani og'irlashganga o'xshaydir, dumaloq yer bo'shlik daryosida suzgani-suzgan, ul go'yoki Turkistonboboni ustig'a yuklab koinot olamida sayohat qildurmakg'a buyurilg'on bir narsa. Yillar, asrlar o'tdi, ul hanuz nihoyatsiz bo'shlikda suzub yurur. Turkistonning toleyi shul koinot buroqida tebranub umrini qalin ko'rpa ostida o'tkarish bo'lganga o'xshaydir. Chunki mening pirim bir vaqt qulog'imgagina: «Turkiston taqdirda peshonasig'a yozilgan bu holidan ayrila olmas, jadidchilarning chiqargan «sado»lari qanday qattig' bo'lsa ham, o'zlari kabi muttaham kishilarnigina kofir qila olur. San hech qo'rqma! Endi lavh ul-mahfuzga yozilub qolgan, Turkiston shunday obod bo'lur», – degan edi. Shuning uchun Turkistonbobo hamisha uxlar ekan. Aning badaniga hazrat Ali (roziyallohu anhu)

ning o'tkur zulfiqori yo Xolid bin al-Valid hazratlarining uchli nayzasi ila qadasang ham, hech sezmas. Anga maktablaring, jamiyatlaring, matbuoting va madaniyating uch pulga ham arzimas. Ul tabiat xo'jasi! Ko'rmaysizmi? Ul qanday boradir. Koinot ani tomosha qilur. Turkiston, Turkiston deymiz, biz ani doimo taraqqiy qildurmoqchi bo'lamiz. «Sado»lar chiqaramiz, shirkatlar tuzamiz, ul bizning bu harakatlarimizga aylanub ham qaramas. Ul endi obod bo'lgan va butun ma'murligini o'ziga yig'gan, ana ul tabiat buroqida bizni masxara qilub boradir. Bizning ishlarimizni nimaga masxara qilub kulmasin? Anga bundan necha asrlar ilgari kelgan Abu Ali Sinolari ham bizdek adabsizlik ko'rsatmadilar. Ani madh qildilar va shodlandirdilar. Chunki ul bechorada hech bir ayb yo'q. Ul endi Osiyoning eng obod, eng tinch bir yeriga o'rinlashub olgan, ul shul yerda obod bo'lub, qizil gullari va oqar suvlari ichida qiyomatg'acha rohatlanub uxlamakchi va koinot biyobonlarida sayohat qilub umr o'zdirmakchi bo'lgan ekan, lekin biz sarig' yuzlar butun adabsizligimiz ila kelub, ani bosub va ezub biturduk. Lazzatli mevalarini yeb va sutdek suvlarini ichub qorinlarimizni katta qilduk. Emdi semurishga semurduk, yana hamma aybni Turkistonboboning ustiga yuklamakchi bo'lamiz. Yo'q, Turkiston bolasi, sekin yur, ehtiyot qil, vijdoningg'a qaytub biroz o'yla. Ayb kimda? Turkistondami? Yoki sen sarig' yuzdami? Sening asrlardan beri Turkistonbobongning orqasida qilmagan adabsizliging qolmadi. Dunyoda bo'lgan har xil yomon xalqlarning hech birisindan qutulmadi. Sen barchasin ishlading, qilding. Asrlar o'tdi, ammo sen hanuz shul sarig' yuzsan. Sen hanuz yemak, ichmakdan va

fildek semurmakdan boshqani bilmaysan. Turkistonni sen uxlaydir deysan. Yo'q, ul uxlamas, ul betob bo'lub yotadir. Turmakni orzu qilsa ham, tura olmas. Chunki sen aning o'zi g'azolanadirgan taomlarini yeding. Yolg'uz shuni ilagina qolmading: tomirlaridan so'rub qonin ichding. Emdi u losh va qonsiz qoldi. Senga ham insof kerak. Ko'b adabsizlanma. Tush aning orqasidan, qayt vijdoningg'a, san bu «sado»laringni o'zing eshut, o'zing vijdoning ila kengash. Ayb oltun tuprog'li Turkistonda emas, san sarig' yuzda, san o'zing axloqsiz, san o'zing omi. Shuning uchun o'zingg'a maktablar och, o'zing o'qu, san o'zing taraqqiy et, madaniyatni qidir, Turkistonni xo'rlama, ul saning sutli onangdir. Kufroni ne'mat qilma. Turkiston sanga lozim bo'lgan har narsani topub berub turur. Chunki ul tabiat xo'jasi, aning ta'siridan hech narsa qutulmas. Yuqori qara! Osmonni qora bulutlar qoplagan. Ko'k ko'karar, yashin yashnar va koinot olovlanurlar. Shul vaqtda tabiat buroqi ustida Turkistonbobong uchub borur.

Ayn. Rauf Muzaffar

DIN MILLAT, MILLAT MILLIYAT ILA QOIMDUR !

Dunyoda insonlar orasida har davr va tarixda o'zini g'oyib etmasdan bugung'acha hukm surub kelgan ikki muhim masala bo'lsa, shubhasiz, din va millatning baqosi masalasidir. Har inson o'zining mansub bo'lg'on dini va millatini jonidan aziz ko'rur. Va alarning qiyom va baqosi yo'lida har turli fidokorlikdan tortunmas. Din va millat muhabbati si-

bovat mavsimlarida onalarning talqini va muallimlarning taqriri ila qalblarga zikr bitilub, ma'naviy va muqaddas ta'sirlar ostida tadrijan kasb vujud etar.

Odamning ona tili esa o'zining din va millatig'a bo'lg'on muhabbat hissin muhofaza uchun yagona yordamchisidir.

Inson o'zining dini va millatini suyar, bu ma'lum bir haqiqatdir. Faqat bu suymak masalasi ba'zan haqiqiy usullar ila bo'lgan kabi to'g'ri bo'lmag'on va ma'nosiz tarzda ham bo'ladir. Bir narsani va yo bir ishni suymak uchun aning haqiqatig'a muttali bo'lmak va atroflicha ani bilmak lozimdir. O'ziga ma'lum bo'lmagan sheylarni suymak asabning zaifligidan yoxud mahzi taqliddangina iborat bo'lub, ma'noli bir muhabbat bo'lmas. Din va millat, bu ikki lafzni haqincha tanimak va bilmak alarning mavqelari va ahamiyatlari kabi oliy himmatlarg'a mavqufdir. To'g'ri fahmli, salim fikrli, oliy idrokli va komil bo'lg'on insonlarg'a bu kabi ulug' masalalarga haqincha itlo'i kasb eta bilurlar. Shuning uchun aql va ruh tarbiyasi ko'rmagan, fikrat va tabiatini isloh etmagan kishilarning bu masalalarda har kimdan olding'a chiqub qichqirmaklari aql arbobi indinda kulgu bir holdir. Din, millat xususida avomning fikri yana tarbiya ila mutanosib suratdagina taraqqiy etar. Chunki insonning kamolini yolg'uz ta'lim va tarbiya soyasidagina tahsil qilinmak mumkindir. O'qumagan va tarbiya ko'rmaganlarni yo'lg'a solmak va alarg'a to'g'ri fikrlar ilqo etmak bu bobda taxsis tobqon zotlarning vazifasidir.

Musulmonlar burundan beri ta'lim va tarbiya yo'llarida yanglishub keldilar. Bung'acha bizda ilm deb arab tili ila ulumi diniyagagina itlaq qilinur edi. Aql va fikrni o'sdiradir-

gan funun va ulum dunyoda bormi, yo'qmi, aqlni o'sdirmak va quvvati fikriyani ochmak kerakli ishmi? Bu ishlar mumkinmi? Va nima uchun zarur? Maktab va madrasalarning anvoyi madaniyati hoziraga mansub har turli asarlar alhosil umuman madaniyat dunyosi bizlarg'a majhul aqllar nihoyatda tor va kichik ramkalar ila mahdud edi. Shuning uchun bu kung'acha bizda taraddud va taajjub davri davom etdi. Asrimizdagi tabiat va madaniyat mevalarin ko'rub biz har vaqtda taajjub etmakda va bu ishlarning inson, xususan, bir musulmon qo'lidan chiqub-chiqmasligig'a tardid ko'rsatmakda edik. Na choraki, emdi osmondan moida inadurgan ruhli zamonlar o'tmish, yer shari soneyi karim tarafidan kamolotg'a yetishdirilub insonlarg'a hadya qilinmishdir. Endi dunyoda muqaddas dinlar taralmish Alloh taolo tarafidan ikkinchi bir narsaning nuzulig'a hech ehtiyoj qolmamishdir. Yer o'zining soneyi tarafidan ustida yurmog'i muqaddar jumlayi mavjudotning hayoti uchun zarur bo'lg'on unsur va moddalarni hammasin aralashdirub yaratilmishdir. Bu hollarni ilohiy bir sado 1332 sana bundan muqaddam bizg'a bildirub qo'yg'on edi. Lekin maataassuf biz ani xotirimizdan chiqarduk. 1332 arqomi ichida qancha vohid bo'lsa, shuncha davrlar bizim boshimizdan o'tdi. Biz fursatni har vaqt ko'bsinur va sanalarning davri tabiiylarig'a muntazir bo'lub oltundek qimmatli zamonlarni g'aflat va atolatda o'tkarur edik. Endi maqsadimiz hosil bo'ldi. Vaqtlar isrof bo'lub bitdi. Hatto zamong'a qahatlik his qiluna boshladi. Shuning uchun hozirgi madaniyat dunyosida bizlar qahatlik ichida sanalamiz. Chunki ehtiyoj ustimizdan qoplagan zarurat qadar ham keraklarimiz yo'q och va uryon holdamiz.

Endi holimizni biz ham bir qadar angladuk. Fikrimizni, aqlimizni yig'ub, muqaddas dinimizni ta'kid va madaniyati ajibani tarfi'i yo'lida «sado»lar chiqarmakg'a boshladuk. Oz bo'lsa ham ko'zlarimiz taajjub xorlig'idan qutulub bormakda, isrof etgan fursatlarimiz bir-bir xayollarimizdan o'tub, aqllarda ma'naviy intiboh tug'makdadir. Dunyoda bo'lg'on ulum va maorifning yolg'iz muqaddas bir sho'basigina bo'lg'onin va buncha sanoye va ixtiroatning qanday manbalardan oqub chiqqanin ko'zlarimiz ila ko'rduk. Hosil al-kalom, biz o'tganlarimizni va holimizni tushuna boshladuk. Hozirda bizim ruhimizda va fikrimizda bundan ortiq bir ehtizoz ko'rinmiy. Bo'lg'on o'zgarish shundan iboratdir. Holo bizda tag'yir va alishinuv quvvadan fe'liyatg'a o'tgan emas. Holimizni isloh va istiqbolimizni ta'min yo'lida vujudg'a chiqargan ishlarimiz ruhi tabdilning moddiy va tabiiy bo'lg'on samaralarigina bo'lub, bu o'rinlarda yozub ko'rsatmakg'a orzu degan narsalar emasdirlar. Taraqqiy va tamaddun jarayoni bizda ham boshlandi deb o'zimizni o'zimiz aldamakdan uzoq bo'layluk. Biz bu davrga kirsak ham, haqiqiy jarayon boshlangani yo'qdir. Millatning har tarafida g'aflat va sukunat hukm surmakdadir. Bir tarafda matbuot, ikkinchi tarafda maktablar, uchunchi va to'rtinchi taraflarda bilim yig'lashub himmat qopulari ochilganin kutmakdadirlar. Soddadil turkistonlilar «maktablarimiz, matbuotimiz, g'ayri va g'ayrilarimiz bor» deb ma'nosiz so'zlar gapuradirlar. Asrlarcha zulmat ichida qolg'on bir millatni ilm va madaniyat yo'lig'a bosdirmak uchun bu himmat, bu matbuot va bu maktablar kifoya qilurmi? Hayhot! Insof ko'zi ila qarayluk. Hozirda bizda har narsa-

ning ismi bor. Ammo jismi yo'q. Mukammal bir jarida yo majallamiz bo'lmagani kabi, ilm ruh va tarbiya asosig'a qurilgan va har jihatdan mukammal birgina bo'lsun ibtidoiy maktabimiz ham yo'qdir. Maktablarni matlub bir holg'a qo'yar uchun maktab kitoblari pedag'o'g' va tarbiya mutaxassislari tarafidan yozilmak va muallimlar usuli ta'lim va tarbiya olimlari qo'linda hozirlangan bo'lmak lozimdir. Shul vaqtdag'ina «dars kitoblarimiz bor» deb aytmak mumkin bo'lur. Holbuki, bizim maktablar pedag'o'g'larg'a taqlid etuvchilardan ham mahrumdirlar. Hozirda bizda har narsa shul tariqa maktab, jarida, majalla, jamiyat, kutubxona va teyotru kabi nomlar ila tasmiya qilinur va o'zlariga xos ismlarni olur qadargina hay'at va suratlardan iboratdirlar. Durust: endigina taraqqiy yo'lig'a qadam qo'yg'on millatning namuna muassasalari har vaqtda shunday zaif va nuqsonli bo'ladir. Yolg'iz ba'zi bir zaif basir marazi ila mubtalo insonlarning kasallariga iloj qidirish o'rnig'a namuna uchun yasalg'on kichik, faqat nihoyatda oddiy bir sibyon maktabini dor ul-muallimin deb qichqirishlari ne qadar ajib ish bo'lsa, boshqalarning ham o'zlarini inson emas, qo'g'irchoq zan qilub buncha o'yunchoqlik va ojizlik ko'rsatishlari taajjub etmasday bir hamoqat bo'lmasa kerak. Yoshlarimizning bu tariqa yo'q narsaga qanoat va taqlid qilishlari va necha yillardan buyon iste'mol qiling'on masqalari tanumasdan tabiiy siymolar deb o'ylovlari uzoqdan qarab turg'onda favqulodda va mazhakali bo'lg'on bir manzaradir. Darvoqe', ishlar va hollar buncha ojizlik va muqalladlik usullari ila jarayon etub tursa, taraqqiy va tamaddun va ihyo millat g'oyalari bizim kabi zaif tabiatli va

turli ta'sirlarg'a muqovamat qila olmaydirgan ojiz insonlar uchun borub bitarday maqsadlardan emasdirlar. Oxiri bor.

A.Muzaffar

DIN MILLAT, MILLAT MILLIYAT ILA QOIMDIR II

Qancha yozsak va so'zlasak ham, muttasil din va millat ruhlarini tirgizmak, ijtimoiy va milliy hayot degan narsani tortub maydong'a chiqarmak yo'linda ovoramiz desam haqiqat o'lur. Harakatdan to'qtag'an yurak ila qon yurushini, hissi ruhiydan mahrum bir hayvon jasadini o'zining tabiiy va tirik holiga qaytarmak uchun, bilasizmi, qancha hayot moddalari ila davolamak lozimdir. Bu san'at Xalloqi karim, Tangri taolo hazratidan boshqasig'a hanuz muyassar bo'lmadi va bo'lmas. Kazalika bizim samavarlarda turli bemazavozlik ila kun-tun uxlab, na din, na dunyodan bexabar past unsurlarimizni, ikkinchi ta'bir bilan aytkanda, dinning va millatning jarohatli uzvlarini salomatlandirmak uchun ham shuncha g'ayrat va harakat lozimdir. Ko'ramizki, xalqimiz nihoyatda qora, jaholat zulmati butun millatni qoplagan, hayot iqbol ufqlari anvo'i adovati botila, avhom va xayolot pardalari ila masturdir. Bu kabi xalqda din va millatning ulviyatini, madaniyat va hayoti ijtimoiyaning haqiqatini tushunur qadar kamolot qaydan kelsun? Olardan bu yo'lda va lav juz'igina bo'lsun, bir alomat asari kutmak neqadar oldanish bo'lsa, bu ko'ngilsiz hollarni tomosha qilub turmak ham shuncha insofsizlik va hamiyatsizlik bo'lishi shubhasizdir. Mana, din homiylari firqasi

ruhoniyun hazarotiga bundog‘ (no)soz nuqtani taqdim etmasdan o‘ta olmim: zamonamizda dinni, shariatni muhofaza na tariqa mumkin o‘lur? Bir din, arbobining taraqqiy va taoliysi, aqlan va fikran tafavvuqi, hayot maydonida ko‘rsatkan kamolot va mahorati ilami muhofaza qiluna bilur? Yo mazkur xavosi ilmiyya va madaniyadan mahrum bir inson yug‘iniga odatdagi va’zlarni minbardan so‘ylamak ilami? Ulamoyi kirom hazaroti tanazzulan bunga diqqat etsalar va muhokamada bo‘lunsalar, shoyad, oldimizdagi mudhish va muhlik arizalarni uzoqdan ko‘ra bilur edilar. Faqirlari bila taraddud shahodat beramanki, «din millat, millat milliyat ila qoimdur». Dinning bezavol qiyomi va oni muhofaza uchun bu zamonda yolg‘uz va’zlarni, talqinlarni silohi ittixoz etmak juda tadbirsizlikdir. Bu hol asri hozirda din ulamosining aqlan va fikran do‘nilgan va zotan ajzin va za’fiyatin ko‘rsatur. Nafslarin har shaydan oliy ko‘ruchi ulug‘larga bu hol tadoyi as-sug‘ar bir daniylik desak xato o‘lmas. Avoili islomda, harcha 20 nchi asr dunyosi bo‘lmasa ham, ulamoyi solifa hazaroti millati islomiyaning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ko‘b ahamiyat berur edilar. Ul oliy siymolar har xususda o‘zlarining rahbarlik vazifalarini darxotir etar edilar. Binoan alayhi, olar davrinda islom dunyosi baxt va saodat va iqbol mevalari ila to‘lu, har taraf madaniyat va ma’muriyat ila ravnaq edi. Ul zamonlarda dunyoda namuna o‘lurday asarlar, iste’mol uchun lozim bo‘lgan qurollar, albatta, yo‘q. Har hol va har ish tarqov, tartibsiz edi. Ma’a haza, din homiylari, ilm va millat xodimlari muhtaram salaflarimiz o‘zlaridan 18 asr keyin kelgan xalqlarini hayratda qoldiradirgan asarlar qoldirubdirlar. Ulum, sanoye’ va madani-

yatning kamoli asrinda dunyoda turgan insonlar yoxud bizlar uchun bu kunda butun maorif va istiqbol boblarin ochmishlar. Endi bu kunda maishat, madaniyat usullariga solinub bitmishdir. Ijtimoiy hayot, iqtisodiy quvvat tahsil qilinub, ulum va sanoye'ning haqiqiy manbalari, tabiat eshuklari va koinot sahifalari ochilmishdir.

Binoan alayhi, aql o'sdurmak, fikr ortdurmak va ish boshlamak uchun yordam asboblari ko'bdir. Bas, bu zamonda odamning tanavvur va taoli etmasligi o'zining hamiyatsizligidan, o'zining g'aflat va hamoqatidan kelur. Xususan, taallum sulkida bo'lgan kishi o'zini har jihatdan isloh etsun, jahonda bilmagan ilmini qoldirmaslikga shuru' etgan kishi kabi tabiat va ilm dengizining ichida dengizda yurgan balig'dek bo'lub suzsun edi. Mana, shul vaqtdag'i bizim mullabachalarimiz hoshiya ramkalari ichiga qisilub, aqllarin o'zlari turadirgan hujradan xorijga chiqara olmov kabi ajzlikdan, iqtidorsizlikdan qutulur edilar. Bizda ham tog'dek madrasalarimizdan chiqgan dorulfunun talabalari va lav kichikgina bo'lsun bir xizmat ko'rmakga orziydirgan bo'lur edilar. Shular orasidan haqiqiy va muqtadir din homiylari va millat xodimlari ham chiqub qolsa ehtimol edi. Talabada mazkur qanoatsizlik xossasi vujud topsa, madrasalar va butun olami ruhoniyat harakat va ehtizozga kelmog'i va bu tariqa islohot muqaddimalari darmiyon bo'lmog'i mumkin edi.

Shul vaqtlarda har toifa xalq orasig'a bir nav' shobi'a hosil bo'lub, har sinf o'zining rutbasini, vazifasini onglar va har fard o'zining darajayi shaxsiyasini tushunur va xalq orasida umumiy tanbeh va vazifasini ado qiladirgan milli-

yat doni ekilur edi. Holbuki, bizim o'qugan sinfimiz-da, xususan, ziyolilarimiz-da, maat taassuf, bu xossa yo'qdir. Har biri o'qumasdan faylasuf bo'lmakchidirlar. Ajabo! Qaydan chiqgan bu qanoat? Turkiston to'la faylasuf, ammo barmoq ila ishora qilub ko'rsatmak uchun odam yo'q. Bir mudarrisning butun millat yuziga tupurgandek o'rtag'a tashlagan bir so'zi bor-ku! Ko'zi va xayoli kimga aks etsa, uni muallim, muharrir, yana bilmam qanday a'loyi illiyin rutbasiga ko'tarub o'tquzur. Bu ma'no ila qaraganda, bizda inson juda ko'p, hatto ehtiyojimizdan ham ortuqdir. Ko'rasizmi, qoriylarimiz, bizda milliyat ne darajada? Mudarris afandi sabatdan piyoz olganday osong'ina sizga kishi topub beradir. Zan etamanki, millat maydoni palov qiladirgan joy emasdir. Bir vaqtda Buxoroning bir madrasasinda faqirlariga palov yedurub edilar. Mazkur palovni farishtalarning ishtiroki ila qilinur emish. Mudarris afandining so'zlaridan ham tamom shul Buxoro palovining ta'mi keladir. Bu so'zlar va bu fikrlar din homiysi va millat xodimi bo'lmog'i e'tibor qilingan bir shaxs tarafidan darmiyon aytulgani o'ylansa, salaflar ila bizim oramizda qoblal hijrati 1333 sanadagi nisbatlar xayollarda tajassum etadir. Va 14 asrda 14/1333 adadi qadar taoliy ko'rulmaydir. Bil'aks, kerak din, kerak millat ul asrdan ko'b zaid tubandir. Qoriylarim! Buning uchun kimlar aybli deysiz? Nafsi dinmi, millatmi? Yoxud o'zimizdami? Biz har qayumiz sabiy bola kabi ma'sum bo'lsak, olami islomdagi butun nuqsonlar Allohning muqaddas diniga va oning taqdiriga isnod keturmak lozim bo'lub, kelurga hosho biz vijdonsizlar yana bilim naqadar jaholatimizda isror etarmiz. Endi insof ko'zi ila o'zimizni, insoniyatimizni

ko'rsak-chi. Ko'zimiz bo'lmasa, yuzimizdagi qora topni aytuchi ko'zlilarga «Siz nima uchun ko'zlisiz? Siz ham ko'r bo'lsangiz bo'lmasmi edi?» kabi olam kulkusi bo'lgan savollar bermasak-chi. Voy, bizim hollarimizga voy! Yana tilimizdan nimalar chiqar ekan. Mana, azizlarim, bu kunda ruhan past unsurimizni, hayoti milliyadan, ilm va madaniyatdan uzoqlig'imizni, 14 asrda ko'rsankan erligimizni, ziyoli va o'qug'an sinfimizdag'i ko'ngilsiz hollarni, so'zlagan so'zlarimizni va qilgan da'volarimizni vijdon tarozularig'a solub o'lchasak, din va millatimizning 14 asr zarfinda kamolg'ami yo zavolg'ami mutavajjih bo'lgani tarozuning pallalaridan birida ko'rulgan og'irlik kabi namoyon o'lur.

A.Muzaffar

DIN MILLAT, MILLAT MILLIYAT ILA QOIMDIR III

Dinlar yolg'uz ilahiy hukmlardan iborat bo'lmagan kabi, millatlar ham yakdin va yakjins inson yig'inlarini tashkil etmaydirlar. Yer yuzida, inson dunyosida har shaydan yuqori ikki narsa bordir: din, millat. Bu olamda banda uchun din va millatidan oliy uchunchi bir shayning bo'lmasligi, butun insonlarning qalblarida, fikrlarida va xayollarida yolg'iz mazkur ikki narsaninggina doiman qaror topmog'i inson dunyosi uchun bularning naqadar muqaddas va oliy bo'lganigin, shoyad, ochiq ko'rsatsa kerak. Durust: dini muqaddas ila Musharraf bo'lmagan Ofriqo va boshqa qit'alarning vahshiylari, milliyat ruhi va bashariyat fazoili o'runlasha olmag'an ba'zi qavmlar indinda din va millat nimadan iborat ekan-

lig'i bilinmasa, ehtimol, bu kabi inson qiyofatli maxluqlar nazarida din va millat har narsadan past e'tibor qiluna bilur. Lekin bu kabi maxluqlar 20 nchi asr oftobidan zarra qadar istifoda qilishni bilmagan jonli haykallargina bo'lub, din, madaniyat nuqtayi nazaridan uch pullik ahamiyatlari yo'qdir. Olamda har ish olardan istisno qilinub ishlangani kabi, din va millat mas'alalari bitariqi ula mustasnodirlar. Ba'zi qavmlar din ila Musharraf bo'lsalar ham, milliyatlari bo'lmas. Bular nazarida yana millat va milliyat degan shaylarning qiymati yo'qdir. Buning uchun misol o'laroq o'zimizni ko'rsatmak mumkindir. Biz islom shariatini qabul qilub, asrlardan beri dinli bo'lub yurimiz. Ammo milliyatimiz yoki millat deb tasmiya qilurdek biror narsamiz voqe'da bormi? Ehtimol, bu savolg'a 10 milyo'n musulmonimiz bor deb juda osong'ina javob berub qanoatlanuchilarimiz ham bo'lur. Lekin musulmonlik ila milliylik biri ikkinchisidan butunlay boshqalardir. Din millatdan boshqadir. Bu ikki narsa har qancha bir-biri ila oralashsalar ham, voqe'da, albatta, boshqadirlar. Bir qavm har dinga betaraf bo'la bilur. Lekin buning ila u qavm milliyatdan mahrum bo'lmas. Din va diyonat bo'lmas, ammo millat va milliyat bo'lur. Millat, milliyat bo'lsa, dinning qiyomi va taqarruri ta'min qilingan bo'lur. Millat va milliyatdan mahrum bo'lgan xalqlarning dinlari 20 nchi asrda e'tibori bir arizaginadir. Chunki jismsiz sath hosil bo'lmagani kabi, millatsiz din qoim bo'lmas. Din insonlarga berilgan umumiy bir hadyadir. Binoan alayhi, oning baqosi umuman olami bashariyatning vujudi va davomi va yo ul dinga mansub millatning hayoti qadarginadir. Demak, din millat va hayoti milliya ilagina qoim va boqiydir.

Millatsiz din zoil bo'lur. Millat esa milliyat nisbatinda ulviyat va quvvat kasb etar. Bir xalqda milliyat xossasi bo'lmasa, ul hanuz bir millat holini kasb etmagan, faqat din yoki jins e'tibori ilagina oyrum tanulgan bir inson yig'inidan iborat bo'lur. Bundog' qavmlar dunyodagi hayot va saodat yo'llarini bilmaslar, iqtisodiy va ijtimoiy hollarini isloh qilmaslar. Durust: din insonlarni saodati abadiyaga savq qiladir. Baxtsiz va qora kunlardan, qo'rqinchli hollardan saqlaydir. Lekin bu olamda baxt va iqbol degan narsalar va hayoti umumiyalar yolg'uz ulum va maorif tahsili ilagina mumkindir. Binoan alayhi, dinimizda takror o'laroq farz qilingan narsa tahsili ulumdir. Dunyoda bu kung'acha ilmsiz qavmlar ko'r, baxt va saodati dunyoviyadan mahrum bo'lub keldilar. Bundan so'ng mundog' bo'lishi shubhasizdir. Ko'ramizki, bu zamonda butun dunyodagi millatlar o'zlarining hayotlarin saqlamak yo'linda hech charchamasdan harakat qilmakdadirlar. Buning uchun birdan bir chora butun xalqning taraqqiy va tamadduniga xizmat qiladirgan umumiy muassasalar va hayoti ijtimoiyani boshqaradirgan iqtisod va hayot markazlari tashkil etmak, milliy matbuot va adabiyot, millatning ahvoliga muvofiq ilm yurtlari ta'sis etmak val hosil umumiy saodat, umumiy hayotg'a mutaalliq qilinmog'i mumkin bo'lgan har ishni qilmak va fa'liyatg'a chiqarmakdir. Bu holda kerak umumiy muassasalar, kerak milliy matbuot, kerak maktablar va madrasalar val hosil millatda bor har narsa shul millatning taraqqiy va taoliysig'a yoq yoqdan xizmat va harakat qilurlar. Bu harakatlarning ozmi-ko'bmi natijalari va foydalari hammasi millatg'a bo'lub, «har kimdan bir ip yalang'ochg'a ko'ylak» deganidek, bu yordam va

muovanatlar bir nuqtag'a yig'ilg'ach, albatta, millatning taraqqiy va takomuli uchun quvvatli bir omil bo'lishi shubhasizdir. Bu usul yoinki ijoq qilingan yo'l emas, balki butun dunyo millatlarin bu kundagi kamolotg'a yetkuzgan va takror tajribalardan o'tkan haqiqiy va foydali bir yo'ldir. Shul haqiqatni kerak ummatlarning tarixlari, kerak 20 nchi asr dunyosi bizga oyinadek ravshan va ochiq ko'rsatub tursa ham, maataassuf, turkistonlilarda bularni ko'raturgan ko'z va taslim etadirgan vijdon va insoniyat halig'acha yo'q edi. Olar butun dunyo xalqi tarafidan millat dorusi deb tanulgan birdan bir usulni qabul etmaslik darajasida jaholat va taassublarin olamg'a chiqardilar va hanuz chiqarmakdadirlar. Olarda basirat xossa qolmag'an, millatlarining lisoni hol ila osmong'a chiqargan «sado»larin, oh va fig'onlarin eshutmay va ko'rmaydirlar. Demak, bizda milliyat va millatimizni bu pastlik va bu zaiflikdan chiqarmak uchun juz'igina bo'lsun fidokorlik yo'qdir. Agar bizda umuman din va millat qayg'usi bo'lsa, bu holimizdan rozi bo'lur edikmi? Hozirda bizda ziyoli va to'g'ri fikrli odamlar juda kam, borlari ham milliy va umumiy ishlarda tilg'a olub ayturdek qahramonlik ko'rsatmaydirlar. Har yerda va har xususda shaxs, manfaat olda tutula, milliyat xossasi nafs orzulari ila mahv etuladir. Ko'b ziyoli afandilardan o'zlarining da'volarig'a nisbatan nihoyatda tuban va umidsiz muomalalar ko'rmakg'a to'g'ri kelinadir. Bir Turkiston bolasi anvo'i safohat yo'llarig'a yuzlargina emas, minglar isrof qilur, ammo 5 tiyinga o'zining milliy jaridasin sotub olmas. Bu qadar ruhsizlik va buncha fikrsizlik bizda hukm surgan bir zamonda milliyat xossasi qachon tavallud etar va qachon tashkiloti milliya hosil bo'lur

ekan? Millat afrodi orasinda milliy intiboh tug'dirmak va milliyat hissi uyandirmak uchun birdan bir siloh milliy matbuot va milliy adabiyot ekanligi shubhasizdir. Bu narsalar bo'lsa, ehtimol, ko'ngillarda titrab turgan zaif umidlar yangidan ruhlanub, ruhlar yangidan bir tasavvur, yangi ideya (fikr)larg'a kirishub ketsalar ehtimol edi. Voh! Bizda bular ham yo'qdir. Hollar bu tariqa bo'lg'anda dinning qarorgohi bo'lgan millat, millatning istinodgohi va birdan bir omili bo'lg'an milliyat qaydan chiqar deysiz?

Endi bundan so'ng kerak dinni, kerak millatni yolg'uz minbar va mehroblardagi va'zlargina taraqqiy va taoliyg'a hayday olmag'ani uchun mutlaqo milliyat va diyonat hissi chiqadirgan manbalarni qidirmaqlig'imiz lozim edi. Holbuki, biz hanuz qanday manzaralar tashkil etamiz. Umidlarni yana janob Rabb ul-olamiynga havola qilub, yolg'uz ul Xayr ul-hofizin hazratidan istimdod edarak so'zimni kesdim.

A.Muzaffar

MILLAT KRABI NIMA KUTAR?

Arabiy maqol: tajrir riyah bima la tashtihis sufun. Ma'nosi: shamollar kemalar xohlamagan tarafg'a yurar.

Voqean dengizlardagi shamol quvvati ila yuradirgan kichik kemalar doimo shamolni va aning o'zlari xohlagan tarafg'a yurmog'iga muntazirdirlar. Lekin tabiat quroli bo'lgan shamol insonlarning kayflariga xizmat qiladirgan narsa emaski, oni qo'l ila ushlab kerak bo'lgan tarafg' a mayl qildirilsun. Shuning uchun ul yer yuzida kamoli ixtiyor va

sarbastlik ila jarayon etar. Aning ustidan tabiat va aning ustidan tabiatning xoliqig'ina hukm ijro qila bilur. Aning yo'llari janobi haq tarafidan tayin qilingan, ul bizga, kemalarimizga, tegirmonlarimizga aylanub ham qaramas, to'g'ri o'z yo'lig'a yurar. Endi bu hol, albatta, shundog'dir. Chunki bu bizim ixtiyorimizdan tashqari bir narsa, bul tabiat mulki, tabiat quvvatidir. Durust! Biz unlardan foydalanurmiz. Ani ishlata ham bilurmiz. Lekin tabiatda biz foydalanadirgan narsalarning har biri uchun biz bilmayturgan yana juda ko'b xususiyatlar bo'lmak mumkindir. Masalan: shamol tabiatning yer yuzidagi eng kuchli vositachisidir. Shamol bo'lmasa va ul vositalik qilmasa edi, qum, tuprog' va havo hech harakat qilmasdan va ko'chmasdan yolg'uz bir o'rindagina turar edilar. Suvlar va dengizlar harakatlanmas, fo'rtanalar hosil bo'lmas va alhosil yer yuzi tabiat qo'li ila yuvilmas va serilmas edi. Buning natijasi o'laroq havo buzilub, turli hasharotlar ko'payub, yer odam bolalarig'a maskan bo'la olmaslik darajada salohiyatsiz bo'lub qolur edi. Bir tarafdan qaraganda, bizim hozirgi holimizni ham shul namunaga tamom muqoyasa va tatbiq mumkindir. Hozirda millatimiz manzara nuqtayi nazaridan xuddi dengiz o'rtasida to'qtab, yordamdan mahrum qolgan shamol kemasig'a o'xshaydir. Bu ham uning kabi ifrod millatning harakatiga va yordamiga muntazirdir. Lekin maataassuf atrofni umidsiz bu jimjitlik bosqon, nihoyatda qattig' g'aflat hukm suradir. Havodan yordamsiz qolgan kemadek Turkiston millati ham charchab qolgan, atrofinda foydali va matlub tarafg'a qarab yuradirgan shamollar kelganin kutmakdadir. Millat krabi suv ustida harakatdan ojiz va muovanati milliyadan mahrum bo'lub

turmakda, dahshatli dengiz girdoblarig'a ma'ruz qolub shul qo'rqinchli talfalar orasida yo'qolmog'idan xavf etmakdadir. Endi ul tamom ojiz, tamom umidsiz va bu nuqtada yo'qolmoqg'a mahv va xarob bo'lmoqg'a mahkum kabidir. Shuning uchun ul zavolli kema yangi shamolni va matlub tarafg'a o'zini olub boradirgan foydali shamollarga muntazirdir. Lekin shamollar to'qtagan asrlar kechgan, millatning buni «isloh» daryolarining yaltirab yotqon zabarjad kabi suvlari ila yuvilmagani uchun kirlangan, eslangan va Rabb ul-olamin hazratidan boshqa hamma mavjudotning shafqat va marhamatidan umidin kesub mag'oraga chekilgan bir darvesh kabi millat ham kamoli ma'yusiyat ila o'zining oilasi tarafidan ko'rilgan insofsizlik, hayosizliklardan o'zini chiqarub, arhamar rohimin hazratlarining soyayi qudratlariga sig'inmak orzusindadir. Kunlar o'tar, ishlar ishlanur, lekin bular hammasi millat xohlagan suratdami? Millat bolalari bo'lur, maktabg'a va madrasaga kirur, butun umrini tahsili ilm nomidan bitkuzar va o'tkarar. Maktablardan millat bolalari, vatan gullari madrasalardan din homiylari, millat xodimlari chiqarlar. Lekin alar dunyoda nima ishlarlar, nima o'qurlar? Muharrir afandilar kitoblar yozarlar, muallimlar maktablar ocharlar. Alar nima o'ylarlar va nimalarni ko'rurlar va kuzaturlar? Kitobchilar kitobxonalar ocharlar, kitoblar nashr qilurlar, mudarrislar dars ayturlar, imomlar to'yg'a borurlar, muazzinlar azon ayturlar... Yana bilmam kimlar nimalar ishlarlar, nima qilurlar va nima uchun qilurlar? Val hosil har kishi bir harakatda, har odam ko'rpasin qoplanub sandalig'a o'lturg'on o'zicha o'yliy va plan tuziydir. Bu jihatdan qaraganda, go'yo bir xil harakat ham bor,

shamol ham bor. Lekin millat krabi ulug‘ bir dengiz o‘rtasida o‘ziga qarshi kelgan shamollarga g‘azanfarona ko‘kragin kerub turmakda va o‘zining xohlagan tarafig‘a bormak uchun madaniyat oftobig‘a qarab yurgan shamollarni kutmakdadir. Qachon kelur ekan bundog‘ shamollar, qachon qutilur ekan millat bu qizg‘onchli intizorindan? Tezmi yumshar toshdek qalblar, tezmi ko‘ra boshlar bu ko‘r vijdonlar? Tezmi... tezmi.... tezmi....?

Ayn Muzaffar

MADANIYAT

TOSHKAND 4 INCHI O'KTABRDA BIZLARDA G'ARIBA XOSIYATLAR VOR

Ulum va funung'a, ilm va maorifg'a zid o'lg'on sheylardan birisi xudpisandlik o'lmoqni hech inkor etmas gumonindamiz. Ba'zi odamlar vorki, ulum va funundan, ilm va odobiyatdan, daha to'g'risi insoniyatdan mahrum o'lub, uzog' tushganidan boshqa o'zini a'lo darajada hisob qilib, o'zidin mohir va o'zidin bilguvchi kishi yo'q gumon qilur. Bu xosiyatga ham sabab odobiyotdan bexabarligidur. Ilmsizlik, odobiyotsizlik, johillik, nodonlik uni andog' asir etub, bir holatga solibdurki, aslo ko'zini bir oniy ochub ilmlu, maoriflu kishilardan odobiyat o'rganub insoniyatni yo'lini topub ketmakg'a fursat axtarmayur. Bil'aks insoniyatni va xalq raftor va kirdorni yo'lini bildurganlarg'a ham istehzo etub, «man yuz fano holda o'lsam ham, yana sandan yaxshiroq bilurman» deb aql qabul etmagan va odamlikg'a yarashmag'on so'zlardan boshqa bir so'z bilmaslar. Bilmam na vajhdan bu xosiyat va bu johillik boshqa millatlardan ko'ra biz musulmonlarda birimizdan birimizg'a serobat etub, kundan kung'a intishor topub, oramizda ziyodalashmakdadur. Va ham millatni g'aflat va zindonig'a mahbus etub, bir oniy ko'z ochub atrofg'a qaramakg'a yo'l

bermay, o'zidan boshqa kishini ko'rub, bir ma'lumot olmasga savq etar.

Yoshlarimiz, yigitlarimiz, o'quvchilarimiz, yozuvchilarimiz, har kimsa o'lsa o'lsun, bir sahv, bir xato etub, egri ketganda uning ul xatosini savobig'a da'vat etub, egrisini tuzatmak orzusida aytgan nasihatomiz so'zlarning javobinda tashakkur rizomandlik badalig'a achchig'-achchig' so'zlardan g'ayri bir javob eshitmassan. Balki so'zlagan insoniyatomiz so'zlaringg'a pushaymon o'lursan. Bovujud alarning va vahshiyona so'zlarig'a va javoblarig'a quloq solmay yomon demak va bildurmak kerakki: «bu kun har bir millat, har bir qavm, har bir jamoat o'lursa o'lsun, taraqqiy topmish madaniy millatlardan o'zini kanorag'a chekub, alarg'a nafrat nazari ila boqsa, o'zining ota-bobodan qolmish zamonag'a nomuvofiq o'lg'on qoida va usulini xushlab ul ko'hna yo'l ila ketmak istasa va daha to'g'risi alarning, ya'ni taraqqiy topmish millatlarning qoida va raftor va kirdorini va alarning taraqqiysig'a bois o'lg'on ulum va funun, hunar va sanoatlarni o'zig'a zid hisob etub, ijtinob va parhez etsa, hech bir zamonda ul millat, ul jamoat taraqqiy topub, girdobi balodan najot sohilig'a chiqmoqg'a qadar o'lolmas». Baraks murur zamon ila tanazzul topub, oxir-oxirda yo'q maqominda o'lmoqig'a har aqli boshinda o'lg'on kishi inonar. Ishta bu zamonada bu vaqtda qaysi bir qavm qaysi bir jamoatdurki usuli qadim uzra ish tutgani uchun mulk, moli va mamlakati parcha-parcha o'lub, qo'lidan chiqub, taraqqiy topmish millatlar qo'lig'a o'tub, o'zi yo'q hukmina kirmadi? Kurrayi arzning uzarinda biz musulmonlardan boshqa o'zining yo'q o'lmog'ina o'zi sabab o'lmish bir millat ko'runmayur. Bunga

ham sabab xudpisandlik o'lub, mutaraqqiy millatlarg'a yaqin o'lmak istamay va alarning qo'llarida o'lg'on sanoye' va ma'lumotni o'rganmakdan parhez qilmakdur desak, gumoni ojizonamg'a ko'ra, xato etmagan o'lurduk. Behunarlik, beilmlik, badaviylikda bir vaqtlarda bizdan necha daraja past va necha daraja keyin bir millat Yopuniya o'lsa kerak. Bu falokatni, bu dardni ilojini axtarib va millatni taraqqiy topub ortmog'i na yo'lda o'ldig'ini tiklab...[57] tiklab ham Ovruponi madaniy va mutaraqqiy millatlarig'a qo'l uzatub, alarda o'lg'on ulum va maorifni sanoye' va ixtiro'tini o'rganub, o'z oralarinda intishor etganlari-chun taraqqiy topub ortmoqg'a muvofiq o'ldilar. Ham bu kun madaniy millatlar qatorig'a kirib, miliyun-miliyun jamoatg'a saodat azimona doxil etub, tarix sahifalarinda o'z nomlarini kun kabi oshkor etdilar. Ishta bu kunda bizni ham burchimiz vazifamiz farzi lozim ul-adomiz budurki, har bir xudpisandlikni tor ko'zlikni tashlab har bir yaxshi sheylarni boshqalardan o'rganmaka ahd etmaka sa'y va g'ayrat etaluk. Va bu xususda Yopuniyani nazar-e'tiborda tutaluk...

M.Ar.

MADANIYAT NARDBONI I

So'zim madaniyat lafzi ila boshlangani uchun, albatta, buning haqida bir-ikki og'iz so'ylamasdan o'ta olmaymiz. Madaniyat so'zi bizim matbuotda doimo ko'rilub tursa ham, ehtimol, oni bir jonli hayvon va yoki havo bo'shlig'ining nihoyatda uzoq o'runlarida turadirgan biror mavhum narsa

[57] Asl matnda shunday

deb gumon etuvchilar bo'lur. Odam bolasi ko'zi ko'rmagan qulog'i eshitmagan narsaga uchrasa, har vaqt turli fikr va xayollarga tushmog'i ma'lum bir holdir. Chunki bir vaqtda mashhur madrasalardan biriga darslarni tinglamak uchun kirub edim. Sinfda muallim va shogirdlar orasida til masalasi chiqub ketdi. Xeyli muzokaralardan so'ng muallim afandi til va shevalar haqida shogirdlarg'a qisqacha bir fikr so'yladi. So'zlar tamom bo'lgach, o'zining bergan ma'lumoti haqida shogirdlarining zehnlarida biror narsa o'rnashdimi ekan deb tabiiy bir shogirdga xitoban: Afandim! Emdi bildingizmi sheva nimadir dedi. Shogird ta'zim uchun o'rnidan turub: sheva deb oq soqolli katta odamg'a aytadirlar deb aytgan edi, sinfdag'i butun shogirdlar qichqurub kula boshladilar. Bu bechora yana ehtimol bundan-da ajibroq so'zlar so'ylamakchi bo'lgandir, lekin tovushlar ichida bundan boshqa gaplari eshitulmasdan qoldi. Ko'rdingizmi? Bu madrasa kichik bir madrasa emas, bu ajib javobni bergan shogird ham mazkur madrasaning rushdiya qismida mukammal prog'ramma ila tahsil ko'rgan. Ne qilmak kerak? Bu e'tiborsizlik degan narsa dunyoda odamni olam rasvosi bo'lurday kulgilarga tushurmog'i mumkindir. Shuning kabi yer yuzida eng qorong'u go'shalarg'acha o'zining nurini tushurgan madaniyat oftobining ismi har daqiqada tillarda so'ylanub, ko'zlarga ko'rilsa ham, oning nima ekanligi buning ilagina, albatta, bilinub yetmaydir. Bir narsaning va yo bir lafzning haqiqati oning bir fikrga kelurday to'g'ri ma'lumot tahsil ilagina bilunadir. Bir millat ichida har turli sinf xalq bo'ladir. Bu aholining matbuotdan va gaplardan o'zlari orzu qilgan qadar foydalanmaklari uchun albatta bayon qi-

lingan fikrlar alarning quvvayi idrokiyalaridan yuqori daraja bo'lmaslig'i shartdir. Binoan alayh milliy matbuotda millat asnofining har biri istifoda qilurday masalalar va fikrlar yozilmak lozimdir. Yo'qsa, matbuotdan umid etulgan samara hosil bo'lmaydir. Bizim matbuotda iste'mol qilingan iboralar va bayon qilingan fikrlar yuqori va ongli sinfimiz uchun og'irlik qilmasa ham, tuban sinflarg'a albatta og'irdir. Aholining orzusi qaytmasday sodda til ila foydali maqolalar yozmak ona tiliga eng yaqindan oshno bo'lg'on mudarris va muallim afandilarga oid bir masala bo'lsa ham, taassufki, bizim mudarris va muallim afandilarimiz aholidan o'zlarini ko'b yuqori tutadirlar. Ajabo! Buncha g'urur nimaga kerak ekan? Biz o'zimiz qalam tutub aholi foydasi uchun bir narsa yozishqa yaramasaq, milliy va ijtimoiy bo'lg'on mavqemizga qanday insof ila o'zimizni ahil deymiz? Bizim bu vazifamizni kelub kimlar ado qilur? Insof qilayluk! Adabiyot, matbuot, madaniyat degan narsalarni ichlarin ochub ko'rsatmasdan butun holincha aholiga taqdim etsak, bundan qanday bir samara chiqar deysiz? Masalani ochub bergach va mushkul nuqtalarin anglatgach, aholi har vaqt madaniy va ilmiy fikrlardan qochmaydirlar. Dunyoda hech bir millat butun 20 nchi asr madaniyatin birgina martaba qo'li ila hovuchlab olmagan, har biri tadrijan taraqqiy etgan. Millatlarning taraqqiy va tamaddun davrlari o'nlabg'ina emas, yuzlab hisoblanadirlar. O'zimizning fikr arbobi matbuot va madaniyatga hosil har ishga bir yoqdan shohid bo'lub turmakdan boshqag'a yaramasalar, madaniyat va matbuot lafzlarin butun hollarincha sabiy bir millatga taqdim etsalar, bizim aholiga bularning haqiqatin kim kelub o'rgatur? Hol bun-

day bo'lsa, madaniyatni sigir deb yursalar ham, aholidan kulmakg'a yo'l yo'q. Bu mas'uliyat aholining moddiy yordamlariga muqobil aslo himmat ko'rsatmagan fikriy va ilm arbobiga oiddir.

Bizim ilm ahlida eskidan singub qolg'on zararli bir fikr bor: bir narsa arabcha yozilmasa, oning hech qiymati ilmiyasi yo'q emish. Arabcha yozilmagan narsaning qiymati ilmiyasi yo'qlig'i uchun bo'lsa kerak, arabcha bir kalima bilmagan insonlar osmonda uchub, dengiz ostlarida yuradirlar. Bizim es og'uchi «Aqoid», «Sharhi mullo», «Salam» va boshqa madrasalarimizda o'quladirgan kitoblar arabcha yozilganlar. Bularni bilmak va anglamak uchun o'zimizning ona tilimizga tarjima qilmak kofiydur.

Biz arabchani bu fanlarni bilmak uchun o'qumaymiz. Balki Qur'on, hadis va shariatimizg'a mutaalluq butun kutubi diniyaga muttali' bo'lmak arab lisonini o'rganmasdan mumkin bo'lmagani sababligina necha sanalar arab tili o'qumakg'a majbur bo'lamiz. Binoan alayh arab tili bizim uchun diniy bir lison bo'lib qolmishdir. (Adduo billug'atil arabiyyata muqarruna bal ijobat) qavli sharifi Qur'onimiz va payg'ambarimiz arab lisoni ila kelg'oni uchun aytilgan bo'lsa ham, bu so'z doirasiga diniy amrlarg'agina doxildir. Shuning uchundirki kerak ibodatlar, kerak duolar va alhosil diniy ishlar hamasi arabcha tashkil etmishdir. Ibodat va duolarni fahmlar qadar bir holga bolalarni qo'ymak ibtidoiy maktablar vazifasidir. Buning chorasi arab tilini til usuli ila mukammal o'qutmak emas, balki maktablarga maxsus din va e'tiqod kitoblarini eng muvofiq bir suratda tartib qilmakdir. Albatta, dini ilmiy bizda shul tariq ila o'qutuladir. Zotan,

din olimlari yetishdirmak uchun madrasalarda ulumi oliyayi arabiya ta'lim o'linmak lo bad minhudir. Ammo dunyo ilmi va fan kitoblari yozmak, matbuot, adabiyot vujudg'a chiqarmak uchun eng birinchi qurol ona tilidir. Boshqa millatlarda ilm va maorif ona tili ila intishor etub turgan bir zamonda bizim mutafakkirimiz ona tillariga hech ahamiyat bermaydirlar. O'zlarining sof ona tillari ila xalqimizg'a madaniyat darslari beradirgan qalam ahllarin bizim millat qachon ko'rur ekan?

Oxiri bor. Ayn.Rauf Muzaffar

MADANIYAT NARDBONI II

Dunyoda yuzlarcha millatlarning madaniyat va taraqqiy yo'lig'a qadam qo'yushlari va madaniyatning eng oliy darajalariga yetishmaklari arabchasiz bo'lub turg'on kabi, jahonning eng ulug' faylasuflari ham arabcha o'qumasdan olim bo'lmishdirlar. Mana, olim bo'lish boshqa, har turli ajnabiy tillar bilmak yana boshqadir. Adabiyot va matbuotni luzumincha taraqqiy etgan bir millat bolasi ajnabiy tillarga hech muhtoj bo'lmasdan, faqat o'zining ona tili ila o'qub olim bo'la olur. Hech arabcha bilmag'on bir faylasufni nodon deb aytsak, bizdan har kim kulgani kabi, arabcha biladir deb bir mujovirni olim desak ham kulgili bo'lurmiz. Demak, asl olim bo'lmak uchun hech bir tilga ehtiyoj yo'q, bo'lsa ham milliy adabiyot va madaniyatning yo'qligidan kelgan bir kasalginadir.

Bas, bizim aql arbobining biror narsa yoza boshlasa, iboralarni arab va forsiy lug'atlari ila to'ldurmaklari ilm va

fazlg'a aslo dalolat qilmaydir. Eng fozil va komil bo'lg'on insonlar o'zlarining ko'ngillaridagi fazl va kamolni aholining ona tillarida so'ylab tushundururlar. O'zining milliy tilida yozub aholini taraqqiy va tamaddun yo'liga soluvchilar, dunyoning qorong'u go'shalarida madaniyatdan, ilm-u irfondan bebahra qolg'onlarga madaniyat, ilm-u irfon nima ekanini bildura oluvchilar ilm va madaniyat dunyosida eng oliy siymolardan sanaladirlar. Bas, dunyoda ilm va madaniyat doiralariga birgina martaba ibrat ko'zi ila qarag'on zotlarg'a ham ma'lum bo'ladirki, fazl-u kamol odamning tilida emasdir. Ona tili ila milliy matbuot va adabiyotga va aholining taraqqiy va tamadduniga xidmat qiluvchi zotlar o'zlarida bo'lg'on ortuqchilikni ishlab ko'rsatuvchi haqiqiy olimlardir. Bular millatlarning eng suyukli bolalaridirlar. O'zimizning ona tilimizda milliy matbuot sahifalarida aholimizga ilm va madaniyat nima bo'lg'onini har vaqt yozub turmak aholining maishat va ahvolidan, zotan, tilidan xabardor hamiyatli ziyolilarimizg'a tevishli bir vazifadir. Alar bul qarzni ustlaridan tushurmasalar, millat va aholi huzurida hech vaqt mas'uliyatdan qutula olmasliklari muhaqqaqdir. Madaniyat nardbonining birinchi poyasi, yuqorida yozganimiz kabi, millatlarning tirikchilik hollaridan, til va odatlaridan xabardor fikr ahllarining ishga boshlamaklari va aholini ahvoli madaniya ila tadrijiy suratda yaqindan tanishdirmaklaridir. Bu tariqa ila xalqda fikr kengayur, ilmiy va madaniy og'um boshlanur. Kerak bo'lmag'on odatlarga nafrat ortub, aholiga juda ajib ko'rilg'on masalalar ham yengillik ila hal qilinur edilar. Lekin maatassuf bizda bu hol qanoatlanadirgan darajada emas. Butun millatga faqat ikki dona g'azetam-

iz bor, alar ham kunda chiqa olmaydirlar. Jaridalarning, umuman, matbuotning oldinga keta olmaganlig'i millatda bo'lg'on darajayi fikriyaga va millat ifrodida yashirilib yotadirgan milliy til va matbuotga bo'lg'on havas va muhabbatning darajasiga ulug' bir mezondir. Turkiston matbuotini va oning surati taraqqiyasini boshqa millatlarga qiyos qilish mumkin emas. Boshqa qavmlarda, odatda, bir yil ichida bo'lub turgan taraqqiy poyasiga biz 10 yillarda ham chiqa olganimiz yo'q. Binoan alayh milliy matbuotsiz taraqqiy mumkin bo'lmaslig'ini bizim xalq fahmlaydir deb aytirga hech til bormaydir. Bunga dalil qidirub turmasak ham, bu hol har kimga ma'lumdir. 10 milyun qadar nufusli bir millatning eng g'alabalik markazlarida nashr qilunadirgan faqat ikki dona g'azetamizni ham yaxshigina olub borolmaymiz. Aytishga til va yozishga qalam uyalur. Bu g'azetalar 4-5 oydan beri davom etadirlar. Holbuki, mushtariylar mingdan oshmaydirlar. Agar voqeada bo'lganday ag'entlari ham obuna pullarini o'z kissalarida saqlasalar, ul vaqtda matbuot va millatning taraqqiysini qaydan kutmak kerak? Bizda hamiyatli yoshlar bormi? Yo'qsa, bizim millat ham mahrummi? Har sana ochilgan matbuot sahifalarida qora nomlarin qoldiruvchi va o'zlarining hamiyatsizliklarin butun olamga ko'rsatuvchi yigitlar Turkistondagina ko'rildi. Ishta azizlarim, bizdagi madaniy taraqqiy milliy hamiyat shul nisbatdadir. Turkiston shaharlarining har bir yerinda beshlab, oltilab jarida va turli majallalar muttasil nashr qilinub turmasa, bizim xalqni madaniyat yo'lig'a kirdilar deb ayta olmasmiz. Madaniyat nardbonining shul birinchi poyasidan ham o'za olmag'on Turkiston musulmonlari, xusu-

san, yoshlari o'zlarida bo'lgan fidokorsizlik va hamiyatsizlikni bitirmasalar, taraqqiy davrinda duchor bo'lindiqlari bu ojizlikdan qutula olmasdirlar.

Madaniyat lafzi arab tilida shahar o'rnida iste'mol qiluna va madinat deb yurituladir. Ko'chabalikdan chiqub, birar shaharga tobe bo'lganlarni arablar madaniy deyurlar. Biz arablardan olub, madinat so'zini butun o'z shevamizga kirgizub, madaniyat tarzinda qabul etganmiz. Dunyoda insonlarning usuli maishati uch turli bo'lub, vahshiy, badaviy, madaniy deb nisbat beriladirlar. Turkiy shevalarda ham bu usul maishatlarga vahshat, badaviyat, madaniyat deb itloq qilunadir. Bu xil maishat usullari bizim turkiy tilidagi «Tarixi umam» fanlarida juda qisqacha bayon va ta'rif etilmishdirlar. Buning sababi ham turk matbuotining ozlig'i va islom olamida adabiyot va matbuotga kelgan vaqtda cho'nchaklardan pullarining chiqa olmasligidir. Har fan kabi, albatta, bu fan ham ijmolan yozilub qanoat etilmishdir. Holbuki, tafsilot berilgan taqdirda bu usullardan har birin yozmak uchun jildlar to'ldirmak lozimdir. Hozirda har millatning o'zining madaniyat tarixini yozmak uchungina qancha jildlar qoralamak lozim bo'ladir. Madaniyat, madaniyat deb har vaqt qichqirmak va yozmak ilagina xalq madaniyat nima bo'lganini, albatta, fahmlay olmaydir. Madaniyat so'zi qanday usullarning va qanday maishatlarning hay'ati majmuasig'a itloq qilinganini biluvchi afandilar marhamat qilub qalamlarin qo'llarig'a olsunlar. Va xalqimizg'a tadrijan maishat va madaniyat usullarin ko'rsata boshlasunlar edi.

Mana shul vaqtda biz o'zimizni shukrlar bo'lsun, biz ham madaniyat yo'lig'a oyoq bosdiq deyur edik. Va illo bi-

zim bu tariqa osmondan taraqqiy yomg'uri yog'ganini kutub iqtisodiy, maishiy va sanoiy birgina dona bo'lsun risola yoxud maqola yozmasdan yotishimiz va maktablarimizda shogirdlarg'a ma'lumoti madaniya darslari o'qutmasligimiz xalqimizni madaniy taraqqiyg'a aslo savq etmas, bil'aks, ilm va madaniyatga va yangi islohotg'a bo'lgan borlik muhabbat va husni tavjihalarning ham suiiste'mollariga sabab bo'lishi tabiiy bir holdir.

Oxiri vor.

Ayn.Rauf Muzaffar

MADANIYAT NARDBONI III

Madaniyat yo'lida ikkinchi odum aholini madaniy maishat ila tanishdirmak va yangi hayotg'a savq qilmak uchun har xil jamiyatlar va nashriyot shirkatlari ta'sis etmakdir. Bular ham millat ifrodin hamiyati milliya va intibohning bo'lishi ilagina maydong'a chiqa olsalar olurlar. Ma'naviy qalam xidmatim ila xalqni madaniyat yo'lig'a kirgizmak ahli bilimg'a qanday ulug' qarz bo'lsa, moddiy pul yordami ila nashriyot shirkatlari va jamiyatlar ichun materiyalni moddiy jihatdan bo'lg'on og'irlikni ko'tarmak ham hamiyatli, millatparvar boylarimizg'a shuncha ulug' va muqaddas bo'lg'on, milliy bir vazifadir.

Jamiyatlar va nashriyot shirkatlari milliy va madaniy taraqqiyg'a nihoyatda kuchli bo'lg'on yordamchidirlar. Binoan alayh har millatda ahli fikr qo'llarindagi qalamlarni loyiqincha ishlatmak uchun mazkur quvvatlarg'a iltijo qil-

makdadirlar. Ma'lumki, muhim bir asarni yozmak og'ir bir xizmat bo'lsa ham, komil himmat ila ahli hamiyat tarafidan yaxshilab nashr qilinmasa, qanday muhim va mufid bo'lsa ham, ul asardan aholi foydalana olmas, chunki o'zi qimmat asar muharrirning shkafida oh-voh chekub, baxil boylardan ranjub yotishdan boshqa xizmat eta olmaydir. Umuman, har millatning qorong'u davrida, xususan, islom olamida eng faqir sinf ahli ilm deb aytsak, shoyad, xato qilmag'on bo'lurmiz. Ulamoning bu qadrsiz davri millatlarning madaniy jihatdan eng past darajada bo'lg'on vaqtlaridir. Ahli ilm, xususan, qalam arboni taqdir etilmagan millatni madaniyat yo'lig'a kirdi deb aytub bo'lmaydir. Bil'aks, madaniyat taraqqiy etgan nisbatda fikr arbobi ham ahamiyat kasb etadir. Shuning uchundirki madaniy millatlarda eng oliy va muhim o'rinni tutgan sinf ahli ilm demay chora yo'qdir. Maqsadg'a kelayluk: ahli ilm, xususan, ahli qalam millatlarining qorong'u davrlarida juda parishonlikg'a tushadirlar. Aholida hukmfarmo bo'lg'on jaholat va axloqi fosida alarning qalblarig'a o'q bo'lub qadaladir. Millatning ajal holida bo'lindig'ini ko'rub yuraklari achiy, vijdonlari azoblanadir. Alarning shundog' rohatsiz kunlarida ko'ngillarig'a biroz tasalli beradirgan narsa yolg'iz qo'llarida bo'lg'on qalamlariginadir. Millatning ahvolig'a voqif hamiyatli bir muharrir o'zining ko'kragida qaynab yotgan shiddatli olovlarni faqat qalami ilagina xorijg'a chiqara olur. Bunday qalamlardan chiqqan shiddatli fikrlar o'zining tilini va millatini suyadirgan kishilarg'a eng yoqimli bir g'azodir. Va bu fikrlarni muharrirning qalbidan olub aholiga taqdim etuvchilar – «noshirlar» butun inson dunyosig'a insoniyat va madaniyat

tuxumlari taratub turuvchi diyonat va hamiyat ahllaridir. Bular hammasi madaniyat binosig'a tamal toshi qo'yuvchi va butun dunyoni ma'mur etgan bu tarz maishatni milyunlarcha bechoralarg'a o'rgatuvchi ulug' ustozdirlar. Haqiqiy muharrir va noshir o'zining manfaati shaxsiyasini umum yo'lig'a qurbon, butun molini vujudini millat nafi uchun fido qilur. Madaniyatdan mahrum bir millatning istiqboli yuqorida yozganimiz kabi siymolarg'a bog'lidir. Noshirsiz va muharrirsiz bir millatning holi ayanch, og'ulangan bir insonning holati naz'ida[58] alam chekub yotganidan farqsizdir. Binoan alayh millatning qorong'u va umidsiz davrini boshidan o'tkarmog'i uchun eng lozim bo'lg'on sheylar muharrirlar va noshirlar toifasidir.

Bizim Turkiston musulmonlari bu to'g'rida nihoyat darajada kamchilik ko'rsatadirlar. Hozirg'i kunda Turkiston musulmonlari orasida ham birozg'ina intiboh alomatlari ko'rila boshladi. Faqat asossiz bir intibohdir. Agar umidli bo'lsa, millatimizning bu qusurlarig'a ko'z yumulub turilmas edi. Ajab emasmi? Bir jarida yo majalla chiqarsak, bosdiradirgan o'rnimiz yo'q. Kitob yozayluk, maktablar uchun dars kitoblari hozirlayluk desak, nashr qiladirgan shirkatlarimiz yo'q. Millatimizning boy va savdogar qismi bu xususda nima o'ylar ekanlar? Ehtimol, bizg'a ilm, maorif va madaniyat kerak emas deb xato fikrga tushadirgandirlar. Bo'lmasa, boshqa sabab yo'q. Shaxsiy manfaatlarni millat savdosig'a taqdim etmak xossasi bizim diyonatli va hamiyatli boylarimizda, shukrlar bo'lsun, nihoyatda kuchli ekan. Alar bu himmatlari uchun, shoyad, tarix sahifalarig'a oltun siyohlar ila yozilsalar kerak.

[58] Jon berish alamida

Millatimizning moddiy va ma'naviy yordamg'a muhtoj bo'lg'on eng zaif bir zamonida kerak muharrirlarimizning, kerak boylarimizning o'zlarining shaxsiy foydalarinig'ina kuzatub umumiy va milliy ishlarimizga matlub darajada aralashmay yotishlari afv qilinmaslik bir qusurdir. Millatlarda bo'lg'on taraqqiy oqimlari bu ikki sinf xalqning himmat va g'ayratlarig'agina qarab yurgani uchun Turkiston musulmonlarining bundog' jonsiz va umidsiz bir holda turmaklari muharrir va boylarning na darajada fikrsiz, hamiyatsiz va manfaatparast bo'lub, millatning bu holiga quruq shohid va tamoshochi sifatida yotushlarig'a quvvatli bir dalildir. Butun yer yuzida bo'lgan insonlar o'zlarining tillarini, dinlarini va millatlarini taraqqiy va taolig'a savq qilub, mollarini va rohatlarini din va millat yo'lig'a fido qilub turgan bir zamonda biz Turkistondagi haqiqiy musulmonlarning bu hollarini yozub umum nazarig'a qo'ymakg'a o'zimizni majbur sanaymiz. Va Turkistonda shodlanub yozardek bir narsa toba olmaganimizg'a taassuf etamiz. O'zlarini din va millat homiylari sanagan ruhoniylarimiz ham, shoyad, zoti oliylarini bundan istisno qilmaslar. Shoyad, 14 asr qadar saqlab kelgan daraja va nufuzlarini endi bu kungi 20 nchi asr madaniyat va maorifig'a bo'lgan yomon nazarlari ila mahv va izola etmasalar kerak.

O'quv masalasi madaniyat yo'lida eng muhim bo'lgan bir masaladir. Bu masala bizim matbuotda qancha yozilsa ham, matlub darajada taraqqiy eta olmaydir. O'quv, ilm va maorifning ahamiyati bu zamonda insonlar tarafidan emas, hayvonlar tarafidan ham fahmlanish mumkin bo'lg'on bir masaladir. Lekin maatassuf biz bu xususda ham og'zimizni

ochub qolamiz. Boshqa ishlarga juz'iy bir yordamimiz bo'lmagan kabi, o'qu yo'lig'a ham aslo foydamiz yo'qdir. O'qu ishlarida bo'lg'on hamma ayb va qusurni boylarimiz ustig'a yuklamakka majburmiz. Chunki bizim o'quv masalasida eng ishonchli istinodgohimiz boylarimizdir. Agar maktablarimizg'a, ilm va maorif yo'lig'a boylarimiz ham himmat qilmasalar, bizim milliy va diniy maktab va madrasalarimizni kimlar tarbiya qilur ekanlar? Tashakkur etamiz, burungi zamonda diyonatli va hamiyatli boylarimiz din yo'lida ko'b himmat va g'ayrat ko'rsatubdirlar. Alarning qilgan himmatlari qoldirg'on asarlari, osmong'a chiqqan masjid va madrasalari va bu zamondagi boylarimizning yuzlarin qizarturadirg'on ravishdag'i vaqflari ila sobitdir. Ammo hozirgi savdogar va boylarimizg'a qarasak, maktab va madrasalarimizg'a qancha yordam etadirlar? Agar diniy madrasalarimiz burun zamonlarda ham bunday himmatsiz boylar qo'lida qolsa, bu kunda dinimiz va millatimizdan asar bila qolmas edi.

Insof ko'zi ila qarayluk! Bu zamon 20 nchi asr zamonidir. 20 nchi asr shunday bir zamondirki, bu davrlarda dunyoda yolg'iz ilm, maorif va sanoye ahllarigina yashay olurlar. Hozirgi kunda butun yer yuzi dor ul-ulumlar, sanoyexonalar va rasadxonalar ila ziynatlanmishdir. Madaniy millatlarda ilm va san'at avval darajada taraqqiy etubdirki, salomatlari u yoqda tursun, ko'rlari, tilsizlari, karlari, hatto itlari, hayvonlarig'acha o'zlarig'a maxsus maktab va hunarxonalarda ta'lim qilunadirlar.

Madaniy millatlarda bo'lgan taraqqiyoti madaniya xususida tafsiliy ma'lumot olmakni xohlagan afandilar bu to'g'ru-

da yozilmish ulug‘ kitoblarga murojaat etsunlar. Shul vaqtda bizim dunyoda yashamakg‘a layoqatimiz bo‘lub-bo‘lmaganini juda yaxshi fahmlarlar. Bir hamiyatli millat bolasi bu haqiqatlarg‘a voqif bo‘lsa, shubhasiz, cho‘nchakidagi eng so‘ngg‘i uch pulin ham millat hojati uchun yig‘lay-yig‘lay sərf qilur edi. Lekin maataassuf bizda chin ma’nosi ila ma’rifat ahllari hanuz yo‘q. Hammalarimiz jaholat va beparvolik daryosig‘a cho‘mub, insof, din va millatimizni bir tarafg‘a tashlab, dunyo sahifasig‘a aslo ko‘z solmasdan shaxsiy manfaatlarimiz ila mashg‘ul bo‘lamiz. Shul bo‘ldimi insoniyat? Shul bo‘ldimi islomiyat? Butun dunyo yuzi ilm va maorif nuri ila nurlanub, madaniyat asarlari ila ziynatlangan bir zamonda bizim millatning holi nadir? Hozirda bizim Turkistonda salomatlarimizga o‘qumoq uchun ham tilga olub ko‘rsaturday muntazam maktab yo‘q. Bu asrda so‘ngg‘i taraqqiy davrlarida butun Turkistonda birgina maktab bino qilgan bir dona hamiyatlu zotni ko‘rganimiz yo‘q.

Madrasalarimiz mukammal pro‘g‘rommag‘a olinub, asrimizg‘a muvofiq din ulamosi chiqarday bir tarzda isloh qilinmak lozim edi, bu fikrlar hammasi xayoldan ham o‘tgani yo‘q.

Bolalarimizg‘a kirub, fununi dunyaviya va hunar o‘rgatub chiqarday va zamonning iqtizosig‘a qarab millatimizga fan olimlari, afandilar yetishdururday fan va hunar maktablarimiz yo‘q. Hatto o‘qumak, yozmak va din o‘rgatmak va bolalarimizni eng qobiliyatli va sabiylik mavsimlarida: diniy, milliy va madaniy usul ila tarbiya qilmak uchun muntazam ibtidoiy maktablarimiz ham yo‘q. Bizda bor narsa hech yo‘q. Yo‘qdan boshqa hech narsa yo‘q.

Demak, bizim millat kundan kun tadanniyda, bundan oltiyetti asr burung'i xayolidan ham ko'b ruhsiz va umidsizdir.

Endi, qori'larim, yuqorida yozgan fikrlardan: yoshlarimiz, kattalarimiz, muharrirlarimiz va ruhoniylarimiz va boylarimiz xususida, shoyad, qisqacha bir bilim hosil qilgandirsiz. Madaniyat nuqtayi nazaridan bizim millat, bizim maishat va bizim xalq na darajada bo'lingani ham, shoyad, bundan fahmlansa kerak.

Madaniy millatlar osmonda uchgan bir zamonda bizlar o'rnimizdan qimirlay olmasmiz, alarning hayvonlari topgan pulni biz inson bo'lub ham topa olmasak, alar dorulfununlar ila qanoatlanmagan vaqtda biz alifbo bahsida to'qtab tursak va haqoyiqi madaniyaga borguchimiz ila qarshi tursak, biz qachon inson qatorig'a kirur ekanmiz? Oliy bo'lgan «madaniyat nardboni»ning birinchi poyasini ham bosolmay yordam va madaddan mahrum qolgan zavolli Turkiston millatining umumiy holi va manzarasig'a qarab yolg'uz insonlar emas, hayvonlar ham og'lamakg'a majbur bo'lurlar. So'ng.

Ayn.Rauf Muzaffar

MADANIY JARAYON VA MILLIY TARIXIMIZ

Odam bolalari har yerda jamiyat holida hayot surganlari uchun aholining kamoli rohat va mas'udona yashamaklariga doir ko'b choralarga kirishmakdadirlar. Zotan, madaniyat demak xonalarni bir yerga yig'ub, qishloq va shahar bo'lub maishat etmakdangina iborat emasdir. Agar madaniyat faqat bundang'ina iborat bo'lsa edi, insonlar-

ning bir nuqtag'a yig'ilub turmaklari ma'nosiz, foydasiz bir ish bo'lur edi. Holbuki, kunda shahar bo'lub yashamak odamlarning rifoh[59] va saodatlari uchun na darajada xidmat qilg'oni har birimizga ma'lumdir. Insonlar madaniyatdan foydalanub bu kunda qanday maishat usullarin maydong'a chiqardilar? Madaniy hayotning kuchli asbobi ulum va maorif kundan kun taraqqiy etub, bu asrda o'zining favqulodda bo'lg'on natijalarin ko'rsatmakg'a boshlaydi. Burun zamonlarda past, buzuq va tarbiyadan mahrum bir holda yashagan odamlarni bu kunda na daraja fazoil va maziyyati bashariyag'a yetushturdi. Endi baxtli insonlar madaniyat usullarining go'zal ta'siri soyasida na darajada mas'udona yashamakdadurlar. Madaniy hayot bu kunda aqllar hayron bo'lurday bir holni kasb etdi. Bundan so'ng ko'zlarga yana nimalar ko'rsatur ekan?

Madaniy millatlar ulum va maorifning taraqqiysiga eng bosh sabab bo'lg'on tarbiya usullariga ko'b g'ayrat sarf qildilar. Shuning uchun olarda yildan yil fikr va aql arbobi ortadi. Olarning mutafakkirini bizim ziyolilarimiz kabi o'ynab-kulub, molo ba'zi ila gap kutmak uchung'ina hafta bo'yuncha tazyi'i avqot[60] qilmadilar. Olar o'zlarining har soatlarini daqiqalab sanab, muhim ishlarga taxsis qilur edilar. Binoan alayhi taraqqiy etdilar va olding'a ketdilar. Millatlarda bo'lg'on madaniy jarayon har vaqtda ongli sinfning g'ayratiga qarab bo'ladir. Bu jarayon insonlarning bir nuqtag'a yig'ilub shahar, qishloqlar tashkil etmaklaridan boshlanadir. Insonlar tirikchilik xususinda doimo ehtiyoj

[59] Osoyishtalik
[60] Vaqtni zoye qilmaslik

ichinda bo'linganlari uchun bundan qutulmak yo'lida har turli fidokorlikg'a hozirdirlar. Chunki alarni maishat bunga majbur etadi. Mana shul ehtiyojlar orqasidan maishat usullari olinub, har vazn va zamong'a qarab qavonini maishiya tartib qilunadir. Maishat usullari yildan yil isloh qilinub, insonlarni rohat va saodatning eng nihoyatiga yetishdiradirgan madaniy maishat maydong'a chiqadir. Faqat madaniy jarayon millatlarda tekiz miqdorda bo'lmaydir. Balki xalqda bo'lgan iste'dod va madaniy hisg'a qarab turli o'lchavda bo'lmak mumkindir. Binoan alayhi har millatning madaniyat tarixida eng e'tibor qilunadirgan narsa jarayoni madaniydir. Buning ila dunyoda bir necha asrlar hukm surub, birar sabab ila mahv va munqariz bo'lg'on qavmlar haqida muayyan bir fikr hosil qilub bo'lgan kabi, holi hozirdagi millatlarning istiqboli xususida ham bir qarorg'a kelmak mumkindir. Har qavm va millatning qobiliyat va iste'dodi fitriyalarini[61] tabiat va ruhlarini ushbu yo bu kabi ma'naviy miqyoslar ila o'lchab bilinadir. Bir millatda bo'lgan umumiy hollarni «Tarix, ta'rifi umam»dan tahsil etmak va bir qavm haqida to'g'ri va mufassil fikr hosil etmak mumkindir. To'g'ri ma'lumot va fanniy tadqiqot soyasida ashyoning haqiqatig'a voqif bo'lmak nechuk mumkin bo'lsa, tarix va osori atiqa ila millatlarning hayot, maishat va madaniyatlariga ham shuncha tushunmak mumkindir. Madaniy jarayon insonlarning tarixiy davrlarida eng muhim miqyosdir. Buning ila har davrda kelgan ulamo va mutafakkirinning, sanoye' va himmat arbobining, val hosil millatlarda bo'lgan har sinf xalqning ne darajada o'zgarish keturganlarini bilmak mum-

[61] Tug'ma tabiiy iste'dod

kindir. Madaniy jarayon muarrixlarning eng ko'b iste'mol qiladirgan qurollari bo'lg'oni kabi, butun tarixlarning yagona zanjiridir.

Bundan boshqa har narsaning xususiy tarixida albatta bu jarayon borlig'i e'tibor qilinadir. Masalan, tarixi arzda va qabl at-tarix zamonlarning ta'rifida e'tibor qiling'on jarayon hayvonot suyaklari va nabotot baqiyalari ila osori qadimaning silsilayi qarobatidir. Kusuf, xusuf va boshqa vuquoti samoviyada e'tibor qiling'on jarayon yer va oftob ila butun yulduzlarning davri muayyanlaridur.

Bu davrlarga binoan ajsomi samoviya xususida qanday haqiqiy qarorlarg'a kelub bo'lsa, madaniy jarayon ila ham millatlar haqida shundog' qarorlarg'a kelub bo'ladirki, bung'a qiyosan tarixi yo'qolmay, majhul ko'b voqea va havodisga itlo'i kasb etmak mumkin. Tarixlarning ma'xazlari millatlarning qoldirg'on moddiy va ma'naviy asarlaridir. Jarayoni madaniy esa tarixlarning manba'laridan oling'on ma'lumot tarixchag'a markazlik tashkil etub, olarni doimo ta'dil qiluchi ma'naviy bir mutammimdir.

Tabiatda ulug' bir nahrning jarayoni yoxud dengizlarda bo'lgan oqindilar, madd-u hazarlar, yer ustida bo'lub turgan orizalar va o'zgarishlar xususida fikr yurutub, yaqiniy qarorlarg'a insonni savq etadirg'on tabiiy jarayondirlar. Bu hodisalarga istinodan va boshqa qarori zidda bo'lg'on jarayoni tabiiylarg'a binoan bir tabiat olamining bizim xayolimizg'a ham kelmag'on kashflar-da bo'linmog'g'a taajjub qilinmasa kerak. Masalan, shimol nahrlaridan fili atiqiy va ma'mut hayvonlarining suyaklari chiqmog'ig'a nazar bering. 3 inchi bir (qutbdan qutbg'a) harakati va bir ustida bo'lg'on

inqiloboti tabiiyaga binoan Madag'asqar otasi Afriqaning, Sarandib otasi Hindistonning oyrilg'on juz'lari bo'lishi va Zuydarza ko'rfazining avvalda quyuq tuproq bo'lub, so'ngra dengiz bo'lub ketishi va hokazo bu kabi kashflarda bo'linmakg'a, shoyad, tabiat ulamosi haqli bo'lsalar kerak.

Bas, haqiqati hol bundan iborat esa, jarayoni madaniyning muarrixlar uchun ma'naviy va quvvatli berilg'on ulug' bir tarix o'lchovi o'rnida iste'mol qilinishi sobit va muhaqqaqdir. Demak, muarrix uchun yoza boshlag'on tarixida markaz bo'lub iste'mol qiling'on narsa har xususda bir jarayon bo'lmasdan chora yo'qdir. Hozirda bizim milliy tariximiz Turkiston viloyatida asrlardan beri tirikchilik qilub kelg'on turk qavmining har turli ahvolidan iboratdir. Endi bizga ham o'zimizning bobolarimizni xalqimizg'a tanitmak va maktablarimizda milliy tarix darslari o'qutmak zamoni keldi. Buning uchun, albatta, yaqinda bir milliy tarix yozmak lozim edi. Shoyad, bu masalaga ahamiyat beruchilar yo'q emasdir. Lekin milliy tarix demak ila ne sababdandir xotirg'a bir nav' ma'yusiyat kela boshlaydir. Bu holg'a yo'l ochadirg'on narsa bu to'g'rida ulamomizning hanuz sukut qilub turishlari va o'zlarida bo'lg'on umidli nazarlarini ko'rsata olmag'onlaridir. Agar bu masala haqqicha ahamiyat kasb etsa va arbobi bo'lub, taqdir etulsa, o'rtani bir necha ich pushurg'ich ma'yusiyat qoplamasa kerak edi. Endi bu masalani, umuman, masoili ilmiya kabi albatta ahli ilmning bo'ynig'a taqamiz. Bu olarning vazifasidur. Faqat bu o'runda o'z tarafimizdan tubandag'i fikrni taqdim etamiz: Agar Turkistonda o'zimizdan bu xidmatni matlub darajada fe'liyatg'a chiqarurday quvvat sohiblari bo'lmasa, bu kundan

e'tiboran hech narsag'a qaramasdan Turkistondag'i mashhur shaharlarning har birida ulamo tarafidan biror kichik hay'at tashkil qilinsa nechuk bo'lur ekan?

Bu hay'atlar 3-4 zotdan murakkab bo'lub, bo'sh vaqtlarida tarixiy muzokaralarda bo'linurlar va milliy tariximiz uchun moddiy va ma'naviy ehtiyojni biturmak yo'lida g'ayrat etar edilar. Bu vaqtda qarya va qishloqlarimizdan ham mazkur hay'atlarg'a tarixiy ma'lumot berub turuchilar bo'lur edi. Yig'ilg'on ma'lumot va matiryallar milliy jaridalarda e'lon qilinub tursa, vaqti yetkach har bir hay'atda hosil bo'lg'on narsalar bir yerg'a to'planub, munosib kishilar tarafidan jam' va tartib qilinur edilar. So'ngra buni nashr edub, foydasi o'z yo'li ila madaniy va milliy hojatlarimizg'a sarf qilinur edi. Shul tariqa bir milliy tarix, faqat asosli bo'lg'on bir tarix vujudg'a keturur edik.

Agar mazkur tarixni yozarday iqtidorg'a molik zotlarimiz bo'lsa, ne sababdan hanuz ishka kirishmaylar ekan? Endi bu ishka vaqt yettigina emas, o'tib ham ketdi.

Agar yaxshilab ishka kirishsa, shoyad, luzumi qadar ma'lumot yig'ilur va hech hisoblanmag'on birlardan tarix ma'xazlari va manbalari kelub chiqar edi.

Faqat tarixlarda kuchli bir miqyos bo'lub, e'tibor qilunadirg'an narsani, har holda, xotirdan chiqarmaslik kerak. Bizim milliy tariximizni ham, albatta, madaniy jarayonimiz ila munosib bir suratda boshlab olub kelinur. Va bu surat-la, shoyad, yozilish matlub bo'lg'on madaniyat tariximizg'a (madaniy jarayon) nom bir tamal toshi qo'yilur.

Minallohi tavfiq val iana.

A.Rauf Bilolzoda Muzaffar

NODON KISHILARIMIZNING TEATRDAN OLGAN TAASSUROTI

Gazetalarda ko‘p o‘qilib, bir nechaning boshin qoturg‘on bo‘lsa ham, yana men o‘z tarafimdan Toshkentda 27-fevral «Jamiyati imdodiyamiz» sharafina o‘ynalg‘on milliy, faqatgina o‘zimizning kamchiligimiz va turmushimizning na darajada ekanligin «Oyina» yanglig‘ ko‘zimizga ko‘rsatib bergan teatr haqida o‘z qulog‘im ila eshitib, tilim ila so‘ylashgan odamlarning taassurotin hurmatli gazet o‘qiydurgonlarga biroz bayon qilib o‘taman. Bu tiyotr ahli, bilgan kishilarimizga bir tushimizda ko‘rgandek o‘tib ketdi. Lekin bir necha taraqqiyparvarlarimizning yana bir ko‘rmoqqa havasin ortdirib, zor-intizor edub, buning ila turmasdin bir xil gumroh va to‘qim tabiat va baxillar go‘ridek ko‘ngli qorong‘u, qaro dillarimizning rasta-barasta yo‘q farosatidin hech bir aqlga to‘g‘ri kelmaydurgan so‘z toshib, dunyoning bulg‘atib bilchirotmakg‘a mutasaddi qilub ketdi. Bir necha taraqqiydin bahra olg‘onlarimiz bunday nimarsaning ko‘rgonig‘a quvong‘onidin bizlarg‘a hazrati haq tarixidin bo‘lg‘on marhamatmi yoki bizning baxtimiz yori bo‘lg‘onimu deb ko‘zlaridin sevinch yoshin to‘xtata olmaslik darajada quvontirib ketdi. Mana, endi o‘zlaringiz odamning bir-biridan farq etib ko‘ringiz. Bir qaysi kasaltabiat o‘z manfaatin bilmag‘on va millatin tanimagonlarimiz bu tiyotrni teskari fahm edub, yo‘q aqlin yugurtirmasdin mundoqcha farosatlarni eturlarki, bizlarga tiyotr ko‘rguzamiz deb, bizlarga ota o‘ldursangizlar mundoqcha o‘ldurasiz deb bizning bolalarimizga ota

o'ldurmoq ta'limin ko'rsatdilar va misoli shunga o'xshash ters xayollari ila dunyoyi olamni bilchiratub yururlar. Kamina munday vijdonsizlarni so'zlarin sahifalarda yozib bitirub bo'lmaslikka ko'zi yetgach, adiblarimizning aytgan she'rlari ila sizlarni tanishtiraman.

Aylasang to'tiya ta'lim adoyi kalimot,
Nutqi inson bo'lur, ammo o'zi inson o'lmaz.
Gar qaro doshi qizil qon ila rangin etsang,
Rangi tag'yir o'lur-u, la'li Badaxshon o'lmaz.

Bilmasmanki, bu kelishmag'on iftirolarni qaysi vijdonli kishilar so'yladi ekan. Albatta, ushbu kishilar kechagina pivoxonalarda ichib, mast bo'lub, to'ppisini qo'lig'a olib «Yo hayot an-nabi» deb bo'kurub o'turg'onlar bo'lmasun, agarda shular jamoasidin bo'lursalar, albatta, bunlardin gilamiz yo'q. Charoki, ko'r kishini nimaga ko'rmaysan deb ayblab bo'lmaydur. Ushbu maqolani yozarg'a tutung'on vaqtda Peterburgdan chiqadurgon mo'tabar «El» gazetasi teatrimizni tafsili ila yozub, o'z tarafidan minnatdorlik izhor edub, muvaffaqiyat tilab, gazetalaridin bir joy maqolamizga darig' etmadilar. Bu to'g'risida necha ming chaqirim olisda turub bizning turmushimizning qayg'usina qayg'ulashib turg'on adibi zamon va ma'lumi jahon Muso Jorulloh Begiyev janoblarina va millat uchun jonin fido edub, butun umrini millat yo'lig'a sarf etgan o'tkur qalam Ayoz Is'hoqov janoblarina tashakkur aytmasdin ham mumkinmu? Iloho, bizlara ham ushbu zotlardin adib-u muarrixlar ato aylab, bid'at ishlardin bizlarni yirog' aylagaysan deb hamisha dargohiga bo'ynum sunduraman.

Tavallo

IBRAT OLMAKNI VAQTI YETMADIMU?

Bir necha adabiyot daryosidin suv ichmakni orzusida va taraqqiy tog'ina qadam qo'ymoqni havasida bo'lunon turkistonli birodarimg'a birozgina izhori fikr qilmoqni o'zimni burchim bilib, so'z maydonida bir necha so'zlar yozub qolaman. Mundin muqaddam bilmag'on bo'lsak, emdi bilmoqqa vaqt yetdi. Insof etaylik, aqlimiz borincha ishlataylik, hech bir insonning boshi qurug' va puch emas, albatta, oz-ko'b bir «mozga», ya'ni miyasi bo'lodur. Agarda insonda miya bo'lmasa, ul kishi, bilingiz, hech bir ishni qilolmaydur va qilishga ham jur'at etmaydur. Jaridalarda o'qib turasiz va bir chetdan ko'rib-da turasizlar. Chunonchi, telegrom, tilifun, oyrafilon, g'iromofun va g'ayr shunga o'xshash iliktrichistvo ila bo'lg'on nimarsalarni inson aql ila bunyod edub, vujudga keltirdimu yoki o'zidan o'zi paydo bo'ldimu, albatta, yo'q, hama ilm-u hunar tufaylidindur. Bas, shundog' bo'lodurg'on bo'lg'ondin keyin, nima uchun bizlar ilmdan bezormiz, bo'lak millatlar qancha ilmga rag'bat etsalar, bizlar hamon qocharmiz. Shuning uchun bizlarning turmushimizning qaysi yog'idin bir jarida bosur bo'lsa, albatta, bir hajv maqomida bosub, o'qug'on odamning zehnini qaytarub, parishonhol aylayur ham bu ilmsizligimiza bir dalil ushbudurki, Rusiya davlatina vatandosh, orqadosh bo'lib umr ko'ruvchi Turkiston aholisi besh millonlarga qariyb bo'la turib, birgina jaridamiz ham yo'q. Agarda bo'la qolsa, albatta zarar yetkirmoqdin o'zga husulimiz bo'lmas. Hozirgi zamonda ilm ila, ikkinchi pul-oqcha ila umrni istirohatda kechirmak mumkin. Qo'lda oqcha tutmasdin va ilm o'qumasdin dunyoda umr o'tkazurman de-

gan inson albatta majnunlikdin yiroq emas deb biling. Qachon boy ila kambag'al o'zlarin odamlarning farq tarozusig'a solub qarasalar, albatta, davlat tarafi nihoyat og'ir vaznlik bo'lub, xijolat arqonug'a kambag'al kishini band-u sharmisor aylar. Agarda ilm to'g'risida ma'lumingiz bo'lursa, bu ham shuning ila barobardur.

Chunonchi, bir odam mol oldi yoki oqcha olib veksilga qo'l qo'ymoq bo'ldi, afsus-nadomat oni ahvolig'akim, o'z ismin, ya'ni falonchi-falonchi o'g'li demakni bilmaydur. Emdi ul kishi na qilmoqi kerak? Albatta, notarus janobni mahkamalariga bormoq kerak. Noiloj borurlar. Veksil onda bekorg'a bo'lmas, albatta. Onda sorg'oyub tortg'on mashaqqatidin bo'lak birgina «falonchi-falonchi o'g'li» degan ikki kalima so'z uchun muqarrar ikki so'm yoki uch so'm ko'r bo'lib to'lanadur. Mana, ko'ring, emdi bir kalima so'z necha puldan tushti... Aziz millat bolalari, ilm o'qimoqni tartibin vatandosh bolalaridin ibrat olingiz. Hamon ko'rasiz, bo'yunlarig'a kitoblarin solib, yuzlarinda necha xil shodlik alomati zohir bo'lub, hamalari birgina ta'in soatda bir iydga jo'nolg'ondek, ko'chalarda oqib boradurlar. Bizlar kibi qaysi biri erta bilan va qaysisi peshinda bormaydur. Ko'rasiz, bizlar maktabga jo'nag'onda go'yoki bir azob beradurg'on yoki hibsga olib ketayotganlardek zo'r minan va noiloj. Maktabga yaqinlashgan sayin ko'kragimiz urub, yurak o'ynab, maktab eshigida necha minut turib, kiroyinmu yoki kirmasdin ertaga biror bahona topilmasmu deb qarob turamiz. Voy, bizlarning o'tkan umrlarimizga va otalarimizning qilg'on tarbiyatlarig'a deb afsuschilar ichidin

Tavallo

O‘Z MUXBIRIMIZDAN

G‘ulja – bu shahar xitoylarg‘a qarashli bir shahar bo‘lsa ham, tijorat ishlari ko‘proq o‘zimizning rusiyalik musulmon og‘alarimiz ila totor qarindoshlarimiz qo‘lidadir. Mundagi totor yoshlari Olmaota va Yorkandga qarag‘onda ko‘b ochiq fikrli va jasorat egasi ekanliklari ko‘runub turadur. Erkak va qiz bolalarg‘a maxsus rushdiya maktablari bo‘lub, har qaysilarig‘a muqtadir muallim va muallimalar ta’yin qilunmish va moddiy jihatlari ta’min etilmishdur. Bundan boshqa yana shaharning eng o‘rta yerinda 4-5 ming so‘mlarg‘a tushurub, bir yaxshi imorat vujudg‘a kelturmishlar va «Shafqat» nom bir kinematug‘rof ham ochmishdurlar.

Biz kelgan kuni bir necha martaba xayrot yo‘lig‘a o‘yinaldi, keluvchi ko‘p bo‘lub, turkistonlilardin hech kim yo‘q edi. Mundagi mo‘tabar kishilarning aytuvlarig‘a binoan, ular totorlar ila aralashmoqg‘a takabburlanub, manmanlik qilub yotur ekanlar. «Sadoyi Turkiston» muxbiri Tekturmas afandi va Azim Hoji janoblari ila musohabada bo‘ldum. Bular jaridamizg‘a doimo yordamda bo‘lmoqlarini va’da qildilar.

To‘lagan Xo‘jamyorov

INSOFDIN SOF

So‘nggi zamonlarda biz turkistonliklar boshiga qanday kunlar va qanday og‘ir hollar keldiki, butun Russiya musulmonlarini ma’lumidur, demak. 1910 – 1911-yillarda manu-

faktura (gazmol) birlan ish qilg'uvchilar mollarini ko'pisi ziyonga sotib, do'konlarig'a qizil pechatlab, yer-mulklari sotilib qutula olmaycha, bir nechasi turmag'a ham o'turdilar, hozir ham o'tirmoqdalar. Mana, endi ko'rasiz, 1914 – 1915-yil Yovrupa muhorabasi boshlanur oldida gazmol qahatchiligi bo'lib, ilgari bir gazmolg'a yarim tiyin olib qanoatlang'on bizning turkistonlik og'alarimiz hozir so'mina 50 foyiz foyda qilsa ham sotmoqni xohlamaydur, besh qo'llarini og'izlarig'a tiqib, biroz foydasig'a ham rozi emaslar. Umri bo'yincha gazlama ushlamag'on kishilar butunlay gazlamachi bo'lib, ko'ringan bir joyga do'kon ocha boshlab edilar. Ko'pda o'tmadi. Xudovandi karim bularga tezgina ko'rsatdi-da qo'ydi. Petrogradda ministrstuvolardin pirmalarga sirkular kela boshladi, kimda-kim 1914-chi yil birinchi avgust mol olib sotmagan bo'lsa, shul kishiga mol sotilmasun, agarda qaysi prikazchik sotuv etsa, bir yil-u to'rt oy hibs etiladur deb, buni ko'rib bul bechora yangilarimiz og'izlarini ochib qolg'och, eski do'konlarimizdin insof yana yo'qola boshladi. Buni ham yozib o'tmak kerakkim, hukumatimiz tarafidin mol so'yib sotuv etuvchilarga haftada uch kun qo'y so'ymoq e'lon etilgach, orada bir oy o'tar-o'tmas ariza berdilar bo'sh kunlarda echki, ya'ni taka so'ysak mumkinmi deb. Qo'y so'yilmagan kunlarda echki so'ymoq ruxsat deyilgach, ko'rasiz, ko'p yerlarda echki go'shtini qo'y eti deb sotuv eta boshladilar. Agarda tijoratimiz xiyonatdan iborat bo'lib, qanoat keta bersa, boshimizga ofatni o'zimiz sotib olg'onlardan bo'lub, kelajak holimiz nima bo'lur ekan, xudo o'zi insof bersun, insofdin sof.

To'lagan Xo'jamyorov

TA'LIM

ILM VA MAORIF

Ilmning qandog' aziz ham insonning tirikligi uchun neqadar keraklik ekani har qaysimizning ko'z oldimizda milyunlarcha dalillar va tajribalar ila ko'rinub turg'oni uchun ning zarurligini isbot qilmak hojat emas. Chunki avvalgi zamonlarda necha oylik yo'llarni bu zamonlarda paraxudlar, temuryo'llar ila bir nechagina kunlarda yurmoqlar, avvalda bir shahardan xabar olmoq uchun oylarcha, yillarcha vaqt o'tganda bu kunda bir soatda tilig'ramlar ila yoki shul minutda telefunlar ila xohlangan xabarlarni olmaklar, avvaldagi kiyimliklarni qo'l birla yigirib to'qub kiymaklarning o'rnig'a bu kunda moshinalar ila avvalgidan neqadar tez ham nafis etub yasamoqlar, avvalda bir tanob yerning ekinini o'rub, yanchib olmak uchun yuz soatdan ziyoda vaqt o'tkarguchi ekinchilarning bu kunda ekinni o'rub ham yanchadurgan moshinalar ila sakiz-to'quz soat orasinda avvalgidan ham yaxshiroq qilub ishlamaklari hamasi ilm va fan soyasindagina o'lg'onidan ilm insonning maishati uchun nihoyatda zarur bir narsa ekanligini hech kim inkor etmas. Baliqning suvsiz yashamog'i mumkin o'lmag'oni kabi, insonning ham ilmsiz yashamog'i mumkin emas. Bir necha ilmsiz qavmlarning madaniy ilmlik qavmlar orasida yo'q va mun-

qariz bo'lub ketganlari ko'zimizning oldida ko'runub turubdur. Mana, arablarning qo'llarindan ilm va ma'rifat ketgani uchun ilmsiz fors musulmonlari ilmlik fransuzlar orasida yo'qolub ketayozdilar. Ham ma'rifatsiz kuryaliklarning ma'rifatlik yopunlar orasina kirib ketkanlari har kimning xotiridadur. Bundan boshqa ham insonning dunyoda fansiz, ilmsiz yashamog'ina, ham shul ilm soyasindag'ina, saodatga yetushmog'ina ham ilm bo'lmag'onda tezdan munqariz bo'lmog'ina milyunlarcha dalillar ko'runub turg'oni kabi, tarix ham nihoyatda ochiq ko'rsatadur.

Biz sortlardan boshqa Rusiya xalqlari ham ilmning shunday zarur narsa ekanin bilib, bu so'ngg'i yillarda o'qumoqchi bo'lg'onlarning hisobi kundan kung'a ortub turg'oni uchun kirub o'qumoqg'a hukumatning solg'on maktab va madrasalari ham yetushmay boshladi. Ammo sortlarg'a andog' moshinalar yasamakni, telefunlar, elektriqlar yasamoqni o'rgataturg'on maktab va madrasalar bir yoqda tursun, har qaysimizg'a lozim bo'lg'on o'z tilimizda o'qumak, yozmakni ham biladurg'on kishilarimiz nihoyatda ozdur. Ul moshinalar yasaydurg'on podshohliklarda har kimg'a bolasini 14 yoshig'acha ibtidoiy maktablarda o'qutmagini jabran lozim etilgan. Agarda biror kishi hech bir uzrsiz bolasini o'qutmasa, ul kishig'a hukumat tarafidan jazo berilur (ishtiraf olinur).

Agar maktablardagi shogirdlar lozim bo'lg'on olti yilni to'ldurmasdan uzrsiz chiqub ketsalar, alarg'a (shahodatnoma) berilmas. Ul shogirdg'a shahodatnomasi bo'lmag'oni uchun bir yerdan o'run topmak nihoyatda mushkul bo'lur. Shuning uchun ul podshohliklarda o'qumoq, yozmoqni bil-

maydurg'on kishi yo'q darajasidadur. Ammo bizning Rusiya mamlakatida o'qumoq majburiy bo'lmag'oni uchun yozuv bilguvchilarning hisobi boshqa mamlakatlarg'a qaraganda nihoyatda kamdur. Masalan, bugun Rusiya mamlakatida ruscha o'quv, yozuv bilguvchilar bir yuz kishiga 16 kishigina hisoblanur. Bu hisob Rusiya davlatining qo'l ostida turguvchi xalqning hamasini qo'shub hisoblag'onda... Ammo biz Turkiston musulmonlarini ayirub hisob qilunsa, ruscha tugul, o'z tilimizda o'quv, yozuv bilguvchi kishi yuzdan birgina topilmog'i ham ma'lum emas. Ammo ul ma'rifatlik podshohliklarda ish butun boshqadur. Masalan, o'quv, yozuv biladurg'on kishi Yangi Zelandiyada bir yuz kishidan 99 kishi, Germaniyada yuzdan 98 kishi, Amriqo (soyidinunniy ishtat)larda yuzdan 92 kishi, Angliyada yuzdan 90 kishi, Fransiyada 85 kishi, Avstriyada 52 kishi hisob qilinur. Bu hisob ul mamlakatlarning xalqi ila bizning oramizda neqadar farq borlig'ini nihoyatda ochiq ko'rsatadur. Ul mamlakatlarning xalqi o'qumoq uchun o'zlari harakat qilg'oni kabi, hukumatlari ham xalqning qorong'ilikda yotmasdan o'qub yorug'likg'a chiqmoqlarini xohlab xalq bolalarini o'qutmak uchun aqchani ham ayamasdan sarf qilurlar. 1900 inchi yildag'i hisobg'a qaraganda, Yangi Zelandiyada ibtidoiy maktablar uchun har yili sarf qiling'on aqchani butun Yangi Zelandiyada tirikchilik qilg'uvchi xalqg'a taqsim qilinsa, har yilda jon boshina 6 so'm 50 tiyindan tushadur. Soyidinunniy ishtatlarda 4 so'm 86 tiyindan, Germaniyada 2 so'm 45 tiyindan, Shvetsariyada 2 so'm 43 tiyindan, Belgiya ham G'o'llandiyada 1 so'm 99 tiyindan, Fransiyada 1 so'm 66 tiyindan, Yopuniyada 54 tiyindan tushgan holda,

Rusiyada 1900-yilda jon boshina yolg'uz 19 tiyindangina tushganligi ma'lum bo'lur. Agarda bu ibtidoiy maktablar uchun sarf etilg'on aqchalarni shul maktablarning o'zida o'qiydurgan shogirdlarning o'zlarinag'ina taqsim qilib qaralsa, har shogirdning tarbiyasi uchun Yangi Zelandiyada yilig'a 40 so'm, Soyedinunniy ishtatlarda 23 so'm 60 tiyin, Belgiya ham G'o'llandiyada 19 so'm 88 tiyin, Rumoniyada 18 so'm, Angliyada 15 so'm 75 tiyin, Shvetsariyada 15 so'm, Rusiyada (1900 inchi yilda) bori 10 so'm 93 tiyin tushadur. Bu 10 so'm 93 tiyinning ham yolg'uz xazinaning o'zginasi bermay, ko'brog'ini xalq o'zi, ya'ni zemstvolar, qishloqlardag'i shaharlardag'i jamiyatlar va o'quguvchi bolalarning otalari berurlar. Masalan: shul 1900 inchi yilda xazinadan sarf qiling'on aqchaning yuz ellik qismidan bir qismig'ina ibtidoiy maktablar uchun sarf qilinmishdur. Agar shul yilda ibtidoiy maktablar uchun xazinadan sarf qiling'on aqchaning Rusiyada tiriklik qilib turg'uvchi xalqg'a bo'lunsa: har jon boshina 7 tiyindan ziyodaroq tushsa kerak. Bu yuqorida yozilmish raqamlar Rusiya davlatining qo'l ostinda turg'uvchi xalqning boshqa ma'rifatli davlatlarg'a qarag'anda neqadar nodon ham neqadar qorong'ulikda qolg'onlarin nihoyatda ochiq ko'rsatur. Emdi o'z holimizg'a, ya'ni Turkiston musulmonlarining hollarig'a bir nazar solayluk. Ko'rurmizki, Turkiston musulmonlari Rusiyadagi boshqa millatlarg'a qarag'anda neqadar johil va neqadar keyinda qolg'ondurlar. Chunki bizning ibtidoiy maktablarimiz uchun xazina yuqorida yozilmish jon boshina 7 tiyindang'ina o'lsun sarf qilmag'oni kabi, zemstvomiz ham yo'q, jamiyatimiz ham yo'q, o'quguvchi bolalarning otasi esa hanuz muallim vazi-

fasi uchun haftada bir non yoki 2 tiyin aqcha berib turg'onlarina neqadar faxr qilmakdalar. Modomiki holimiz bo'yla ekan, bu qadar nodonlikda, bu qadar qorong'ulikda biz qolmay, kim qolsun? Bunga qadar yozilg'on so'zlar faqat ibtidoiy maktablarning holidan edi. Ammo rushdiy, e'dodiy va oliy maktablarg'a kelguncha boshqa ma'rifatlik davlatlarda neqadar ko'b va neqadar murattabligin va alarda o'quguvchi talabalarning tarbiyasi uchun xazinadan neqadar aqchalar sarf qilinmog'in va bu rushdiy, e'dodiy va oliy maktablarning holi Rusiyada na darajada ekanin ibtidoiy maktablarg'a qiyos qilmak ila har kim o'zi bilur zanindaman. Boshqa davlatlarda olimlar, hakimlar, muhandislar va boshqa turluk-turluk fan egasi kishilarning ko'bligining, bu kabi zotlarning Rusiyada vujudlari oz o'lg'onin asl sababining ham yuqorida bayon etilmish so'zlar nihoyatda ochiqcha ko'rsatur. Ammo biz Turkiston musulmonlarina kelincha bu kabi rushdiy, e'dodiy va oliy maktablarning vujudi tugal ismining eshitmagan zotlar nihoyatda ko'b o'lsalar kerak. Shul sababli biz kundan kun ilgari bosmay, keyin ketmakda va boshqalarning oyog'in ostida ezilib poymol o'lmakdamiz. Chunki har millatning nodonlikdan, qorong'ulikdan chiqarguvchi, ezilmakdan, munqariz bo'lmakdan saqlaguvchi ilm-fandur. Bu esa murattab maktab va madrasalar va alarda o'qutguvchi muqtadir mudarris va muallimlarning vujudina ham xalq aqchasini xalq foydasina ayamasdan sarf qilg'uvchi, xalq bolalarining o'qutub yorug'likg'a chiqarmakni xohlaguvchi hukumatning vujudina bog'liqdur.

Uchqun

FELYATUN

Manga muhabbati bor odamlardan bir kishi manga dedi, bir-ikki oydurki «Tujjor» va «Turkiston» jaridalarig'a maqolalaringizni o'quymanki, har biridan alam va anduh g'am va kulfati ortar. Har biri mani ma'yus etar. To keyingi nomer jarida kelguncha sizni u yozgan kulfatnomalaringizi sitami ketmay turub yana dog' ustiga dog' solar. Sitam va hazin ustig'a hazin oxir! Gazetg'a biroz ko'ngul ochadurgan xabar maqolalarda yozmoq kerakdur. Nega insonni kulfat va musibatga soladurgon so'zlarni doim yozsalar? Bir-ikki yillardurki «Turkiston», «Taraqqiy», «Xurshid», «Vaqt», «Tarjimon» va «Ulfat» gazetlarig'a goho maqolangiz yozilgani va yo ko'churulganini ko'rarmanki, doim sizni so'zingizdan hazin va musibat yog'ilur, inson o'qusa doim g'amga qolur dedi.

Man dedim: muddaongizni ochib so'ylang, anglamadim.

Ul janob dedi: musulmonlar, alalxusus, turkistonliklarni ilmsiz va nodon deysiz, ma'lum maktabdorlar butun nodon. Mudarris va mullolarimiz dunyo ilmlari va fandan bexabar deysiz. Aholini o'ndan to'quzi hayvondan badtar deysiz. Bir yuz mulladan biri ham forsiy va turkiy va arabiyni bilmaydur. Va o'qutmoq tartibini buzubdurlar. Maktab va madrasani, xalqni xarob qilibdurlar deysiz. Xalqg'a ham aql va basirat qolmabdur. Chunki maktab va madrasani isloh qilmaydurlar... mazmunlariga yozarsiz. Bilmayman, yana kim nimalar ila jarida sahifalarini to'ldurasiz. Xalqg'a va mullolarg'a yopusharsiz. Gazetamiz oz va xalqimiz o'qumaydur, munday dunyodan bexabar va din va ilmdan be-

parvo turaversaq, hozirgi holimizdan tanazzul qilarmiz deb xalqg'a yoqmayturgan so'zlar yozib ulamoni tahqir qilarsiz. Mundan so'ng yaxshi va ko'ngul ochaturgan xabarlarni yozingiz dedi.

Man dedim: so'ylab bo'ldingizmi?

Yana dedi: Rusiya ulamolaridan o'qumoq kerak, Peterburgg'a talaba yubormoq va avval gimnaziyag'a bola bermoq lozim deysiz.

Mundan so'ng dedim: rusiyalar hamag'a barobar haq beradurlar. Yahudiy, armani, gurji...[62] bolalari gimnaziya va oliy maktablarg'a o'qub, biz va sizni ustimizg'a hokim, sudya va har nav amallarg'a kiradurlarki, quvvayi hokimag'a molik rusiyalardan boshqa toifalar ham bizg'a hukumat surar. Kelar zamong'a so'ngra bolalarimz biz ila sizg'a malomat qilar. Holbuki, dorulfunundagi ilmlarni pro'gram va tartibi ma'lum bir nimarsa va islomimizg'a munofe emasdur. Bu to'g'rig'a boshqa vaqt janobingizga mufassal ma'lumot berarman.

Ammo yuqoridagi so'zlaringizning har biriga javob eshitmog'ni xohlasangiz, o'qugan jaridalaringizni va 8, 10, 11 no'mrli «Tujjor» va 82 no'mrli «Turkiston» gazetlarini qaytadan o'qub fahm qiling. O'qumoq boshqa, fahmlamoq va bilmoq boshqadur. Va agarda yana inod etsangiz, Samarqandimizdan bir nafar kishi topingki, forsiy va turkiy va arabiy adabiyot va lug'atiga ilmiy va nazariy mohir va muqtadir va muharrir mutakallim bo'lsun. Va yo butun o'n milyun Osiyoyi vustadan o'n emas, beshgina kishini manga darak beringizki, hukamoyi jadida va falosifa hozir 5 mis-

[62] Matnda shunday berilgan

siyo'ner va muballig'in adiyoni soyira[63] ila zamoncha bahs va javobga qodir bo'lsunlar. Bir emas, o'n martaba albattaki ko'rsata olmaysiz.

Bormi? Sukut!!!

Bu kun Farangistondan bir misiyuner kelib, majlis qurub, bahs etsa, javobidan butun Turkiston ojiz qolur. Bu ayb kimdan? Dini islomdan emas, siz aytaturgan ulamolardan ekanligig'a shak yo'qdur.

Chunki ulamoyi hoziramiz – hikmat va hay'ati jadida ulum va fununi aqliyot hodisadin bexabar va madrasalarimizni tariqi darsgo'yligi, balki, buzulgandur. Aflotun, Arastu, Buqrot, Batlimus va o'zga yunoniy hukamoni ikki ming qadar yil ilgari topgan hikmatlarini na tamom va yarim yumaloq ham bilmaydurlar.

Hatto alarni aqliyot va siyosatlarig'a ham vuquf hosil qilmay, havasxonlik ilan xatmi kutub qilduradurlar. Holbuki, mazkur hukamoni hikmatlari chirib ketkandur. Mazkur hukamolar bugun kelsa, ming karra hozirgi hikmatlarg'a, siyosat va aqliyotig'a hayron qolur. Azbaski, alar zamonidan ikki ming yilcha muddat o'tub ketdi. Besh yuz yildan beri hikmat va funun aqliya xoriqulodda suratg'a taraqqiy etdi. Yangi va eski hukmatlarni bir-birig'a qiyos qilmoqchi bo'lsaq, jildlar to'la kitoblar yozmoqimiz lozim kelur. Yolg'uz fonograf va telefon eski hukamolar so'z bayonini nadan iborat ekanligig'a kofidur. Sut va naqli sadoyi qoziyalari eng zo'r qoziya hakimiyalaridandurki, bugina jarida sahifasini aning bayonig'a tahammuli yo'qdur. Hikmatxon

[63] Boshqa dinlarni tablig' qilguvchilar

talabamiz mulohaza etsunlar...[64] hikmat, falsafa, ilmi kalom o'qumoq zamoni hazrat payg'ambar va xulafoyi roshiding'a yo'q edi. Na uchun mutaqaddimin ulamomiz bularni o'qumoq farzdur deb madrasalarg'a suqdilar? Be din va yo bad mazhab hukamo va filoso'fa va farqi xorijiyadan kelaturgan shubha va taarruzlarni dindan uzoq qildurmoq uchunligi shaksizdur. Ani uchun biz doim ulamo va tolibni someyi shariflarig'a sadoyi baland va nidoyi guzand ila arz qilarmizki, hikmat va tabiiyot va aqliyoti hoziradan boxabar bo'lub, zamonamiz muddaiylarig'a munosib dalillar topmoq kerak, ul qayu surat ila bo'lur? Kutubi arabiyyayi jadida va turkiyyani maktab va madrasalarg'a solib tariqi tahsilni yangi tartibg'a qo'yub zamoncha siloh qilmoq va matbuot olamidan boxabar bo'lmoq ila bo'lur. Zamonamiz muddaiylarig'a ulamomiz javob berolmasa, avom va yarim obrazonniyalarimiz dini islomg'a shubha qilur. Bora-bora ko'b masxaraliklar voqe' bo'lurki, anga ulumi aqliya va siyosiyadan bexabar ulamolarimiz ma'nan sabab bo'ladurlar. Ani uchun aytilibdur «mullo buzulsa, olam buzulur...»

Hazrat payg'ambar buyurubdurlarki, «hukamo ila aralash bo'lungiz», hazrat amr etibdurlarki, ilmi fiqh o'qugandin so'ng ilmi hikmatdan o'qumoq kerak va illo ko'ngil qattiq va g'aliz bo'lur. So'zlarni albatta tinglab tursursiz, azizim! Agarda siz desangizki, Alloh taolog'a havola qilarmiz. Man aytamanki, Allohni o'zi «insong'a bir nimarsa yo'q, magarki sa'y qilsa» debdur. Ulum va funung'a tatabbu' qilmoqg'a sa'y va g'ayrat etmoqg'a buyuraturgan va dalolat qilaturgan oyat

[64] Matnda shunday

va hadislar ko'bdur. Munday yangi kitoblar qayu yerdan topilur? Arabiysi Misrdan, turkiyi Istanbuldan va ruschasi Rusiyadan topilur. «Riyoz un-nosihiyn» kitobi avomfahmdur. O'qub ko'rung, qayu ilmlarni taklif etar: ilmi badan, ilmi din, ilmi maosh – bu uchguna ilm ostig'a jam'i ulumi diniy va dunyoviy kirar. Bir kishini jam'iy ulumdan komil xabardor bo'lushi va yoinki bir madrasag'a barcha ilmdan o'qulmog'i mumkin yo'qdur. Ani uchun Misr, Farangiston, Rusiya va Istanbul maktab va madrasalari ulumi funung'a taqsim qilungandur. Va har madrasa va maktabg'a birinchi muallim va mudarris tayin bo'lub, har biri bir ilmi fununni doim ta'lim berib turar. Biz namuna uchun «olami islom»ni hozirgi eng katta darsxona va dor ul-ilmi bo'lgan Misrdagi Jome' al-azhar madrasasini ijmolan bayon qilarmiz. Yana kelar maktublarimizni birig'a Rusiya va Istanbulni nizomi madrasalarini tariqi tahsil va usuli ta'limidan ham «Tujjor» qorilarig'a arz qilarmiz. «Ulamo bo'lmasa, xalq to'rt oyoqlik hayvonlardan badtar bo'lur»din so'zi Samarqandiy Abullays faqihni va Allohu a'lam «Kitob ul-bo'ston»ig'a ko'rub edim. Ulamo deb ilmi diniy va maoshiyni bilaturganlarni aytuladur. Salla va chapon qoliblarini emas, azizim! Biz Jome' al-azharni hozirgi tahsilidan ozgina bayon qilmoq ila siz janobingizni ya's va alamdan chiqarurmiz, taqsir! Yoinki yana alam va orzu illatig'a suqarmiz. Yozg'a qish kunini anduhi ila yugurmasangiz, qishg'a kuno kun mehnat va kulfatlarg'a yo'luqursiz. Bizni arz qilganlarimizni o'qub chekaturgan ruhoniy va ma'naviy sitam va kulfatlaringizni ma'naviy va ruhoniy rohat va farahliklarini bir zamon ko'rarsiz. Agarda o'zimiz ketib qolsaq, ruhimiz ko'rar.

Albatta, bu yozilaturgan so'zlarg'a har kim tushunmas va har kim iltifot qilmas. Ammo har bir shahardan janobingizg'a o'xshab bir-ikki insoflik mubassir kishi va bir-ikki g'aniy va bir-ikki talaba va bir-ikki ulamoni iltifotig'a mazhar bo'lsa, bora-bora xalqg'a fikr va xabar yoyilib matlubimizki, «islohi tahsili» madoris va makotibdur vuqu'g'a kelar va ushbu kitobat va miyya bo'shanmoqlar albatta zoye ketmas va illo biz ham bilarmizki, bu so'zlar ulamo va talabalarimizg'a yoqmas yoinki matlubimizg'a tushunmaydurlar... Bovujud shul, biz so'zlamoqdan qolmasak kerak, ohista-ohista xalq tushunur va so'z ta'sir ham etar. Ammo biz janobingizni nasihatingizg'a amal qilib mundan so'ngi maqolamiz navbatig'a «ko'ngil ochguvchi» bir necha xat yozmoqchi bo'lduk. Kelaruk Jome' al-azhar madrasasini muxtasar bayonig'a. Ushbu madrasa Misr al-Qohira shahrig'adur. 359 sanayi hijriyg'a muluki fotimiyadin Muiz Ubayd degan musulmon arab podshohi bino qildurganlar. Zilziladan bir necha martaba xarob bo'lgan bo'lsa ham, yana musulmon podshohlari tuzatdilar. Munda har nav ilm va fandan o'qulub, bu madrasa olami islomg'a ko'b xizmatlar qilgandur. Madrasaning umumiy kitobxonasig'a o'tuz mingg'a yaqin har nav kitoblar talaba va ulamoni foydasi uchun omodadur. Jome' al-azharg'a dars o'qumoq uchun olami islomni har tarafidan ushbu vaqtlar o'n mingg'a yaqin talaba jam bo'lurki, xorijlarg'a turub darsni anda o'quydur. Madrasaning mudarrislari 450 qadar va har bir mazhabi islomni shogirdlari uchun darslar sinfi shofe'iy, molikiy, hanbaliy va ja'fariy (?) mazhablik mullolardan tayinlanur. Har mazhab (talabasi furu'oti islomiyani o'z mazhablarig'a

o'qub va ammo usuli dini islom darslarini umumiy o'quydurlar). Chunki mazkur mazhablarni ixtilofi faqat furu'ot va muomalatg'aginadur. Turkiston ulamolarig'a ma'lum ulumi diniya va arabiyani bu madrasag'a komilan va mukammalan usul va furu'yi va adlan arba'asi-la istidlol aqli va falsafasi ila o'quladur. Ikki sana muqaddam marhum bo'lgan muftiy kulli mamlakati misr shayx Muhammad Abduh allomayi benazir hazratlari bu madrasani yanadan isloh va tanzim qilib ta'limi ulum va funung'a toza tartib va program qo'yub edilar. Ulumi diniya ustig'a jug'rofiya, hikmati qadima va jadida, ilmi tarix, adabiyoti arabiyya, hay'at va handasa, ilmi maosh va siyosat, riyoziy va hisob, tib va tashrih va boshqa va boshqa ilm va fanlardan ham keragincha ushbu madrasa shogirdlarig'a ta'lim berilib, zamong'a muvofiq ulamo tayyor qiladurlar. Uch yuzg'a yaqin madrasalar ulum va fununi diniya va dunyaviyani har sho'ba va martabasig'a taqsim bo'lub ta'lim va tadris etadirki, olami islomni diniy madrasalarini nihoyat muntazam va zamoncha nafligi ushbu Jome' al-azhar mudarrisidur. Alloh taolo talabalarimizni anda musharraf etgay, kamina roqimi huruf Misr al-Qohira shahrig'a borganimg'a bu madrasani ziyorat va tafrij qilib edim. Turkistondan boraturgan hoji afandilarimiz faqat qabristonlarni borib ko'rub, ammo madrasa va jome va hikmatxona va dor ul-ilmlarni ko'rmaydurlar. U tarafni dor ul-ulum va dor ul-fununlarini va yangi maktablarini ko'rmaklari lozimdur. Xususan, ulamo va udabog'a 1325 inchi sanalik davrayi olami islomni har bir asrig'a islom mamlakatini qatoridagi ba'zi qit'a va shahar «ma'dani ilm» bo'lubdur. Tarix kitoblari va ulamo asarlari-

g‘a qaralsa, olami islomning avvalgi asrlarig‘a mazhar saodati islomg‘a yaqin uchun Bag‘dod, Andalus va Misr shahar va qita’alarig‘a ulum va funun taraqqiy qilib va ahli ilm ko‘payib u taraflar ma’dani ilm va irfon va majmuyi ulamo va tullobi islom bo‘lubdur. So‘ngralari Hind va Buxoro va Samarqand, Hirot, Balx va Xorazm qit’a va shaharlarig‘a ilm va ulamo ko‘chub, amiri muazzam Temur Ko‘ragon va Ulug‘bek va sulton Husayn mirzo va boshqa temuriylar ulamo va udabog‘a rivoj berib, ko‘b in’om va ehsonlarni ulamo va udabog‘a maxsus qilganlari uchun Buxoro ma’dani ilm va Samarqand bog‘chayi buzurgon bo‘lubdurki, tasnif qilgan kitob va qo‘yub ketgan asarlari ila sobitdur. Alloma Ali Qushchi Ali, alloma Taftazoniy, sadr ul-shariya mavlaviy Jomiy, Abullays Samarqandiy, mavlono Husayn va Iqron va amallari ila kamolg‘a yetibdurlar. Samarqandni hozirgi chokardizasi o‘rnidagi ul zamondagi podshohlik bog‘chayi buzurgoniy va Samarqand salotini islomiyani qimmatbaho toshlar ila ziynat berilgan «firuza bog‘ qasri» ulamo mehmonxonasi ekanki, dunyodagi mashhur ulamoyi islom «Samarqandi firdavsmonand»g‘a jam bo‘lushar ekanlar. Bog‘chayi buzurgong‘a bino qilingan bir xonaqohni yiqilganig‘a ostig‘a qolgan ulamo yetmish nafar deb anig‘ rivoyat qilinadur...

Ey azizim, ul zamona Buxoro ma’dani ilm va ul zamong‘a ilm sharofati ila Samarqand firdavsmonand ediki, o‘tgan zamon podshohlarini tarbiyati va xon na’imi sababi ila dunyoni olim va mashhurlari Buxoro va Samarqandg‘a mutavajjih bo‘lub, bu kungi asaroti moddiy va ma’naviyni qoldurdilar. Bir zamonlar ma’dani ilm hind edi. Zamoni ho-

zirg'a har jihatdan ma'dani ilm va irfon Misr va Istambuldur. Hatto Hijoz va mag'firat Tarozdan kelib, Misrg'a ikmoli tahsil qiladurlar. Samarqand va Buxoroni navbati o'tdi. Kim bilur qayu davrg'a yana qadimgidek bo'lur. Buxoro va Samarqand va Turkiston va bilaumum Osiyo qit'asidagi musulmonlar ilm va fan va saltanat to'g'risinda keyin qoldilar. Ilm va saltanatni ma'nisi ketib, po'st va po'chog'i qolgandurki, ahli ilm va xabar nazdig'a oftobdan ravshandur... Bir – ikki yil muqaddamgi bir majlisg'a bir xabarsiz kishi dediki: «Ilohi, Buxorodan futur ketmasun». Anga bir xabarlik va ko'zi ochuq kishi muqobalan aytib dediki, Buxorog'a bid'an qilmang, chunki Buxorog'a futur kelgan va jonnishin bo'lgandur. Kerakki siz duo qilingiz: «Ilohi, Buxorodan futur ketsun». Darvoqe, Buxorog'a diqqat ila qaragan kishi ko'rurki, ulumi diniya va arabiyani tariqa tahsilini buzubdurlar, matn va sharhlar o'qulmay, vahmiy va farziy hoshiya va jadallar ila talabani umri o'tadur. Vazoyifi ilmiyasig'ada yek va amsoli bo'lsun va mustahqiyg'a tegmay pora va vositag'a beriladur. Boshqa shaharlarimiz mundan badtar... Ulumi aqliy va fanniy zamonidan Buxorog'a hech-hech aslo va qat'iyan bir nimarsa yo'qdir. Mullo va talabasini yuzdan to'qson, balki, to'qson to'qquzi bir surat salla va chapon kiygandan iboratdur. Borgina bilganlari nahv qoidalari ustig'a xarxasha va janjal qilmoqlikdur. Buxorodagi minglar ila salla va chapon qoliblarini siz «olim» deb isbot qilolmaysiz. Bu da'vo sizg'a va yo Turkiston va Buxoroni mullo shaklidagilarig'a noma'lum bo'lsa ham, Hijoz, Misr, Istanbul, Kafkaz, Qozon, Hind ulamolarig'a va Rusiya pro'fessur va donish-

mandlarig'a va har bir ahli ilm va xibrag'a[65] ma'lum va badihiydur[66], afandim!..

Bu so'zlarimdan siz gumon qilmangki, ulamog'a tahqir bo'ladur yoinki san ulamog'a dushman deyolmaysiz. Azbaski, man ulamog'a muhabbatdin va millatparast bir kishidurman va ham hozirgi zamonni tariqa tahsilig'a biroz voqif bo'ldum, ulamoyi islomiyani yangidan tasnif va tahrir qilgan kitoblaridan biroz xabarim bordur. Va ajnabiylar va nasorolarni bizim din va millatimiz to'g'risindagi mulohazalaridan, ko'b bo'lmasa ham, ozroq vuqufim bordur. Bozamin turkistonlik qarindoshlarimg'a va ulamog'a qaraymanki, huzuri tamom ila istirohatdadurlar. Ani uchun biroz muddat ila arz qilarmanki, uyg'onsunlar, ko'z ochib dunyog'a qarasunlar. Ijobi zamon nadur, bilsunlar. Ulum va fununi zamoniyadan hissa olsunlar. Xalq va avomni hidoyat etsunlar, rasm va rusumdan yamon va muzir moddalarni daf va raf etsunlar. Ulamo varasati anbiyo, ulamo qavomi din, ulamo e'modi millatdur[67], sababi islohi ummatdur. Va lekin bu ishlarg'a munosib ilm va kamolni dars qilgan kishilarni ulamo deymiz, bir farangi, bir donishmand o'rus, bir olim misriy va bir donishmand istanbulli va hijoziydan Turkiston va Buxoro ulamosi madrasa va maktablari to'g'risinda savol qilib ko'rung-chi, nalar eshitarsiz va yoinki o'zingiz ko'zingizni ochib Rusiyag'a, Misr dor ul-ulumlarig'a, Hijoz darsxonalarig'a sayohat va tafarruj qilib taammuq ila boqingki, nalar ko'rarsiz. Tiflisda chiqadurgan «Mullo Nasriddin» majalla tanqidiyasig'a qarangiz, Buxoro madrasalarig'a

[65] Mutaxassis
[66] Ayon
[67] Millat ustuni

vuquf paydo qilasiz. Dinni dunyog'a saxlaymiz, dunyog'a turmoq ilmi dunyoviysiz yashamak mumkin bo'lsa edi, mutaqaddiyn va salafi solihiynimiz ulum va fununi aqliya va hamimiyayi zamoniyalarni arabiy va islomiy tillarig'a tarjima va tadvin qilib, madrasalarg'a suqub o'qumog'i farz deb yozmas edilar. Yangi ilmlarni o'qumoq bid'at deb turganlar nihoyat daraja nodonlardur. Chunki payg'ambar va sahobalar zamoninda aqliyot va falsafiyot yo'q edi. So'ngra zamon lozim ko'rdi, o'qula berdi va ani uchun biz arz qilamizki, maktab va madrasalarg'a ulum va fununi aqliyayi zamoniyaga kirguzulsun. Ey azizim, ko'b so'yladim, balki, so'zum sizg'a qattig' tegdi. Har holg'a afvu fikr marjudur. Chunki so'zum shaxsiy emas, diniy va milliydur, umumiydur. Qavli sadiddur. Faa'tabiru ayyuhalixvon

Muftiy dorulqazo Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li

BIZDA MUALLIMLAR

Har bir millatning taraqqiy va taoliysi borib ikki narsaga tiraladir: birinchisi pulga va ikkinchisi usuli ta'limdan xabardor muallimlarki, bu ikkisidan birginasi bo'lmasa ham, olam xaroblikka yuz tutadir. Pul bo'lmasa, farz namozning ado qiladirgan masjidlar; xat, savod chiqaradirg'on maktablar, mudarris, qozi, mufti, muazzin va jami ruhoniy va ixroviy ishlarimizning boshqaruvchi odamlar yetushduradirgan madrasalar; injinir, advokat, do'qtur va boshqa dunyaviy ishlarimizning uhdasidan chiqadirg'an kishilar hozirlaydirg'on dorulfununlar hech biri vujudga kelmasligida shak va shubha yo'qdir ham kelmaydir. Muallim bo'lma-

sa, mazkur ilmxonalarida o'quydirg'on shogirdlar ham yo'q, undan yetushub chiqib xalqg'a xizmat qiladirgan falon va falon zotlar ham yo'qdirlar. Bas, insonlar dunyog'a kelishdan maqsad nima ekanligini fahmlamasdan, hayvonlardan ham yomonroq xo'rlik va zalillik ila o'tub ketadirlar. Bu so'zlarimizdan bilinadirki, pul topilmog'i uchun muallim, muallim topilmog'i uchun pul nihoyatda zarur ekan.

Mana, o'z ko'zlarimiz bilan ko'rub turamizki, yovrupolilar ulm va hunar to'g'risida nihoyatda yuqori ko'tarildi. Va bizlar bo'lsak haddan tashqari haqir va razil holda qolub, oyog'lar ostida ezulduk. Bilasizmi, bu nimadan? Bu yovrupolilarning boylari oyamasdan necha milyunlar sarf etub, ushbu uylarni solub, alarga usuli ta'limdan xabardor va muqtadir muallimlar kelturub qo'yg'onlaridan. Ul muallimlarning ilm, fazl, o'qutish va tarbiya berishlarining taqdir qilub, o'turish, turish, kiyim, soch va mo'yi lab, hatto tahorat ushanishg'a o'xshag'on nihoyatda juz'iy narsalaridan gapurub yurmaganlaridandir. Biz bo'lsak bularning teskarisicha yurarmiz.

Bizda Xudo va payg'ambar tarafidan man qiling'on nafsoniyat va xusumatdan solinadirgan masjidi zararlar ko'b, maktab yo'q. Bola bechoralarning necha yil umrlarini oxurlarda va hifzi sihatga to'g'ri kelmaydirg'on qabrg'a o'xshag'on qorong'u uylarda churutadirg'on, ko'bincha ziyofat va to'ylardan bo'shamaydirg'on domlalar bor. Tezlik ila ko'b narsalarning bilduradirg'on muallimlar yo'q darajasida ozdirlar.

Ey zavolli millat! Sanga muallimlarning joni kuyadir. Keragi yo'q joylarg'a, masalan, to'y va bazmlarga qancha mehnat va mashaqqatlar ila topkan oqchasini sarf va isrof

qilmasa ekan, dinning haqiqatiga tushunsa ekan, hozirgi 20 nchi ilm va madaniyatidan xabardor bo'lub, ozroq ko'zi ochilsa ekan, nodonlik asoratidan qutulub, zamona odamlari qatoriga kirsa ekan deydir.

Ey xarobalikka yuz tutgan millat! Bunday fidokor va jonnisor muallimlarning qadr va qiymatini bilmasang va bilmakni xohlamasang, ilmsizlik va safohat balchig'idan o'zingni tozalab ola olmassan!..

Ey fidoyi muallim! Millating seni hech narsaga arzitmasa arzitmasun! San millatingga jon-u dil ila xidmat qilmakdan bosh tortma; o'z maslagingda sobitqadam bo'l!

Ey g'ayratlik muallim, o'qutadirgan shogirdlaringni o'qutmakda, sabaqlarini tushundirmakda qusur va kamchilik ko'rsatma; nihoyatda ijtihod va g'ayratingni sarf et!

Ey millat yo'lida qurbon bo'lgan muallim! «Qulil haqqa va lav kana murran va la taxaf lavmata laim» hadisi ila amal qil; achchiq bo'lsa ham, haq va to'g'ri so'zni so'zla; malomat qilg'uchining malomatidan qo'rqma; sani so'ksunlar, bad mazhab desunlar, takfir qilsunlar, maktabdan quvsunlar, yurushingdan bir qilcha oyrilma! Boshqa birlariga borib maktab och; yana bolalar tarbiya qila boshla; bo'sh vaqtlaring bo'lsa, foydalik adabiy va fanniy kitoblar va g'azitalarga keraklik maqolalar yoz! Qo'lingdan kelgancha xalqg'a istiqbol (keyin boshka keladirg'on ishlar)ni fahmlat! Foydalik gaplaringni foydasiz va yaxshi gaplaringni yomon deb bilsalar bilsunlar; aslo parvoyingg'a kelturma!

Mana shul vaqtlarda tarix sahifalarida yaxshilik ila isming yozilub qolur.

Mo'minjon Muhammadjonif

ESKI MAKTABLAR TURMUSHINDAN I

Olti yoshka yetkanda Tolibning otasi ozgina bo'lsa ham janjal-g'avg'odan qulog'imiz tinchib turadi-ku deb o'ylab, bir ro'ymol kulcha va bir tanga pul ila mahalla maktabiga eltadi. Maktabxona uzun tor ko'chaga o'xshatub ishlangan bo'lub, usti odam boshi tegar-tegmaslik qilub, egri-bukri yag'ochlar solub yopulgan edi. Bir taraf devordagi bo'yi bir qorich, eni bir qorichdan keladirgan ikki teshiki ila qabrdan biroz ojralur edi. Ikki tarafda bolalar kitob va Qur'on qo'yub o'qumak uchun yarim gaz ko'tarilub ishlangan devor cho'zulub ketkan edi. Bolalarning ba'zisi bo'yra cho'pidan qo'chqor yasab, urushturub, ba'zilari aroba va ot yasab, ba'zilari bir-birlarining tamom ayb va laqablarin yuzlariga solub, so'kushub o'turushkan va ba'zilari ko'chag'a chiqub «xotlam xo'tlam» o'ynab yurishkan edilar.

Domla janoblari chilyosin va qaytarmaga ko'b yuradirgan bo'lub, shul kun ham bir qaytarmaga ketkan edilar.

Ota-bola bir soat miqdori kutub o'turgandan keyin ko'chaga chiqub, o'ynab yurgan bolalar xovliqg'on holda yugurushub kelub, «domla, domla kevotdilar, o'qunglar, o'qunglar» deb shogirdlarga xabar berdilar. Azroil panjasidan qo'rqg'andek domladan qo'rqg'an shogirdlar to'p-to'p bo'lub so'zlashub va qo'chqor urushturib o'turgan joylaridan shoshilisha-shoshilisha turushub kelishub o'z joylariga o'turdilar. Tamom tanalari ila bir shifka, bir yerga qarab tebranub «vaz ava, summa kallo, summa kallo»ni qayta-qayta

aytub, jonlari boricha qichqirub va shovqun solub o'qiy boshladilar. Domlaning boshlari eshikdan ko'rinish ila hammalari birdan o'rnilaridan turub, cho'zubgina: «Assalom alaykuuum», – deb salom berub, domla echkining terisidan yasalgan eski po'staklarining ustiga chiqub, tomoqlarini qira-qira tiz bukub o'turg'onlaridan keyin o'turushdilar. Tolibning otasi ham ikki buklang'on holda salom berub, yugurub borub domlaning muborak qo'llarin ikki ko'ziga tamom ixlos ila surdi. Tolib ham bo'ynini qisub, burnini yengi ila surta-surta, qizarub-bo'zarub «ashalom» debgina qo'ydi.

Domla ijoraxo'r Xoliq okaning bir tishidan tushkan, belbog'larig'a bir-ikki aylanturub qisturub qo'ygan, nihoyatda bog'lanub eskirub, bir necha yerlaridan yirtilgan dastro'ymollarin bir uchuni torub olub, terlarini surta-surta tolibning otasi ila hol so'rasha boshladilar:

– Ha! Bay! Muslim oka! Keling. Xo'b salomatgina bormusiz?

– Taqsir! Alhamdulillah, taqsir!

– Nechuk Xudo yorlaqadi?

– Ha, taqsir! Mana shul qul bachangizni xidmatingizg'a olib kelg'on edim. Juda sho'x bo'lub ketdi, zora, janobingizning tarbiyalari ila tiyulub qolsa deb umid qilamiz.

– Hay-hay, ko'b yaxshi, ko'b yaxshi. (Bolalarning biriga qarab) Mirqosim! Darrov choy damla!

– Yo'q, yo'q, taqsir! Hojat emas. Man hozir bir boradirgan ishim bor edi.

– Ayaay! Choy ichub borasiz-da! (Kulchani oldilariga tortub olub, dastro'ymolining tugunin cheshub, ustidagi bir

kulchani burdalab qo‘yub, qani, oling, oling qilishgandan keyin) Muslim oka! Mana, ko‘rub turubsiz! Zamona yomon bo‘lub ketub borodur. Man kecha Shayxovandtohur tarafiga bir odamning to‘yiga borgan edim. Yosh-yosh bolalar o‘rusning popirusini chekub yuradurlar. Rahmat sizga, buni yaxshi o‘ylag‘ansiz! (Shul vaqtda chopillatub chaynab turub) Ham, ham! Ya’ni bu bola sizning farzandi arjumandingiz ekan. Maktabg‘a bolasin keturub bermoqning xosiyatin, masalan, ko‘b maqtaydirlar, ya’ni, masalan, bir bola, ya’ni maktabga kelub o‘qusa, ya’ni Alloh taolo to‘rt kishini rahmat qilur emish. (Nonni chaynab turub boyagi choy buyurgan shogirdg‘a qarab) Mirqosim! Basharang qurugur, ablah! Nima qilub haligacha qarab o‘turubsan? Bir oytgandan keyin darrav olub kelmaysanmi?

– Ay! Taqsir! Bekor ovora qildingiz-da!

– Bir soat, bir yarim soat vaqt o‘tsa nima bo‘ladi deysiz? Dam g‘animat, diydor g‘animat. Bir fasl gaplashub o‘turub borasiz-da! Boya man nimani so‘zlavotkan edim, esimdan ham chiqarub qo‘ydim.

– Ha, andaqani, bolalarning maktabka berish to‘g‘risida.

– Ha! Balli, balli, esimga tushdi. Xudo to‘rt kishini rahmat qilurmish. Masalan, birinchi domlani, ikilamchi bolani, uchilamchi otani, to‘rtilamchi onani. Mana qanday xosiyat bor, ko‘rdingizmi?

– Ha, taqsir! Albatta, taqsir!

Mo‘minjon Muhammadjono‘v

ESKI MAKTABLAR TURMUSHINDAN II

Domla janoblarining yoshi elliklarga yetgan bo'lub, har kun ikki kosa (ko'knor) iste'mol qilishlari yuzlaridan, zaif dovushlaridan va so'zlab o'turganlarida xayol daryosiga g'arq bo'lub ketishlaridan bilinub turar edi. Yoshliklarida ko'b xushsurat bo'lub, madrasa mullabachalari orasidan mudarris afandi shul kishini darsxona xizmatig'a loyiq ko'rgan sababli dars xonada turub, har kun ikki-uch martaba hazrat domlaga ...[68] ezub bergan vaqtlarida bir ho'plam, ikki ho'plam ta'mini tota boshlab bu falokat va pes ko'knoriga mubtalo bo'lg'onliklarin fahmlamay qolg'on edilar. Mudarris domla xidmatlarida soqollari chiqquncha ust-boshlari yangi, ko'ngillari har vaqt xursandlikda o'yun va kulkular ila o'tub, soqollari yuzlari atrofidan ko'runa boshlag'och, iylariga borub suv toshub berish, qish kunlarida tomlarning qorini kurash, o'tun yorub berish, ziyofat vaqtlariga borg'onlarida non va choponlarin ko'tarub kelish qattig' mehnatlariga tushkan edilar. Shul xil madrasada 15 – 20 yil yurub o'qug'on narsalaridan hech foyda ko'rolmasdan shaharlariga Buxorodanmi, allaqaydan kelgan bir duoxondan duoxonlikni o'rganub olub, shuning ila xalq orasida shuhrat topub, shul vosita ila maktabdorlikka ham yetushkan edilar.

Avvalda kelgan bolalarga «pur»ni «pir», «otash»ni «otish», «bayt»ni «bit», «sak»ni ... deb o'qutub yurgan bo'lsalar ham, keyin onchagina usta bo'lib ketgan edilar.

[68] Asl matnda shunday

Tolibning otasi (Muslim oka) bo'lsa yoshlikda otadan yetim qolg'on bo'lub, buning otasi kambag'al dehqon va korandalarni ishlatub-ishlatub ko'b haqini bermasdan qaqshatub olub qolub boyigan bo'lsa ham, o'lgandan keyin vasiy bo'lg'on kishi ichub va qimor o'ynab hamma omonat oqchani tamom qilg'onidin keyin bir kechada bildurmasdan boshqa shaharg'a qochqon edi. Onasi ikki yilchani qancha mashaqqatlar topub o'tquzg'ondan keyin bir oltmish yoshlik sartaroshka tekkanda bul ham orqasidan ergashub borg'on edi. O'gay ota bolalari buni ko'rolmasdan turta berganlari sababli bu chidolmasdan bir boyning bolasini ko'tarub yurmoqqa xidmatka kirgan edi. O'skan sari husni ortub, boyning ko'ziga yoqimli bo'lub ko'runa boshlab, 13-14 larga yetkanda boy do'konga o'tquzub qo'yg'on edi. Yaxshi vaqti tabiat tortmaslik darajaga kelgandan keyin boy bo'yniga bir tuhmatni yuklab, shul bahona ila hech bir narsa bermasdan quvlag'on sababli nihoyatda xaroblikda qolub, oxiri bir eshonga qo'l berub, bir necha yil shul zotning xizmatida qolg'on edi. Qirq yil xor-u zorlik ila pir xizmatini qilmaguncha eshonlik darajasiga yetusholmas degan bir tegi yo'q e'tiqod miyasiga yoshligidan beri o'rnashub qolg'onlig'i uchun tamomi ixlos ila yugura-yugura eshonning har og'zidan chiqqan xizmatin o'rnig'a keturub turur edi. Buning kirganiga 15 yil o'tmasdan ajal hazrat eshonning eshonligiga qaramayincha yoqasidan tutub, sudrab ketub, bolalari ichida eshonlik tortish-tolosh bo'lg'onlig'i uchun bunlarning orasida turolmaslig'ini bilub, chiqub ketub, eshonning ixlosli muridlaridan bo'lg'on bir yamoqchiga birgalashgan bo'lub, hozirda ham shul hunar ila mashg'ul edi.

O'zi omi bo'lg'on sababli din va shariatning nima ekanin bilmasa ham, o'zini dindor tutadirg'on, eshon va mullalar nima so'zlasalar, shuni dinning buyrug'idan biri bilub, mahkam ushlaydirg'on bir xosiyati bor edi. Ko'b vaqtlardan beri nodonlikning zarari va ilmning qadri bilinub yurg'on uchun hozirda bolasini maktabga keturgan edi.

Domla: Qaysi kun bir shogirdimning otasi ziyofat qilub bog'ig'a chaqirganda ko'nglim tortub sizga bir bola yuborgan edim. «Uylarida yo'q ekanlar», – deb keldi. Shul kuni siz rostdan yo'qmidingiz, yo'qki bacha ...[69] ni bolasi bizni oldadimi?

Muslim aka: Ha, taqsir! Yuborgan ekansiz, man kelganimdan keyin bolalar aytdi. O'shal kuni bir qarindoshimizning 67 yoshli bir eshong'a ikki xotun ustiga bergan 13 yoshli qizi kundoshlarini jabridan kasal bo'lub kelub, uyida ikki oycha yotkandan keyin vafot topkan edi. Man shuning janozasig'a ketkan edim.

Domla: Ha, ha! Shunday hodisa bo'lg'onmidi? Man ham aytdim!

Shul xiyla ikovlari so'zlashub o'turub choyni tamom qilub, chorak soat miqdori cho'zub, dasturxon fotihasin ado qilganlaridan keyin domla Tolibni chaqirub, otasining oldida sabaq boshlatub qo'ymoq bo'ldilar:

«Auzu billahi minash shaytonir rojim, bismillahir rohmanir rohiym. Alhamdu lillahi robbil alamin. Ar-rohmanir rohim. Molikki yovmiddin. Iyyoka no'budu va iyyoka nastain. Ihdinas sirotol mustaqim. Sirotol lazina an'amta alayhim g'oyril mozubi alayhim va laz zolin. Omin», – deb boshlat-

[69] Matnda shunday

kanlaridan keyin, Subhonani aytub qo'llarini ochub: «Alloh taolo zehningni baland qilub, o'qushka ixloslik qilsun!» – deb tolibni duo qildilar.

Muslim oka: «Endi, taqsir! O'quta berasiz! Xizmatingizni ko'b qilamiz. Bu mening bolam emas, sizning bolangiz. O'qumasa, hech oyamang, uring, eti sizniki, suyagi bizniki. Bola to domlaning kaltagin yemaguncha mulla bo'lmas deb eshitkanimiz bor. Sizning kaltagingiz doru, taqsir», – deb yaxshilab bolasin tayinlab, mullaning qo'llarig'a ozroq nazrimiz bor edi deb bir tanga qisdurgandan keyin xayrlashub uyiga qaytub keldi.

Mo'minjon Muhammadjono'v

ESKI MAKTABLAR TURMUSHINDAN III

Domla otasini uzatgandan keyin Tolibni «Marayim» degan bir bolaga: «Mana! Bunga Alhamduni 15 martaba oldinga olub, yaxshilab o'qutub qo'y!» – deb topshurdilar. Mazkur bola domla aytganlaricha oldiga tizalatub, ikki qo'lini mahkam ushlab, o'zi tebranganicha qolmay Tolibni ham tebrandurub surayi Alhamduni o'quta boshladi. Bu bir orqaga, bir oldinga borub butun tanasi ila tebranish maktabga kelganiga 12 yilcha bo'lgan sababli Marayimning tabiatiga singishub qolgan bo'lsa ham, Tolibning boshi onchagina garang bo'lub o'ylandi. Alhamduni 5 martaba o'qutgandan keyin Marayim boshini engashdirub: «Qani, bir martaba o'zung o'qub qara! Hab, borakallo». Tolibning og'ziga qulog'in tutub turdi. Tolib burnini torta-torta: «Rahimi, lillah, molikki, shilotal, mag'jubi va lajjolin omin», – deb Alhamduni yang-

lish-yanglish bir martaba xalfasining qulog'iga o'qub chiqdi. Marayim xalfa shul bilishni ham ko'b bilishka hisoblab, bir necha martaba «Borakallo, borakallo, Tolibjon»larni aytub orqasiga qoqub, bir-ikki martaba yuzini silab qo'ydi. Shul xil har 5 martaba o'zini o'qutub ko'rub, domla buyurgan 15 martabani takrorlatgandan keyin Tolibni o'z barobarlarining oldiga yetaklab eltub qo'yib, «Endi-chi, san haligi Alhamduni takror qilub o'turgin! Durustmi? Hab, borakallo! Otasini o'g'li-da, otasini o'g'li, hab, borakallo»larni qayta-qayta aytub, o'z o'rniga kelub o'turdi.

Tolib dunyoga keladirgan vaqtda tezgina kelmasdan onasini juda qiynagan edi. Bunga Rokiya xola degan yurt ustida yurgan bir xotun doya bo'lgan edi. Bu Rokiya xolaning yoshi elliklardan oshkan bo'lub, kinna solish, qoqub-so'qub uqalab qo'yish, yetti turli lattalarni bir yog'ochning uchiga bog'lab yondurub, tamom kuyub bitkuncha kasal kishini boshidan aylandurub turish, chirmanda cholub ko'churish, emi-demi qilish, opalarga atab echki va buzog'lar so'ydurub, teri, kalla, hasiblarni o'zi uyuga olib ketish hunarlariga juda usta bo'lgan edi. Buni ulkanlar Rokiya xola, kichkinalar Yokiya xola deb yurur edilar. Zohiriy ko'rinishi juda yumshoq va sodda ko'rinsa ham, ichi makr va hiylalar ila to'lgan edi. Rokiya xolaning ikki kungacha qilmagan emi-demi va sadaqa pul otamagan mashhur buzurklari ham qolmadi: «Aylanay, bu hast Bahovaddin yo'llariga, mana bu Zangi buvamga, mana bu Sultonim yo'llariga, aylanay, arvohingizdan. Mana bu opalarni yo'liga, mana bu Sheyg'zidin buvammi yo'llariga, mana falon va falon azizlarning yo'llariga», – deb har qaysisiga uch puldan bir fiqradan qilub,

7-8 tugunlarga tugub qo'ydi. Tolibning onasini to'lg'oqlari qo'rqinchli bo'lgan uchun qarindosh-urug'laridan bir necha xotun bularning uyiga yig'ilishkan edilar. Muslim oka domla-imomni keturub, xotunlarni o'choq boshiga chiqarub qo'yub, xotunining yuzin bir doka ro'ymol ila yopub, bir-ikki martaba dam soldirgandan keyin chiqub, qo'shnisining mehmonxonasida g'amgin bo'lub o'turgan edi.

Rokiya xola bir necha martaba Tolibning onasini orqasiga o'tub, ikki qo'ltug'idan qo'lini o'tquzub, belidan mahkam quchoqlab ko'tarub, silkutub-silkutub turgan bo'lsa ham, Tolib hech pinagini buzmasdan onasining qornida yotkan edi. Bir necha martaba qo'lini yuborub qaragan bo'lsa ham, hech bir narsa qo'liga ilinmagan sababli juda umid uzgan edi. Shul uyga yig'ilgan xotunlardan bir satangrog'i boshqa xotunlarga qarata: «Hoy, aylanaqolila! O'rda og'zida bir xotun do'xtir bor emish. Muslim okamga etila, bundaqa qiynalub yotgandan o'shani olub kela qolsunla», – deb og'zidan chiqqan zamoni hamma xotunlar birdaniga: «Voy, o'lay, Xosiyat kennayi! Sizga nima bo'ldi? Hamma yo pirimlab turgan vaqtda xotun do'xtur chaqirub, birovni xotunini ajalidan besh kun burun o'ldiray deysizmi? Xudo urdi, ketdi, qo'ying-e! Undog' gapurmang», – deb urusha boshlaganlari va bu xotun bechoraning tarafi bo'ladirgan bir xotun chiqmagani sababli uyalganidan qizarub, bo'zarub, hech dami chiqmasdan qolgan edi. Shul xil qiynala-qiynala va kuchana-kuchana uchinchi kun azon vaqtida Xudo yo'l berub, onasi Tolibni topkan edi. Inga-inga, inga-inga deb bolaning boshi xinakga tushushi ila: «Voy, aylana qolay Xudoyimdan-e! Go'rga yol berdi-ey», – deb doyasi xanikdan

tezgina suyuna-suyuna ko'tarub olgan va boshqa kutushub o'turgan xotunlar ham: «Voy, go'rgo-e, voy go'rgo-ye, esonomon qutildi-yey», – deyushub, chuvillashub Tolibning onasin boshiga yig'ilgan edilar. Shul vaqtda ikki-uch yosh bolalar suyunchi olmoq bo'lub Muslim okaga yugurushub ketishkan va Muslim oka ham nihoyatda xursand bo'lganidan oqchadonidan darrav bir so'mli tanga-chaqa olub, bolalarga bo'lub bergan edi. Rokiya xola bola va onasini ifloslardan tozalab, hamma doyalik vazifasin o'ziga keturgan va yo'rgaklab ham yotquzgan edi. Shul tariqa 7 kun o'tkandan keyin beshikka osilgan holda ikki nonni tishlab turganda bir bola kelub, og'zidan yulub olub qochadirgan va orqasidan to'rt-besh bola quvlab yurub, tutub olub, nonni talashub yeydirgan rasmni ham o'tquzgan edilar. Rokiya xola ham xizmat haqqi bo'lgan bir doka ro'ymol, bir sakkiz gaz ko'ylakli chit va uch-to'rt tanga pulni olub, Tolibni, ona-onasini duo qila-qila uyiga qaytub ketkan edi. Oylar, kunlar o'tar va Tolib o'skan sari o'sar edi. Uch-to'rt oyda iljayadirgan, bir yoshka yetkanda emaklaydirgan bo'lgan edi.

Onasi hifzi sihhat nima, bola tarbiyasining ilmi nima ekanligini bilmaganligi, hatto eshitmaganligi sababli Tolib emaklab yurub kesak yemak, tuprog'larga siyub, loyini yuziga surmak, bosh, oyog' va hamma kiyimlarini qo'lidan kelganicha tuproqqa qormak, qo'liga berilgan taomlarni o'z siydugi va boshqa najaslariga tashlab, uzun yengi bilan aralashturub o'turmakka juda o'rgangan edi. Og'zidagi so'lagi tinmasdan oqub turgan uchun ko'krak to'g'risi har vaqt ho'l va tuprog'larga ko'p dumalagani uchun loy bo'lub turur edi. Ota-onasining umrida birgina Xudodan so'rab topkan

yolg'uz bolasi bo'lganligi uchun Tolib nihoyatda erka o'sdurulub, so'ragan qand-qurs va boshqa shirinlik narsalar ila tarbiya qilinur edi. Shuning uchun tishi yeyilkashdan[70] va ichi o'tishdan bo'shagan zamonin bir kishi ham ko'rgan yo'q edi. Bu kasallarga otasi ila onasi haqiqiy sabab bo'lsa ham, Xudodan ko'rilur edi. Tili yaxshi chiqmasdan boshlab «ho' otangni, ho' onangni ... ho' og'zinga, ho' bo'g'zinga ...» deb suyuklu va erka bolalariga har xil so'kushlarni muntazam va tartibi ila o'rgatub kelganlaridan olti yoshka kirguncha ancha malaka hosil qilgan edi. Mana, ko'z oldingizdagi maktabga borub, sheriklari ila Alhamduni takrorlab o'turguchi, tarbiyali ota-onaning qo'lida yaxshi tarbiya ko'rub o'skan shul Tolib edi ...

Chiyon

ESKI MAKTABLAR TURMISHINDAN IV

Oradan bir soat o'tar-o'tmas Tolibning qorni ochdi. Mildir-mildir ko'zlaridan yoshlar va burunlaridan suvlar to'kula boshladi. Shul vaqtda yonida o'turg'an bir bola: «Tez o'qi! Domla uradilar», – deb tirsagi ila yonboshig'a bir turtub qo'ydi. Havlisida yurgan vaqtlarda non chaynashdan bir minut ham og'zi bo'shamagan va qanday ishlar qilsa ham ma'qul bo'lub kelgan Tolib, qorni ochgani bir sari va turtkilagani bir sari bo'lub, bu yomon xo'rlikka chiday olmadi. Avvalda dovush chiqarmasdan ko'zidan yosh oquzub turgan bo'lsa ham, emdi qattig' dovush ila: «Oyi, non», – deb o'ngrab yig'lab yubordi. Domlaning maktabning ul burchi-

[70] Yemirilish

dan bul burchig'a yetadirgan uzun tayoqlaridan qo'rqub kitob yuzig'a qaramasalar ham, qichqiruvchi shogirdlarning dovushidan maktabxona to'lgan sababli uzog'dagi shogirdlar eshutmasalar ham, yaqinrog'dagilari oz-oz eshutdi. Tolibning ovozi boricha qichqurub yig'lag'anin ikki yonida o'turgan bolalardan boshlab domla so'zlaganlarin ko'rmasun uchun boshlarin past qilub: «Hoy! Onavini ko'r! Hoy, hoy, onavini ko'r», – deb bir-birlariga turtub ko'rsata boshladilar. Bu qayg'uli va hasratli yig'ining xabari birisi birisig'a eshitdiru ila maktabning burcha-burchagida o'turgan bolalarga ham yetushkan sababli hammalari o'qushlaridan to'qtab Tolibning og'ziga qaradilar. Domla yo'g'on kataklarini ushlagan holda mudrab o'turgan bo'lsalar ham, bu bolalarning shovqun-suronidan birdaniga to'qtab qolganliklari quloqlarig'a bilinub, cho'chub ko'zlarini ochdilar. Yana bolalar domlaning ko'zlari ochilganini ko'rgan zamoni qichqira boshladilar. Domla nihoyatda achig'lanub: «Ha! Badbaxt bolalar, nimaga hammang birdaniga o'qushdan to'qtading?» – deb bir tarafdan tayoq ila tushura boshlagan edilar, bolalarning ichida bir yuraklirog'i tupugini yuta-yuta, qaltiray-qaltiray o'zini rostlab olub: «Ondaqa, taqsir! Himmmm, ondaqa, nima onu yangi kelgan, ondaqa undan keyin, ondaqa qorni ochub, ondaqa bolaning, ondaqa qorni ochub, ondaqa, undan keyin yig'lavotdi», – deb bir-ikki so'z ichida qancha ondaqalarni aytub biturgan zamoni domla yalt etub Tolibga qaradilar. Tolib yer tepsinub avvalgidan badtarroq og'zini ochub: «Vaaa, vaaa, oyiiii», – deb qichqira boshladi. Domlaning birozgina rahlari kelub: «Ooo, bachag'ar-e. Buning darav qorni ocha qolganini qa-

ra-chi. Qo'y, unday yig'lama. Onavi o'rtag'laringni qara, masxara qilub kulushvotdi». Bolalarga qarab: «Bolalar. Sizning ichingizda mana shu yig'lab o'turgan bolaning uyini ko'rgan bormi?» – deb so'ragan zamonlari bir bola irg'ub turub: «Taqsir, andaqa, man ko'rganman», – dedi. Domla Tolibni uyiga eltib bermakka buyurdilar. Ko'rgan bola: «Xo'b, taqsir», – deb Tolibning yetalab olub chiqub ketdi. Bora borguncha ko'zidan yoshlari tiyulmayincha bordi. Buning olub borguchi bola havlisiga kirmasdan, eshigidan qo'yub yuborub maktabga qaytdi. Uy ichida ignani undan urub mundane chiqarub do'fi tikub o'turgan onasining qulog'ga ozgina ho'ngillab yig'lagan dovush kelgan sababli bir qo'liga ignani va bir qo'liga do'fini ushlagan holda tikishdan to'qtab, boshini eshik tarafiga qiyaroq qilub quloq sola boshladi. Dovush borgan sari yaqinrog' eshitilur edi. Onasi o'z bolasining yig'isi ekanin bildi. Onalik hissi qo'ymadi. Qo'lidagi do'fisin tezgina sandalning ustiga qo'yub, eshik tarafiga yugurdi. Tolibni ko'rub: «Voy, otaginang aylansun, bolaginamning qorni ochub qopdi-ye. Voy, munchoq-munchoq bo'lub oqqan ko'z yoshlaringdan aylanay. Kela qola-a. Xudoyo, maxtovi qurub ketsun. Shundog' shirin bolamga bir qaraydirgan kishi bo'lmapti-ya», – deb kelub quchog'ga oldi. Boshlari va orqalarini siypay-siypay uyga olub kirub, sandalning bir yoniga o'tquzdi.

Tolibning sandal o'chog'i otasi faqir bo'lgani sababli boshqacharog' bo'lub, yerni o't solmoq uchun lahadning og'zig'a o'xshatub bir qarich miqdori o'yilgan, oning to'rt tarafiga to'rt dona kichkina-kichkina qilinub sandal pochalari turmoq uchun chuqur qazilgan edi. Bu sandalning yasalgani

to‘g‘risida har xil rivoyat bor bo‘lub, ba’zilar 35 va ba’zilar 40 yil hisob etmakda edilar. Sandalning taxta va pochalari bir necha yeridan yorilub ishdan chiqqan bo‘lsa ham, otqon yo‘q sababli eski ishton bog‘lar ila tanqub, amallab ishlariga yaranub turur edilar. Sandalning ustig‘a yopadirgan ko‘rpacha 20 – 30 xil latta-puttalardan yasalub, bilub va ustalik ila qavilmagani sababli paxtalari dumaloq-dumaloq bo‘lub, ko‘rpaning burchak burchagida to‘planub yotar edi...

Emdi Tolibning onasi loydan yasalgan o‘chog‘ig‘a darav choyjo‘sh osub, xazon yoqa boshladi. Chunki bundan boshqa quritilg‘an tezak-o‘tun bor bo‘lsa ham, non yopishka saqlanur edi. Bu xazon ham, koshki, quruq bo‘lsa, namligidan yaxshi yonmas edi. Ostidan puflay-puflay va ko‘zlarig‘a tutun kirub ochita-ochita bir soat miqdorida choyjo‘shni qaynatub, damlab, Tolibning oldig‘a keturdi. Quruq dasturxonni qoziqdan olub yozub, sabatdan non olub yedurub va choy ichirub suyuklu bolasini to‘ydirdi.

Bu kun o‘tub, ertasig‘a otasi yana maktabg‘a eltub qo‘ydi. Domlaga: «Taqsir, to o‘rganguncha vaxlik ozod qilib turing. Jon taqsir, aylanay taqsir», – deb yalinub, yalvorub tayinlab uyig‘a qaytdi. Kechagi o‘qutub qo‘ygan Marayim xalfasig‘a yana bu kun domla tayinladilar. Yana Marayim 15 – 20 martaba Alhamduni takrorlatub qo‘ydi. Tolib yana o‘z barobarlari ila goh o‘ynab, goh o‘qub o‘turgan bolalarg‘a og‘zini ochub qarab o‘turdi. Kechagi yig‘lag‘ani eslariga tushub ketub, domla bugun ertaroq ozod qildilar. Shul ravishli kela-keta maktabning o‘turush, turushlarig‘a tushunub va ilgari ota-onasidan o‘rgangan so‘kushlarining chalasini maktab bolalaridan o‘rgana boshladi. Domla bolalarning urgan vaqtlarida Tolibg‘a

ham tayoq uchuni ozroq tekizub ketar edilar. Keyin-keyin qattig'roq boshig'a tushura boshladilar. Avvalda bir davraga ham vag'illab dunyoni buzadirgan Tolib emdi qattig' kaltakg'a ham chidab borar edi. Shunday yura-yura bir oy chamasida «surayi Alhamdu»ni yarim-yorti yod olub, surayi «Qul auzu»ga o'tub, maktab nizomi sabaq bildirishning e'tibor qilmasdan ertaroq ozodliq olishni e'tibor qilgan sababli har surani chala-chala o'qub 8-9 oyda «Qul ya»g'a yetkandan keyin taxta keturmoqqa buyurildi. Tolib ertasig'a domlaning tayinlagan taxtalarin ota va onasig'a aytishni esidan chiqarub qo'yub maktabg'a borgan edi, maktab bolalaridan baloga qoldi. Bir bola: «Hoy Tolib. Nega taxtani olub kelmading?» – deb u yog'idan turtkan va bir bola: «Ozodlig'ni yemakchi bo'ldingizmi? Domla nax ... bilasizmi?» – deb bu yog'idan turtkan. Juda bolalarning bu muomalasidan boshi qotdi. Nima qilishini bilmadi. Yig'lay desa, uni bilmaydir, yig'lamay desa, uni bilmaydir. Nihoyatda xafa bo'lub, yerg'a qarab ozod bo'lguncha hamma kulfatlarni ko'rub o'turdi. Uyig'a borganda taxtag'a tushkanin bu kung'ina bildurub va bu to'g'rida maktab bolalarin ko'rg'an jafolarin ikki ko'zig'a jiq-jiq yosh olub bir-bir aytdi. Muslim oka bolasin yonig'a olub, ko'zlarining yoshini ortub, ikki yuzidan shop etub o'pdi-de: «Voy, otasi jonidan. San hali taxtag'a tushdingmi? Kecha eshitmay qolubman-de. Borakallo, borakallo, shabbor bolam. Xudo xohlasa, ertaga Zohid oka kafshini yamaganim uchun bir yarim tanga pul beradir. Sanga ozodliq qilub berub, o'rtog'laringni birozod qo'ydurub yuborib, saning xafalig'ingni ko'nglingdan chiqarmasammi», – deb tasalli berdi. Tolib bu so'zlarni otasidan eshitub nihoyatda shodlandi.

Chiyon

ILM NATIJALARI

Bizlarg'a hukumat maktablarig'a shul kundin tortib bolalar berib seminariya, gimnaziya, kamerchiskiy[71], realniy uchulishsha tartiblarini o'rgatmoq lozim bo'ladur. Buning ila turmasdin qo'l uzatsamiz yetib turg'on millatdoshlarimiz tatarlarni(ng) «Muhammadiya» va «Rasuliya», «Oliya», «Husayniya» va bo'lak madrasalariga shogirdlar yubormoq farz darajasinda bizlarga zarurdir. Har yili necha yuzlarcha muallimlar yetishtirib turgan bu madrasalardin oliy tarbiyat ko'rgan muallimlar kelturub, bolalarimizni o'qituv yo'linda ijtihod ko'rsataylik.

Yaxshi o'qitmasdan, kaptarbozlik, bedanabozlik, qimorbozlik ishlariga rivoj bersak, albatta, bizlar uchun ham ko'ngilsiz ishlardin bo'lsa kerak. Yuqorida «Ilm natijasi» sarlavha qo'ygan edim. Bunga dalil ko'rsatmak uchun shuni ham yozib o'tamankim, Semipalat, Oqmulla oblastlaridagi qozoqlar hukumat maktablarinda va tatar madrasalarinda oliy tartib ko'rganliklarin samarasidin rabochiy to'g'risindan hech bir nizom va qoidadin yiroq ketmadilar, sadoqat ko'rsatmaqda birinchi o'rin kutalar.

Mana, endi bizlar kabi o'qimaganliklarning kasofati emasmu? Semirechinskiy qirg'iz qozoqlarini(ng) boshlariga qandoq falokatlar keldi va qandoq og'ir va dahshatlik hodisalarga yo'liqdilar. Bular hammasi o'qimaganliklarin natijalaridur. Demak, bizlar endi o'z madrasalarimizdin muallimlar yetishmagini kutsak, yana yuz yillarda ham

[71] Kamerchiskiy – savdo deyilmoqchi

yetushmaz. Eski tariqada qolishdin boshqa gap bo'lmas. Binoan alayhi, bizga farz bo'lib tushgan narsa boylarimiz va ochiq fikrliklarimiz, mullolarimiz shul kundin e'tiboran «Oliya», «Muhammadiya»ga o'xshash tatar qardoshlarimiz madrasalariga hech to'xtovsiz o'qurga shogirdlar yuborsunlar. Onlar tayyorlanuvi bir qancha vaqt tavaqquf etgonlikdin ungacha bizlar Ichki Rusiyadin muallimlari olduraylik. Inshoolloh, bunga hukumatimiz ham yaxshi qarasa kerak va ruxsat ham berur deb o'ylarman, chunki bo'lib o'tgan voqealar hukumatimiz uchun ham ko'ngilsiz ishlardindur. Ey qardoshlarim, yoshlarning baxtlik yashamoqlari bizlarning ijtihodimizga bog'lidur. Agarda yoshlar tarbiyatsiz o'ssalar, bir kun bular siz bilan bizni duoibad qilurlar, nafrat etarlar. Agarda bizlar yoshlikdin yaxshi tarbiyat qilsak, dunyoda rohat yashab, boshqalar kabi dunyodin bearmon ketarlar. Agarda bizlar uxlab yotsak, millatimizning bog'i hayotiga pechaklar o'tquzub, umid gullarin qurutarmiz. Bizlarga dunyoda na kerak: o'qimoq, dunyo maishatidin bahralanmak, Yovrupa maktablarinda tarbiya ko'rmak. Yetar bizlarga ulog' chopmoq, bachcha o'ynamoq, to'y to'ylamoq. O'rnak bo'lsin bizga Yevropa maktablari, saboq bo'lsun.

To'lagan Xo'jamyorov. Tavallo

QAYG'IRUVCHI BORMI?

Eski maktab domlalarining kovushlari to'g'rilangandan beri unda o'qig'uvchi bolalar tuxum qiladurg'on tovuqg'a o'xshab qaqag'lab har tomong'a yugurib yuradurlar.

Uyga kirsa, onalari haydaydur, maktabga borsa, domlalari... Hukumat maktablariga vaqt o'tgan, so'ng borib, «joy yo'q!» deyilgan javobni olgach, ko'chalarda oshiq, qimor o'ynab yurish to'garagiga a'zo bo'lib, ikki oyoqlik shoxsiz ho'kizcha bo'lib yuradurlar. Bularni biror tartibli o'quv yurtlariga bog'lash chorasi yo'qmi ekan?

«Muxbircha»

ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR. MUNOZARA. MAKTUBLAR

ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR

MATBUOTI USMONIYA

(Ilovayi Tarjimon, 17-sentabr 1895, №35, 110 – 111-betlar)

O'n besh, yigirma yildan beri Usmoniylar davlatida turli tillarda va xususan turk tilida juda ko'plab ilmiy va adabiy kitoblar nashr qilindi. Bu hol Usmoniylarning adabiyot va ma'rifatni yoyishda g'oyat ilgarilab borayotganliklarini ko'rsatadi. Bugungi kunda usmonli turkchasida turli fan va ilmlarga oid kitoblar bilan bir qatorda Yevropaning mashhur adiblari Shekspir, Gyote, La Fonten, Shiller, Bayron, Gyugo va boshqalarning ayrim asarlari ham tarjima qilinmoqda. Yozuvchilarning aksariyati Usmoniylarga tanish. Bizning Griboyedovning «Aqllilik balosi», Pushkin, Lermontov va graf Tolstoylar asarlaridan namunalar turkchaga o'girilmoqda.

Milliy zaminga asoslangan ko'plab ilmiy va adabiy asarlar yuzaga kelib, ular orasida jiddiy ilmiy kitoblar, hikoyalar

va majmualar bor. Ayni paytda, bunday ilgarilash bilan birga ba'zi bir nuqsonlarga yo'l qo'yilayotganini ham inkor etib bo'lmaydi... Dunyo o'zi shunday: na taraqqiyotning oxiriga yetib bo'ladi, na nuqsonlarni yo'q etib. Bugungi ilgarilash ertaga yangisini talab qiladi, to'xtamoq yo'q. Zamon har kun olg'a siljishga undaydi. Taraqqiyot to'xtamaganidek, nuqsonimiz ham ado bo'lmaydi!

Usmonlilar adabiyoti olamida uning taraqqiyotiga bir qadar to'sqinlik qilayotgan hol bor. U ham bo'lsa shu qadar rivojlangan bir adabiyotning mezonsiz kelishidir. Usmonlilarda haligacha «tanqid», «tanqidoti adabiya»[72] vujudga kelgani yo'q. Holbuki, tanqid adabiyotning mezonidir. Mezonsiz bozor tanqidsiz adabiyot misoli rivoj topmas.

Adabiyoti jadidaning shakllanish davrida chop etilgan har bir asarning «targ'ib va tashviq»i uchun besh ofarin ila o'nta fikr aytish joiz bo'lsa-da, adabiyot va nashriyot bir qadar yo'lga tushib olganidan so'ng tanqid o'zini ko'rsatib, tegishli o'rnini egallamog'i lozim. Chit bozoriga arshin, nonga okka[73] ne qadar zarur bo'lsa, adabiyotning o'lchovi bo'lgan tanqid ulardan ham ziyoda lozimdir. Adabiyot ma'naviy ozuqamizdirki, moddiy ozuqamizdan ham qadrliroqdir. Duch kelgan kiyimni kiymaymiz, to'g'ri kelgan ovqatni yemaymiz-u, qo'lga tushgan har qanday kitobni o'qiyveramizmi? Movut-u chitlarni saralab, asl-noaslga ajratish zarur ish-u, olinadigan va o'qiladigan asarlarni va ilmiy kitoblarni mezonga solib, qanday saviyada yozilganligini bilish nozarurmi?

[72] Adabiy tanqidchilik

[73] 1,283 Kilogrammga teng og'irlik o'lchovi birligi

Bularning mohiyat va darajalarini tayin qiladigan narsa «betarafona tanqid»dir. Lekin butun musulmon dunyosida «hajv» va «madhiya» mo'tabar bo'lib, «tanqid» kalimasi tillarda ham, lug'atlarda ham uchramaydi. Tanqidning maqomi oliyasiga arslon iniga kirib olgan tulkiga qaragandek qaraydilar. Bu hol Mag'ribzamindan[74] to Java[75] orollariga qadar hukm surmoqda. Shunga qaramay, bir kun kelib arslon uyasining topilishiga, tanqid o'z maqomini egallashiga shubha yo'q.

Tanqid lozim, ammo tanqidchi qanday bo'lmog'i lozim? Bu ish jingirtob tandirga ko'krakkacha bosh tiqib non yopmoqdan ham, kema ko'mirchiligidan ham og'irroqdir. Lekin yarim madaniy Fasda[76] yoki Afg'onistonda toqat qilinmaydigan «tanqid» madaniy millatlardan bo'lgan Usmonli jamiyatida toqat qilishgina emas, qabul etiladigan darajaga ko'tarildi... Adabiyot bu qadar ilgarilab ketdi, har yili qanchadan qancha tarjimalar, original asarlar ta'lif qilinmoqda. Bular qanday asarlar? Bir-birlaridan farqi va saviyalari qay darajada? Barchasi ham foydalimi? Ba'zilari qora siyoh bilan bo'yalgan qog'ozdan iborat emasmi? Roman bosildi, komediya sahnalashtirildi, muallif nima demoqchi? Maqsadi nima? Idorayi siyosat, murosa-madora va boshqa-boshqa xususdagi muhokamayi umumiyaga arz qilayotgan maslagi nimadan iborat?

Bular borasida bahs yuritib, ularni tayin va bayon qiladigan tanqiddir, tanqidchidir. Takror aytaman, juda ham mashaqqatli ishdir, lekin zarur ishdir. Adabiy javharni qobig'idan ajratib beradigan tanqiddir.

---

[74] Marokash ko'zda tutiladi.

[75] Yava

[76] Marokash

Izzatbey (boringki, boshqa biri bo'lsin), masalan, geografiya kitobi yozdi. Mulla Husayn – ilmi hol. Sulaymon afandi «Yangi usul alifbosi»ni chop etdi, birodarim Ali Og'a milliy roman yozdi, falonchi birodar drama... Bularning har biriga «Ofarin»-u maqtov aytish bilan kifoyalanilsa, kitob bozori yaqin orada bo'yoq chaplangan qog'ozlar uyumidan xalos bo'la olmaydi, adabiyot esa maqsad va matlabdan chetlashib, ilgari bosmaydi, yozilgan narsalar bo'yalgan qog'oz sifatida bosmadan chiqa boshlaydi.

Bugun biror kitob olmoqchi bo'lsangiz, sarlavhasiga emas, ichidagisiga sinchiklab qaramog'ingiz lozim bo'ladiki, bu tanqidning o'z o'rnini egallamaganidandir. Chunki kitobning nomi ila ichidagining orasida Bolqon tog'lari bordir.

Bugun qanchadan qancha romanlar, dramalar tarjima qilinib, nashrdan chiqarilmoqda, o'qilmoqda va sahnada qo'yilmoqda... Bular haqida mutaxassislar fikr bildirishlari kerak. Aks holda, na ikki askarning qahramonligidan, na Margaritaning holidan, na Julettaning boshiga kelganlardan, na musyo Barbening iztiroblaridan, o'ylaymanki, bizning Husayn va Oyshalar biror ma'nilik narsa ola olmaydilar.

Usmoniylar adabiyotining eng zaif jihati bu milliy roman va pyesalaridir. Marhum Kamolbeyning[77] «Jazmi»si bilan Mehmet Muratbeyning (asl matnda Ahmad Murod deb berilgan, tuzatildi... asarining to'la nomi «Turfondami yo'qsa Turfami?»dir – noshir prof. Yavuz Akpinar izohi) «Turfondami» nomli asarini hisobga olmaganda, milliy

[77] Nomiq Kamol (1840 – 1888)

roman yo‘q darajada. Holbuki, Usmoniylar hayoti va tarixi roman, drama, fojia xazinasidir. Bu xazinadan istifoda qilayotganlarni bugungi kunda ko‘rmayapman, balki, ko‘rmayotgandirman.

Bugun usmonli adabiyoti «tanqidsiz» ketayotganligi yetmaganiday, donishmandona «sukut» saqlab ham tura olmayapti. Adabiy udumlari, an’analari, muharrirlariga hayron qolasan. «Falon poshazoda falon bey afandi falon risolasini yozib, matbuot dunyosiga yoki maorif olamiga yoki bo‘lmasam bani basharga buncha xizmat qildilar, risolalari (yoki romanlari) juda ham foydalidir. Har kimsa undan bir nusxa olib o‘qimog‘i lozim» kabi «taqdimotlar» barcha gazetalarning sahifalarini to‘ldirmoqda. Holbuki, taqdim etilgan «asar» bir chaqaga ham arzimaydi! Bunday hollar odat tusiga kirib, nazokati mahalliya hukmini olgan.

Voqean, bir beyning yozgan bir asari haqida boshqa bir bey afandi tanqidiy fikr bildirib, kuzatgan beo‘xshov o‘rinlarini, yanglish joylarini aytgudek bo‘lsa, ulfatchilikdan ham, maslakdoshlikdan ham nishon qolmaydi, har qanday do‘stlik shiddatli po‘rtana dolg‘alarida g‘arq bo‘lib ketadi.

Tanqid nuqsonni aytish, aytib berishdangina iborat emas, balki ma’lum bir asarning qay darajada foydali ekanligini ko‘rsatib bermoq, isbot etmoqdir. Bunday ish esa qilinmayapti. Ahmad Midhat, Abuziyo Tavfiqbey, Shamsiddin Somibey, Mehmet Murodbey va boshqa afandilarning qalamlariga mansub asarlaridan, ularning maslaklaridan istanbulliklarning yuzdan nechasining xabari bor? Bularning yirik-yirik asarlari haqida atroflicha mulohazalar ko‘rinmayapti. «Salon ko‘ngilochari» matbuot olamiga zeb

berdi. Foydali ish. Oltmish pul, ko'prik boshida... tegishli iboralar sirasida «Qomus ul-a'lam»ning[78] ...chi juz'i nashr qilindi; bu bilan ...chi jildi to'la bo'ladi... iborasi berilmoqdaki, bilmaganlar «Salon ko'ngilochari» bilan «Qomus ul-a'lam»ni farqlashdan ojiz qolaveradi. Har kimda ham tanqidiy iste'dod bo'lavermaydi. Shunga ko'ra bundaylarga tanqidot[79] ila yo'l ko'rsatish kerak. Yo'qsa, bilmagan odam adabiyot bog'chasi deb moyli bo'yoq o'rmoniga kirib qoladi.

Oddiy bir odam, masalan, tarixi umumiyni oladigan bo'lsak, Mehmet Murodbeyning asari bilan boshqalariniki miqyosini bilmog'i lozim. «Jazmi» bilan boshqa bir «milliy» romanninggina emas, ularning lisoniy afkor va maslakiy tafovutini ham anglamog'i kerak.

Roman nima, hikoya nima – falon romandan maqsad nima; falon tomoshaning ibrati nima – bularni ochadigan, tushuntiradigan tanqiddir.

Insonlarning umum muomalasini tanqid g'alviridan o'tkazib olish odat va usulga aylansa yanada yaxshi bo'ladi. Shunga ko'ra quvvatimiz yetganicha bir-ikki bahs qilamiz.

{2-} tanqid
(Ilovayi Tarjimon, 1895-yil 8-oktabr, №38, 38-bet)

Besh-o'n yildan beri Istanbulda nashr qilinayotgan adabiy kitoblarning hamon bir qismi tarjima romanlardan iboratdir. Bularning ta'sir, xizmat doirasi va adabiy mohiyati nimadan iborat?

---

[78] Shamsiddin Somibekning asari

[79] Muallif «tanqid»ning «saralamoq» degan lug'aviy ma'nosini ham ko'zda tutmoqda.

Mana shuni bir mulohaza qilib ko'raylik. Roman, xususan, «tarjima» qilinadigan roman shunchaki vaqt o'tkazmoq, ko'ngil ochmoq uchun bo'lishi kerak emas. Tarjima qilinadigan har bir roman o'quvchining tanviri afkoriga yoki tarbiyayi hissiyotiga va yoki tavsi'i ma'lumotiga xizmat etsin. Shunga ko'ra adabiyotdagi romanni 3 katta qismga ajratamiz. Birinchisi «afkoriy roman»lar bo'lib, maishat va munosabati insoniyadagi juda go'zal suratlarni bayon va tasvir etadi. Ikkinchisi «ruhoniy roman»lar bo'lib, insonlarning ahvoli ruhiyasi va hissiyotlari kashfi hamda bayoniga xizmat qiladi. Uchinchisi «ilmiy» yoki «tarixiy» romanlar bo'lib, o'quvchiga qiziqarli bir suratda voqeoti tarixiyadan yoki haqiqat va tasavvuroti ilmiyadan xabar berib, tavsi'i ma'lumotiga[80] xizmat qiladi. Mazkur uch qism tashqarisida yozilgan romanlar ham bo'ladi. Ularni «roman» deb aytish ko'p ham o'rinli bo'lmaydi. Faloncha Jozefinaning falon Alfred bilan bo'lgan muoshaqasini yoki bizning Fatmalardan birining Sulaymonlardan biriga hijob ortidan oshiqona boqishlari, oh-vohlarini hikoya qilish roman yozish emas.

Romanchi go'zal va o'tkir qalam sohibi bo'lishidan tashqari yozadigan romaniga ko'ra yo fikrlar bulog'i, yo ahvoli ruh ahlidan yoki ilm-fan asoslarini sodda, barchaga tushunarli qilib bermoqqa mohir bo'lmog'i kerak. Shu bilan birga, oz ko'rib, ko'p anglamoq, ko'rgan har bir narsasi va xayoliga kelgan fikrini rassom singari, lekin moybo'yoq va cho'tkasiz, yolg'iz til va yozuv ila aniq-tiniq tasvir eta bilmoq iste'dodiga ega bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham Tekkerey[81],

[80] Ma'lumotning kengayishi

[81] Vilyam Tekkerey (1811 – 1863) – ingliz yozuvchisi

Viktor Gyugo[82], Shpilgagen[83], graf Tolstoy[84], Filamaryon, Jyul Vern[85] kabi romanchilarga taqlid qilganlar «romanchi» bo'lmasdan, go'zal yozsalar-da, «hikoyachi» poyasinda qolmoqdalar.

Buyuk romanchilarning romanlari turli tillarga tarjima qilinadi, ya'ni ularning yozganlaridan aqvomi muxtalifa[86] istifoda qiladi. Ular bildirgan fikrlardan, kashf qilgan hissiyot va ochib bergan haqiqatlaridan har taraf insonlari hissa va ibrat ola biladilar; chunki ularning yo afkorlari shu qadar porloq va keng qamrovli yoki hissiyotlari va chizgilari shu qadar teran va umumiydirki, turli-tuman odatlar va yashash tarzlariga ko'ra bir-birlaridan uzoqlashib ketgan insonlarning qalblari go'shasida yashirinib qolgan umuminsoniy vijdoni va hissiyotiga qalam va nufuz bera oladilar. Gyugoning «Safillar»ida bo'lgan shaxslar Onado'lida bo'lmaydi, lekin ularday azob chekuvchi va shodlanuvchi kishilar bu yerda ham topiladi.

Mashhur adiblarning yozgan romanlari tarjimasiga va mutolaasiga e'tibor va munosabat bildirmoq darkor. Lekin ajnabiy nomdagi romanlarning tarjimasiga ehtiyoj ko'rmayapman. Pol de Kok, Gaburyo[87] va hatto Emil Zolya[88], Pol Burje[89] kabi romanchilarni turklarga taqdim etishdan biror manfaat bormikin? Bular orqali Ovruponi, g'arb turmushining hozirgi madaniyatini, yuksak fikrlarni o'qisalar

[82] Viktor Gyugo (1802 – 1885) – fransuz yozuvchisi
[83] Fridrix Shpilgagen (1829 – 1911) – nemis yozuvchisi
[84] Lev Nikolayevich Tolstoy (1828 – 1910) – rus yozuvchisi
[85] Jyul Vern (1828 – 1905) – fransuz yozuvchisi
[86] Aqvomi muxtalifa – xilma-xil qavmlar, millatlar
[87] Emil Gaborio (1832 – 1873) – fransuz yozuvchisi
[88] Emil Zolya (1841 – 1902) – fransuz yozuvchisi
[89] Pol Burje (1852 – 1935) – fransuz yozuvchisi

ham, uqmaslar. Bularni o'qib zavqlansalar-da, ularga nisbatan quyiroqda turadigan «milliy hikoyalar»ni o'qitmoq ming bora afzaldir.

{3-} tanqid
(Ilovayi Tarjimon, 1895-yil 22-oktabr, №40, 42-bet)

Avvalgi bahsimizda ajnabiy romanlarni o'qish ahamiyatli bir foyda bermasligi haqida gapirgan edik. Bu fikrimiz taassubona tus olib, qoidaga aylanmasin. Mir Alisher Navoiy, Fuzuliy, Hofiz va Sa'diy kabi adiblarimiz biz uchun naqadar mo'tabar bo'lsalar, G'arbning Shekspiri, Gyugosi, Shilleri, Pushkini ham nazdimizda shu qadar mo'tabardir. Mashhur adiblarning umuminsoniyat olamiga rahbar maqomida ekanliklarini inkor etmayman. Shunga qaramay, hech bir tanlamasdan haliginday roman tarjimalarining yomg'ir kabi yog'dirilishiga biror-bir sabab ko'rmayman.

Ajnabiy romanlarning o'ndan sakkizi xamirturushlaridan birini ko'rib chiqaylik:

Musyo Sharl badavlat va tarbiyali bir tujjor yoki sarrof yoki mulkdor. Ikki marta uylangan. Ikkinchisi – 18 yoshli Julyetta. Bu qiz yo maktabda, yo cherkovda nozik tarbiya ko'rgan. Barcha anbiyo-yu avliyo, Muhiti Kabir[90] orollari nomlarini besh qo'lday biladi. Lekin turmush va oila uchun lozim ma'lumotlardan bebahra. Pianino chaladi, qo'shiq aytadi, lekin «sut»dan «suv»ni farqlolmaydi. Ballarda urchuqday aylana oladi, ammo qo'liga kapgir ushlab, qozon va o'choq boshida biror ish qila olmaydi. Amakisi bilan xola-

[90] Tinch okeani

si «musyo Sharl unday, musyo Sharl bunday, puli ko'p, yaxshi odam, shunga tegishing kerak, baxtli bo'lasan» deyaverishib holi-joniga qo'yishmagach, bo'lajak erining huzuriga o'zi borib, muhabbat izhor qilgan. Voqea bir-ikki oy mana shunday tortma-uzma, ya'ni o'zaro muhabbat yoxud muhabbatga intilishdek mujmal bir hol bilan davom etadi.

Julyetta shu vaqt mobaynida ancha narsa o'rganadi. Musyo Sharlning ham jisman, ham ruhan nimaga qodirligini, uning yaqin do'sti va hamxonasi musyo Ferdinandning naqadar eridan ustunligini ko'radi va ishonch hosil qiladi. Musyo Ferdinandning 30 yoshda, ayni kamolot yoshida ekanligi Julyettaga, tabiiyki, o'z ta'sirini ko'rsatib, boshida ba'zi fikrlar aylanishiga va qalbida ayrim hissiyotlar uyg'onishiga sabab bo'ladi.

«Mening Sharlim musyo Ferdinand kabi bo'lsaydi, ancha yaxshi bo'lardi. Sharl yomon odam emas, ammo Ferdinand undan ham yaxshiroq ko'rinadi. Sharl meni sevadi, lekin Ferdinandning muhabbati yanada kuchli, yanada otashinroq bo'lsa kerak...» degan bir qarashda beozorday tuyulgan fikrlar asta-sekin kuchayib, Julyettaning matonati qalbiyasi sinishiga olib keladi.

Musyo Ferdinand esa do'sti Sharlning yosh xotinga ko'p ham munosib emasligini fikr qiladi, go'zal va jilvakor Julyetta bilan so'zlashmoq, ko'rishmoqdan lazzatlanadi. Keladi-ketadi. Boshda musyo Sharl uydaligi vaqtida kelardi. So'ng esa musyo Sharl yo'q bo'lsa, suhbatlari yanada lazzatli bo'lishini bilib, xos va yolg'iz uchrashuvlarni orzu qiladi. Bu orzu Julyettaninng kayfiyatiga ham muvofiq keladi. Shu taxlitda voqealar davom etaveradi. Musyo Ferdinand bilan

Julyetta o'rtasida muhabbat yoxud muhabbatga o'xshagan bir his paydo bo'ladi... Shundan boshlab Julyetta bir turli, musyo Sharl ikkinchi turli va musyo Ferdinand uchinchi turli qalb maraziga duchor bo'ladilar. Birining hissiyoti qalbiyasida sadoqat, boshqasinikida shubha, Ferdinandning qalbida esa do'stiga qarshi nafrat uyg'ona boshlaydi. Har uchalasi ham qattiq iztirob chekadilar. Nafs va istaklari tobora namoyon bo'lib boradi. Lekin bir-birlaridan hollarini berkitadilar, yuraklaridagini bildirmaydilar. Ammo tog'dan quyiga shiddat bilan tushayotgan suvning yo'lini to'smoq g'oyat qiyin bo'lganidek, hissiyotlarini boshqarolmay qoladilar. Julyetta Ferdinandga taslim bo'ladi. Biroz vaqtgacha musyo Sharl ishning bu darajaga borganidan xabari bo'lmaydi. Julyettaginam menga sadoqatli deb o'ylaydi. Unga bo'lgan muhabbat va ishonchini saqlaydi. Iltifot va hurmatini yanada oshiradi. Yoqishga harakat qiladi. 55 yoshda o'zini 30 yoshday tutadi.

(davomi bor)

{4-} tanqid

(Tarjimon, 1895-yil 29-oktabr, №41, 44-bet)

Bir qancha vaqt shu zaylda kechadi. Nihoyat, barcha narsa ayon bo'ladi. Bechora er xonasiga qamalib olib, o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Nima qilishini bilmaydi... Voqeani oshkor etsa, sevgilisi Julyettani masxara va badbaxt qilmog'i kerak. U esa sevadi... Shu sabab sukut qilishga qaror berib, hammasini vaqtga havola etadi: bir kun Julyetta xatosini tushunadi, er qadrini anglaydi, Ferdinandni tark eta-

bundan bo'yla bir necha muvoxazalar[129] yozmish edik. Bu sana g'azetalarimizing usul va uslubi tahririyasinda shu qadar taraqqiy vorki, matbuoti milliyamiz ma'mul o'lmayan darajada tavhidi til va lisoni adabiya yo'linda sur'at ila harakat ediyur.

Kechan sana «muvoxaza» kabi yozdiqlarimiz shaylar xayrixohona yozuvlar o'ldig'ina qanoat hosil o'lmishdir umidi ila tasalli topiyuruz.

«Lisoni adabiyadan mahrum millat dagildir» hikmatina binoan «Tarjimon»ning yigirma besh sanadan beri cholishdig'i bu moddadir! Bir moddadir, lekin moddalaring asosiy negiz moddasidir.

«Ittifoq», «ilm», «maorif», «taraqqiy», «adabiyot», «muxtoriyat» na go'zal shiordir. Lekin har qaysi uchun eng ibtido va eng ziyoda lozim o'lan «lisoni adabiya»dir.

Mutavaffiy[130] Ilminskiyning[131] sobiq rahbon[132] vaziri Po'badano'schefa[133] yozdig'i xususiy maktublarining birinda: «Qrim millatchisi Sibiriya icharilarina qadar temur zanjir uzatub, muxtalif[134] jins va sheva o'lan aqvomi[135] birlashtirmaya va jumlasi uchun usmonli shevasina qariyb[136] bir sheva qabul etdirmaya cholishdig'i ilaruda Rusiya davlatini mukaddar[137] va mutazarrir[138] edajakdir», – dedigi,

---

[129] Surishtirish

[130] Marhum

[131] Mashhur missioner, sharqshunos N.I.Ilminskiy (1822 – 1891)

[132] Rahbar ma'nosida

[133] K.P.Pobedonossev (1827 – 1907). 1880 – 1905-yillarda Sinodning ober-prokurori bo'lgan edi

[134] Har xil

[135] Qavmlar

[136] Yaqin

[137] Ko'ngilni xira qilmoq

[138] Zarar yetkazuvchi

bir nazardan, mubolag'a va taassub esa, digar nazardan, ishing, ya'ni umumiy lisonning ahamiyatini go'stармakdadir.

Cho'q baxtiyorizki, aksar muharrir rafiqlarimiz umumiy lison ahamiyatini baltajriba anglayub, bu yo'lda qadar alhol xidmat etmakdalar.

Matbuotimizing go'zal bir holi daha ikki, ba'zan uch o'lan rafiqimizdan moadasi «maslaki milliya» doirasinda cholishdiqlaridir. Maslaki milliyadan chiqqanlaring va opoq qadet o'lanlaring milliyat doirasina kirdiklari bu go'zallikka bir ilovadir.

«Qadet» dedigim uchun qadetligi tahqir zan edilmasun. Faqat milliyati har shaydan daha a'lo ko'rdikim uchun «go'zalligi» ilovaya majbur qoliyuram.

Majmualarimiz orasinda nafosati tab' ila «Tarbiyayi atfol»[139] birinchi mavqe' qozonmishdir. Lisoni adabiyasi ila «Fuyuzot»[140] eng ilarudadir.

«Ad-din val-adab»ing[141] masoili shar'iya[142] bahslari shoyoni diqqatdir. «Al-asr-l jadid»[143] o'ldiqcha go'zal tartib o'liniyur va boxusus shoir To'qayev[144] janoblarining nafis satrlari ila ziynatlanur. «Dabiston[145] va rahbar» majmuasi usuli tadrisa jiddiy xidmat etmakdadir.

Bizim «Olami nisvon»[146] daha lozimicha maydon olamayur. Xotin-qizlaring lison oshno o'lmadiqlari isha buyuk

---

[139] «Bolalar tarbiyasi» degani, 1907-yilda Moskvada chiqqan jurnal
[140] 1906 – 1907-yillarda Bakuda chiqqan jurnal, ma'nosi: fayzlar
[141] Qozonda 1906 – 1917-yillarda chiqqan jurnal
[142] Shariat masalalari
[143] 1906 – 1907-yillarda Uralskda chiqqan jurnal
[144] Mashhur Abdulla To'qay (1886 – 1913)
[145] O'qish joyi
[146] Ayollar olami, 1906-yilda Gasprinskiy chiqargan jurnal

og'irlik vermakdadir. Bu jihatdan, «Olami nisvon» «Tarjimon»ing kechirdigi mushkulot ila o'g'rashmoqdadir.

Hajviyota doir o'lan to'rt majmuamiz orasinda «Mullo Nasriddin»[147] birinchilikda davom ediyur. Har nusxasi kamoli lazzat ila o'qulub, rasmlarindan bir cho'q ibrat olinmaqdadur. Bu kabi nashriyot va rasmlaring og'ir ko'rilajagi tabiiydur. Lekin daha cho'q zamon kechmaz, «Mulla Nasriddin»ning qadr-u qimmati ma'lum o'lur.

Dushman kulgusi og'irdir. «Mulla Nasriddin» dushman dagil, milliy do'st va xojadir[148]. Buning kulgusina tahammul[149] lozimdir, chunki sharr[150] uchun dagil, xayr uchun kulmakdadir.

«Cho'kich»[151], «Qarchig'a»[152], «O'qlar»[153] hajviyoti «Mullo Nasriddin»a ko'ra pek qabo[154], pek soddadir. Rasmlari esa hech qiyos qabul etmaz. Musoada buyursalar, bu rafiqlarimiza deyajagimiz bir so'z «nazokat va yana nazokat»dir.

Nazokat har shayda lozimdir, qalam va adabiyotda boxusus. Hajv va tanqid adabiyoting buyuk va mufid[155] boylaridir. Lekin muvoxiz[156] va muntaqid[157] pek diqqat etmalidirki, so'zi va darsi g'iybata o'xshamasin.

Matbuotimizcha taassuf o'linur bir hol-da vordir: bu Toshkanda zuhur etmish «Taraqqiy» va «Xurshid» rafiqlari-

---

[147] 1906-yildan Bokuda Jalil Mamadqulizoda chiqargan jurnal
[148] Muallim
[149] Sabr-toqat
[150] Yomonlik
[151] 1906 – 1910-yillarda Orenburgda chiqqan jurnal.
[152] Orenburg (1906)
[153] Uralsk (1906)
[154] Qo'pol
[155] Foydali
[156] Oluvchi, qabul qiluvchi
[157] Tanqid qiluvchi

mizing bog'landiqidir. Oziyoyi Vasata[158] uchun rasmiy «Turkiston gazeti» kofiy dagildir.[159]

RUH YOXUD AVOMCHA

Men «Ruh», ya'ni jon degan narsa bo'lub, o'zumni «Taraqqiy» g'azetasin o'qug'uchilarig'a ma'lum qilurman. Har badanni o'zig'a mutaalliq harakat qildurg'uchi jon borlig'i har kimg'a ma'lumdur. Alloh taolo hazrati har badan uchun bir jon xalq qilg'oni kabi, mani ham bir imomni badanig'a maxsus yaratub, manga andin joy berdi. Man doim shul badanni tarbiyat qilurman. Bu badan esa yumurtqa qadar boshini tegirman toshi qadar sallani ichig'a tiqub bor fikr va xayolin millatni aldamoq, zamong'a muvofiq harakatdan g'ofil qilmoqda shul qadar mohirdurki, shaytong'a dars etur. Mani zarifim bo'lg'on bu badanni millatni ag'foli uchun qilg'on harakatlarig'a vijdon va insof ila boqg'on kishilarni shoshmay choralari yo'qdur. Shuylaki har vaqt qilg'on hiyla va dasisalari din xususida o'lub, o'zi shariat na ekanin bilmay turub avomunnosg'a shariat muni buyurur, muni buyurmas der. Ammo o'zi shariat buyurmagan amallarni qilib, shariat buyurganini qilmas. Hatto namozni ham qavmlaridan uyalg'onidin o'qur. Agar ishonmak va ishonturmak mumkin o'lsa, Alloh taolo manga munday dedi, unday dedi deb ham aldar edi. Lekin bul so'zlar yolg'uz majnun va lobeaqllarni aldaydurg'on bir so'z o'ldig'i-chun ayturg'a jasorat qilolmas. Shundog' bo'lsa

[158] O'rta Osiyo
[159] Kifoya emas

ham, aldov tuzoqlarini qaysi birig'a qursa, baxtlik baliq-chining tuzog'i kabi hech quruq qolmas. Millatni aldamoq bobida qurg'on plonlarining muqaddimalari natijalarini shartig'a jam o'lub chunon betartib qurmishdirki, agar bilfarz shul plonlar dunyo yaratilg'ondan beri bo'lg'on muhorabalarni eng birinchisi o'lg'on Yopuniya muhorabasida (amirlashkar) bo'lg'on Kuropatkin janoblarida o'lsa edi, shaksiz, yopunlarg'a g'alaba qilib, buni samarasi o'lmoq uzra yuz ming so'mdan ziyoda oladurg'on vazifasi o'n sakiz ming so'mg'a tushub qolmay, ikki yuz ming so'mg'a, balki, milyun sumg'a bolig' o'lur edi. Man shundog' jonmanki, o'zumg'a taraf bo'lg'on badanimni yaxshi tarbiyatim soyasida tamom sevurturdim. Agar Ibrohim alayhissalomg'a imtihon zibh etmakg'a buyurulg'on aziz farzandlari Ismoil alayhissalom haqiqata zibh qilunub, umum insonlar uchun o'g'lini qurbon qilmak vojib bo'lub qolsa edi, mani badanimni otasi kabi semiz va maqbul qurbonlik qilg'on hech kim topilmas edi. Yolg'uz semirtirib ham qo'ymadim. Zotan, man kabi to'g'ri plonlik, baxtlik, tuzog'lik bir jon sohibi o'lg'on 2 nafar tanho semizlik kifoya qilmasdin, karmonda oqcha lozim va zarur o'ldig'idin bu bobda ham ko'b xizmat etdim. Hovli, uy, joylarni ham kamayturub berdim. Yana mani sohibimni mandan bu ikki xizmat birinchi matlubi o'ldig'i-chun man ham bu ikki xizmatni orasida necha xil qabih vasilalarg'a tavsil qilub dovushi ila butun jahonni titratadurg'on arslon kabi sabot va davom qilurman. Man shundog' jonmanki, sohibimni semirmagi va karmonin to'la o'lmog'i uchun deganicha eng so'ng darajada qabih va mag'mum o'lg'on vasilalarni ham o'zumg'a ortkab qilur-

man. Ikki xizmatni birinchisi shulki, mahalla ahlini bir-birlari ila do'st va ittifoq bo'lmoqlarin aslo xohlamasman. Bil'aks, mahalla ahlini bir-birig'a dushman qilmak uchun qanday bo'lsa, man ul yo'lg'a kiraman. Zotan, mahalla ahli orasig'a urush solmoqdin suygulik dunyoda hech bir ishim yo'q. Chunki bu ish sohibimni semirmakg'a va karmanin to'latmakg'a yetushturadurg'on ishlarni eng quvvatlik va natijalikrog'idur. Haqiqata dunyoda eshak kabi johil bo'lub turub olim suratida yashamak uchun butun mahalla aholisini orasig'a urush solmay hech bir imkoni yo'qdur. Agar mahalla ahli bir-birig'a do'st bo'lub, har vaqt ittifoqda tursalar, mehrob va minbarni qo'ldan ketmog'i bulutsiz havodagi oftob kabi ob-ochiq ma'lumdur. Chunki aholi mahallamda oz va ko'b egatlarning ustig'a oftob tushub, afkori milliyalari orifona boshlab, aholimizning bu kabi johil va betarbiya yashamaklarining taftish qila boshladilar. Alloh saqlasun. Agar shul afkori milliyalari uyg'onmish yigitlarimizg'a yana o'zlari kabi yordam beradurg'on besh-o'n nafar kishilar bo'lsa, mani zer-zabar qilmoqlari shubhasizdir. Chunki, to'g'risin aytganda, mahalla ahlining johil va tarbiyatsizligina eng birinchi sabab man bo'lurman. Buni shul fikri uyg'ong'on yigitlar xo'b yaxshi bilurlar. Faqat o'zlari ittifoq yo'qlig'i mazkur yigitlarni mani zararimg'a qilg'on harakatlarig'a yo'l bermay turadur. Binobarin, qavmlarimg'a va'z aytganda hech vaqt milliy va'zlar so'ylamasdan majusiylardan qolg'on yoki yahudiylar to'qug'on yer ko'tarub turgon ho'kuz yo baliq hikoyalarig'ina so'ylayman. Chunki hozirgi zamong'a muvofiq suratda va'z va nasihat so'zlamakni bilmaganimdan emas, bilfarz uyquni ochadurg'on, fikri nur-

landuradurg‘on masala so‘zlaganda ishni oxiri nima o‘lurini o‘zum xo‘b yaxshi bilurman. Shuningdek, eski qori-imomlarini «biz xalqni avomlig‘i orqasidin non yermiz» degan mashhur so‘zlarig‘a xo‘b yaxshi inonaman. Darvoqe’, agar aholi avom va johil o‘lmasa edi, ikki ming so‘mdan ziyoda vardati o‘lg‘on bir imomni millatga foyda ko‘rsatmaganidan boshqa ko‘rsatib turg‘on zararig‘a oz bo‘lsalar ham kayflari buzulub tuslari boshqalanub, xodimi millat va raisi mahalla o‘lmoqg‘a qodir, olim, mutadayyin bir imom qilayluk deb hamalari bir og‘izdan qichqirur edi. Bundan muqaddam «mullo Zulfiqor afandi» mani hiyla va makrlarimdin birginasi haqida juz’iy bir bahs qilg‘on edi. Ko‘rdingiz, aholidan mullo Zulfiqor rost aytadur degan bir kishi o‘ldimu? Yo‘q, ming martaba yo‘q. Mani zararimg‘a so‘zlang‘on so‘zlar aholining manga qarshu harakatg‘a tushurmog‘ni ehtimoli yo‘q. Chunki man imom bo‘lg‘onimdan beri alarni g‘aflat beshigig‘a yotquzub, safsata va jaholat sadolari ila chunon uxlatdimki, alhol aholi jarida va jurnallarda ulum va maorifdan bahs qilg‘onini ko‘rsalar ham, eshitsalar ham, basirat ko‘zi va qabul qulog‘i ila ko‘rmas va eshitmaslar. Demak bo‘lurki, mani bundan necha asrlar muqaddam so‘zlanadurg‘on va’zlarimni ulum va maorif asrida eshitganlari uchun fikr va qalblari uxlag‘on va vijdonlari ko‘r bo‘lg‘onlari uchun, ey qavmim! Ey hurmatlu qarindoshlarim! Siz man taalluq topqon badanni mani ul badang‘a taalluqim e’tibori ila o‘zingizg‘a rais nasab etub, inson qoburg‘asig‘a tosh bog‘lab, mana bul tosh ila qobirg‘adan murakkab bo‘lg‘on narsani inson demak qabilasidan o‘lub, salla va chopondan murakkab o‘lg‘on ulum va maorifdan bebahra bir badang‘a

varasatul anbiyo ismni berdingiz. Ham varasat ul-anbiyo bo'lmoqg'a solih o'lg'on ulamoyi kiromg'a lozimincha ikrom va ta'zimlardan o'zinigizni saqladingiz. Siz bechoralar in'om va ehson qilmakda aslo qusurlik etmadingiz. Faqat sizda bir qusurlikda bor bo'lsa, ul ham in'om va ehsonlaringizni teyishli joylarg'a sarf qilmag'aningizdur. Dunyoda eng yomon narsa bor ersa, ul ham in'om va ehsonni teyishsiz yerg'a sarf qilib teyishlik yerlarg'a sarf qilmaslikdur. Man bu so'zlar, hatto o'zumni fe'llarimni ham sizg'a na uchun so'zlarman, tushunasizmu? Tushunmak kerakki, biz, ya'ni arvoh olami shundog' bir olamdurki, yolg'uz badang'a mutaalliq bo'lg'onlikdan va badan zulmati ila cho'lg'onub va bo'yalub qolg'onlikding'ina yuqorida aytilgan qabohatlarni qilurmiz. Shuylaki, agar bizni badan ila bo'lg'on munosabatimiz munqat' o'lub, har vaqt yaxshilikda bo'lurmiz. Shuning uchun man sizg'a mahvul haqni bayon qilurman. Faqat sizg'a avval shuni so'zlab qo'yamanki, hozirda man o'zumg'a maxsus badandan muvaqqatan o'lsa ham ayrilg'onman. Chunki har olim uchun bir mudabbir bor. Man taalluq topgan badan avvalda imomlik olamida edi. Hozirda eshonlik olamig'a ketdi. Binoan alayh man ayrilib qoldim. Ikkinchi (mudabbir) ikkinchi ruh qo'shilub ketdi. Man bo'lsam hozirda zulmati jismoniyadan muvaqqatin o'lsa ham, ayrilg'onim uchun janob rabb ul-olamiyng'a yuz martaba tashakkurda o'lub, badanda vaqtimda qilg'on qusur va xatolarimg'a emdi iqror qilurman. Faqat bunga iktifo qilmasdin sizg'a mahvul haqni so'zlarman. Ey qavmim? Mullo Zulfiqor afandini mani haqimda yozg'on so'zlari uchun hech xafa bo'lmangiz. Mani ul faqat qiroat bilmas

demish. Voqean agar (Mullo Zulfiqor) fani qiroatda mohir bir yigit o'lub, mani qavoidi tajvidiyani rioya qilmasdin Qur'on o'qug'onimni ko'rsa, albatta, qiroatni bilur demas. Noib afandi mani qurrolig'imni[160] bekorg'a da'vo qilmasun. Chunki mani qurrolig'imni bilmak va da'vo qilmak qiroatni durust o'quydurg'on kishini vazifasidur. Ey qavm? Siz ortuq darajada xafa bo'lg'ong'a o'xsharsiz. Durust, man ham badanimg'a yangidin kirsam, sizni bu ishingizg'a ko'b rahmatlar o'qurman. Chunki mundog' xafa bo'lmog'ingiz hamasi tanho mani foydam uchundur. Lekin man badanim ichida bo'lsam, bu foydalar manga bo'lur edi. Ammo hozirda man badanimdan ayrilg'onman. Manga hozirda sizni hech narsangiz kerak emas. Faqat man sizg'a dunyo-oxiratingiz uchun dars saboq bermakchi bo'lurman. Siz shul darsni oling. Fikr va zehn sanduqig'a nihoyatda mahkamlab solungiz. Ey qavmim! Rost so'zum shulki, man badanda vaqtimda sizlarni ortuq g'ofil qildim. Shuyla man sizlarg'a imom bo'lg'onimdin beri sizlarg'a zarardin bo'lak hech yo'l ko'rsatmadim. Sizlarni din va dunyongizg'a yarashadurg'on hech bir masala so'zlamadim. Aziz avlodlaringizg'a din-dunyo ilmini o'rgatmadim. O'qumoq va yozmoq kabi zarur ishlarni lozimincha bildurmadim. Otangiz haqi uchun to'g'ri so'zlangiz, mani bu so'zum yolg'onmu? Hech yolg'on emas. Ma haza sizning foydangizda ko'r o'lg'onim kabi, o'z foydamda ham ko'r o'ldummu? Yo'q, valloh yo'q. O'z foydam uchun chunon harakat qildimki, avvalda miskin va nihoyatda faqir edim. Hozir esa har qaysingizdan boy o'ldim. Bu davlatlar hamasi sizni jaholatingiz soyasida mani

[160] Qori, hofizi Qur'on

qo'lumg'a kirdi. Ammo sizlar har vaqt mani foydam uchun bor-u yo'qingizni sarf qilub, hatto o'zum yo'q vaqtimda ham unutmabsiz. «Mullo Zulfiqor» afandini mani haqimda aytgan so'zlarig'a nihoyatda ranjidingiz. Va eng fano ta'sirlar ila mutaassir o'ldingiz. Lekin (mullo Zulfiqor)ning yozg'on so'zlari no'g'ay, sart imomlari haqida yoziladurg'on so'zlarni muqaddimasig'ina o'lmoq ila barobar hamasi haq va to'g'ridur.

«Ruh»

MAKOTIB

Samarqanddan:

«Siroti mustaqim» hay'ati tahririya va noshiriyasi jonibi alayhisina.

Ba'd az ifo'i ma lazima alayna minat-tahiyati vas-salam ma'ruz zavoti ulu-l-ihtiromiyon o'ylakim asari hamiyati diniya va milliyalari o'lub tarafi ojiziyaya irsol buyurulan «Siroti mustaqim» majallayi sharifasi vosili dast iftixor o'ldi.

Bandalari «Samarqand mutola'axonayi islomiyasi»na vaz' etdim. Qiroatxona a'zolarining benihoyat mamnuniyatlarina bois va matbuoti jadida qori'larina foidabaxsh o'ldi. Hay'ati maorifparvaronalarina bandalari-la barobar arzi tashakkur va ehtirom etmayi vojibotdan add edarlar.

Doru-l-xilofati alayhi «Sonal-l-lohu ta'ala ani-l-baliyyati» ulamoyi zaviya-l-ehtiromiiyndan bu jihat musulmonlarina bu marhamat va otifat, uzmo bir hidoyat va a'lo bir iltifotdir.

Kechan sana kitobchi «Mehron» vasotati-la majallayi g'arrodan Samarqand mutolaaxonasi-chun nisf sanalik obuna o'lub fayziyob o'lmishdik, ammo muassasaning faqr kissasi qat'i obunaya sabab o'lmishdi. Ishta tashna lubboni ilm va fanniyi bu mavhibati a'zamilari sirobi irfon va madyuni shukron etdi.

Samarqand ufajiq taraqqiyparvar jamiyatining mutafarriq a'zolari Rashid afandi hazratlarina lutfan arzi salom etmayi iltifonlarina binoan idorayi muqaddasayi «Siroti mustaqim»dan rijo ediyur. Asari ajzimi muhtavi o'lan olti nusxa rasoili matbu'a va hukumatning jaridayi rasmiyasi o'lan «Turkiston viloyatining gazeti»dan idorayi sharifaya tuhfa niyati-la bu maktub-la barobar po'staya taslim qilindi. Qabul va ko'zdan kechirilsa, kendima sharaf ediyorim. Buraning ahvolina doir ba'zi shaylar yozmog'i ma'a-l-iftixor nafsi ojizi iltizom ediyur.

Yolg'iz qusurot va ta'xirotimizi afu buyurmoqlari marjudir. Boqi: «Siroti mustaqim» hay'ati tahririyasining davom umr va ofiyati va saboti maslakini istid'o va allarini o'pmayi janobi Boriydan tamanno etmak-la xatmi maqola aylaram. Va-s-salamu va-l-akromu avvalan va axiran.

Samarqand doru-l-qazo muftilaridan Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja

Samarqand, g'arroyi Ramazon 1328.

«Siroti mustaqim» – mufti janoblarining lutfan idoramiza hadya buyurdiqlari kutub va jaroid vosil o'ldi. Millatdoshdarina bo'yla nofi' asarlar yozmaya muvaffaq o'ldiqlarindan do'layi, mufti janoblarini tabrik va biza birar nusxasini ihdo aylamalarindan noshida bilxossa tashakkur aylariz.

KITOB HOSHIYASIGA BITILGAN MAKTUB

Afandim nashr va ta'mimig'a himmat etmoqlari-la bandani sarfaroz etmoqlari marjudir. Kitobimi bir ma'xazi (bir burchagi, parchasi) Tarjimon va asarimi muta'addid mahallarina iqror etmisham. Ushbu asari ojizona 455 sahifa, 4 jild, 35 dan ziyoda xarita va ashkoli jo'g'rofiyoiy va hikmatiyni hoviydur. Nisfi jildi avvalisi (ulasi) ushbu. Va oxirida xaritalar ilova o'liniyur. Baqiya 3 jildi Ovrupo, Oziya, Afriqo, Amrika, Afstroliya, Rusiya qismlaridan iboratdur. Inshoolloh, ushbu jildi avvalisi (ulasi) ikki oyg'a maa xaritalari tayyor bo'lsa kerak. Hurufotlar ozligi bandani cho'x zahmat verdi. Har juz'i 4 sahifa bo'lganig'a ham illat shudir. Baqiyasinida tamom bo'lgani ila idorag'a yuborilur. Vassalom. Al-Hoj Mahmudxo'ja.

FELYATUN

I

Kunlar bahor fasli o'ldig'indan daraxtlar uyg'onub yafroqlar orasidan rang-barang gullar chiqarmish, yer olti oydan beri qornida saqlagan o'lanlarni yuzaga chiqarub, ko'm-ko'k bahmal kabi yozmish. Har tarafga qishning zulmidan qochgan qushlar kelub har xil ovozlar ila nag'ma va paryodga boshlamish, go'yo butun olam uyqudan uyg'ongan kabi har birining yuzidan yangi bir (his) tuyg'u va hayot asari ko'runur edi. O'lturgan yerim bir yaqin do'stimning bog'i o'lub, mandan boshqa ikki mehmon ham kelub qoldi. Salomlashub,

hol so'rashub o'lturduk. Do'stim xonasinda yo'q o'ldig'indan biroz kutmakg'a to'g'ri keldi. Kelgan mehmonlarning biri mullogina, ahvoli olamdan xabardor bir kishi ekanligi so'z va qiyofatidan ma'lum edi. Ikkinchisi esa o'qumagan chapan, qiziqroq bir kishi ko'rinurdi. Suhbat orasida so'zdan so'z urunub ketub, tiyotr xususida so'z ochilub ketdi. Bularning munozaralariga biroz quloq solmoq manga lozim bo'ldi.

Chapan: Mullo aka! Man avval kuni tiyotrga borib edim, xo'b yaxshi tamosho bo'ldi. Keyinroq borib qolgan ekanman, orzon bilit topolmay, ikki yarim so'mga bilat olib kirdim. Siz ham borib edingizmi?

Mullo: Man ham borgan edim. O'yunlari ko'b yaxshi chiqdi. Hech bir tiyotr o'ynamagan kishilar qanday bo'lur ekan? Boshqa millatlar nazarida kulgi bo'lub qolmasalar edi deb xavotirda eduk. Juda xursand bo'lduk. Boshqalar qoshida butun musulmonlarni obro'larini olib berdilar. Tiyotr ko'nguldagidek bo'lub o'tdi. Lekin keyini ko'b yomon bo'lub ketdi. Shul tiyotr xususida Toshkand odamlari etmish firqaga bo'lindilar. Ba'zilari «tiyotr harom, tiyotrdan kelgan oqcha ham harom» derlar. Holbuki, tiyotr harom ermas, bid'at. Bid'at bo'lsa ham, «bid'ati hasana», «bid'ati sayyi'a»lardan emas. Tiyotr har bir millatning yomon urf va odatlarini yo'q qilmak uchun chiqarilgan ibratxona, o'zini va ahvolini tuzatmak uchun boqadurgan oyinasidur. O'shal harom degan kishilarning o'zlari madrasa va yo mehmonxonalarda birovni qizdan suluk bolasini ko'zlaridan mo'ldir, mo'ldir yoshlarini oqizub, boshiga kokil solub aylansun, o'rgulsun deb yurgan kishilar. Yoki dallol va yallachilarning o'ynatub, tishlarini oqini ko'rsa-

tub, tanga tishlatub yurgan kishilarga, bilmayman, nima uchun bul ibratxona ma'qul bo'lmabdir.

Chapan: Yo'q, Mullo aka, tiyotr harom bo'lmasa kerak. Mani bir akam hajga borgan edi. Istanbul, Misr, Quddusi Sharif, Qozon, O'rinburg'larni uch-to'rt yil yurub, sayohat qilub keldi. Tiyotr to'g'risida aning birlan ham so'zlashgan edim, ul Qozon, Misr, xususan, Istanbul tiyotrlarini ko'b maqtaydir. O'zing borub ko'zing birla ko'rmaguncha gafurub bergan birla tushunmaysan deydir. Agar harom bo'ladirgan bo'lsa, Qozon, Misr, Istanbul ulamolari nima uchun man' qilmaganlar? Ul yerlardagi ulamolar bizning Toshkand ulamolarini bir cho'qishda qochiradirlar deydir. Uni, muni qo'ying, shul kuni tiyotrdan qancha foyda qolibdir.

Mullo: Sag'alkam bir yarim ming so'm sof foyda qolibdir.

Chapan: O'... Askiyalari ... O'zlari o'n besh kishicha bor edilar. Bir kechada har birlari bir yuz so'mga yaqin tushurubdirlar. Mandek odam bularni har birlarini bir kechada topkan pullarini bir yilda qancha mehnatlar qilub zo'rg'a toparman.

Mullo: Bular o'z nafslarining foydasiga o'ynaganlari yo'q. Millat foydasiga, ya'ni jamiyati xayriyaning foydasiga o'ynaganlar. Tiyotrdan kelgan sof foydani o'zlari bir tiyin olmay hammasini jamiyatga beribdirlar. Avvalgi tamosho, bog'dagi bo'lgan tiyotrni ham, ramazonda mazorda bo'lgan sharq kechasidan kelgan oqchalarning ham jamiyatga bergan edilar.

Chapan: Aytgandek, esimda borida sizdan so'rab qolayin, tamosho bog'indagi tiyotrga ham borgan edim. O'shal kuni ham tamoshoda xalq ko'b edi. Mullolar, boylar ham

bor edilar. Nimaga o'shal tiyotr harom bo'lmay, puli ham halol bo'lub, hech kim lom-lum demasdan o'tub ketdi. Emdi bul tiyotr nimaga durust bo'lmay, puli ham harom bo'lub chiqdi? Munda nima sir bor, bilasizmi?

Mullo: Man sirini yaxshi bilmayman, lekin eshitamanki, ba'zi firqalar bizlarning ota-bobomizdan qolub kelgan odati, to'ylarimizni she'rga solub o'qub hajv qildilar, chilon bonka deb boylarimizni masxara qildilar, bolangni o'qutmasang, qorning yorilub o'larsan deb kulgi qildilar der emishlar.

Chapan: Man bir kun Piyonbozorga chiqub edim. Bir boqqolni do'konida bir necha kishi jam' bo'lub, so'zlashub turubdirlarki, Kur'yer gazetida Qur'oni karimni bir juhud she'r birla hajv qilub yozibdir deb. Mana ul tiyotrda bizni hajv qildi deb ul bechoralarga tish va tirnoqlari birla yopishgan botirlar Qur'oni karimni hajv qilg'on juhudni tegishlik joyda so'ralmoq uchun birgina ariza ham qilub berolmadilar. Munga nima dersiz?

Mullo: Ey birodar, yomonni kuchi yapaloqg'a yetar degan so'z to'g'ridir. Ul juhud, bular o'z musulmonlaridir. Biz musulmonlar har vaqt bir-birimizni chaynashmoqdan boshqa qo'limizdan bir ish kelmaydir.

Chapan: Mullo aka, o'shal kuni yana millat, millat deb bir she'r o'qudilar. Shul so'zga yaxshi tushunmadim, lekin qulog'imga yaxshigina kirdi. Biroz yig'lab ham oldim. Yonimda o'lturgan ba'zi mullo va boylar ham fiqir, fiqir yig'lashub o'lturdilar. Ammo ba'zi shul siz aytkan qaramachilarmi yo tosh yuraklarmi qiqir, qiqir kulishub o'lturdilar. Shunday achchig'im chiqdiki, qo'limdan kelsa, hammasini tiyotrdan chiqorub yuborur erdim.

Mullo: Bizlarning millatimiz islom millati, ruslarniki nasoro millati, juhudlarniki yahudiy millati deb aytilur. Shul kuni bizlar nimaga boshqa millatlardan keyin qolduk, nimaga harakat qulub o'qumaduk, hammaga oyoqosti bo'lduk. Dunyoda yashamoqchi bo'lsak, har xil ilmlarni o'qiyluk, har xil yangi hunarlarni o'rganayluk. Biz ham boshqa millatlar birla barobar ketayluk degan mazmunda she'r o'qug'on edilar.

Chapan: Balli, taqsir.

(bayt):

«Qaromug' donasi bo'lguncha bug'doyni somoni bo'l,
Yamonni yaxshisi bo'lguncha yaxshining yamoni bo'l», –

degan baytni bir mullo o'rtog'im o'rgatub, har vaqt mullolar birla hamsuhbat bo'l, chapanlarga jo'raboshi bo'lganingdan mullolarga oshfazlik qilganing yaxshiroqdir. Chunki mullolardan hikmatlik so'zlar eshitub yaxshi xulqlik kishi bo'lursan. Chapanlardan bachabozlik, ichkulik, qimorbozlik, samovordan samovorga yurub safsatabozlikdan boshqa nimani o'rganursan deb edi. Hozir man sizning oldingizda tavba qildim. Emdi aslo mullolarning suhbatidan ayrilmasman! O'zim musulmon bo'lub turub hozirgacha birgina millat degan so'zga tushunmaydurgon darajada nodon va johil bo'lub yurgan ekanman. Afsus o'tkan umrlarimga. Emdi siz guvoh bo'ling, millat degan joyda jonimni ham ayamasman dedi.

Kun kech bo'ldig'indan boshqa firqalar xususida ma'lumot bermoqni Mullo boshqa bir kunga va'da qildi. Birbirimiz ila xayrlashub bog'dan chiqub ketdik.

Indamas

FELYATUN
(tiyotr xususida munozara)

II

Oxshom soat beshda Mulo va Chapan birodarlarimiz ila topishub, ikkinchi bir o'rtog'imizning bog'iga borduk. Borgan bog'imiz Toshkandning eng havodor, eng yaxshi yerlarindan baland bir tepaning usti o'lub, atrofning manzarasi (ko'rinishi) go'yo boshqa bir olam kabi yoxud «Isvichra» mamlakatining manzarasi kabi ko'rinur edi. Ro'baro'mizda o'n to'rt kechalik oyning bizning majlisimizga elektrik kabi ishiq va ziyo verishi; bir tarafdan tog'larning ustida cho'kub yotkan bam-bayoz qorlarning ikki tarafdagi ko'kmak daraxtlarning orasidan namoyon o'lishi ko'k baxmalga o'ralmish mahbub kabi ko'rinur edi. Bir tarafdan katta bir nahr – yilg'aning suvi oyning shu'lasi ila op-oq sut kabi bo'lub chog'laya-chog'laya oqub kelishi Janobi Haqning qudratlarini isbot etmakda, tabiatning xursand qilmakda edi.

Mullo:

«Ajab ibratnamodir, bu jahonning bog' sahrosi,
To'lan oy sayr etadir-da, it hurardan yo'qtu parvosi», –
deb so'zga kirishub bu baytni o'qudi:
Umring o'tsa xush o'tsun dunyoda ahli dil ila,
Mehnat jondir, vale o'lturma noqobil ila.

O'xshatmay uchratmas deganlaridek, biz bir-birimiz ila xo'b yaxshi topishdik. Tez-tez suhbat qilishub, dillarimizning chigilini yozishub turayluk.

Chapan: Avvalgi majlisda manga tiyotrdan tushgan oqchalarni jamiyatga berurlar deb aytdingiz. Ul qaysi jamiyat? Ruslarning jamiyatimi? Yoki musulmonlarning o'zlari boshqa bir jamiyat ochganlarmi?

Mullo: Voy, bay! ... Hozirgacha bilmas ekansiz. Bu yil besh yil bo'ldi, musulmonlar o'zlariga maxsus jamiyati xayriya ochganlar. Tiyotrdan tushgan oqchalarni shul jamiyatga berurlar.

Chapan: Jamiyat bu oqchalarni olub, qayu yerlarga va nimalarga sarf qiladir?

Mullo: Jamiyat tomonidan ochilgan kambag'alxonaga, beva-bechoralarga, maktab va madrasalarga, muhtoj o'quvchilarga yordam qiladir va shularga o'xshash yerlarga sarf qiladir.

Chapan: Ay ... Durust. Qalandarxonaga yaqin konka yo'lida ochilgan kambag'alxona shul jamiyatnikimi? Bir kun borib ko'rgan edim. Besh-olti ko'r, shol va kambag'allar yotar ekanlar. Har birlariga ala haddihi karovot, joylari ozoda, har hafta kiyimlarini yudirub, o'zlarini hammomga olib borub turar ekanlar. Maxsus bir xidmatchi har kun palovosh qilub berur ekan. Ittifoqo bir kun boshqalarini so'zlari ila xidmatchi so'k oshi qilib bergan ekan. Bir ko'r: «Man so'k oshingni ichmasman! Borib mudirga arz qilurman!» – deb arozlab ketibdur. Xidmatchi borub oni Xadradan zo'rg'a qaytarub olub kelibdur. Munday yaxshilikni ko'rlarga otalari ham qilgan emasdir, taqsir! Bu jamiyatning boshliqlari kimlar?

Mullo: Raisi hurmatlik Boqijonboy Dodajonboy o'g'illari, muovin Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, xazinador

Ilhomjon In'omjon o'g'li, muovin Husaynxo'ja Dodaxo'ja o'g'li, sarkotib Bashirulloxon Asadulloxo'ja o'g'li, muovin Abdusame'qori Hidoyatboy o'g'li. Idora a'zolari: hurmatlik Abdulvali Hoji Abdulmalikboy o'g'li, hurmatlik Tojimuhammad Isomuhammad o'g'li, Munavvarxon Abdurashidxon o'g'li, Nizomiddinqori Mullo Husayn o'g'li, Abdulloxon Asadullaxo'ja o'g'li, Karimqori Ko'chakboy o'g'li, Abdusami'qori Hidoyatboy o'g'li, Karimbek Norbek o'g'li va Mullo Abdulla Avloniylardir. Taftish a'zolari: hurmatlik Koshifxon Eshon Orifxo'ja qozi va Toshhoji Tuyoqboy o'g'lidirlar.

Chapan: Balli, taqsir! Jamiyatni yaxshi bildim. Xudo xohlasa, qo'limga pul tushsa, olti so'm berub man ham a'zo o'lurman. Emdi tiyotrga qarshu boshqa firqalardan ma'lumot bersangiz.

Mullo: Tiyotr xususida ba'zi firqalar sham kabi o'z etlarini o'zlari yeb, kuyub, o'rtanub, ichlaridan qirindi o'tub yurgan emish. O'zlarining kuyub-o'rtanganlari bir siri, tiyotr o'ynovchi bechoralarni ham tinch qo'ymay, qora qo'ng'uz kabi har bir yerda sasub, kurakda turmaydirgan so'zlar ila maktublar yozub, ul bechoralarni yaqin kishilariga maxfiy tarqatub yurgan emishlar. Hozirda bularning qo'llariga ul vijdonsizlarning yozgan xatlaridan yigirmaga yaqin tushkan emish. Ul maktublarni kimlar yozganlig'i, kanvirtlarini qayu yerdan olganlig'i, adrislarini kimlar yozganlig'i sezilub qolubdur. Ammo bular har bir ishni ochiq-oydin va oshkora qilub yurgan kishilar o'ldig'indan bu ishni ham teyishlik jiylarda maydonga chiqarsalar kerak.

Chapan: Men ham eshitkan edim. Tiyotr o'ynagan kishilarning haqlarida yamon so'zlar yozub, uyat joylariga til tegizubdurlar.

Mullo: Nima dedingiz?

Chapan: Uyat joylariga til tegizibdurlar ... Til! ... Taqsir! Mullo bo'lub turub shunga tushunmaysizmi? Ya'ni yamon joylariga og'iz solub chaynamishlar. Bularni qo'ya turing, o'zlaridan o'zlari kuyub, kul bo'lub yoki sil sil bo'lub o'lub ketarlar. Boshqa firqalardan so'ylangiz!

Mullo: Ba'zi firqalar tiyotrning harom ekanligiga fatvo so'rab, eshik-baeshik sargardon bo'lub yurgan emishlar. Ammo tiyotr o'ynovchi kishilarning qo'llarida Toshkandning mashhur muftilari tarafidan qilub berilgan fatvolari bor emish. «Mard kishi maydonda saylansun!» Mana, hozirda nafsi Toshkandda turkiy tilda chiqadirgan jaridamiz ikki bo'ldi. Banim fikrimcha, kuchlari bo'lsa, qorong'u va hech kimi yo'q uyda turub baqirmasdan, matbuot voitasi ila ko'ngildagi g'araz habjo'shonalarini yoxud xayoli fosidonalarini jaridalarga yozub, ochiqdan ochiq so'zlasalar yaxshi bo'lur edi.

Chapan: Taqsir! Qorong'u uyda so'zlamay ochiqda so'zlasunlar deysiz. Tovushimni odamlar eshitsunlar deb uyini tomini ochib so'zlaguncha eshiklarini ochub so'zlasalar bo'lmasmukin?

Mullo: Yo'q, so'z unda emas, bug'doyda. Tiyotr o'ynovchi kishilar janob gubirnatordan ijozat olub, bosh hokimlarning farmoyishlari ila so'zlaydurg'on so'zlarini a'lomnomaga yozub chiqarub, har kimga ma'lum va oshkora qilub so'zlamishlar.

Chapan: Ul qorong'u hujrada xat yozgan kishilarning so'zlari ham ma'lum va oshkor bo'libdur-ku. Mana, siz eshitubsiz, man eshitubman, boshqa odamlar ham eshitkandir. Hukumatimiz ham eshitkan bo'lsa kerak. Munga e'lomnoma nima kerak, e'lomnoma yozub chiqarub qorong'u hujrada maymun o'ynatub beradirlarmi?

Mullo: Man sizga qachon hujra dedim? Man uy desam, siz hujra deysiz.

Chapan: Taqsir! Uy nima, hujra nima? Ikkisi bir ma'no, ya'ni uy biroz kattaroq, hujra biroz kichikroq bo'ladir. Ammo uy biroz yorug'roq, hujra biroz qorong'uroq bo'ladir. Siz qorong'u deganingizga manim xayolimga hujra kelub, og'zimdan hujra chiqub ketibdur. Afu qiling, aybga buyurmang, taqsir!

Mullo: Ayb siz va bizda emas, indamasda. O'tkan majlisda o'zaro so'zlashkan so'zimizni oquzmay, tomuzmay hammasini «Sadoyi Turkiston» jaridasiga yozib chiqaribdir. Ul maxfiy maktub yozg'uchilar eshitub qolub, bizlarga ham maktub yozsalar, nima qilurmiz?

Chapan: G'am chekmangiz! Alarning yozadirgan xatlari manga ma'lum: kanvirti sarig', markasi yo'q, adrisi ham bilinub turadur. Olmaymiz qo'yamiz!

Mullo: Bizga yozmasa, Indamasga yozar. Indamas jaridaga yozar, onda nima qilurmiz?

Chapan: Yozsa yoza bersun! Bizga nima g'am? Bizlar qorong'u uyda so'z so'ylashub turganimiz yo'q. Op-ochiq, sutdek oydinda so'zlashub turubmiz.

Mullo: Bilaman, bizlarga g'am yo'q. Lekin bizni «xafa qilaman» deb maktub yozgan kishilarga achinaman. «Qing'ir

ish qirq yildan so'ng ma'lum bo'lur» degan so'z bor. Bir kun emas, bir kun qilgan ishlari yuzaga chiqub qolub, bizlar uchun qazigan chuqurlariga o'zlari yiqilub ketmasalar edi deb qo'rqaman.

Chapan: G'am yemang, taqsir! Tiflisda chiqadirgan «Mullo Nasriddin» degan bir jurnal bor. Shuning bir muxbiri ba'zi vaqtlarda Jahannam chuquriga tushub turub xat yozadir. Bu maxfiy xat yozadirgan kishilar ham «asfala sofilin»-ga tushub ketsalar ham, xatlarini yoza beradirlar. Bularni qo'ya bering, emdi ikkinchi tiyotrning bo'lishidan so'zlang.

Mullo: Ikkinchi tiyotr yaqinda bo'ladir. Hozir muni qo'yub turayluk. O'tub ketgan bir tiyotr munozarasini shuncha cho'zub, xayoliy so'zlar ila umrimizni o'tkarduk. Emdigi majlisimizda so'zlanadirgan so'zlarimizni milliy, adabiy, fanniy, ilmiy va axloqiy so'zlarga olishdirmog'imiz lozimdir deb so'ziga xotima chekdi.

Bir-birimiz ila «oxshomingiz xayrli o'lsun!» deb bog'dan chiqub ketduk.

Indamas

KAYFIM UCHDI

Bir kun tomoshabog' yonidagi Kaufman gubirnato'rning haykaliga yaqin bir chorpoyada hushim og'ub o'lturub edim. Toshkandimizning mashhur boylaridan birining bir aqllik oti bo'lur ekan. Mazkur boyning bonkag'a to'laydirgan «plato'ji» bo'lur ekan. Boy afandi shul kuni to'lavni esidan chiqarub, to'ydami, ziyofatdami to'lavdan ko'ra oshuni g'animat bilub, kayf-safo qilub yurgan bo'lur ekan. Jonivor,

o'rgangan otni ko'rsangiz, «vaqti o'tmasun, veksil notariusga chiqmasun» deb quruq kalaskani taraqlatib olub qochub kelub, to'g'ri podshohlik bonkaning eshigida to'xtadi. Insof qiling. Boy afandi to'yda yursa, to'lavga to'laydirgan oqcha uyda tursa, jonivor aqllik ot Hulokuning itidek yugurub yursa, borsa-yu veksilning muddati o'tub protis bo'lub qolsa, bechora otning chekkan mehnati bekorg'a ketarmukin deb munda bir «hangim uchdi».

O'lturgan yerimda o'zimdan o'zim dunyoning bevafolig'idan, hozirgi zamonda ba'zi boylarimizning makkorlig'idan shikoyat qilub o'turub, yuqorida mazkur boy afandining oti quruq kalaskani olub qochkaniga o'xshash meni ham xayol olub qochub, uyqu dunyosining eshigiga olub borub to'xtabdir. «Belboqsizning tushiga ikki qari bo'z kirar» deganlaridek, tushimda ajib bir voqeani ko'rdimki, munday qiziq bir voqeani jonli suratda ham ko'rganim yo'q edi. Boy ... boy ... o'g'li degan bir boy hamma yor-u birodarlarini chaqirub, ulug' bir ziyofat qilub, iltimos qiladirki, «Birodarlar! Maning holim tang. Bu pasajim bitkuncha yordam berishing. Hasharga ishlashing. O'zingizda bilingki, qarashmasangiz, kuchlab ishlataman», – deb turgan bir zamonda gulduris ila pasaj og'anab ketdi. Va bu pasajning soyasida o'lturgan ziyofatxo'r bir necha boy va boybachalarni bosub, ezub, suyaklarini sindirub, mayda-mayda qilub yubordi. «To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq barobar yonar» deganidek, bularning kuyishini, ko'zim uyquda bo'lsa ham, manim ustuxonimni o'rtadi. Suchub uyg'ondim. Xayolim parishon bo'ldi. Ajabo, tushummi, o'ngimmi deb munda bir «uyqum o'chdi». Shul vaqt yonim-

ga bir mirshab kelub: «Tur! Burda o'turma», – deb siyosat qildi. Munda bir «kayfim uchdi».

Xayr, mundan borub «To'nka» ila Piyon bozoriga tushdim. Bir chorpoyada o'lturub, xafalig'im, shoyad, tarqalsa deb «Sadoyi Farg'ona» jaridasini olub mutolaa qildim. Munda ham nimani ko'rayin, «Mullo A.A. Qoriga» idora javob yozmoqchi bo'lgan ekan, qalami o'rgimchak og'iga ilinub qolubdir. Xo'qand ulamolari ojratub olishdan ojiz bo'lub, O'runburg'dan Rizo qozi chiqarubdirlar. Agar borsa-yu, qozi afandi iltifot qilmasalar, qalamlarini kim ayurub olur ekan deb munda «bir kayfim uchdi».

Indamas

KICHKINA FELYATUN QADIM-JADID ORASINDA

Qadim: san chiqqandan beri aholini manga rag'bati qolmadi.

Jadid: foydali bo'lsang, sanga kim qaramas edi?

Qadim: bundan boshqa qanday foydali bo'lmoq kerak?

Jadid: qani foydali bo'lganing?

Qadim: eshonlar muridlarining dunyosini o'zlariga hadya suratda olsalar, boylar kambag'allarning mol va dunyosini zulman zabt qilsalar, qozilar har bir ishlarida pora yeb janjallarni qo'zg'atub va o'zlariga ish ko'payturub qorunlarini to'ydursalar, bachabozlik va fohishabozlik orqasida ko'b kishilar mol va dunyo topsalar, bundan boshqa qanday foydali ish bo'ladir?

Jadid: bunlar foydali emas, balki millatning mahv bo'lishiga sabab bo'ladirgan bir zahardir.

Qadim: to'qta, o'ylay-chi, tag'in foydalisi chiqib qolar!

Jadid: qani, so'zla-chi....

Qadim: to'ylar, ziyofatlar-chi?

Jadid: koni ahmoqlikdir.

Qadim: bazm-chi?

Jadid: vahshiylik.

Qadim: Astag'firulloh... bu baloyi nogahon ekan-ku! Mundan avval bir kishi «jadidchilar hamasi mahmadona va sergap bo'ladir» deb erdi, valiy ekandi!..

Jadid: valiy deb qanday odamni ayturlar?

Qadim: valiy deb shundoqa g'aybni biladirganlarni ayturlar. Bizim eshonlarda valiylar borki, ba'zi bir odamlarni yetti jannatga, ba'zilarni do'zaxga kirguzib yuboradirlar. Va ba'zilarni kofir va musulmon ekanligini yuzasidan, ya'ni kiyimindan ko'rub karomat birlan bilib beradirlar.

Jadid: kel, qo'y, boshqa gaplar so'zlashayluk. O'zumni boshim og'rib turubdur, san mundan badtarroq og'ritma!

Qadim: nimaga boshing og'riydir?

Jadid: g'avg'o va bir-birini g'iybatidan boshim og'riydir.

Qadim: qanday g'iybat va g'avg'olar?

Jadid: insonki bor, anda nafsoniyat bo'lur, nafsoniyat bor, g'iybat bor, g'iybatki bor, g'avg'o ham bor.

Qadim: Xudoyi! Sandan ham shunday so'zni eshitur ekanman-a; ba'zi bir vaqtlar aytib yurar edingki, maning doiramdagi xalq doimo bir-birig'a durust va bir ittifoqda va oralarinda hech bir g'avg'o chiqmaydir deb yolg'on aytgan ekansan-da?

Jadid: aytub turibdirman-ku insonda nafsoniyat bor, g'iybat va g'avg'o bor deb.

Qadim: xo'sh, qanday g'avg'o, nima to'g'risinda chiqdi?

Jadid: til tog'risinda.

Qadim: kimlar ila kimlar orasida?

Jadid: V afandi maqola yozuvchi muharrirlarg'a: arabiy va forsiy bilsangiz, maqola yozing, yo'q esa, yozmangiz dedilar, bunga bizning kichkina muharrirlarimiz xafa bo'lub ichlaridan H afandi V afandig'a qarshi maqola yozib V afandini tashvishga tushurdi.

Qadim: hay, hay, hay... ko'b yaxshi bo'lubdir-ku, do'stlar g'amgin, dushmanlar shod! Oldini tezroq ol!

Jadid: hali ham shuni harakatidaman!

Qadim: nima qilmakchisan?

Jadid: yuz dona bola topub Buxorog'a yuboramiz, onlar Buxoroda arabiy, forsiy o'qub keladirlar, so'ngra g'azeta idoralariga bo'lub beraman!

Qadim: onlar nima qiladi?

Jadid: onlarni bir yerg'a berkitib qamab qo'yar, qachon bir maqola yozmak kerak bo'lsa, darhol onlarg'a yozdurub olamiz.

Qadim: yo'q esa, Buxorog'a odam yuborub yurmang... manda yuztacha Buxoroda o'qub yetushub kelgan ulamo bor, berub qo'ya qolay!

Jadid: tuzuk-ku, onlarni arabiy, forsiy bilishi shart.

Qadim: arabiy va forsiyni juda yaxshi biladirlar va faqat ruscha bilmaydirlar!

Jadid: Mayli, mayli, V afandining matlablari ham shul. Ul kishig'a ma'qul bo'lsa bo'ldi.

Qadim: savdosini nima qilamiz?

Jadid: san ulardan 40 ini «Sadoyi Turkiston»g'a, 30 ini «Oyina»g'a, 30 ini «Sadoyi Farg'ona»g'a yubor, aning savdosini keyin qilamiz.

Qadim: nimaga ko'b odam olasiz, bir g'azitag'a uch kishi kifoya-ku.

Jadid: san bilmaysan... shularni qirqtasi bir bo'lub birgina maqolani (arabiy, forsiy tildan aralashturub, bo'tqa qilub) bir kunda bazo'r yoza olurlar!

Imzo: Adam

TANQID – 1 [161]

Ushbu kalima qo'limizda bo'lg'on lug'at kitoblarining ba'zilarida bo'lsa ham, ba'zilarida yo'qdir. Turkiston viloyatlarida iste'mol qilinadirgan lug'at kitoblarida bo'lmaganlik to'g'risidan bu «tanqid» kalimasi bizning istiloh orasida yangidir. Bizlar bu kalimaning eski ma'nosin bir taraf qilub, tatar qarindoshlarimizning matbuot va adabiyotlarida iste'mol bo'linadirgan ma'nog'a qarab yuramiz. «Tanqid» demak bir sinfning yozub maydoni intishora qo'yg'on kitobinda kelushmagan iboratlarini matbuot vositasi ila yozub ko'rsatmoq demakdir.

Hozirgi zamonimiz hurriyat zamonidir. Adab doirasidan chiqmay har narsani yozub matbuot vositasi ila nashr

[161] Axtari kabirda «alnoqid» kalimasi bor. Ya'ni yaxshi narsaning orasindan yomonini ajratib chiqarub tashlamoq. Sahifa 397. Bir bo'yni uzun tojik domlasi: «Tanqid so'zi xato «attanqeh» deb o'qumoq kerak», – degan erdi. Axtari kabirda «poklamoq va ortuq bo'lg'onlarini chiqarub tozalab qo'ymoq» degan ma'noda. Sahifa 170. Ufali Jonturin lug'atinda: yaxshisidan yomonini ajratmoq; bir kishining yozg'on asarinda kelushmagan yerlarin ko'rsatmoq deb ma'no bergan. Sahifa 104.

qilmoq mumkindir. Yozub maydong'a chiqargan kitobning kelushmagan iboralarini ko'rsatub, faqat musannifning o'ziga berilsa, mundan adabiyot ila ishtig'ol etguvchi kishilar istifoda qila olmaydirlar. Bir kishining yozgan asariga ikkinchi bir kishi o'zining nazarin (tanqidin) yozub, matbuot ila nashr qilinsa, muni o'qug'ach, boshqa ahli qalamlarning ham o'ylabroq va shoshulmayroq qalamlarin yurguzmoqlariga sabab bo'ladir.

Matbuotga hurriyat berganidan keyin ushbu tanqid rasmlari O'rta Rusiya musulmonlarida nihoyatda shoye bo'lub ketdi. Ahli qalamdin biri yangi bir kitob yozub tab' qildirgandin so'ngra bozorga qo'yar. Ahli qalamlardan yana biri maydong'a chiqub, mazkur kitobg'a yo tanqid yoki taqriz yozar.

Ammo bizning Turkiston viloyatida, xususan, Farg'ona zaminida qo'lig'a qalam tutub biror dona zamonag'a muvofiq yangi asar kitob yozuvchi yoinki arab va forsiy kitoblarning muhimrog'laridan tarjima qiluvchi ahli qalamlarimiz yo'qdir. Ushbu yo'qlik bilmaganlikdan emas, balki rasm va odat bo'lmaganligidan yoki boshlab ko'rsatub beruvchi yo'qliqidandir. Ba'zi bir johil mullolar «qalam ishi ilgari o'tgan ulamolar vazifasidir» deb aytsalar ham aqllari yetushmaganlikdan aytadirlar.

Qalam tutub bir kitob yozmoq yoki ahamiyatli kitoblardan tarjima qilmoq ishi ilgari qandog' joriy bo'lg'on bo'lsa, ushbu rasm qiyomatg'acha joriy va rasm bo'lub turadir.

O'tgan ramazon oyida Farg'ona zaminida o'tgan sultonlarning ahvol va mojarolarini yozub nashr etilgan bir kitob qo'limg'a tushdi. Tashqarig'i sahifasida «Tarixi

salotin Farg'ona va g'ayri ham min salotin almoziyasi ba xulusi at-tavorix»[162] deb yozilg'on. Muallifi: Mahmudxo'ja Hakim (mullo Shodi o'g'li) Yaypaniy (pastki qurug' qishloqlik), muallifning o'z xarajati ilan (Xo'qand) shahridir. Shumaquf matbaasida toshbosmada sarig' kog'azda bosilmishdir.

Ushbu kitobni o'qub chiqg'onimdan keyin muhtaram Mahmud Hakimni ko'rmoq ichun orzu qilub Yaypang'a bordim ham topub ko'rishdim. Moshgurunch soqollik bir pir nuroniy ilm va hikmat sohibi deb bildim. Hakim laqabidan maqsad: ilmi tibdan xabari borliq ba'zi bir so'zlaridan ma'lum bo'ldi. Xususan, parda ila qoplanmish ko'zlarning ochishi ila xeyli shuhrati ham chiqmish ekan.

Bizning muhtaram tabiblarimiz tibbiya maktablarida o'qumay, faqat o'z ijtihodlari ilagina malaka hosil qildiqlaridan Rusiya tabiblari kabi shuhrat toba olmaydirlar.

Tibbiya maktabini bitkarub, qo'lig'a shahodatnoma olg'on Ovrupo tabiblaridan ba'zilarining ishi rivoj topgani kabi, bizning Osiyo va Turkiston viloyatlarida o'z ijtihodlari ila tabibi xoziq bo'lub, insoniyat olamin hayron qoldiradirganlari bo'ladir.

Ijtihod qilinsa, har narsani tobmoq mumkin. Ijtihoddan hech bir narsa qochub qutula olmaydir. Nomi muboraklarini eshutganlarida fransuzlarning o'turgan o'rinlaridan turub ta'zim qildiqlari zoti sharif ham o'tgan asrlarning birinda va bizim Turkiston tuprog'imizgda yetushgan muhtaram Abu Ali ibn Sino hazratlari edi, ya'ni turk bolasi edi.

[162] Kichkina bir kitobning nomini to'quz qabatlik qilishdan foyda nima (qaysi mamlakat podshohini laqabi ko'paysa, inqiroz topar) deb muhtaram Rizouddin hazrat bir yerda yozub o'tmish edi.

Bizning Turkiston viloyatida bo'lg'on ulamo nomlik zoti shariflarning aksarlari aziz umrlarini bekorchilikda turub zoye etadirlar. Go'yo bunlarga hech bir ish yo'q kabi ko'runadir. (Xayr un-nas min nafi un-nas) degan muborak so'zning ma'nosi nima? Ulamo ismidagi muhtaram zotlarimizning o'z aql va fikrlaridan chiqarub millatg'a naf' qiladurgan kitob va asarlar yozmoqg'a qo'llaridan kelmas ekan, hech bo'lmaganda arabiy va forsiy tilda yozilg'on naflik kitoblarni turkiy tilig'a tarjima qilub nashr qildirsalar yaxshi bo'lur edi.

Bizning Farg'ona zaminida buning kabi ishlarni boshlab ishlamoq ulamomizning vazifalari bo'lsa ham, ushbu tarjima ishini boshlab maydoni intishorag'a qo'yg'uvchi muhtaram Mahmudxo'ja afandi bo'ldi. Ushbuni ko'rub qo'lidan keladirgan zotlar, shoyad, ahamiyat qilurlar.

Ushbu tarjima ishiga boshlab yo'l ochdiqi ichun muhtaram Mahmud Hakim afandiga[163] tashakkurlarimizni arz qildiqimiz ila barobar ushbu «Xulusi tavorix»da bo'lgan ba'zi bir nuqsonlarini ham aytub o'tamiz; shoyad, keyingi juzlarini ikkinchi jildda va ikkinchi ruhda tarjima va tartib qilurlar! Oxiri bor.

Ahlulloh Haybullin

TANQID – 2. NUQSONLAR

Nuqsonlar. 1 inchi, muallif afandi kitobni yaypanlik Shohnazar ismlik bir kotibdan yozdirmish. Ushbu kotib janoblari Toshkanda, Samarqand va Buxoroda yozi-

[163] Hakim afandi yana arabiy va forsiy tillaridan turkiy tilig'a tarjima qilub, katta bir tib kitobi yozub, Shumoquf matbaasida bosdirub turdig'ini so'yladi.

lub bosilg'on kitoblarni o'qub ko'rmagong'a **o'xshaydur.** «Xulusi tavorix»ni yozg'on semiz qalam ila bir qarish uzunlig'idagi sahifag'a 19 satr emas, balki 8-9 satrgina yozulmoqi lozim edi.

Qalami yo'g'on, harflari semiz va bir-birig'a yopushqon. Hatto ushbu 34 sahifadan tortub 69 sahifag'acha yozilg'on satr va kalimalarni tavorixdan xabari bor kishi o'qiy olmasa, qurug' xat-savodi bor odam hech bir o'qub chiqara olmaydir.

Chunki qalamning yo'g'onligidan (ا ر ز د ذ س ص ط chim ع ف ق)ga o'xshash og'izlik harflarini bir-biridan ijro etmoq qiyindur. 49 va 69 sahifalari bo'lsa, senzur tarafidan qoraytirulg'on kabi bo'yalub chiqg'on. Bunisi, albatta, matbaa ustalarining yaxshi ish bilmaganliklaridan kelgandir.

Umum islom dunyosi tarafidan qabul qilung'on (qo'rg'oshim harf matbaa)sida kitobni bosdirmay, xati ta'liq ila toshbosmada chop qilg'ondan so'ngra mavzuyig'a qarab xush xat ila harflarni nozikroq qilub yozdirub, kog'azlarini bo'yatmasdan bosdurmoq lozimdir.

Xush xat ila yozilg'on yoxud matbaada darj etulgan kitoblarni o'qumoq na qadar yengil va oson bo'lsa, o'quvchilarni ham o'ziga jazb qiladir. Yomon yozilg'on va bo'yalg'on kitoblar ma'nolik bo'lsalar ham, o'quvchini kitobdan bezdiradir.

2 nchi bunga o'xshash tarix kitoblari yozmoq ichun qo'lg'a qalam olg'ondan so'ng faqat pul foydasinigina kuzatmay, ma'no va ruh jihatini ham darxotir tutub «millatg'a taqdim» ekanligini o'ylarg'a kerak. Yo'qsa (tib kitobi bosdirub yotgan edim, shundan ortub kog'azlari kesilub tashlanmasun, isrof bo'lsa zarar bo'lmasun ichun ushbu kitobni bosdirdim)

deb tibdan ortub va kesilub tashlanadirgan kog'azg'a tarix bosdirub kitobni kitobliqdan chiqarub tashlash hech bir muvofiq emasdir.

Bu kunlarda Turkiya, Arabiston, Misr va Rusiya musulmonlari hatto xati ta'liq ila toshbosmaning manbai bo'lg'on Hindiston va Eron mamlakatlarinda ham toshbosmalarg'a ohista-ohista javob berub bolo ittifoq harf matbaasin qabul qilub kitoblarini bosdirub tuzadirlar. Shundog' bir zamonda bizlar ham bosmachilik ishinda ushbu musulmonlar ila bir yo'ldan borsaq, yozilmish kitoblarimizni va takror bosdirachaq kitoblarimizni temur harf matbaasinda bosdirsaq, viloyatimizda maorif chirog'ining tezroq yalturamoqig'a sabab bo'lur edi.

Maorif va madaniyatli mamlakatlarda matbaaning hisobin Alloh bilur. Maorif va madaniyatni tarqatg'uvchi ham matbaa va matbuotdir.

Xo'qanddan Toshkand, Toshkanddan Qozon, Qozondan Petrog'radda matbaa ko'bdir. Matbaaning ko'bligiga nisbatan madaniyat va maorif ko'bdir va dovushi o'tkurdir.

Meva bo'lmag'onda hech kim orzu qilmaydir. Meva vaqtinda mevadan parhez qiladirgan oq yoqalar ham yeydirlar. Matbuot ham shundog' bo'lmasa, tek turadir, bo'lsa, albatta yaltiraydur.

3 inchi muhtaram afandi «Xulusi tavorix»ni butun eski ruhda tarjima qilmish. Oralarig'a lekinda (avhom va xayolot)lar qo'shub yozmish. Tarixdan bexabar odamlar buni o'qugandan keyin har bir avhom va xurofotini ham durust gumon qilub o'qurlar. Va ushbu xayolot sabablik sodda fikrlarning xato yo'lga ketushlari mumkindir.

Kitob yozmoq uchun qo'lg'a qalam tutgan zamon boshdagi avhomlarni chiqarub tashlamoq kerak. Kitoblariga va tarixlariga avhom va xurofot aralashqon millatning hammadan keyinda qolg'onlig'i qat'iyan sobit o'ldi.

Imlo, insho jihati aslo rioya qilunmag'on, matbuotimizda bolo ittifoq qabul qilung'on ishoralaning hech biridan yordam so'ralmag'on. Buning kabi tarixlarg'a zamon bolalari ko'broq rag'bat qildiqlaridan biroz zamong'a muvofiqroq qilub yozmoq kerak.

Qalam sohibi asl moddani tayyorlab zamonag'a muvofiq tartib qilurg'a ojizlik qilsa, zamonadan xabardor odamlar ila maslahatlashub tas'hih qildurmak kerak.

Muallif afandini ko'rub matbaaga beruv lozimlig'i to'g'rusinda so'z ochganimda «matbaada qimmat turadir, toshbosma arzon tushadir, binobarin, bizga foydasi ko'b» dedi. Pokiza va nafis ravishda bosilg'on kitobning narxi 30 tiyin bo'lub, buzulub yuborilib bosilg'on kitobning bahosi 10 tiyin bo'lsa ham, hech kim olmas. Qimmatga bo'lsa ham yaxshisini olur. Kitobni olub o'qumoqdan maqsad ma'lumot olmoq bo'lsa, yaramas yerdan ko'ra yaxshi yerdan ma'lumot olmoq afzaldir.

Muhtaram Mahmud afandi ushbu «Xulusi tavorix»ni davom qildurub, to ushbu kung'acha olub kelurga niyat qilmish. Foydalik va tartiblik qoidasig'a rioya qilub, davomig'a muvaffaqiyat tilab va boshqa ahli qalamlarning ham bekor yotmay foydalik asarlar va tarjimalar dunyog'a keltuvlarini orzu qilub so'zimizni tamom qilamiz.

Ahlulloh Xayrulloh o'g'li

INTIQOD VA BIZ

Jaridalar millatlarning eng qorong'u davrlaridan boshlab alarni taraqqiy etdirmak va islohot yo'li ila tadrijan madaniyati oliyaga savq etmak niyati xayriyasi-la nashr qilunadirlar. Dunyoda bir millat yo'qdirki, maktab va matbuotsiz taraqqiy etsun, bir qavm yo'qdirki, eski va sodda maishatlarin, ijtimoiy ishlarin isloh va takmil etmasdan madaniyatg'a yuz tutsun. Har qavm va millat madaniyat dunyosig'a, hayot maydonig'a maktab va matbuot darbozalaridan kiradirlar. Millatlarda milliy matbuot, jarida va majallalar ifrodi millatda bo'lgan umumiy afkorni bir nuqtag'a yig'adirgan yagona vositadirlar. Milliy maishatda, hayoti ijtimoiyada bo'lg'on nuqsonlarni va xalq ustida jarayon etgan odatlarni taftish va tanqid etmak va aholidan har toifa xalqning tutqon o'rinlarin, ko'rgan vazifalarin va bo'lg'on qadri ahliyat va layoqatlarin umum nazarig'a ochub bermak va millatning taraqqiy va tamadduni xilofig'a hukm surgan xato maslak, zararli odat, yo'lsiz muqobilalar kabi hollarni yozmak, muhokama va intiqod etmak umumning e'tiborlarin o'zlariga jalb qilg'on jarida va majallalar vazifasidir. Jaridalarning va matbuotning eng muhim bo'lg'on vazifalari, shubhasiz, intiqoddir. Millatlar milliy matbuotning intiqodi, umumiy va xususiy har holga ko'rsatgan ijtihodi va e'tibori nisbatinda taraqqiy etarlar. Milliy matbuot ham o'zining vazifasini unutmaslik qadar ko'r bo'lmaslik lozimdir. Milliy matbuotning boshlab ishlagan eng birinchi ishi milliy islohot bo'lg'on uchun aning butun faoliyati in-

tiqod nuqtasida ko'rilur. Va shunda tajriba qilinur. Madaniy millatlar ilm va maorif, fan va sanoye, aql va fikr jihatidan farsaxlarcha yuqori chiqsalar ham, alardagi intiqod xossasi kundan kun qazoyid etmakdadir. Alarning butun hayotlari, matbuotlari va adabiyotlari intiqod tarozularidan o'tmish va o'tmakdadir. Alarning butun hay'atlari, butun kamolatlari muntaqidlar qo'lida bo'lub, hamma tashabbus, hamma tajdidlari intiqod ila mutanosibdir. Demak, manbai kamolot yolg'iz intiqoddir. Tanqidi bo'lmag'on millatda hayot va intiboh davri boshlanmas. Bu fikrlarga va haqiqatlarga inkor nihoyatda tubanlik bo'lsa ham, maataassuf biz bu daniylikdan[164] hanuz chiqg'onimiz yo'qdir. «Sadoyi Turkiston»ning har adadida intiqod yo'llu yozilmish ba'zi maqolalar yumshoq ko'ngilli birodarlarimizg'a qattig' tekkanga o'xshaydir. Idoraga kelgan ba'zi maktublar bu holni bildiradirlar. Bu maktublarni, albatta, jaridaga bosub bitkuzub bo'lmaydir. Bular xususida fikrimiz yolg'iz shuldirki, turkistonlilar tanqid degan sheyga hanuz tushunmaydirlar. Bir ishni va yo bir holni intiqod tariqincha yozilg'on jumlalarni ko'ruv ila darhol hayajong'a kelub, hech muhokama qilmasdan va o'ylamasdan qichqira boshlaydirlar. Bu kung'acha bizda matbuot bo'lmag'on kabi, albatta, tanqid ham yo'q edi. Oq qoradan ayrilmas, yaxshi va yomon nuqtalar tadqiq etilmas edilar. Endi matbuot bo'lg'on va taraqqiy etgan qadar tanqidning ko'paymog'i va bu tariqa nuqsonlarimizning tadrijan isloh etilmog'i badihiydir. Matbuot millatning oyinasidir. Binoan alayh millatning butun hay'ati majmuasi matbuotda inikos etar. Bu tabiiy va oddiy bir ishdir. Shulay bo'lsa ham, bi-

[164] Pastlik, tubanlik

ror tanqid ko'rsak biz kayfsizlanamiz. Bizdan kulgan va haqorat qilg'on deb o'ylaymiz. Bu ne qadar xato fikrsiz. Biz o'zimizning nuqsonlarimizni yozmasak va ko'rsatmasak, qachon isloh etilurmiz va qachon taraqqiy qilurmiz? Ajabo! Amriqo va Ovrupoda buncha kamolot hukm surgan bir zamonda tanqidga aslo ehtiyoj qolmasa kerak edi. Holbuki, butun madaniyat dunyosi tanqid ila to'lmishdir. Dunyoning eng ulug' faylasuflari va hakimlari ham tanqid qilunadirlar. Bu hol dunyoda kamolatning nihoyasi bo'lmag'onin ko'rsatadir. Umid etamizki, bundan so'ng biz ham tanqidni suya boshlarmiz. Va haqorat ila adabiy tanqid orasida qancha farsaxlar masofa bo'lg'onin tushunurmiz. Adabiyona tanqidlarning matbuotda doimo ko'rilub turmog'i juda matlubdir. Jaridalar islohchi bo'lg'onlari uchun shuni xohlaydirlar.

Endi 1333 sana istirohat qilduk, nima bo'lsa ham xo'b dedik. Ul vaqtlarda dunyo o'zi shuni muqtazo edi. Olamga qarangiz! Hozirda olam va hayot bizdan nimalar so'raydir? E'tibor, afandilar, e'tibor lozimdir.

Ayn.Mim.

ONG UMIDLARI
(XOTUN-QIZLARIMIZ MAISHATIDAN)

I

Havli ichidan oqadirgan kichik arig' gullar atrofidan shaldirab oqar, aybsiz qamalub yotuchi mazlumalarning birgina tushunadirgan va ko'radirgan yerlari bo'lg'on havli manzarasi, tabiat ma'murligi bu soyada hosil bo'lur edi. Lekin dunyo bo'shligidan mahrum qilung'on bulbul

uchun qafasning aybdan yoxud oltundan bo'lishi barobardir. Shunga o'xshash havlidagi Gulchehra ham havlining devorlariga, gullariga va arig'larig'a ko'b qiziqmas, dunyoni to'rt devor orasidagina deb ko'rsatadirgan oila turmushig'a yaxshi tushunub, bu orada yo'qolishni nima sababdandirki ma'qul ko'rmas edi. Ul doimo havlidagi daraxlarning[165] teglariga o'turub ta'sirlik ko'zlari ila osmong'a qarab onda nihoyatsiz bo'shliklar, ul bo'shliklarda o'z ixtiyori ila uchub yurgan qushlar va bulutlarni ko'rar edi. Ul ularg'a qiziqur, ular kabi keng va uzun yerlarda, nihoyatsiz bo'shliklarda yurmakni xohlar edi. Gulchehra bu ko'ngilsiz turmush va bu ruhsiz maishatdan qutulmakni o'ylashga ham jasorat qilolmas, butun ihotasidan o'zining bu orzularini dilidan chiqarmakg'a arziydirgan birgina bo'lsun kishi topmas edi.

Shuning uchun ul juda umidsiz va siniq qalbi ila doimo osmong'a qarar, doimo har narsadan ustun bo'lg'on ulug' bir quvvatning borlig'in o'ylab quvonur va yordam kutar edi. Oylargina emas, yillar o'tdi, olamda ming turli o'zgarishlar, milyun turli yangiliklar maydong'a chiqdi. Lekin bulardan bir qatragina bo'lsun Gulchehra turadirgan qorongg'u doiraga ta'sir etmadi. Onda hanuz shul ruhsizlik hukm surar edi. Shul qora turmushlar ichida Gulchehraning guldek qizlik mavsumi o'tub ketdi. Endi odatdagi kelin bo'lish, dunyo kutish masalalari yaqinlashib, bu hollarni o'ylag'on sari oning joni azoblanub, umidlari kesulub edi.

Oning yosh va pok ko'ngilda turmushdan norozilik hissi kundan kun ortar va o'zining 18 yoshga kelub qolg'onin,

[165] Matnda shunday berilgan

shuning ila barobar, na dunyo va na oxirat ilmlaridan, oila uchun eng kerakli bo'lg'on uy hunarlari va tarbiya ilmidan xabarsizligin o'ylar, tun-kun hech to'qtovsiz bo'lub turg'on ko'ngilsiz muhokamalardan so'ng natijada o'zini onasi idora qilub turg'on, shul qora turmushdan boshqani yo'lg'a solurdek bir quvvat sohibasi deb taniy olmas edi. Kunlar o'tar. Umidlar kundan kun kesilur edi. Ko'ngildagi yolqunli-yolqunli tilaklar, ichidagi hisobsiz umidlar og'izdan chiqg'on oh-vohlar ila birga chiqub kamaya boshlagan edilar.

II

1914 inchi yilning aprel oyi, kun oftobli va yelli edi. Gulchehra go'yo yozni qarshu olur uchun oftobg'a qarshi qarab havlidagi gullar orasida kezar edi. Lekin bu kun oning yuzida shodlik alomatlari bilinur, yangi uylar, yangi umidlar kirgandek bo'lub, yonida o'ynashub yurgan kichik sabiylarg'a go'yo qarab kulub-kulub yana o'ylarg'a va fikrlarga cho'mar edi. Chunki bu kun Gulchehra turgan havlining ichida bo'lmasa ham, tashqarisida bir o'zgarish bo'lmakchi edi. Havlilaridan arig' oqub chiqg'on qo'shnilari Hasanjon aka hama bola-chaqalari va xotuni ila boqg'a ketmakchi, ularning havlilariga yosh qizlari bo'lg'on Muhammadjon no'g'ay ko'chub kelmakchi edi. Lekin Gulchehralar ila ikki orada juda baland bir devor bo'lub, yangi qo'shnilarini ko'rmak, ular ila tanishmak uchun arig' oqub chiqadurg'on ombordan boshqa hech bir ochiq yer yo'q edi. Bu kundan e'tiboran Gulchehraning yangi hayoti, bir nav' umidli kunlari boshlandi. Lekin umidlar yolg'uz arig' chiqadirgan

omborgag'ina bog'li bo'lub, ko'b samaralar berurdek darajada emas edi. Chunki aning onasig'a Hasanjon akaning xotuni biroz ginali bo'lg'oni uchun ular o'rnig'a kelgan Muhammadjon no'g'ayning xotuni ham shubhali edi. Bas, kirushub-yurishub turishlar umid doirasig'a sig'mas edi.

Orzular bo'ldi. Qo'shnilar alishindi. Hech bir turli ish ila shug'ullanmagan Gulchehra uchun kunlik ish va ermak topildi.

III

Mahmudjon no'g'ayning qizlari usuli jadida maktablarida o'qug'onlari uchun doimo qo'l hunarlari, g'azeta va jurnallar ila shug'ullanur edilar. Ular arig' ustiga yasalg'on kursida o'turg'on zamonda juda shoyon mushavviq bolalari ip va ishlarni ham g'azeta va jurnallarini o'ynashub arig'g'a tushurur, ular suv ustida suzub Gulchehralar havlisiga chiqar edilar.

IV

Endi bizim Gulchehramiz tamom o't atrofinda aylangan kapalakdek eligi (haligi) ombordan hech ketmas, oh, yana nima kelub chiqar ekan deb butun fikr va ko'nglini mazkur teshukga bog'lar edi. Har holda, ul arig' soyasida qo'shni havlida nimalar borlig'in bir qadar tushundi. Lekin bechora qiz o'qush-yozishni chala bilgani va no'g'aylarg'a hech aralashmagani uchun arig'da oqub chiqg'on narsalardan ko'b istifoda qila olmadi. Hanuz umiddan boshqa ayturdek ishlar ko'rilmas edi. Ota-onalari qizlarida bo'lg'on yashirin bir holni ne qadar sezsalar ham, turmush va odat tadbirla-

rining kichik bir qizg'a juda yengillik ila ta'sir etmog'ig'a ishonur edilar. Shuning uchun Gulchehra havli ichida komil sarbastlik ila yashar edi. Kunlar, oylar o'tar, bu havlidagi qanotsiz qushlar ihotadagi narsalar ila osmondan boshqani ko'rmas edilar. Shul tariqa Gulchehramiz o'sub bitdi. Ammo aqli va fikri o'sdimi, ani tekshirgan ham bilgan kishi yo'q. Aning uzilub bitgandan qolg'on yolg'uz birgina salomat umidi bor ediki, ul ham qat'iy emas edi. Ul umid erga tekkanda bu qora turmushdan, ichida tug'ub o'sgan zindondan qutulmak va yangi hayotg'a intilub chiqmak edi. Aningcha, bu havlidan qutulmak ayni saodat va baxt edi. Shul xayollar ila sanalarcha o'zin o'zi yupatub turgan zavolli qizchamizning eng so'ngg'i umidi, eng so'ngg'i tilagi ham vujudg'a chiqmasa, totli umidlari bitub, ang'a dunyoda necha daraja qora va ko'ngilsiz hayot boshlanurki, ani inson hayoti demak tasavvuri mumkin bo'lmagan bir so'zdir.

V

Bu kun Gulchehraning eng qora va qayg'uli kunidir. Zindon turmushining yuqorisida albatta bir turli hayot bo'lmak lozim deb e'tiqod qilg'an zavolli qizning yuzlari sarg'ayg'on, ko'zlari qorayg'on edi. Ul ko'ngilsiz va hasratli qiyofat ila o'zina maxsus xonada oh-vohlar chekar va yuragin ushlab yosdiqlar ustiga sorilub yig'lar edi. Kun bulutli, dunyo yuzin qorongg'ulik bosqon, Gulchehralarning havlisida to'y hozirliklari ko'rilur edi. Faqat aning ota-onasida tun-kun kesulmay va hal qilinmaydirgan muhim bir masala va muzokara bor, Olim aka katta odam bo'lsa ham, bu nuqtag'a kelganda shoshub qolg'on edi. Chunki

Gulchehrani Tojiddin akaning rus maktabidan o'qub chiqg'on **o'g'li Muso afandiga** so'riylar edi. Muso afandi juda ishlakli yigit bo'lub, **o'zi ma'lumotli va xalq orasida e'tiborli edi. Faqat** Gulchehrani ko'rmasdan qabul etmas edi. Gulchehra, xususan, Olim aka ila Muso afandi orasida ish tamom bo'lsa ham, xalq orasida har xil gaplar yurgan uchun Muso afandi qizni ko'rmasdan olmayman deyur edi. Ikkinchi tarafdan, Gulchehrani Sodiqboy bachchaga so'riylar edi. Faqat Olim akaga boybachchalarning holi juda ma'lum bo'lg'oni uchun Muso afandini tarjih qilur edi. Gulchehraning onasi esa qizni ko'rsatishg'a butun kuchi ila qarshi turur, hatto davlati, dastmoyasi bo'lmag'on Musog'a qaraganda, aningcha, Sodiqboy yaxshiroq edi. Lekin, har holda, Gulchehraning xotunlik hayoti yaqinlashqon, ne tariqa bo'lsa ham 19 yil turgan zindonning darbozasidan chiqub ketar kunlari kelgan edi. Bugun ular havlisida muna shul hollar, shul muzokaralar hukm surur edi. Gulchehra uchun hayot yo mamot masalasi sanalg'on bu voqea ang'a juda ta'sir etdi. Qizlarimiz buy yo'l ila tutulg'on taqdirda yangi yetushgan millat gullarining so'lub bitmog'i va yoshlarimizning yildan yil er va xotun huquqlarin tanub, bundoq shartlarni har vaqt yomg'urdek yog'dirub turachiqlari, hatto ko'blari mukammal tarbiya va tahsil ko'rgan no'g'ay qizlarin olub kelachaklari aning xayolida bir-biri orqali tizilub turur edilar. Muna aning eng oxirg'i umidi ham shul holda zaif edi (?).

Oxiri bor.

VI

Olim aka ila Gulchehraning onasi orasida bu masala yaxshi ravishda hal qiluna olmadi. Ular har kun o'zlarining ishlaridan bo'shag'ach, havlidagi supa ustida o'turub ko'k choy ichar va sekingina gapurub turub shul o'rinlarida bir necha soat vaqt qo'zg'alolmasdan qolir edilar. Goho bir-birlariga achchig'lari chiqub, chehralari buzilub ketar va qo'llari ila boshlarida, ayvonda qarab turuvchi Gulchehrani qo'rqitub yuboradirgan turli harakatlar ko'rina boshlar edi. Olim aka qo'rg'ong'a, dalag'a ketgan vaqtlarda onasi Gulchehraga uylarni yig'ishdirmakni buyurur, o'zi dasturxonlar tayyorlab, kuyovga chiqg'an qizlarini ham o'zining singli ila Obina kampirni kutar edi. Ular kelgach, Gulchehrani osh va qozon yonig'a qo'yub (?) mehmonlarni o'zi siylar edi. Osh yeganda Gulchehrani ham yonlarig'a o'turturilar, so'zdan so'z chiqarub hammasi Sodiqboy bachchani madh qilurlar va Musoning o'ris go'ridinda mast bo'lub yurganlarin, yonig'a morjalar olib ko'chadan ketub borganda o'zlarining erlari ko'rub qolg'onliklarin rivoyat qilur edilar. Bechora Gulchehra, albatta, bu hiylalarga tushunub, onasining fikrin va har kun maydong'a chiqarub turgan qora planlarin bilub turar edi. Lekin onasining va mehmonlarning ahvollariga voqiflig'in bildirsa, ya'ni biror so'z aytub o'zini himoya qilmakchi bo'lsa, o'zlarining kayflari uchub, o'ziga bundan ham oshiq siqilushlar bo'lur va Muso afandi uchun ko'nglida mayl va muhabbat saqlagani yana ravshanroq bo'lub, onasi va qarindoshlari tarafidan o'ziga qarshi yana dahshatli va yomon muomalalar ham qo'rqinchli tadbirlar qilunmog'idan xavf etar edi. Xususan, Obina kampirning makr va

hiylaga juda usta bo'lg'onini onasidan eshitib bilub, undan yana qattig'roq qo'rqar edi. Muna shul holda xotunlar va kampirlar orasida etak ostidan yashirin hiylalar yurub turar, bul sirlarni sezub Gulchehraning umidlari yolg'uz otasig'agina joylanub qolir edi. Lekin, nachoraki, musulmon qizi bo'lg'oni uchun ota onag'a javob qaytarmak va o'zining shaxsiy huquqlarini talab etmak irodalari Gulchehradan olinub bitgan va aning ko'nglig'a ixtiyorsizlik, ojizlik ruhlari singdirilgan edi. Endi ul bechora qizchamizning ota-onasi qo'lida, ular mulkinda, ular ixtiyorida asralib, qamalib turadirgan, faqat bir qiz nomin olg'on jon egasidan iborat edi. Aning ixtiyorida yolg'uz birgina narsa bor ediki, o'ziga yoqmag'on va huquqig'a tajovuz etiladirgan ishlarni ko'rub g'azablanur, xafa bo'lur va ba'zi yaxshi ishlarni ko'rsa, shodlana bilur edi. Lekin uy ichida aning bu holiga e'tibor etgan hech bir kishi yo'q, aning shodlig'i va xafaligi ila hech kimning ishi yo'q edi. Olim aka dalalarg'a va gaplarg'a yurar, Gulchehraning onasi Xadicha xonim doimo o'ziga kerakli xotunlarni chaqirub, to'y uchun zarur bo'lg'on sheylarni qidirar edi. Olim aka ko'broq umrin dala va qo'rg'onlarida yurub o'tkargani uchun xotunining bu tadbirlaridan va xotunlar orasida yurgan har xil planlardan, albatta, bexabar edi. Lekin, har holda, Xadichasining fikri va ahvoli ruhiyasi ang'a juda ma'lum, aning Sodiq boybachchag'a qanday ko'z ila qaraganini xo'b yaxshi bilur edi.

VII

Supa ustida juda chiroylik va katta gilam ham ko'rpachalar, to'rda bir necha yosduk, havlining erlarga maxsus

tarafida mazkur yosduklarg'a yonboshlab o'turgan xafali odamdan boshqa kishi emas, mushavviq ham yo'q edi. Bu kishi juda xafa, xafasig'a chiday olmasdan boshini ushlagan, bo'yunini egub turli chuvalg'an xayollarni o'ylay-o'ylay shoshub qolg'on edi. Bu bechora kishi xotunlarning xiyla fabriqalaridan hech to'qtovsiz ishlanub chiqarilg'on ming xil makrlarning ostida ezilub butun ruhini va quvvatini xarob etgan, hatto dunyoning yorug'li kunlari aning qayg'uli ko'zlariga tutab turgan chirog' yorug'idek ko'rilub kayflarini tamom uchurar, arig'larda o'ynashub yurgan va o'zining yaxshi ko'radirgan sabiylarining[166] tovushlari ham aning quloqlarig'a tomlar boshidan kelgan nufra[167] ovozlaridek ruhini qaltiroq qilub turar edi. Haqiqatan ul juda xafa, hech iloji topilmas darajada xafa edi. Bu kun aning bu xafasig'a qo'shilg'on juda og'ir, juda ko'ngilsiz yana bir hol bor ediki, agar bu qora xabarni bilgan bo'lsa, ul Kattaxo'janikig'a gapga albatta bormag'on bo'lur edi. Lekin ul buni ilgaridan bila olmadi. Shuning uchun odatdagi kabi gapga va o'zining yaqin do'stlari ila gapurushub oila ta'siri ila buzulg'on qonlarin, zaharlangan ruhin sal tozartmak orzusi ila shodlik va kulgu majlisig'a borub edi. Xususan, yosh kuyov bo'lushqa yaqinlagan Muso afandi ham bu yig'ilushda bo'lmak lozim ediki, bu hamadan oshiq o'zining qattig' ta'siri ila ani gapga haydab olib borgan edi. Lekin bu gap ul o'ylaganidek bo'lub chiqmadi. Hamrohi ila Muso afandi bu kun nima sababdandir gapga kelmagan edilar. Lekin ul sabablar ham juda ravshan dalillar ila gap orasida anglashilub qolg'on edi.

[166] Farzand
[167] Nog'ora

Chunki gapga aning qo'shnisi Alixo'ja o'zining o'rtoqlari ila qartadan o'ynashub o'turgan vaqtda nimaga Musojonni olib kelmading degan savolg'a ul bugun O'rinbur yurar, man ham sal o'turub ketaman, chunki ani uzatmak uchun voqzal chiqaman deb javob bergan edi. Ikkinchi yoqdan birovning yolg'uzigina boradimi degan savolig'a qarshi yo'q yolg'uzig'ina emas, no'g'ay bola ham barobar borar ekan degan edi.

– O'rinburda nima qiladi? Savdosi bo'lmasa!

– Ishi bordir. Biror savdosi bo'lsa ham ajab emas.

Muna bu muzokaralar, qartadan o'ynashub, kulushub va bu ilojlar ila qayg'uli yuraklarini dorulab turg'on Olim akag'a chaqmoq o'ti kabi borub suqildi, bechoraning o'ti yorildi. Alixo'janing bu marhamatsiz tovushlari aning badanig'a dahshatli zahardek quyilub, yuragiga hech bir ta'rifi mumkin bo'lmag'on qattig' zarba berdi. Ul bechora o'turgan o'rnida butunlay his va harakatdan mahrum bo'lub qolg'on edi. Ko'nglim oqdirilg'ong'a o'xshaydi deb qartalarini bir yoqqa tashlab, yuzlari oqarub qaynar ter ichida o'turar edi. Oshlar yeyildi, gap bitdi. Olim aka ham sekingina joyidan turub, Kattaxo'ja ila xayrlashub havlisig'a qaytdi. Va devor bo'yidagi supa ustiga chiqub, boshini ushlab o'turdi. Haligi xafali kishimiz endigina gapdan qora va qayg'uli mazkur xabarni eshitub kelgan va betob bo'lub, achinub, hech bir kimga indamasdan, xayol surub o'turgan Olim aka edi. Ul o'tkur aqli bo'lg'oni uchun Alixo'janing bu so'zlarini hazm qila olmadi. Turli xayollarg'a cho'mdi. Hatto ichidangina Muso afandining O'rinburg' safarindan maqsadlarini hamasin kashf qilub qo'ydi. Ul shul xayollarni tushunub turganda zavolli Gulchehra xotunlar bog'ida qozon atrofida kapalak

kabi aylanub osh qilub yurar va Kattaxo'jalardagi gap majlisin, onda otasining Muso afandi ila ko'rishurlarini va bu tariqa yana yaqindan tanishub, munosabat hosil qilushlarini o'ylab aning umidlari tag'in quvvatlanur edi. Lekin bu vaqtda devorning ikkinchi tarafida bu umidlarning qahramoni bo'lg'on Olim akaning holi ham muna bu edi.

Oxiri bor.

VIII

Tamom shul vaqtda Toshkandning sharqi-shimoliy tarafida, ichidan katta bir arig' oqadirgan havlida yana bir hol voqe' bo'lmishdir. Bu havlining baland darbozasi oldida qo'lida bir tugunchak bo'lg'oni holda bir kampir turar ham vaqtsiz darboza bekutganlarg'a la'natlar yog'dirub mazkur darbozani qo'li ila urar, oyog'i ila tepar edi. Faqat ul xotun juda oshig'ub kelgani uchunmi yo esa qalin kiyumlar ila oftobning qattig' ta'siriga chiday olmaganidanmi, nima sababdandir juda sabrsizlik ila darbozani urar, urgan sari jahli chiqub bekutgan kishining ota va onalarig'a ming turli la'natlar yog'dirar edi. Lekin havli ichidan ang'a hech bir turli javob kelmas, darboza ham ochilmas edi. Sal turgach kampir xayol surub darbozag'a qulog'in qo'ydi. Shul vaqtda ichkaridan bir odamning qusub va o'qchub yotqonin va aning yonida shoshub bir-biriga qichqirishg'on Afifa ila Olimalarning so'zlarin eshitdi. Va nihoyatda taajjub etdi. Chunki ul o'zi juda oshig'ich suratda chaqirilub kelgan bir mehmon edi. Boshqa vaqtlarda ko'chadan qarshi olinadirgan bu qadrli mehmonni bukun darboza oldida to'qtatub turishlari havlida bir yangi voqea borligin bildirar edi. Haqiqatan

ichkarida mehmon qabul etushdan man' qiladurgan nihoyatda uyatli bir hol bor ediki, u-da Sodiqboybachchaning ichub mast bo'lib qolishi edi. Ul kechasi bir madam ila kulushub qahvaxonadan chiqub kelganda ittifoqan Olim aka qarshu chiqub, ko'chaning ikkinchi tarafidan o'tub ketgan edi. Sodiqboybachcha shundan qaytub xafaligidan butun kech ko'kragini ushlab uxlay olmadi. Erta bilan g'ramofun choldirub qarasa ham, juda xafaligidan ichi pushub qolg'och, yoshirub qo'yg'on shishasidan mast qiladirgan oq suvini ichgan edi. Va ko'ngli og'darilub o'qchiy boshlaganda darbozani haligi kampir kelub urdiki, ul kampir yosh Sodiqning butun istiqbol umidlarin qo'lig'a ushlab olg'on makkor Obina edi. Darboza ochildi. Obina kirdi. Lekin kerak singillari kerak Obina ichlarni pushuradirgan turli ko'ngilsiz xabarlar ila zaharlangan edilar. Ul hol va xabarlardan biri Sodiqning axloqsizligi va ishsizligi edi. Aning bu holig'a qarab Gulchehraning opalari (Sodiqboybachchaning akalarining xotunlari) juda shoshub qolg'on edilar. Obina kampir esa yana har xil, ba'zisi yaxshi va odamni xursand qiladirgan, ammo ba'zisi yamon xabarlar ila buzilub, ichi pushub o'turar edi. Ul darboza oldida turganda ham birgina xil fikrlar o'ylamadi. Yana ko'chadan kelub yotkanda Kattaxo'janikidan Olim akaning gapdan chiqganin, nima uchundir aning yuzlari oqarub, xafa bo'lub ketub borgonin, ammo Muso ila hamrohining gapdan chiqmaganin ko'rub o'tgan edi. Va ul xilof odat bo'lg'on ahvolga o'zicha turli ma'nolar berub borub yotkanda yana ot bilan Alixo'janing ham juda oshig'ub bir yoqqa ketub borganin ko'rub qolg'on edi.

Har bir harakat, yurush-turushlarni ignasidan ipig'acha sanab va tekshirub yurgan makkora kampirning yuragini va asablarini g'alayong'a keturmakka shul qadarisi yetub qolg'on edi. Shuning uchun ul Afifa ila Olimalarda ham ko'b o'tura olmadi. Bir-ikki piyola choyni ichub yuragin ushlab, (bu kun nima uchundir betobman, ketub u atab qo'ygan ishlarni qilush kerak) deb go'yo o'zining polbinlarin va allaqanday majusiyatlarin xotirlar edi. Shul vaqtda darboza urildi. Keluchi mehmon Alixo'ja xotuni Aziza edi. Buni ko'rub supa to'rida yosduklarg'a yonboshlab, bibiseshanbadagi kabi o'turgan Obina kampir hech nima qilarin bilmadi. Chunki ul Azizaga juda ginali edi. Aziza Obinaning zavolli Gulchehra haqida o'ynagan ro'llarin sezub o'zining eri Alixo'jag'a, Alixo'ja Olim akag'a eshitdurgan edi (muna shul tariqa Olim aka ila Gulchehraning onasi orasida Obinaning planlarin yemuradirgan sovuqlik va Gulchehraning o'lib qolg'on zaif umidlarin yangidan jonlandiradigan turli umidli hollar hosil bo'la boshlagan edi. Mazkur ravishda qo'l va boshlarida qo'rqinchli harakatlar hosil etub Gulchehrani qo'rqutganday supa ustida gapirushuvlari Olim aka ila Xadichaning oralarida sovuqlik borlig'idan edi). Shundog' bo'lsa ham, Obinamiz bir xafa bo'lub, bir yuzin buzub, ginalarin tashlab o'zi yo'lda kelub yotkanda ko'rgan mazkur taajjub voqealarning asllarig'a voqif bo'lmak orzusig'a tushdi. Va Aziza ila gapurisha boshladi. Zotan, Obinaning betobligi ham ichida yeshilmasdan tugilub turgan tugunlar borlig'idan edi. Shuning uchun ul betobliklarin va hama ginalarin unutub shul tugunlarni yeshmak havasi ila ko'rishi boshadi.

IX

Madaniyat qoidalaridan mahrum, eski odat va xurofot ila to'la, eng past turmush millatning har jihatdan tadanniysig'a, mahv va inqirozig'a xizmat etgan kabi, eski Turkiston maishati ham Muso afandini o'zidan bezdirdi. Bu tariqa millatning eng umidli a'zosi, eng ixlosli o'g'li xalq orasida hukm surgan turli xurofot ila zaharlanub, vatanidan boshin olib chiqdi. Aning maqsadi ozgina bo'lsa ham madaniy va tarbiyali xalqlar ila aralashub, zaharlanub bitgan ruhini tozalamak va turli kasallar paydo bo'lg'on asablarini salomatlandirmak edi. O'z vatanida, o'z qondoshlarida ko'rilgan ko'ngilsiz hollar, ding'a va madaniyatg'a butunlay xilof bo'lg'on manfur ishlar, xotunlar orasida kundan kun quvvat topgan hisobsiz ko'b yamon odatlar aning yuragig'a ta'sir etdi, ul bu ishlardan nihoyatda xafa bo'lub shul xafalig'ig'a chiday olmasdan safar qildi. Aning maqsadi qanday qilub bo'lsa ham yaxshi tarbiya ko'rgan bir rafiqa topub olmak va bu tariqa Turkistonda xotun-qiz dunyosida bo'lg'on jaholat va yamon odatlar ila kurash qila boshlamak edi. Ul Turkistondan ne qadar qiz olmoqchi bo'lsa ham bermadilar. Ya'ni aning darajasin taqdir eta bilmadilar. Aning madaniy ravishda taqdim etgan haqli talablarin turkistonli akalarimiz qabul qilmadilar. Muso afandi esa bu hollarni ko'rub, umrida birgina martaba bo'lsun ko'rilmagan, axloq va tabiati ham iste'dodi fitriyasi sanalmag'on, hatto butun vujudi va ruhi umr bo'yincha turli xurofot ila zaharlangan, ilmi va madaniy jihatdan uch pulg'a arzimaydigan qizg'a o'zini boylab zoye qilasi kelmadi. Aning maqsadi yo Turkistondan o'zi ko'rub bir turli tarbiyali va qobiliyatli qiz topub olmak

va ani yaxshi tarbiya qilub o'qitub yangidan hozirlamak edi. Va yoxud yaxshi tarbiya ko'rgan, biror maktabni o'qub tamom etgan tatar qizi olib, Turkiston maishati va xalqning tili, shevasi ham adabiyoti ila yaqindan tanushdirmak va bu tariqa o'zining haligi maqsadlarig'a yetmak edi. Turkiston xalqida jaholat nihoyat darajada qattig' hukm surgandan Muso afandining fikrlarin tushunuvchi qizi bor otalar topilmadi. Aning milliy xizmatlarin, g'oyayi xayollarin, qobiliyat va iste'dod, tarbiya degan so'zlarin taqdir etuvchi va tushunuvchi otalar bo'lmag'ach, ul bechora o'zining xalqidan umidini kesub, biri-biridan oshiq tarbiyali qizlarni ko'rub, so'zlashub va sinab olmak mumkin bo'lgan tatar dunyosig'a qarab intilub chiqdi.

Oxiri bor.

Ayn.Muzaffar

IZOHLAR

SAYOHATNOMALAR

1. **Behbudiyning «Xotiroti Farg'ona»** sayohat parchalari «Shuhrat» gazetasining 1908-yil 8-yanvar 5-sonida e'lon qilingan. 1907-yil 3 – 12-dekabr kunlari Farg'ona viloyatining bir qancha shaharlariga qilgan safar taassurotlarini Behbudiy «Shuhrat», «Tujjor», «Turkiston viloyatining gazeti»da turkum sifatida e'lon qilgan. Bu shunchaki sayohat bo'lib qolmay, Farg'ona viloyatiga qarashli Xo'qand, Andijon, Marg'ilon, Yangi Marg'ilon, Skobelev hamda Samarqand viloyatidagi Xo'jand shaharlarida ochilgan usuli jadid maktablarining o'qitish tizimi, muallimlar malakasi, o'quvchilar bilimi, maktab binosi, sharoitlar, darsliklar va o'qitilayotgan fanlar sifatini o'rganish, tekshirish, yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadida uyushtirilgan jiddiy safar edi. Behbudiy safar davomidagi kuzatishlari, tahlillarini, tanqidiy fikrlarini bir necha nashrda qismlarga bo'lib e'lon qilgan.

2. **Behbudiyning «Farg'ona xotiralari»** «Tujjor» gazetasining 1908-yil 1-yanvar 17-sonidan olindi. Behbudiy samarqandlik hamrohi Abdulhamid mutavalli bilan birgalikda Eski Marg'ilon, Yangi Marg'ilon (Skobelev), Xo'jand shaharlaridagi usuli jadid maktablari bilan tanishadi. Shuningdek, Behbudiy ushbu sayohatining bir qismini «Farg'ona xotiralari» nomi bilan «Turkiston viloyatining gazeti» 1907-yil 30-dekabr 97-sonida e'lon qilgan. Unda Behbudiy Andijondagi usuli jadid maktablari, bir qancha

katta madrasalari xususida o'z xulosalarini bayon qilgan. Maqolaning eng muhim jihati – Turkiston maktablaridagi ta'lim tili Farg'ona, Samarqand, Buxoro maktablari misolida yoritib berilgan.

4. Mullo Shohmahmud Isroilboy o'g'lining «Yo'lchi mullo» felyetoni «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 25-sonida e'lon qilingan. Muallif Xo'jand sayohatiga jo'nash chog'i vokzalda 40 yoshli bir mullo bilan tanishib qoladi. Mullo ruscha savodi yo'qligidan boshqa yo'nalishga bilet olib sarson bo'lib turganda unga hamrohlik qiladi. Mullo asli xo'jandlik bo'lib, 25 yil Buxoro madrasasida tahsil olgani va mudarrislikka navbat kutayotgani haqida so'zlab beradi. Tahsili davomida o'qigan kitoblarini, o'rganganlarini maqtay ketadi. Suhbatdoshi bu ilmlar vokzalda unga naf bermaganligiga shama qilganda mullo besh kunlik dunyo uchun dunyoviy ilmlarni o'rganish ahmoqlik deb javob beradi. Muallif sayohatchi hamsuhbatiga o'sha 25 yilning 5 yilini dunyoviy ilmlar uchun sarflaganida, vokzaldagi kabi holatga tushmas edingiz deb jug'rofiya, hisob o'rganishni tavsiya qiladi.

5.Abdurauf Muzaffarovning «**Ayn. Muzaffar**» imzosi ila «**Temur g'ildiraklar ustidagi tushlardan**» yo'l esdaliklari «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 53-sonida e'lon qilingan. Abdurauf Muzaffarov (1889 – 1938) 1889-yilda Tataristonning Simbirsk guberniyasidagi Shemgilleyli uyezdi, Staro-Timoshkina qishlog'ida tug'ilgan.[168] Millati – tatar. 1914-yil boshlarida Turkistonga ke-

[168] Qarang: O'zR MDA. 132-f., 1-r., 337-yig'majild, 21-varaq old va orqasi; Сирожиддин Аҳмад. Убайдулла Хўжаев. – Тошкент: Info Capital Group, 2021. – Б.90 – 95; Ҳалимова С. «Садойи Туркистон» газетаси: йўналиши, тил, услуб ва жанр хусусиятлари.

lib, shu yerda faoliyat olib borgan. Uning mazkur «Temur g'ildiraklar ustidagi tushlardan» hikoyasi sayohat ichida sayohat tarzida, ya'ni tushda kechgan safari bilan omixta tarzda yozilgan.

Фил. фанл. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.22 – 23; Мустафаева Н. Абдурауф Музаффарзода мушоҳадасида Туркистон тарихи ва маданияти масалалари // История и историки Узбекистана в XX веке. – Ташкент: Navro'z, 2014. – С.32 – 42.

MATBUOT

1. **Abdulhamidxon** imzoli muallifning «**Felyatun**» maqolasi «Taraqqiy» gazetasining 1906-yil 13-iyul 8-sonida e'lon qilingan. Maqolada Ostroumovning missionerlik ruhidagi ishlari, «Turkiston viloyatining gazeti» faoliyati haqida tanqidiy fikrlar hamda uning muharriri Mullo Olimning Munavvarqori Abdurashidxonov shaxsiyati va «Taraqqiy»da e'lon qilingan «Bizning jaholat – jahli murakkab» maqolasini tanqid qilib yozgan fikrlariga e'tiroz bildirilgan.

2. Ushbu «**Boylar, buyroqratiya va g'azeta**» maqolasi «Taraqqiy» gazetasining 1906-yil 27-iyul 12-sonida muallifi keltirilmagan holda berilgan, biz mazmun jihatidan Ismoil Obidiyga nisbat berdik. Maqolada «Taraqqiy» gazetasini yopishga bo'lgan tuhmat urinishlar, muharrir Ismoil Obidovning sud mahkamasiga chaqiriluvi, muharrirning gazetani saqlab qolish uchun yordam so'rab borganda inkor etgan no'g'ay boylari va h.k xususida bayon qilinadi.

3. **Mahmudxo'ja Behbudxo'ja xatib o'g'li** imzosi bilan «**Gazet nadur?**» maqolasi «Tujjor»ning 1907-yil 11-noyabr 11-sonida keltirilgan. Ushbu felyetonda gazetalarning paydo bo'lishi, sabablari, foydalari aniq faktlarga tayangan holda yoritib berilgan. Turkistondagi matbuot ishlari qay darajada ekanligi, islom o'lkalaridagi matbuot olami hamda dunyo mamlakatlaridagi matbuot bilan taqqoslab chuqur mulohazalar bayon qilingan. Behbudiy 1905-yilgi Manifest voqeasidan so'ng Russiya musulmonlari o'rtasida matbuot

ishlari biroz jonlanib, 30 dan ziyod gazeta va jurnallar nashr bo'lganini va mushtariyning ozligi uchun bugungi kunga kelib 10 turga yaqin gazeta yetib kelganini afsus va nadomat bilan qayd etadi.

4. **To'lagan Xo'jamyorov – Tavallo**ning «**Turkistonli qardoshlarimga ochiq xat**» maqolasi «Oyina» jurnalining 1913-yil 6-sonida e'lon qilingan. Muallif Turkistondagi matbuot ishlarining rivoji, xususan, «Oyina»ning moddiy jihati yaxshilanishi hamda jurnalning taqdiri «Tujjor», «Xurshid», «Taraqqiy», «Turon», «Buxoroyi sharif»dek bo'lib qolmasligi uchun barcha birlashib harakat qilishi kerakligi haqida fikrlarinibayonetadi.[169]

5. «**Savdogar**» imzoli muallifning «**Felyatun**» sarlavhali musohabasi «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 3-sonida e'lon qilingan. Hikoyada Savlatlik kishi va Savdogar o'rtasida bo'lgan jadid-qadim, matbuot, gazeta xususida bahs-munozara aks etgan.

6. Samarqandlik jadid **Siddiqiy-Ajziy**ning «**Jarida va majalla**» maqolasi «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 21-sonida keltirilgan. Maqolada Turkistonda gazeta va jurnallar o'qiganlar adadi juda kam, nima uchun shunday degan savol o'rtaga tashlangan.

7. **A. Rauff Muzaffarzoda**ning «**Milliy hayot va Turkiston musulmonlari**» maqolasi «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 31-sonidan olindi. Maqolada Turkistondagi milliy matbuotga bo'lgan munosabat yoritilgan. Ikki «Sado» va «Oyina»ning «ajal to'shagida yotishi»

[169] Ushbu kitobda keltirilgan Tavallo qalamiga mansub asarlar professorlar B.Qosimov, U.Dolimov va N.Jabborovlar tomonidan tabdil etilgan. Qarang: O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga materiallar. 1-son. – Toshkent: Universitet, 2004.

turkistonliklarning taassub va jaholatiga dalil qilinadi. Turkiston yoshlari fikrsiz va ruhsiz. Milliy til, milliy adabiyot va matbuot havaskorlari yo'q hisobida. Milliy matbuotga hujumlar hanuz davom etmoqda. Millat dardlariga shifo – matbuot. Millat qusurlarini isloh qilish matbuotning birinchi vazifasi sifatida keltirilgan. Turkistondagi taraqqiyparvarlik harakatining umumiy va milliy harakat darajasiga yetmaganligi aytib o'tilgan. Turkistonda bir dona ham mukammal matbaa yo'q, kitob bozori ruhsiz, xalqqa foydali yangi asarlar yo'q, tiyotr masalasida «Padarkush»dan boshqasini ko'rsatib bo'lmaydi kabi fikrlar keltirilgan.

8. Abdurauf Muzaffarzodaning «**Ayn Rauf Muzaffar**» imzosi bilan «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 17-oktyabr 44-sonida berilgan «Bizda ziyolilar va milliy matbuot» nomli maqolasi adabiyot, matbuot, milliy til masalalariga bag'ishlangan. Ona tili va matbuotsiz hech bir millat taraqqiy etmasligi, millat uchun matbuot zarurligi bayon qilingan.

9. Tavalloning «E'tizor» xabari (Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 16-mart. №22) «Oyina» jurnali va muharririga e'tiroz ruhida yozilgan. Tavallo «Oyina» idorasi tahririyatga kelgan she'r va maqolalarni kech e'lon qilishi va endi u «Oyina»ga hech narsa yubormasligini, uning ijodini o'qimoqchi bo'lganlar «Turkiston viloyatining gazeti»dan topishlarini aytadi.

10. Toshkentli Fuzayl Jonboy. Xo'jamyorovga javob. Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 30 mart. №26. «Turkiston viloyati gazeti»ning 22-sonida e'lon qilingan To'lagan Xo'jamyorov maqolasiga munosabat.

11. Tavallo. Jonboyevga javob. Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 1-may. №34.

12. Tavallo. Bir gazeta muharriri ila musobaha. Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 22-may. №40.

Tavallo «Ibrat bog'i»da yosh bir yigit bilan suhbatlashib qoladi. Suhbat «Sadoyi Turkiston» va «Turkiston viloyati gazeti»ga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi, matbuot ishlari xususida.

1. **«Biz musulmonlarni hurriyatda haqlari bormu?»** maqolasi «Taraqqiy» gazetasining 1906-yil 14-iyun 1-sonida e'lon qilingan. Ushbu bosh maqola «Taraqqiy»ning ochqich maqolasi, shu bilan birga, gazetaning «tomiriga bolta urgan» maqoladir. Manifest bergan erkinlikning soxtaliklari ochiq tanqid qilingan. Shuningdek, Manifestdan keyin chiqqan gazetalarning bir yilga ham bormay hukumat tomonidan to'xtatilishi, muharrirlarning turli xil so'roq va jarimalarga tortilishi ushbu «erkinlik»ning haqiqiy mohiyatini ochishga yordam berishi aytib o'tilgan.

2. **Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja xatib. Ta'mini istiqbol. Taraqqiy. 1906.** №7. Behbudiyning fikricha, Turkistonda ulamo qatlami zamonga mos keraklik ilmlardan mahrum, madrasalar xarobotxona va dor ul-ojiziynlarga aylanib qolgan. Besh-o'n nodon talaba, bir xoin mutavallini mudarris saylashga hukumatning yo'l ochib bergani ilmiy va diniy ishlarning tomurig'a bolta urganidir deb baholanadi maqolada.

3. **Samarqandiy muftiy Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja xatib. Ta'mini istiqbol. Shuhrat. 1908. №9.** Behbudiyning ushbu maqola islohi maktab va madrasa to'g'risidagi fikrlari asosiga qurilgan. Maktab va madrasalardagi diniy ilmlar juda oz samara berayotgani, dunyoviy ilmlardan esa asar ham yo'qligi sabab o'n ikki yoshig'acha bo'lgan o'quvchilardan zaruriy diniy ilmlarga ega bo'lganlarini Misr al-Qohiraga, ruschaga savodi borlarini Peterburg gimnaziya tijorat

maktablariga jo'natib o'qitish lozimligi, ularning xarajatlari uchun «Taraqqiyuni islom» va «Nashri maorif» jamiyatlari barpo qilib aqcha jamlash zarurligi aytiladi.

4. Munavvarqori Abdurashidxonovning «Isloh na demakdadur» maqolasi «Xurshid» gazetasining 1906-yil 4-sonida keltirilgan. Maktab, madrasa – ta'lim islohi xususida.

5. «Ismoilbek xutbasi» «Tarjimon» gazetasidan iqtibos sifatida olingan va «Tujjor» gazetasining 1907-yil 21-dekabr 16-sonida e'lon qilingan. Misrning olti yuz qadar mo'tabar zotlari huzurida umumiy musulmon ijtimo'yi yasamak haqida «Tarjumon» muharriri Ismoilbek Gasprinskiyning turk tilidagi nutqi keltirilgan.

6. Ahmadjon Bektemiruf. Bizning holimiza bir nazar. Shuhrat. 1908-yil 7-fevral. №9. Maqolada turk-tatar millati o'tmishda mashhur ulamo, mashoyix, hukamo va shuaro yetishdirgan buyuk bir millat bo'lgani holda, bugunga kelib inqiroz va tanazzulga yuz tutayotganiga sabab nima va sababchilar kimlar degan savolga javob izlangan.

7. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tullobi kiroma. Islom dunyosi. 1331 hijriy (1913-yil). №16. – B.252 – 254.

Behbudiy jamiyatning ustuni ulamolar bo'lgani holda, bizning ulamolar ming yillar narida qolgan hikmat va falsafadan boshqani bilmasligi haqida yozadi. Uning fikricha, zamonaga muvofiq bugungi ilm olamida bo'layotgan o'zgarish va kashfiyotlardan ulamo qatlami xabardor bo'lishi kerak. Avvallari G'arb bizdan o'rgangan bo'lsa, endi Ovrupo falsafasi, hikmati bilan oshno bo'lish lozim.

8. Rauf Muzaffarzoda. Til ham din. Sadoyi Turkiston. 1914. №24. Din insonlarning diliga o'z tili, adabiyoti orqali ko'proq ta'sir qilishi, shuning barobarida, islom dinini chuqur o'rganish uchun arab tilini bilish ham zarurligi haqida gap boradi. Lekin maktablarda diniy bilimlar har bir millatning o'z ona tilida o'tilishi, ona tilining eng kerak tomoni ham shunda ekanligi aytiladi. Til masalasiga barcha muallim mualliflarning e'tibor qaratishlari, maktablarda til darslari o'qitmoq uchun darsliklar yozishni boshlash vaqti kelganligini, matbuotda til masalasiga oid muzokaralar qilish kerakligini ta'kidlaydi.

9. Abdulla Avloniy. Safohat balosi. Sadoyi Turkiston. 1914. №25. Buzuq va g'ayri mashru' ishlarga mol va umr sovurmoq balosi haqida mulohaza va nazm («Turkiy guliston»dan).

10. H.H.N. Faqirlik nimadan hosil o'lur? Sadoyi Turkiston. 1914. №34. Ko'pchilik kasb (mn, kosiblik)larning fabrikantlar qo'liga o'tishi, hunar egalarining kasodga uchrab o'zini mardikorlikka urishi, bu ishga yaramaydiganlari gadoylik yo'liga o'tib ketishi oqibatida shu yillarda aholining yuzdan qirq foizi gadoylarga to'g'ri kelib qolgan.

11. Ahlulloh Haybullin. Istiqbol qayg'usi. Sadoyi Turkiston. 1914. №40. Zamonlar o'tishi insonlar fikrida ham o'zgarish yasashi, hozirda qarindoshlik tuyg'ulari, o'qish va uning foydalari haqida fikrlar o'zgarganligi, tasavvur hosil bo'la boshlaganiga urg'u berilgan. Jaholatdan qutulish uchun ruslar bilan birga o'qib-o'rganmoqqa undaydi. Armani, yahudiy, ruslarning bolalariga ta'lim berish uchun jonlarini ham ayamasliklari ibrat qilib ko'rsatilgan. Bizda

bolani maktabga berish vaqtida uning muallimi kim va qayerda o'qiganliklari, tarbiya va ta'lim berishdagi salohiyat darajasi bilan qiziqmasliklari, xarajatdan qochishlari tanqid qilingan.

12. Ayn. Rauf Muzaffar. Turkistonning sayohati. Sadoyi Turkiston. 1914. №47. Bu sayohat falsafiy ma'noga ega. Koinotning safari va undagi Turkiston holati ramziy ifodalarda berilgan. Turkiston qalin ko'rpalarga o'ranib hech narsani his etmaslik va uyg'onmaslik uchun «As'hobi kahf» uyqusiga ketgan deb tasvirlanadi. «Sado» va «Oyina» nomlaridan bir necha o'rinda istiora sifatida foydalanilgan.

13. Ayn. Muzaffar. Din millat, millat milliyat ila qoimdur. Sadoyi Turkiston. 1914. №49 – 51. Din va millat boqiyligi, uni asrab qolish masalasi haqida. Din va millat muhofazasida ona tili yagona vosita bo'la olishi, din va millatni sevish uchun uning mohiyatiga tushunib yetish lozimligi aytiladi. Turkistondagi taraqqiyot yo'lidagi harakatlar sezilmas darajada, ya'ni ismi bor, jismi yo'q qabilida kechayotganligi, matbuot va maktablarning bori ham o'zgarish yasash uchun ozlik qilishi kabi mushohadalar bildiriladi. Din va shariat muhofazasi qay tariqa bo'ladi, bir din arbobining fikriy taraqqiysi, kamoloti darajasiga qarabmi yoki ilmdan bexabarning minbardagi va'zlari orqalimi deb savol qo'yadi va o'zi shu masala atrofida fikrlarini bildiradi. Dinni muhofaza qilish birgina va'zxonlik bilan bo'lib qolmaydi, din va millat muhofazasi uchun har bir kishi o'zi harakat qilishi, dunyoda bor ilmlarni egallashga intilishi va har kim o'z darajasini anglashi, o'z vazifasini bilib bajarishi kerak deb javob beriladi. Dinlar ilohiy hukmlardan ibo-

rat bo'lgani kabi, millatlar ham yakdin va yakjins insonlar yig'indisidan tashkil topadi. Din va millat dunyodagi hamma narsadan ustun. Ba'zi vahshiy qavmlarda din va millat tushunchalari yo'q. Ba'zi qavmlar din ila musharraf bo'lsa ham, millatlari bo'lmasligi aytiladi, bunga misol tariqasida turkistonliklar keltiriladi. Musulmonlik ila milliylik bir-biridan butunlay farq qiladi. Bir qavmda din bo'lmasa ham, millat va milliyat albatta bo'lar. Din – insonlarga berilgan umumiy hadya. Uning boqiyligi shu dinga mansub millatning hayoti qadardir. Shu bois din millat va bayoti milliya ila qoim. Milliyat xossasi bo'lmagan millat shunchaki insonlar yig'indisidir.

14. Ayn. Muzaffar. Millat krabi nima kutar? Sadoyi Turkiston. 1914. №52. Muallif ushbu sarlavha ostida millatning hozirgi holati va nimalarga muhtojligi haqidagi o'ylarini majoziy ifodalar bilan aks ettiradi. Millatni ulug' bir dengizning o'rtasida muallaq turib qolgan kemaga qiyoslaydi. Millat krabi madaniyat shamollarini kutmoqda deydi.

MADANIYAT

1. M.Ar. Bizlarda g'ariba xosiyatlar vor. Xurshid. 1906. №5. O'zbilarmonchilik va xudpisand, kaltabinlik illatlari xususida. Inson bir ilmni o'rganganda uni mendan yaxshi biluvchi yo'q deb o'ylashi va ayrimlarning xatosini ko'rsatib, aybini tuzatgan kishiga achchiq so'z aytib haqoratlashi – xudpisandlik turkistonliklarda keng tarqalganligi haqida mulohazalar keltirilgan.

2. A.Muzaffarzoda. Madaniyat nardboni. Sadoyi Turkiston. 1914. №33, 35, 37. Madaniyat tushunchasini avom orasida biror hayvon yoki havo bo'shlig'idagi mavhumlik deb tushunuvchilar borligini muallif madrasada o'zi guvoh bo'lgan voqea misolida tushuntiradi. Mashhur madrasaning rushdiya bosqichida tahsil oluvchi shogirdning til va sheva bahsida sheva degan savolga «oq soqolli katta odam» deb javob berishi voqeasini keltirib o'tadi. Madaniyatni to'g'ri anglatish matbuot vositasida kechishi, xalq tushunadigan sodda tilda yozish, matbuot, adabiyot, madaniyat tushunchalarini xalqqa sodda qilib tushuntirish yo'llarini izlash haqida. Ilm-fan, adabiyot, matbuotni yuzaga chiqarishda birinchi qurol ona tili bo'lgani holda bizning millat tilga hech ahamiyat bermasligi tanqid qilingan.

3. A.Rauf Bilolzoda Muzaffar. Madaniy jarayon va milliy tariximiz. Sadoyi Turkiston. 1914. №39. Odamlarning shaharda hayot kechirishlarining o'zi madaniy hayot uchun kifoya qilmasligi, madaniy hayot uchun eng asosiy vosita

ilm-maorif ekani ta'kidlanadi. Taraqqiy etgan xalqlarda ziyolilar har bir daqiqasigacha hisoblab kerakli ishlarga sarflashi bizdagi vaqtni sovurish hollariga zid qo'yiladi.

4. **Tavallo. Nodon kishilarimizning teatrdan olgan taassuroti. Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 3-aprel. №27.** Toshkentda 27-fevral «Jamiyati imdodiyamiz» foydasiga o'ynalgan «Padarkush» pyesasidan ayrim odamlarning «bizlarga tiyotr ko'rguzamiz deb, bizlarga ota o'ldursangizlar mundoqcha o'ldurasiz deb bizning bolalarimizga ota o'ldurmoq ta'limin ko'rsatdilar» kabi yanglish xulosa qilganlari xususida.

5. **Tavallo. Ibrat olmakni vaqti yetmadimu? Turkiston viloyatining gazeti. 1914-yil 3-aprel. №27.** Turkiston aholisining uquvsizligi, bolalarining bilim olishni xushlamasligi, odamlar oddiy oldi-berdida ham haq-huquqlarini bilmasliklari va shu kabi umumiy hollar haqida.

6. **To'lagan Xo'jamyorov. O'z muxbirimizdan. Sadoyi Turkiston. 1915-yil 6-mart. №62.** G'ulja shahri, tijoriy ishlari va tatar savdogarlarga turkistonliklarning munosabati haqida.

7. **To'lagan Xo'jamyorov. Insofdin sof. Turkiston viloyatining gazeti. 1916. №56.** Savdo-sotiqdagi ko'zbo'yamachilik, firibgarliklar xususida.

TA'LIM

1. Uchqun. Ilm va maorif. Shuhrat. 1907-yil 1-dekabr. №1. Maqolada Yevropa mamlakatlari va Turkiston aholisi muqoyasa qilinib, statistik ma'lumotlar keltiriladi.

2. Muftiy dorulqazo Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li. **Felyatun. Tujjor. 1907-yil 27-noyabr. №13.** Behbudiyning tanqidiy maqolalariga norozilik bildirib xat yo'llagan muxlisiga javobi. Turkiston ulamosi va ta'limi Misr, Kafkaz, Qozon ilm ahli bilan solishtiriladi.

3. Mo'minjon Muhammadjonif. Bizda muallimlar. Sadoyi Turkiston. 1914. №33. Muallif har millat taraqqiyotining ikki asosi sifatida milliy pul va usuli ta'limdan xabardor muallimlarni ko'rsatadi. Yevropaning taraqqiyoti, ta'lim uchun mablag'ni ayamasliklari namuna qilib keltiriladi. Muallif muallimlarga yuzlanadi, shu xo'rlikka qaramay, **o'z ishlarida davom etishlarini so'raydi, tarixda nomi qolishiga ishora qiladi.**

4. Mo'minjon Muhammadjonif. Eski maktablar turmushindan. Sadoyi Turkiston. 1914. №37, 39, 41, 44. Tolib 6 yoshga yetganda otasi mahalla maktabiga olib boradi. Maktab binosi qo'ldan o'tar holatda, talab darajasida emas. Bolalar turli o'yin, bekorchi ishlar bilan band. Domlaning qorasi ko'ringach, bolalar ovozlarini boricha qichqirib saboq o'qishga kirishib ketadi. Domla – 50 yoshlardagi ko'knoriboz, hardamxayol kishi. 15 – 20 yil madrasa tahsili davomida mudarrisning qora ishlarini bajarib umri o'tgan, duoxonlikni **o'ziga kasb qilib**, shuning ortidan

shuhrat qozonib maktabdor bo'lib olgan. Tolibning otasi Muslim aka – yamoqchilik bilan shug'ullanuvchi, mulloeshonlarga ixlosi baland omi odam.

5. To'lagan Xo'jamyorov. Ilm natijalari. Turkiston viloyatining gazeti. 1916. №60.

Yoshlarni seminariya, gimnaziya, kamerchiskiy maktablarga hamda «Muhammadiya» va «Rasuliya», «Oliya», «Husayniya» madrasalariga yuborib o'qitish haqida.

6. To'lagan Xo'jamyorov. Qayg'iruvchi bormi? Mushtum.1926. №26. Eski maktab bolalarining o'qish qolib, ko'cha changitib bekorchilik qilib yurishlari haqida.

ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR. MUNOZARALAR. MAKTUBLAR

1. Ismoil Gasprinskiy. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Matbuoti Usmoniya. Ilovayi Tarjimon. 1895-yil 17-sentabr. №35. Mazkur adabiy-tanqidiy maqolalar internet sahifalaridan olib tayyorlandi. Ularni turkiyalik taniqli adabiyotshunos prof. Yavuz Akpinar «Ismoil Gaspiralibeyning adabiy tanqidlari» nomi bilan kiritgan. Matn «Turk dili ve edebiyati arashtirmalari dergisi» (Izmir, 1998. – S.87 – 115. Egey uriversiteti, Adabiyot fakulteti yoyinlari) asosida tayyorlangan. Noshir qayd etishicha, maqolalar «Tarjimon» gazetasi va uning ilovalaridan olingan. Sarlavhalardagi «Tanqid» kalimasi ruknning otidir. Katta qavs va uning ichidagi raqamlar noshir tomonidan qo'yilgan. Ko'ringanidek, maqolalarning ko'pchiligi sarlavhalanmagan. Mazkur maqolalardan ayrimlarini namuna sifatida ushbu nashrga kiritar ekanmiz, ularni izlab topib, yuz yillik tanaffusdan so'ng o'quvchilarga ilk bor havola etgan zahmatkash tadqiqotchi professor Yavuzbeyga minnatdorlik bildiramiz.

2. Ismoil Gasprinskiy. Tanqid. Ilovayi Tarjimon. 1895. №38, 40, 41, 42, 44. 1896. №1, 2.

3. Ismoil Gasprinskiy. Muoxaza. Ilovayi Tarjimon. 1896. №26. 1897. №13.

4. Ismoil Gasprinskiy. Majburiy emas, lozim javob. Ilovayi Tarjimon. 1897. №15.

5. Ismoil Gasprinskiy. Mezon. Tarjimon. 1906. №58, 106. 1907. №14. «Mezon. Adabiy, maishiy, tanqidiy

bahslar» mavzuyidagi maqolalar «Tarjimon» gazetasining 1906-yil 58-, 106-sonlari va 1907-yil 14-sonidan olindi.

6. Ruh. Ruh yoxud avomcha. Taraqqiy. 1906. №5. Ruh tilidan hikoya qilinuvchi «Ruh va avomcha» felyetoni xayoliy-fantastik hikoyaga yaqin turadi. Hikoya avvalida Ruh o'zining bir vaqtlar «shaytonga ham dars beruvchi» bir imom badanida makon tutganini bayon qiladi. Hozirda esa bu badandan ozod bo'lib, imom bilan birga bo'lgan vaqtda bajargan amallarini, guvohi bo'lganlarini so'zlab bermoqchi bo'ladi. Hikoyada Ruh go'yoki imom nomidan o'zining barcha ayblarini tan oladi va zarardan bo'lak hech yo'l ko'rsatmaganligini bildiradi. Bu hikoya gazetaning tanqidiga shaylanib turgan o'rinda «sodiq» raqiblariga chap berib o'tadigan uslubda yozilgan. Go'yoki o'quvchi tasavvurida imom emas, ruh salbiy obraz sifatida gavdalantirmoqchi bo'lingan.

7. Mahmudxo'ja ibn Behbudxo'ja. Makotib. Siroti mustaqim, 25 Ramazon 1328 (29/30.09.1910), №108.

8. Kitob hoshiyasiga bitilgan maktub. «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy» kitobining titul varag'iga yozilgan maktub, 1906-yil.

9. Indamas. Filyaton. Tiyotr xususida munozara. Sadoyi Turkiston. 1914. №1, 2. Mullo va Chapan ismli suhbatdoshlarning tiyotr to'g'risidagi suhbati.

10. Indamas. Kayfim uchdi. Sadoyi Turkiston. 1914. №26. Ba'zi boylarning zamonaviy tushunchalar, bank bilan oid ishlarga aqli yetmasligi va ayrimlarining kaltabin odatlari, shu bilan birga, «Sadoyi Farg'ona» muharrirlarining gazeta ishida no'noqliklari hajv qilingan.

11. Adam. Kichkina felyaton. Qadim-jadid orasinda. Sadoyi Turkiston. 1914. №46. Qadim va jadid munozarasi aks etgan suhbat.

12. Ahlulloh Haybullin. Tanqid. Tanqid – 2. Sadoyi Turkiston. 1914. №48, 49. Turkistonda zamonaviy asar yozuvchi yoki tarjima bilan shug'ullanuvchilar yo'q darajada ekanligi aytiladi, buning sababi esa boshlab beruvchining, yo'l ko'rsatuvchining yo'qligi bilan bog'lanadi. Nazariyaning asosi o'zgarmasligi, barcha adabiyot umumiy nazariyaga bo'ysunishi esa «Yozuvchilik yoki tarjimonlik dastlab qanday paydo bo'lgan bo'lsa, qiyomatgacha ushbu rasm joriy rasm bo'lub turadur» jumlasida ifodalanadi.

13. Ayn. M. Intiqod va biz. Sadoyi Turkiston. 1914. №50. Tanqidning paydo bo'lishi matbuot bilan bog'liq ekani, matbuotning asosiy vazifasi tanqid va islohotda ko'rinishi bayon etilgan. Tanqidi bo'lmagan millatda hayot va intiboh boshlanmas, tanqid kamolot mevasidir kabi fikrlar berilgan. Shu bilan birga, turkistonliklar tanqidni haqorat deb bilishi, uning mohiyatiga to'liq tushunib yetmaganlari bois maqolada tanqidni tushuntirib bermoqchi bo'lgan.

14. Abdurauf Muzaffarzoda. Ong umidlari. Sadoyi Turkiston. 1914. №57, 61, 65. «Ong umidlari» (xotin-qizlar maishatidan) hikoyasining asosiy voqealari Gulchehra ismli 18 yashar qizning turmushini yoritishdan iborat. Asarda Muhammadjon no'g'ay obrazi zamonning uyg'oq fikrli kishisi sifatida kiritilgan. Uning qizlari yangi usul maktabida tahsil olishadi, gazeta-jurnal o'qishadi. Muzaffarzoda bu o'rinda yonma-yon uyda yashovchi ikki qo'shni, ikki

xil muhit, ikki xil qarashga ega otalar obrazini taqqoslab o'tishni niyat qilgan. Bu qiyosni davom ettirish maqsadida Gulchehraga sovchi qo'ygan ikki yigit – Tojiddin akaning rus maktabida tahsil olgan o'g'li, zamonadan xabardor Musa afandi hamda mayparast Sodiqboy bacha obrazini keltiradi. Bu orqali, birinchidan, qiz bolaning ota bilan munosabati ijobiy hal qilib berilgan bo'lsa, ikkinchidan, yangi otalar – ruhiy-ma'naviy olamga ega bo'lgan ziyoli erkaklar avlodi o'sib kelayotganiga ishora qilingan. Asarda tatarlar madaniyati, turmush tarzining turkistonlik birodarlariga qaraganda ilgarilab ketganligiga ham ishoralar bor. Hikoya to'liq nashr qilinmagan, bu orada gazeta faoliyati ham tugatilgan edi. Muzaffarzodaning ushbu hikoyasi mutlaqo o'zgacha yo'sinda yozilgan. «Ong umidlari» hikoyasida sotsial muammo qo'yilgan. Muzaffarzodaning asari yutug'i ham shunda.

Qaydlar uchun

MUNDARIJA

Turkistonda vaqtli matbuot
va ijtimoiy tafakkur 3

SAYOHATLAR

Xotiroti Farg'ona. *Samarqandiy muftiy dorulqazo*
Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li.....40

Farg'ona xotiralari. *Samarqandiy muftiy*
Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li..... 46

Yo'lchi mulla. *Mulla Shoh Mahmud Isroilboy o'g'li* 52

Temur g'ildiraklar ustidagi tushlardan. *A.Muzaffar*..... 55

MATBUOT

Felyatun 61

Boylar, buyroqratiya va g'azeta..... 67

Gazet nadur. *Samarqandiy mufti*
Mahmudxo'ja Behbudxo'ja xatib o'g'li 72

Turkistonli qardoshlarima ochiq xat.

Toshkand To'lagan Xo'jamyorov 78

Felyatun. *Savdogar* 80

Jarida va majalla. *Samarqand Siddiqiy* 88

Milliy hayot va Turkiston musulmonlari.

Ayn. Rauf Muzaffarzoda 90

Bizda ziyolilar va milliy matbuot. *Ayn. Rauf Muzaffar* 96

E'tizor. *Tavallo* 103

Xo'jamyorovga javob. *Toshkentli Fuzayl Jonboy* 105

Jonboyevga javob 106

Bir gazeta muharriri ila musohaba.

Tavallo Toshkandiy 109

MILLIY HAYOT

Biz musulmonlarni hurriyatda

haqlari bormu? 112

Samarqandan maktub. Ta'mini istiqbol 115

Ta'mini istiqbol 123

Isloh na demakdadur.

Munavvarqori Abdurashidxonov 129

Ismoilbek xutbasi 132

Bizning holimiza bir nazar. *Ahmadjon Bektemiruf* 139
Tullobi kiroma. *Samarqand – Mahmudxo'ja Behbudiy* 142
Til ham din. *Ayn. Rauf Muzaffarzoda* 145
Safohat balosi. *Abdulla Avloniy* 148
Faqirlik nimadan hosil o'lur?. *H.H.N.* 150
Istiqbol qayg'usi. *Xo'qand, Ahlulloh Haybullin* 153
Turkistonning sayohati. *Ayn. Rauf Muzaffar* 156
Din millat, millat milliyat ila qoimdur I. *A.Muzaffar* 159
Din millat, millat milliyat ila qoimdur II. *A.Muzaffar*..... 164
Din millat, millat milliyat ila qoimdur III. *A.Muzaffar* 168
Millat krabi nima kutar? *Ayn Muzaffar*..... 172

MADANIYAT

Bizlarda g'ariba xosiyatlar vor. *M.Ar.* 176
Madaniyat nardboni I. *Ayn.Rauf Muzaffar* 178
Madaniyat nardboni II. *Ayn.Rauf Muzaffar* 182
Madaniyat nardboni III. *Ayn.Rauf Muzaffar* 186
Madaniy jarayon va milliy tariximiz.
A.Rauf Bilolzoda Muzaffar 192
Nodon kishilarimizning teatrdan olgan taassuroti.
Tavallo..... 198

Ibrat olmakni vaqti yetmadimu? *Tavallo* 200

O'z muxbirimizdan. *To'lagan Xo'jamyorov* 202

Insofdin sof. *To'lagan Xo'jamyorov*..... 202

TA'LIM

Ilm va maorif. *Uchqun* 204

Felyatun. *Muftiy dorulqazo*

Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li..... 209

Bizda muallimlar. *Mo'minjon Muhammadjonif*..... 219

Eski maktablar turmushindan I.

Mo'minjon Muhammadjono'v 222

Eski maktablar turmushindan II.

Mo'minjon Muhammadjono'v 225

Eski maktablar turmushindan III. *Chiyon* 228

Eski maktablar turmushindan IV. *Chiyon*.....232

Ilm natijalari. *To'lagan Xo'jamyorov. Tavallo* 237

Qayg'iruvchi bormi? «*Muxbircha*» 238

ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR.

MUNOZARA. MAKTUBLAR

Matbuoti Usmoniya 240

Ruh yoxud avomcha. *«Ruh»* 278

Makotib 284

Kitob hoshiyasiga bitilgan maktub 286

Felyatun I. *Indamas* 286

Felyatun. (Tiyotr xususida munozara) II. *Indamas* 291

Kayfim uchdi. *Indamas* 296

Kichkina felyatun qadim-jadid orasinda 298

Tanqid – 1. *Ahlulloh Haybul* 301

Tanqid – 2. Nuqsonlar. *Ahlulloh Xayrulloh o'g'li* 304

Intiqod va biz. *Ayn.Mim.* 308

Ong umidlari (Xotun-qizlarimiz maishatidan).

Ayn.Muzaffar 310

Izohlar 325

Adabiy-badiiy nashr

BORAR YO‘LING TURKISTONDIR...

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Hasan MAQSUDOV
Musahhih: Parvina NARZULLAYEVA

9939

Terishga berildi: 06.11.2022-y.
Bosishga ruxsat etildi: 15.01.2023-y.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.:12,8. Shartli b.t.: 23,6.
Adadi: 1000 nusxa. Buyurtma № 4

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, So'galli ota 5.

Tel.: (+99899) 433-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz



ISBN 978-9943-8348-9-7